

2012
4-47 ✓

B. UMAROV

ORGANIK KIMYO



“IQTISOD-MOLIYA”

24-2

3-4

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

Buxoro davlat universiteti

BAQO UMAROV

ORGANIK KIMYO

5420100 – biologiya, 5620100 – agrokimyo va agrotaproqshunoslik,
5620200 – agronomlik hamda 5850200 – ekoliya va tabiatdan
foydalanish ta'lif yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma



Toshkent
«IQTISOD-MOLIYA»
2007

Taqrizchilar:

A.K. Abdushukur – M. Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti organik kimyo kafedrasi dotsenti

O'. M. Mardonov – Navoiy Davlat Kimyo institutu kimyo va kimyoviologiya kafedrasi mudiri, fanlari nomzodi, dent.

B.X. Ibotov – Bux davlat universiteti organik va fizkolloid kimyo kafedrasining katta o'qituvchisi

Baqo Umarov

U47

Organik kimyo: 5420100 – bioliya, 5620200 – ekologiya va agrotaproqshunoslik, 5850200 – agronomik, 5850200 – o'quv qo'llanma tabiatdan foydalanish ta'llim yo'nalishlari, labalari uch'a o'rta maxsus ta'llim / B.B. Umarov; O'zbekiston Respublikasi oliy vazirligi. – T.: Iqtisod-moliya, 2007

O'quv qo'llanma O'zbekiston asosida yozilgan bo'sib, oliy va o'rta maxsus vazirligi tasdiqlagan o'quv dasturi 5620100 – agrokimyo va o'quv yurtlarining 5420100 – biolojika, 5850200 – ekologiya va agrotaproqshunoslik, 5620200 – agronomik tabiatdan foydalanish ta'llim yo'nalishlari bakhshalariga mo'ljalangan. Kitobda organik kimyo asoslari, biologik obyektlar, tuzilishi va xossalari, uchradigan va hayot faoliyatida muhim o'rinni tutgan organik birikmalar, tuzilishi va xossalari yoritishga e'tibor qaratilgan. Ushbu qo'llanma moddalar va ularning o'zgarishidan tasnifari o'g'lar, pestit'sidlar, polimerlar, dorivor moddalar haqida ham ma'lumotlar bor. Shuning uchun ham qo'llanmada organik birikmalarning asosini, inflari, ularning nomlanishi, reaksiyalarning borishi, moddalarning tarkibi, tuzilishi, fizik-kimyoviy xossalari atroficha yoritilgan. Har bir mavzuning oxirida talabalarning mustaqil ishlashi uchun tayanch iboralar, savollar, mashqlar va kerakli adabiyotlar berilgan.

BBK24.2я73

SO‘ZBOSHI

Organik kimyo kursi oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining 5420100 – biologiya, 5620100 – agrokimyo va agrotaproqshunoslik, 5620200 – agronomlik, 5850200 – ekologiya va tabiatdan foydalanish ta’lim yo‘nalishlari bakalavrлari uchun zaruriy fanlardan biridir. O‘zbek tilida o‘quv dasturi talablariga javob beradigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining yetarli miqdorda emasligi tubibalar tomonidan bu fanni o‘zloshtirish, mustaqil bilim olishlari va reyting topshirishlarini qiyinlashtiradi. Mazkur o‘quv qo‘llanma ana shu muammolarni yechish maqsadida Buxoro davlat universiteti organik va fizkolloid kimyo kafedrasida tuzilgan (23.12.1999- yil, № 4 bayonnoma), kimyo-biologiya va agrar fakultetlari ilmiy kengashlari tasdiqlagan dastur asosida yozildi.

Kitobda organik kimyoning rivojlanishi tarixi, abohida fan sifatida o‘qitilish sabablari, izomeriya turlari, organik kimyoda elektron nazariyasi, organik birikmalar va reaksiyalarning sinflanishi, organik birikmalar tuzilishini, o‘rganishda qo‘llaniladigan zamонавиј тадқиқот usullari qisqacha bayon qilinadi. So‘ngra ochiq zanjirli, halqali va aromatik uglevodorodlarning, organik birikmalar asosiy sinflarining nomlanishi, izomeriyasi, olinish usullari, tuzilishi, fizik va kimyoiy xossalari, muhim vakillari va ularning ishlatalishiga oid ma‘lumotlar keltiriladi. Har bir mavzuning oxirida tayanch iboralar, talabalarning mustaqil yechishlari uchun savol va mashqlar hamda tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati berilgani.

K I R I S H

Organik kimyo fani va uning predmeti

Organik kimyo organik moddalar deb ataluvchi uglerodning birikmalari kimyosini o'rganuvchi fundamental fanlar jumlasiga kiradi. Organik kimyo faniga uglevodorodlar va ularning hosilalari kimyosi deb ham qarash mumkin. Bu tushuncha organik kimyo fanini birmuncha to'liq va aniq ta'riflasa ham, organik va anorganik birikmalar kimyosi orasiga keskin chegara qo'yib bo'lmaydi. Juda ko'p kimyogarlar anorganik va organik moddalarni o'rganish kimyo fanining ikki mustaqil sohasi deb qarashlari bilan xatolikka yo'l qo'yadilar hamda o'zlarini va bir qator shogirdlarini adashtiradilar. Chunki bu fanlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularni alohida o'rganib bo'lmaydi. XIX asrning o'rtalariga qadar o'simlik va hayvonlar organizmlarida hosil bo'ladigan moddalarni o'rganuvchi fan organik kimyo deb yuritilardi. Shuning uchun "organik kimyo" atamasi "organizm" so'zidan kelib chiqqan. Tarixan paydo bo'lgan bu nömnинг mazmuni tubdan o'zgargan bo'lsa-da, u hozirgacha qo'llanilmoqda. Qadim zamонlarda odamlar o'simlik va hayvon organizmlaridan organik moddalarni ajratib olish va ulardan foydalanishni bilishgan. Ular spirtli ichimlik tayyorlash, vinoni achitib sirka olish, o'simliklardan bo'yoqlar, dori-darmonlar, xushbo'y moddalar olishni o'rganishgan. Lekin u davr kishilari organik moddalarning aralashmalari bilan ish ko'rganlar, sof organik moddalarni ajratib olish hali yo'lga qo'yilmagan va bu soha birmuncha keyinroq rivojlandi.

Kimyoning dastlabki taraqqiyoti davrida organik va anorganik moddalar o'rtasidagi farqlarni bilmaganlar. Keyinchalik o'simlik va hayvonlar organizmlarida uchraydigan birikmalarning xossalari jonsiz tabiatdan olingan moddalar (asos, kislota, tuz, metall, uning qotishmaları) ning xossalardan tubdan farq qilishi aniqlandi. Bundan tashqari, o'simlik va hayvonlardan ajratib olingan moddalarni kimyogarlar uzoq yillar davomida sintetik usul bilan ololmadilar.


1675-yilda kimyodan birinchi kitob yozgan fransuz olimi Lemeri tabiatda uchraydigan moddalarni tartibga solib, ularni uch turga bo'ldi:

- o'simliklardan olinadigan moddalar,
- hayvonot dunyosidan olinadigan moddalar,
- mineral (ma'dan) moddalar.

1806-yilda shved olimi Y.Ya. Berselius o'simlik va hayvonlardan olinadigan moddalarni birlashtirib, organik moddalar deb atashni taklif etdi. Shu

moddalarni o'rganadigan fanni organik kimyo deb ta'rifladi va "vitalizm" (lotincha vita "hayot", lis "kuch" degani) nazariyasini ilgari surdi. Vitalistlarning sikricha: "Organik moddalar anorganik moddalardan faqat tirk organizmlarda "jon", "ruh", "ilohiy kuch" ta'sirida hosil bo'ladi, ularni sintetik usullar bilan olib bo'lmaydi". Bu noto'g'ri nazariya organik kimyoning rivojlanishiga ma'lum muddat to'sqinlik qildi, lekin uning taraqqiyotini to'xtata olmadi.

Berseliusning shogirdi F. Vyoler 1824-yilda ditsianni gidrolizlab oksalat kislotani, 1828-yilda esa ammoniy stianatni qizdirib, mochevinani sintez qildi:



Vyolering bu ishlari o'z ustozi Ya. Berseliusning vitalistik ta'limotiga zid chiqdi va bog'iq olinmlarni ham sintez bilan shug'ullanishga undadi. 1842-yilda N. N. Zinin nitrobenzolni, 1845-yilda Kolbe sirka kislotani, 1850-yillarda Bertlo chumoli kislota, etil spirti, atsoettlen, benzol, metan va yog'larni, 1861-yilda A. M. Butlerov qandimon moddasi (metilitanini) 1869-yilda K. Grebe va K. Liberman alizarin tabbiy bo'yog'ini sintez qilib, vitalistik nazariyaga qaqshatqich zarba berdilar. Ammo, erishilgan bu yutuqlardan xulosa chiqarib, dahillarni birlashtiruvchi va keyingi tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'ladigan ilg'or g'oya hali yo'q edi.

XIX asrning birinchi yarmidunoq organik sintez bilan bir qatorda organik moddalarning tabhlili ham rivojlandi. Yu. Fibix organik birikmalardagi uglerod va vodorodni, J. Dyuma esa azotni aniqlash usullarini ishlab chiqdilar. Tahlil qilingan barcha moddalarning tarkibida uglerod borligi aniqlandi. Shunga asoslanib, 1848-yilda Gimelin organik kimyonini uglerod birikmalari kimyosi deb ta'rifladi. Lekin bu ta'rif uglerodning organik moddalarga mansub bo'lmagan birikmalari (uglerod oksidlari, karbonatlar, karbidlar va hokazo) ham borligini e'tiborga olmaydi. Shuni inobatga olgan nemis kimyogar olimi K. Shorlenimer organik kimyonini uglevodorodlar va ularning hosilalari kimyosi deb ta'rifladi.

Shunday qilib, organik kimyo XIX asrning 30-yillarida quyidagi asosiy sabablarga ko'ra mustaqil fan sifatida shakllandi va o'rganila boshlandi:

1. Organik birikmalarning anorganik moddalarga nisbatan son jihatdan juda ko'pligi. Hozirgi kunda o'n milliondan ortiq organik birikmalar o'rganilgan. Anorganik moddalarning soni esa yuz mingdan oshmaydi.

2. Organik moddalar o'simlik va hayvonlar organizmlarining hayot faoliyati jarayonlarida o'ziga xos muhim vazifalarni bajaradi.

3. Organik moddalar xossalari va reaksiyaga kirishish qobiliyati bilan anorganik moddalardan keskin farq qiladi.

4. Barcha organik moddalar kislorodda yonadi, anorganik moddalarning hammasi ham yonavermaydi.





5. Organik moddalarning ko'pchiligi dissotsilanmaydi, chunki ularning molekulasida atomlar o'zaro kovalent bog'langan.

6. Organik birikmalar uchun izomeriya hodisasi xarakterli bo'lib, bu hodisa XIX asrning birinchi choragida Yu. Libix, Ya. Berselius va F. Vyoler tomonidan kashfi qilingan. Uning sabablari esa shu asrning 60-yillarda A.M. Butlerov tomonidan oshib berildi.

7. Yuqorida sanalgan sifatlarning barchasi organik moddalar uchun o'ziga xos spetsifik xossalari, uglerod atomining tuzilishi va turli bog'lar hosil qilishi bilan izohlanadi. Bu xossalari katta amaliy ahamiyatga ega.

Organik birikmalarning tuzilish nazariyasi

Organik kimyoning rivojlanishida dastlabki nazariya sifatida radikallar nazariyasi (J.L.Gey-Lyussak, Yu. Libix, F. Vyoler,) vujudga keldi. Radikallar nazariyasi Y.Ya. Berseliusning elektrokimyoiy nazariyasini organik kimyoga moslashdan iborat edi. Bu nazariyaga muvofiq anorganik moddalar atomlardan tuzilgani singari organik moddalar ham radikallar (bir yoki bir necha atomlardan iborat qoldiqlar) dan tuzilgan. Kimyoyiv reaksiyalarda bu radikallar bir modda tarkibidan ikkinchisiga o'zgarmasdan o'tadi. Bu nazariyaning tan olinishiga Libix va Vyoler tomonidan "achchiq bodom moyi"—benzoy aldegidini (C_6H_5O) o'rganilishi sabab bo'ldi. Bu modda xossalari o'rganilganda uning "benzoil" deb ataluvchi qismi bir modda tarkibidan ikkinchisiga o'zgarishlarsiz o'tishi kuzatildi:




Organik kimyoning keyingi rivoji radikallar nazariyasini tasdiqlaganday bo'ldi. Chunki, CH_3 -metil, C_6H_5 -benzoil kabi radikallar topildi va ular reaksiya jarayonida bir molekula tarkibidan ikkinchisiga o'zgarishsiz o'tishardi.


Lekin radikallarni sof holda ajratib olish ishlarining natijasiz chiqqanligi va bir xil reaksiyalarda radikallarning o'zgarishi aniqlangach, bu nazariya fonda uzoq vaqt hukm surmadi. Dastlab rus olimi T.E. Lovis sirka kislotadan sirka kislota xlorangidridi, sirka kislota amidi olinganda atsetil radikal o'zgarmasligini kuzatdi, ammo xlor ta'sirida mono-, di- va trixlosirka kislotalarining hosil bo'lishi radikal ham o'zgarishini isbotladi. J. Dyumaning

aniqlashicha, yuqori yog' kislotalari tarkibidagi vodorod atomlari osonlik bilan xlorga almashinadi. Natijada radikallar nazariyasi o'z kuchini yo'qotdi va uning o'miga tiplar nazariyasi vujudga keldi.


a) vodorod tipi:




b) vodorod xlorid tipi:



v) suv tipi:



g) ammiak tipi:



1853-yilda amalgaoshirgan ilmiy ishlari bilan Sh.Jerar tiplar nazariyasining asoschisi bo'lsa, J. Dyuma, A. Loran va A. Kekulelar bu nazariyani rivojlantirdilar. Ushbu nazariyaga binoan organik moddalar ham oddiy anorganik moddalar hosilasi, ulardagi vodorod atomlarini radikalga almashtirish bilan organik moddalar olish mumkin. Organik birikmalarning dastlab to'rtta tipi yaratildi:

Sh.Jerar uglevodorolarni asosan, vodorod tipidan, galogenli hosilalarni vodorod xlorid tipidan hosil qilinishi mumkin deb tushuntirdi. Bu nazariyaga ko'rasuv tipidan spirtlar, oddiy efsirlar va kislotalar hosil qilinadi. Ammiak tipi orqali aminlar va boshqa birikmalar tartibga solinib, tushuntirilgan.

Tiplar nazariyasiga asoslanib, organik moddalarning sinflarga ajratilgani bu nazariyaning dastlabki yutug'i bo'ldi. Bunga ko'ra molekula hosil qiluvchi har xil radikallar ikki qarama-qarshi zaryadga ega bo'lmaydi. Shuning uchun Berseliusning radikallar nazariyasiga qarshi o'laroq bu nazariya "unitar nazariya" nomini oldi. Tiplar nazariyasining kamchiligi shundan iborat ediki, u faqat eksperimental ishlar natijasida rivojlandi, kimyoviy usullar yordamida moddalarning tuzilishini o'rganish mumkinligini rad etdi. Bu nazariyaning yangiliklarni bashorat qilish imkoniyati yo'q. Ko'pchilik hollarda moddalarning xossalarni aniqlash davomida ular uchun tipik bo'lgan formulalar bir nechtani tashkil etdi.

Organik kimyo fanining maqsadi molekulada atomlar betartib joylashganmi yoki ular ma'lum izchillikda bog'lanib, bir-biriga ta'sir ko'rsatadimi degan savolga javob qidirishdir. Elementlarning valentligi aniqlangach, olimlar uning ahamiyatini anglab yetdilar. Ingliz olimi E. Frankland metallorganik birikmalarni o'rgana turib, 1853-yilda har bir metall radikallar bilan ma'lum tartibda bog'lanishi mumkinligini ko'rsatdi. 1857-yilda nemis olimlari A. Kekule va A. Kolbe uglerodning 4 valentli ekanligini, A. Kuper uglerod atomlari o'zaro bog'lanib, zanjir hosil qilishini aniqladilar. Valentlik hodisisi o'rganilgach, molekula ma'lum tuzilishga ega bo'lishi haqida fikrlar tug'ildi, ammo uni qanday aniqlash vazifasi hali yechilmagan edi. 1861-yilda A.M. Butlerov organik moddalarning tuzilish nazariyasini yaratdi. Uning asosiy fikrlari 1861-yilda e'lon qilingan "Moddalarning kimyoviy tuzilishi haqida" nomli maqolasida o'z aksini topdi. Bu nazariya quyidagicha ta'riflanadi: "Molekulaning kimyoviy tabiat elementar tarkibiy qismlarining tabiatini bilan, ularning miqdori va kimyoviy tuzilishi bilan aniqlanadi". Dastlab A.M. Butlerov izomerlar "...hech qanday o'zgarmaydigan, qotgan moddalar..." deb tushungan bo'lsa, keyinroq "... ma'lum turdag'i organik birikmalar o'zaro izomer holdagi zarrachalar bo'lib, ular bir-birining tuzilishi va xossalarni o'zgartirish bilan takrorlab turishadi...", - deb yozgan edi. Ushbu nazariyadan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1. Organik modda molekulasiда барча атомлар бир-бiri билан ма'lum тартибда боғ'ланган, бунинг учун ular кимыови moyillikning ма'lum qismini sarflaydi. Молекуладаги атомлarning бирлиш тартибини A. Butlerov **kimyoviy tuzilish** deb atadi.

2. Моддалarning кимыови xossalari uning таркibi va кимыови tuzilishiga bog'liq. Bu qolda **izomeriya** hodisasini tushuntirib beradi.

3. Reaksiyalarda молекуланинг ма'lum qismi o'zganganligi tufayli moddalarning кимыови o'zgarishini o'tganib, uning кимыови tuzilishini aniqlash mumkin.

4. Muayyan bir modda xossasini o'rganib, молекуляр tuzilishini aniqlash mumkin. Bu tuzilish modda xossalarni aks ettiruvchi ma'lum formula bilan ifodalash imkoniyatini yaratadi.

1874-yilda Vant-Goff va Le-Bellar esa молекулаларда атомлarning fazoviy joylashishi натарийасини yaratib, органик кимyoning rivojiga kutta hess qo'shdilar.

1879-yilda A. Bayernning indigo bo'yog'ini, 1904-yilda A. Pitkening nikotin alkaloidini sintez qilgani sintetik bo'yog' va doriyor moddalardan кимyosining yuksalishiga olib keldi, 1907-yilda A. E. Favorskiy tashqi mühitni o'zgartirish yo'li bilan izomerlarning o'zaro dinamik muvozamatda (*tautomeriya*) bo'lishini antilagich, органик бирклилarning reaksiyon qobiliyatini o'rganish mumkinligi isbotlandi. Endi esa zamonaviy органик кимyo fanini izomeriya hodisisiz tasavvur etti bo'lmaydi.

XX asrning dastlabki yillarda органик кимyoga tadqiqotning fizikaviy usullari, elektron tuzilishin nazariyasi kirib kelaboshildi, uglevodlar, polipeptidlar, purinlar, oshlovochi moddalari va boshqa tabiiy birikmlarning nozik sintezlari amalga oshirildi. 1930-yillarda esa kvant органик кимyosi yaratildi. AQSH olimi R. Vudvord, strixum va morfin alkaloidlari, xlorofill, B₁₂ vitaminini, P. Ziber tarkibida 51 ta aminokislota qoldig'i tutgan insulin gormonini, G. Koran 50 dan ortiq nukleozid tutgan ribonuklein kislotalarini sintez qilib органик sintezning imkoniyatlari cheksizligini isbotladilar.

Organik moddalarning xomashyo manbalarli

Organik moddalarning asosiy xomashyo manbalariga tabiiy gazlar, неft, toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir, yonuvechi zaxiralar, torflardan tashqari qishloq va o'rmon xo'jaligi mahsulotlari kiradi.

Dunyo miqyosida неft va tabiiy gazlardan faqatgina benzin, kerosin kabi yonilg'ilar emas, balki plastmassalar, spirt, kauchuk va boshqa sintez mahsulotlari olinadi. Bugungi kunda ishlab chiqariladigan органик sintez mahsulotlarining 95 foizi неft va tabiiy gazlardan, 5 foizi esa ko'mir, slanets,

torf va yog'oshdan olinmoqda. Qazib olinadigan neft va uning mahsulotlarining qariyb 5 foizi kimyoviy qayta ishlashadi. Qolgan qismi esa turli dvigatel va pechlarda yoqlidi. Buning natijasida yiliga 20 mlrd. tonnaga yaqin karbonat angidridi havoni ifloslantirmoqda. Neft va gaz koni zaxiralari cheklangan, ko'mir konlari esa ko'proq uchraydi. Toshko'mir sof ugleroddan tashqari H, O, N, S va boshqa elementlar tutgan murakkab organik birikmalar manbayidir. Kokso-kimyoviy va gazlarni qayta ishlash zavodlarida quruq haydash usuli bilan bugungi kunda neftdan olinadigan mahsulotlardan o'n baravar kam organik moddalar olinmoqda, ammo aromatik uglevodo-rodlarning asosiy qismi toshko'mir smolasidan olinadi. Bu hol toshko'mirdan kimyo sanoatining asosiy xomashyosi sifatida yanada kengroq foydalanish, undan sintetik nest va gaz mahsulotlari ishlab chiqarishni taqozo etadi.

Organik moddalar olishning yana bir muhim usuli – ayrim mikroorganizmlar ta'sirida boradigan bijg'ish jarayonlaridir. Bir qator organik moddalar hali ham hayvonot dunyosi xomashyosidan olinmoqda, bular glitserin, karbon kislotalar, aminokislotalar, oziq-ovqatlar va shu kabi mahsulotlardir. Hozirgi vaqtida organik kimyoning taraqqiyoti tirik tabiatdagi hamma moddalarni sun'iy va sintetik usul bilan olish imkoniyatini yaratgan, undan unumli foydalanish zamonomiz kimyogarlari va loyihachi-texnologlarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

ORGANIK MODDALARNI AJRATISH, TOZALASH VA TUZILISHINI O'RGANISH USULLARI

Organik moddalarni ajratib olish va tozalash

Har qanday kimyoviy moddalarni o'rghanish uchun ularni sof holda ajratib olish zarur. Organik moddalarni tozalab olish birmuncha qiyinchilik tug'diradi, chunki organik moddalar juda ko'p bo'lib, ularni ajratib olish usullari ham turlichadir. Organik moddalarni tozalash, tuzilishini aniqlash va sifat tahlili har xil bo'lib, bu usullar organik kimyo laboratoriya praktikumlarida batafsil yoritilgan. Biz ushbu bo'limda oddiy hollardagi umumiy va eng sodda tozalash usullarini ko'rib chiqamiz.

Organik moddalarni tekshirishda ko'pincha qattiq yok suyuqliklarga duch kelamiz. Qattiq moddalarni tozalashda ularning har xil eruvchanligidan (***kristallash va qayta kristallash usullari***) foydalananadilar. Ba'zida har xil erituvchida qattiq aralashmadagi moddalarning eruvchanligi yaqin bo'lsa, ularni kristallash usuli bilan tozalab bo'lmaydi. Bunday organik moddalarni

suv bug'i bilan haydash yoki **quruq haydash (sublimatlash)** usullari yordamida ajratib olish mumkin.

Suyuq aralashmadagi komponentlarni ajratib olish uchun ularning boshqa erituvchida yaxshi erishidan, ikki aralashinaydigan erituvchilarda eritib, ajratish voronkasiga solib tindirilganda ikki qatlam hosil bo'lishi orqali ajratiladi (**ekstraksiya**). So'ngra erituvchilar alohida haydalib yoki bug'latilib, individual so'l organik modda tozalab olinadi. Eruvezhanligi orqali suyuqliklarni ajratish qiyin bo'bo' ularning qaynash haroratidagi farqiga ko'ra **haydash usuli** bilan ajratiladi. Dostlab xomaki ajratilgan suyuqliklar qiytdan **fraksiyalab haydash** orqali ma'lum harorat chegarasida haydash bilan tozi moddalar olinadi. Ba'zi birikmalar suyuq yoki qattiq bo'lishidan qat'liy nazar suv bug'i bilan yaxshi haydaladi. Bu hollarda **suv bug'i bilan haydash** usuli qo'l keladi. Organik moddalarning hammasi ham yuqori haroratda barcharor emas. Ko'pgina organik moddalar qattiq qizdirilganda parchalanadi yoki simolaga aylanadi. Bunday moddalarni so'l holda ajratib olish uchun **past boyimda (vakuumda) haydash** usuli ishlataladi.

Keyingi yillarda organik birikmalarni aralashmadan ajratib olishning eng samarali **xromatografik usuli** keng qo'llantmoqda. Bu usulni birinchil marta 1906- yilda rus olimi M. S. Svet kasif etdi. Xromatografik kolonka deb ataluvchi, sorbentlar (aluminiy oksidi, alilikagel, bo'r, gilmoya kukuni, kraxmal) bilan to'ldirilgan shisha may orqali urashishma holdagi moddalarning eritmasi o'tkazilganda ular adsorbent yuzasiga yutilishi va moddalarning yuqorida pastga turlicha siljishidan foydalaniлади. Natijada erigan moddalar aralashmasidagi birikma sorbent yuzasiga turlicha adsorblanadi va har qaysi modda uchun kolonkadagi o'zining yig'ilish sohasi ajralib qoladi. Bu usul **adsorbsion xromatografiya** deyladi va faqatgina ilmiy laboratoriyalarda emas, balki kimyo sanoatida ham undan unumli foydalamiladi. Hozirgi kunda yuqori samaradorlikka ega bo'lgan gaz-suyuqlik xromatografiyasi juda ko'p ishlataladi.

Organik moddalarning sifat tahlili

Organik moddalarning tozalik darajasini aniqlash uchun ularning fizik konstantalari (suyuqlanish va qaynash harorati, sindirish ko'rsatkichi) aniqlanadi. So'nggi yillarda erishilgan yutuqlar fizik-kimyoviy tadqiqot usullaridan keng foydalanish imkoniyatini yaratdi. Ayniqsa, xrotografik tahlil usuli yuqori samaradorlikka ega ekanligi barcha tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etilmoqda.

Organik moddalarning individualligi va tozaligiga shubha qolmagandan keyin uning tarkibi tahlil qilinadi. Sifat tahlili yordamida uning qanday elementlardan tarkib topgani aniqlanadi. Organik moddalar, asosan, uglerod va vodoroddan iborat bo'ladi. Bundan tashqari, ularning tarkibida azot, kislorod, otingugurt va galogen atomlari ham bo'ladi. Bu elementlarni aniqlash uchun ular barqaror anorganik moddalar shakliga o'tkaziladi va analitik kimyo yordamida tahlil qilinadi.

Organik moddalarning miqdoriy tahlili

Organik moddalar tarkibida ayrim elementlar mavjudligi aniqlangach, endi birikmadagi har qaysi elementning miqdorini bilishimiz lozim, bu, o'z navbatida, uning molekulyar massasi va formulasini aniqlashga imkon tug'diradi. Miqdor tahlilida tekshiriladigan modda yondiriladi va yonish mahsulotlari miqdori aniqlanadi. Molekulyar formulaning aniqlanishi uning tuzilishini, ya'ni molekuladagi atomlarning bog'lanish tartibini o'rGANISHDAGI bиринчи qadam hisoblanadi. Yondirish uchun olingen modda miqdoriga qarab makrotahlil (0,1-0,5 g), yarim mikrotahlil (10-50 mg) va mikrotahlil (1-10 mg) usullariga ajratiladi.

Uglerod va vodorodni aniqlash. Buning uchun moddaning aniq miqdori toza kislorod oqimida yoqiladi. Hosil bo'lgan CO_2 va H_2O miqdori aniq o'lchagichlar yordamida qayd etiladi. Eng oddiy usulda suv "angidron"—magniy perxloratiga $\text{Mg}(\text{ClO}_4)_2$, karbonat angidridi KOH eritmasiga yuttiriladi va massalarning ortishidan hosil bo'lgan CO_2 va H_2O miqdori topiladi.


Azotni aniqlash. Azot, odatda, Dyuma usuli bilan topiladi. Buning uchun modda CO_2 oqimida CuO tarkibidagi kislorod hisobidan yoqiladi. Ajralib chiqqan elementar azotning hajmi o'lchanadi. Azotni aniqlashning ikkinchi, Keldal usuli bo'yicha moddaning aniq miqdori konsentrangan H_2SO_4 ishtirokida oksidланади. Bu jarayonda barcha azot $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ tuzi shakliga o'tkaziladi. Ishqor ta'sirida tuzdan ajralib chiqqan ammiak xlorid kislotasi bilan titrlanadi va azotning miqdori topiladi.

So'nggi yillarda C, H, N elementlarning miqdoriy aniqlash avtomatlashtirilgan asboblarda 5-8 daqiqa davomida bajarilmoqda. Buning uchun modda namunasi yondirilganda hosil bo'lgan CO_2 , N_2 va H_2O gaz xromatograflariga yuboriladi va modda tarkibidagi C, H, N miqdori foizlarda aniq hisoblab chiqariladi.

Galogenlarni aniqlash. Buning uchun tekshiriladigan modda tarkibidagi galogenlar kumush nitrati ta'sirida cho'kmaga tushiriladi va uni ajratib olib galogen miqdori topiladi.

Kislorodni aniqlash, odatda, element tahlilning natijalariga qarab, barcha topilgan elementlarning foiz miqdori jamlanadi va bu qiymat 100 dan ajratish bilan kislorod miqdori topiladi. Topilgan elementlarning foiz miqdori 100 ga teng bo'lsa, o'r ganiladigan namuna tarkibida kislorod yo'q degan xulosa chiqariladi.

Bevosita kislorodni aniqlash uchun organik modda namunasi inert gaz oqimida kvans naylarda yuqori haroratda ($800\text{--}900^\circ\text{C}$) parchalanadi. Kislorod tutgan parchalanish mahsulotlari $1120\text{--}1150^\circ\text{C}$ da qizigan ko'mir ustidan o'tkazilsa, barcha kisloroddan CO gazi hosil bo'ladi. Igazi iod(V)-oksidini (I_2O_5) ta'sirida 120°C haroratda oksidlاب CO_2 ga aylantiriladi:



Ajralib chiqqan iodni tiosulfat bilan titrash yoki CO_2 hajmini o'lchash orqali kislorodning miqdori foizlarda aniqlanadi.

Moddalarning oddiy brutto formulasini topish. Faraz qilamizki, C, H va O dan iborat organik modda tahlil qilinganda uning tarkibida C = 79,19 %, H = 5,74 % va O = 15,07 % borligi topildi. Demak, modda tarkibida C, N va O 79,19:5,74:15,07 kabi nisbatlarda mayjud. Hu sonlar ularning massa tilushlarini nisbatini bildirdi. Molekuladagi har qaysi element atomlari sonini topish uchun foiz miqdorlar tegishli atom massalariga bo'lmadi:

$$\frac{79,19}{12,01} = 6,61 \quad \frac{15,07}{16} = 0,94 \quad \frac{5,74}{1,008} = 5,68$$

Ammo molekuladagi atomlar soni butun sonlar bilan ifodalanishini esga olib, olingen sonlarni ularning eng kichik qiymatiga bo'lish natijasida C : H : O = 7 : 6 : 1 nisbatlarni hosil qilamiz. Demak, biz o'r ganayotgan organik molekulaning oddiy brutto-formulasini $\text{C}_7\text{H}_6\text{O}$ bilan ifodalanadi.

Molekulyar massani aniqlash. Olingen element tahlil natijalari molekula formulasidagi aniq atomlar sonini ko'rsatmaydi, chunki $(\text{C}_7\text{H}_6\text{O})_n$ formulali birikmada $n = 1, 2, 3$ va boshqa son, yoki $\text{C}_7\text{H}_6\text{O}$ formulaga mos keladigan bir qancha izomerlar bo'lishi mumkin. Demak, organik moddaning haqiqiy molekulyar formulasini topish uchun uning molekulyar massasini aniqlash kerak. Molekulyar massani aniqlash bir qancha kimyoiy yoki fizikaviy usullar bilan amalgalash oshiriladi.

Masalan, biror moddaning uglerod va vodorod atomlaridan tarkib topganligini bilgan holda u brom bilan reaksiyaga kirishadi va $\text{C}_6\text{H}_6\text{Br}$ moddasini hosil qildi deb faraz qilaylik. Demak, reaksiyada bir atom brom bitta vodorod o'rnnini egallaganini hisobga olsak, tekshiriladigan modda formulasini C_6H_6 bo'lib chiqadi.

Fizikaviy usullardan modda bug'ining vodorodga nisbatan zichligini topish **Meyer usuli** deyiladi. Meyer usulida modda molekulyar og'irligini topishda quyidagi formula bilan hisoblanadi: $M = 2D$. M – moddaning molekulyar massasi, D – modda bug'ining vodorodga nisbatan zichligi. Modda eritmasi muzlash haroratining pasayishiga asoslangan **kriosopik** va qaynash harorati oshishiga asoslangan **ebulioskopik usullar** ham ma'lum.

Bugungi kunda noma'lum modda molekulyar massasini topish uchun eng ishonchli va tezkor usul mass-spektrometriya hisoblanadi. Yuqori ajratish qobiliyatiga ega mass-spektrometr yordami bilan modda molekulyar massasi 0,00001 birlik aniqlikgacha topiladi.

Yuqoridagi usullar bilan noma'lum moddaning tarkibi, molekulyar massasi topildi - bu hali ishning deboshasi bo'lib, endigi vazifa moddaning kimyoviy xossalari o'rganishdan iborat. Ancha qiyin va murakkab bu masalani yechish uchun moddaning kimyoviy tuzilishini to'liq aniqlash kerak. Kimyoviy tuzilishni bilish shu modda xossalari oldindan aytishga imkoniyat yaratadi. Buning uchun esa zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullarini qo'llashni o'rganish bilan amalga oshirilishi mumkin.

Organik moddalarning fizik-kimyoviy tadqiqot usullari

Organik kimyoning vazifalaridan biri ma'lum xossaga ega bo'lgan konkret moddalar sintezidir, ammo olingan noma'lum tabiiy yoki sintetik moddalarning tuzilishini aniqlash juda katta ahamiyat kasb etuvchi ikkinchi og'ir vazifadir.

Kimyo fanining sifat va miqdoriy tahlil usullari XVIII asrda yaratilgan bo'lsa ham, ular XIX asrda fizikaviy kimyo tarmoqlaridan elektrokimyoviy va termokimyoviy usullar bilan boyitildi. Ammo bularning barchasi XX asr kimyosi taraqqiyoti uchun ilg'or o'r'in egallash imkoniyatini yaratib bermadi. XIX asr oxirlarida kimyoviy tadqiqotlarni amalga oshirishda fizika fani o'zining spektral-optik usullarini qo'llab yangi revolutsion bosqich yaratdi. XX asrga kelib kimyo fani keskin yuksalishining asosiy omillaridan biri zamonaviy fizik va fizik-kimyoviy tadqiqot usullari (UB, IQ, EPR, YAMR spektroskopiyasi, rentgen-spektral, rentgenfaza va rentgenstrukturaviy tahlil, mass-spektrometriya, belgilangan atomlar usuli, aktivatsion tahlil, magnitkimyoviy, nazariy kvant-kimyoviy hisoblashlar kabi usullar) ning yaratilishidir.

Zamonaviy tadqiqot usullarining kimyoda qo'llanilishi kimyoviy moddalarning tarkibini hisoblash emas, balki murakkab tuzilishga ega birikmalarining nozik molekulyar strukturasini isbotlash, kimyoviy reaksiya jarayoni yo'nalishiga har xil faktorlarning ta'sirini o'rganish imkoniyatini

yaratib berdi. Hozirgi vaqtida organik moddalarning tuzilishini aniqlashda fizikaviy va fizik-kimyoiy usullardan keng foydalaniylmoqda. Chunki bu usullarni qo'llash natijasida ularning tez bajarilishi va oz miqdordagi modda sarfiga erishamiz.

Fizikaviy tufiqot usullarning nazariy asoslari va ishlatalish imkoniyatlariga qarab quyidagi turkumlarga bo'linadi:

- optik spektroskopiya;
- radiospektroskopiya;
- difrakcion tahlil usullari;
- ionizatsion usullar va hokazolar.

Moddalarning sindirish ko'rsatkichi va molekulyar refraksiya

Nur optik zichligi kam bo'lgan muhitdan optik zichligi katta muhitga o'tayotganda uning tezligi o'rzaelib, mur'jinadi. Ya'nini **refraksiya** hodisasiga uchraydi. Agar unarning ikki xil muhimmi ajratib turuvchi tekislikka nisbatan tushish burchagini - a, sinish burchagini - b deb belgilasak:

$$\frac{\sin a}{\sin b} = \frac{C_1}{C_2} = n \quad (1)$$

C_1 va C_2 - birinchi va ikkinchi muhitda yorug'lik tezligi,
 $n = \text{const}$ - sindirish ko'rsatkichi.

Moddalarning sindirish ko'rsatkichi refraktometr yordamida aniqlanadi. Ularning sindirish ko'rsatkichi va zichligini aniqlangach, Lorens-Lorens tenglamasi yordamida molekulyar refraksiya K_M hisoblanadi:

$$K_M = \frac{n^2 - 1}{n^2 + 1} \cdot \frac{M}{d} \quad (2)$$

M - molekulyar massa,


d - moddaning zichligi.

Molekulyar yoki solishtirma refraksiya molekuladagi hamma elektronlarning qutblanishini ko'rsatadi. Uning qiymati bosim, harorat va moddaning holatiga bog'lik emas, ya'nini elektronlarning sindirish ko'rsatkichi (K_M) - moddalar tozaligini belgilaydi. Sindirish ko'rsatkichi - n tajriba yo'li bilan aniqlanib, modda formulasi to'g'riligini tekshirishga juda katta yordam beradi. Odatda, moddaning sindirish ko'rsatkichi n_D bilan belgilanadi va natriy alangasidagi sariq spektr chizig'i tomoniga qo'yiladi. Molekulyar refraksiyanı aniqlash moddalarning eritmalari uchun oson amalga oshiriladi.

Dipol momentlarini aniqlash

Dipol momentlarini o'lchash molekula konfiguratsiyasi haqida ma'lumot beradi. Eng oddiy misol: H_2O molekulasi kabi oddiy eflar ham sezilar di pol momentiga ega. Bu ma'lumotlar molekula to'g'ri chiziqli tuzilishga ega emasligini ko'rsatadi; ya'ni:

R—O—R emas, balki



Endi yorug'lik tabiatini, uning xossalari haqida qisqagini ma'lumot bilan tanishib chiqaylik.

Elektromagnit to'lqinlar haqida

Refraksiya hodisasiidan ko'rdirki, har qanday modda, faqat ma'lum tebranish chastotalari to'g'ri kelgandagina yorug'lik nuri yoki elektromagnit to'lqinlarini yutadi. Elektromagnit nurlanish yoki yorug'lik ikki xil xususiyatga ega:

- to'lqinsimon, suv betidagi to'lqindek tarqaladi;
- korpuskulyar, ya'ni zarracha xususiyatiga ega.

To'lqin, odatda, to'lqin uzunligi - l , to'lqin balandligi — A va uning tarqalish tezligi - C bilan xarakterlanadi. To'lqin uzunligi (l), tezligi (C) va chastotasi (n) orasida quyidagicha bog'liqlik bor. Uning matematik ifodasini yozamiz:

$$\lambda = \frac{C}{\nu} \quad \text{yoki bundan} \quad C = \lambda \cdot \nu \quad (3, 4)$$

Nurlanish va yutilish energiyasi kvantlar bilan belgilanadi:

$$\Delta E = E_1 - E_0 = h\nu = h \frac{C}{\lambda} \quad (5)$$

h – Plank doimiysi, $6,5 \cdot 10^{-27}$ erg · sek;

ν – tebranish chastotasi, birligi Gts yoki s^{-1} ;

C – yorug'lik tezligi, $3 \cdot 10^{10}$ sm / sek;

l – to'lqin uzunligi, sm, mkm (10^{-6} m), nm (10^{-9} m). A (10^{-10} m).

Demak, elektromagnit nurlanish energiyasi tebranish chastotalariga to'g'ri va to'lqin uzunligiga teskari proporsional ekan. Nurlanishni tushuntirish uchun to'lqin sonidan (n) ham foydalilanadi:

$$\nu^1 = \frac{1}{\lambda} = \frac{1}{c\nu} \quad (\text{sm}^{-1})$$

yu'ni, bu kattalik 1 sm. masofadagi yorug'lik nurining to'lqinlar soni ifodasidir.

Shunday moslamalar borki, ular yordamida to'lqin uzunliklari va shunga muvofiq kvant energiyalari ham bir xil bo'lgan nurlar ohnadi va bu moslamaga **monokromator** deyladi.

Elektromagnit to'lqin nurining yana bir muhim sarakteristik kattaligi ularning intensivligidir. Bu kattalik ma'lum birlik yuzadan vaqt birligida o'tgan kyanthalr soni bilan belgilanadi.

Nurning barcha turlari elektromagnit to'lqinlar deyladi va ana shunday monokromatik nurlar biror modda eritmasi tushirilsa, uning ma'lumi qismi yutilib, eritmadan o'tgan nuring intensivligi kamayadi. Moddalarning eritmadasdan o'tgan nuring yutilish intensivligi **Boger-Lambert-Bej qonuni** bilan aniqlanadi:

$$\lg \frac{I_0}{I} = k \cdot n - D \quad (6)$$

I_0 – eritmaga tushayotgan nur intensivligi;

I – eritmadan o'tgan nur intensivligi;

k – yorug'lik oqimidagi nur yutuvchi modda konsentratsiyasi;

n – shu modda fabiatiga bog'liq doimiylik;

D – eritmaning optik zichligi

Eritmadan o'tayotgan nur chastotasi bilan nur yutmaydigan (tiniq) erituvchidagi modda eritmasi uchun bu tenglama ko'rinishi quyidagicha o'zgaradi:

$$\lg \frac{I_0}{I} = D + e \cdot C \cdot l \quad (7)$$

l – eritma qalinligi yoki yorug'lik nuri uzunligi, sm;

C – modda konsentratsiyasi, mol/l;

e – ekstinksiya yoki molyar yutilish koefitsiyenti, (1 / mol·sm).

Ya'ni ekstinksiya koefitsiyenti (e) qalinligi 1 sm bo'gan kyuvetaga solingen va konsentratsiyasi 1 mol bo'lgan eritmadan o'tgan nuring yutilish kattaligi bilan ifodalanadi, boshqacha qilib aytganda, agar $C=1$ mol va $l=1$ sm bo'lsa, eritmaning optik zichligi va ekstinksiya koefitsiyenti o'zaro teng bo'ladi:

$$\lg \frac{I}{I_0} = \varepsilon = D$$

Ekstinksiya koefitsiyenti kattaligi modda tabiatini va yutiladigan nurning to'lqin uzunligiga bog'liq. Yutilish intensivligining birligi sifatida nurning eritmadan o'tish foizi ishlataladi:

$$\frac{I}{I_0} \cdot 100$$

Molekulalarning ichki energiyasi kvantlangan bo'lib, ularga nurlar bilan ta'sir etilganda har qaysi modda ayrim to'lqin uzunlikdagi yoki chastotadagi nurni yutadi (1-jadval).

1- jadval.

Elektromagnit to'lqinlar spektri


$v, \text{ sm}^{-1}$	10^{-3}		10^1	10^5	10^6	10^9	10^{10}
$\lambda, \text{ sm}$	10^3		10^{-3}	10^{-5}	10^{-6}	10^{-9}	10^{-10}
Soha	Radiospek-troskopiyasohasi		IQ-sohasi	Ko'rish-sohasi	UB-sohasi	Rentgen-sohasi	Yadroreaksiyasi
Energetik holatning o'zgarishi	Elektron va yadro spinni	Kristall panja-ra atomlari	Atomlarning tebranishi	Valent elektronlarning qo'zg'alishi		Ichki qobiq elektronlari	
Energiya, eV	10^{-6}	10^{-3}	10^{-1}	10		10^5	10^7

Pirovard natijada nur yutilishi va molekuladagi ichki energiyaning ortishi faqat kvant nurlanishi bilan moddaning ikki energetik darajasi orasidagi farq to'g'ri kelsa, amalga oshadi. Demak, moddaga tushirilgan nur ta'siridagi energetik o'zgarishlar nurning tabiatiga va ayni shu modda tuzilishiga bog'liq. (1-rasm)

Optik spektroskopiyasi

Har qanday molekulaga elektromagnit to'lqin bilan ta'sir etilganda uning energiyasini yutgan modda o'zidan nur ajratadi. Ana shu ta'sirni spektroskopik

usul o'rganadi. Moddalarning yorug'lik nurlarini tanlab yutishini o'Ichashga usoslangan fizik-kimyoviy usullar optik spektroskopiya deyiladi. U elektron yutilish spektrilari va infraqizil spektroskopiyadan iborat.



I-rasm. Organik moddi va to'lqin energiyasining o'zaro ta'siri natijasidagi aylanma, tebranma va elektron o'tishlar.

UB spektroskopiya

Organik molekulalar elektromagnit to'lqinlarni UB- va ko'zga ko'rinvchi sohada yutganda aylanma, tebranma va qo'zg'algan holatga o'tkazish uchun kerakli energiya elektronlarni pastki pog'onadan yuqoriroq energetik pog'onachaga o'tkazish uchun sarflanadigan energiyadan kichik bo'lishini I-rasm yordamida ko'rdik. Molekulaga UB-nurlar ta'sir etilganda uning har uchala: aylanma, tebranma va elektron energiyalari o'zgaradi. Elektronlarning yutilish spektri yoki boshqacha, UB-spektroskopiyada elektromagnit to'lqinlar energiyasi ta'sirida elektronlarning bog'lovchi orbitallardan ajratuvchi orbitallarga o'tishi kuzatiladi. Molekulaning bu holati, ilgari qayd-qilganimizdek, qo'zg'algan holat deyiladi.

Elektronlarning yorug'lik kvanti ($h\nu$) bilan o'zaro ta'sirlashganda energiya yutib yuqori orbitalidan quyi vakant orbitalarga ham o'tishi mumkin. Elektronlar yadro bilan kuchli tortishib turganligi sababli ularni qo'zg'atish uchun katta energiyali nur bilan ($\lambda=120-800$ nm) ta'sir etishimiz lozim. Bunda aylanma va tebranma spektrilar ham kuzatiladi, bu

spektr ba'zan UB-spektrlarining nozik strukturasi deyiladi. Nozik strukturalar UB spektrlar talqinini qiyinlashtiradi, shuning uchun modda spektrlari eritmada olinadi.

Barcha organik moddalar UB-spektrdagи yutilish maksimumlariga ega. Uzoq UB- va uning vakuum sohasida ($\lambda=120\text{-}190\text{ nm}$) havoning tarkibidagi kislород va azot molekulalari ham yutilish spektrlariga ega, shuning uchun bu sohada spektr olish uchun vakuum-moslamalari bo'lган spektroskoplar ishlataladi. Shularni hisobga olib, yaqin UB va ko'rish sohasida ($\lambda\geq210\text{ nm}$ havo va kvars tiniq bo'lгани uchun) to'lqin uzunligi 190-800 nm oraliq'ida UB-spektrlari olinadi. UB-spektrlarini olishning yana bir qulayligi shundaki, tadqiqot uchun bor-yo'g'i 0,1 mg modda kerak.

Bizga ma'lumki, atom ya molekulalarda elektronlar faqat ma'lum energetik qiymatli orbitallarda joylashganlar. Atom orbitallarining energiya darajasi ma'lum tartibli kvant sonlari yig'indisi bilan ifodalanadi Organik moddalar molekulalaridagi molekulyar orbitallar atom orbitallarining chiziqli kombinatsiyasi deb qabul qilingan. Shunga ko'ra, elektronlar ikki xil holatlarda: asosiy va qo'zg'algan (odatda, qo'zg'algan holat yulduzcha * bilan ifodalanadi) holatda bo'lishi mumkin:


- bog'lovchi orbitallarda $\uparrow\downarrow$ (asosiy holat),
- ajratuvchi orbitallarda $\uparrow\uparrow$ (qo'zg'algan holat).

2-jadval.

Ba'zi xromofor guruhlarning yutilish maksimumlari


Xromofor guruhlar	Qo'zg'oladigan elektronlar tutuvchi guruhlar	Yutilish maksimumi, nm.	Soha intensivligi
>C=C<	π -elektronlar	~ 175 - 200	Kuchli soha
>C = O	a) π -elektronlar b) kislородning erkin elektron juftlari	~ 180 - 195 ~ 270 - 295	Kuchli soha Kuchsiz soha
- N = N -	Azotning erkin elektron juftlari	~ 340 - 370	Kuchsiz soha
- O - H	Kislородning erkin elektron juftlari	~ 185	O'rtacha kuchli soha
- NH ₂	Azotning erkin elektron juftlari	~ 275	O'rtacha kuchli soha

$\lg \varepsilon$




2-rasm. Benzol – (a), fenol – (b) va anilinin – (d) UB spektrlari.

$D, \%$



3-rasm. Rubomitsin etanoldagi eritmasingning UB- va ko'rish sohnidagi elektron yutilish spektri.

$\lg \varepsilon$



4-rasm. Konsentratsiyasi $C = 5 \cdot 10^{-3}$ mol/litr bo'lgan 4-gidroksipropiophenonning siklogeksandagi – (a), etanoldagi – (b), xlorid kislotadagi ($\text{pH} = 3,0$) – (c) va o'yuvchi natriydagi ($\text{pH} = 11,0$) – (e) eritmalarining UB spektrlari.

Organik molekuladagi elektronlar, asosan, ikki xil: σ - va π -bog'lar hosil qiladi. Agar molekulada geteroatomlar bo'lsa, ularning bir yoki bir necha erkin elektron justlari (n -elektronlar) ham uchraydi. Elektronlarning $\sigma \rightarrow \sigma^*$ o'tishlari uchun, ya'ni mustahkam σ -bog' elektronlarini qo'zg'algan holatga o'tkazish uchun juda katta energiyali kvantlar (qisqa to'lqin uzunlikdagi nur) kerak, $\nu \rightarrow \sigma^*$ va $\pi \rightarrow \pi^*$ elektron o'tishlari uchun kichikroq energiyali (yoki kattaroq to'lqin uzunlikdagi) nurlar ham kifoya. Erkin n -elektronlarning energetik sathi π -energetik sathdan yuqori, shuning uchun

$\pi \rightarrow \pi^*$ elektron ko'chishdan ko'ra $\nu \rightarrow \sigma^*$ elektron ko'chishi oson amalga oshadi. Shuning uchun ham, UB-spektr eng oson qo'zg' aladigan π -elektronlar va umumlashmagan erkin elektron juftlari ko'chishini ko'rsatadi. Erkin elektron juftlari yoki π -elektronlarga ega atomlar guruhi u yoki bu yutilish sohalarini beradi. Bunday o'rinnbosarlarga xromofor guruhlar deyiladi (2-jadval).

UB-spektri yozib oluvchi spektroskoplarning ishchi diapazoniga, asosan, $\nu \rightarrow \sigma^*$ va $\pi \rightarrow \pi^*$ elektron o'tishlariga mos keluvchi 200-760 nm to'lqin uzunlikdagi nurlarning yutilishi tanlab olingan.

Tutash tizimli dien va polienlarga nisbatan aromatik uglevodorodlarning UB spektrlari o'ziga xos bo'lib, murakkab shakl namoyon qiladi. Benzolning $\text{U} \quad \text{B} \quad \text{s} \quad \text{p} \quad \text{e} \quad \text{k} \quad \text{t} \quad \text{r} \quad \text{i} \quad \text{d} \quad \lambda_{\text{max}} = 180 \text{ nm}$ sohada $\pi \rightarrow \pi^*$ o'tishga mos keluvchi yutilish chizig'i qayd qilinadi. Uning boshqa hosilalarida esa bu yutilish maksimumi spektrni qayd qilish chegarasida kuzatiladi. Bu xulosaning to'g'ri ekanligi (2-rasm, b va d) benzol halqasidagi vodorod atomlarini o'rinnbosarlarga almashingan hosilalari spektrini olganda osonlik bilan ishonch hosil qilamiz. Masalan, benzol halqasiga musbat induktiv effektli o'rinnbosar kiritilganda yutilish maksimumi batoxrom (alkil+6 nm, galogenlar+9 nm), ya'ni katta to'lqin uzunligi tomonga siljiydi. O'rinnbosar tarkibidagi atomda erkin elektron juftlarining mavjud bo'lsa, u benzol halqasi bilan o'zaro ta'sirlashib kuchliroq ta'sir etadi (OH va $\text{OSH}_3+15 \text{ nm}$, $\text{NH}_3+25 \text{ nm}$).

IQ spektroskopiya

Optik spektroskopiyaning ikkinchi, eng ko'p tarqalgan turi infraqizil spektroskopiyadir. Bu usul moddalarning tuzilishini o'rganishda eng kerakli ma'lumotlarni beradigan fizik usullardan biri hisoblanadi. Moddaning gaz, suyuq va qattiq agregat holatida ham IQ spektrlarini olish mumkin. Har qanday moddaga ma'lum kvant energiyali ($h\nu$) nur ta'sir etilganda uning ichki energiyasi ortib, aylanma, tebranma harakatlari va valent elektronlarining energiyalarini oshiradi. Aylanma va tebranma harakatlar molekulaning normal harakati bo'lib, nur energiyasi uning kinetik energiyasini oshiradi. Shuni e'tiborga olish lozimki, faqat nurlarning $E = h\nu$ energiyasi elektronlar kvant pog'onalariga o'tish energiyasiga (ΔE) mos kelsagina, energiya yutiladi va spektr kuzatiladi.

Ma'lumki, molekulada atomlar kimyoviy bog'lar orqali bog'langan va ularning harakatini prujina orqali bog'langan sharchalar harakatiga o'xshatish mumkin. Ya'ni ularning harakatiga cho'ziluvchi va qisqaruvchi prujina harakatlarining yig'indisi deb qarash mumkin. Odatda, molekula tebranishi

uchun kvant energiyasi to'lqin uzunligi $\lambda = 1-15 \text{ mkm}$ va to'lqin soni $v' = 400-4000 \text{ sm}^{-1}$ oraliq'ida bo'lgan nurlar energiyalariga mos tushadi.

Valent tebranishlar chastotasi atom massasi va bog' energiyasi bilan xarakterlanadi. Molekuladagi atomlarning massasi oshigan sari valent tebranish chastotalari payadi:

$$v_{\text{C-C}} \approx 1000 \text{ sm}^{-1}, v_{\text{C-H}} \approx 2950-3000 \text{ sm}^{-1}$$

Bog'larining karraligi (ya'ni mustahkamligi) ortgan sari ularning tebranish chastotasi ham ortadi:

$$v_{\text{C-C}} \approx 1000 \text{ sm}^{-1}$$

$$v_{\text{C-N}} \approx 1050 \text{ sm}^{-1}$$

$$v_{\text{C-O}} \approx 1100 \text{ sm}^{-1}$$

$$v_{\text{C=C}} \approx 1600 \text{ sm}^{-1}$$

$$v_{\text{C=N}} \approx 1650 \text{ sm}^{-1}$$

$$v_{\text{C=O}} \approx 1700 \text{ sm}^{-1}$$

$$v_{\text{C=C'}} \approx 2200 \text{ sm}^{-1}$$

$$v_{\text{C=N'}} \approx 2250 \text{ sm}^{-1}$$

Odatda, "v" harfi bilan valent tebranishlari ifodalanadi. IQ-spektrlarida valent tebranishlarini kuzatish uchun ikki tahlish qoldasiga roya qilinishi lozim:

1. IQ-nurlanish energiyasining yutilishi uchun molekula tebranish paytida o'tzining dipol momentini o'zgartirishi lozim.

2. Nurlanishning yutilishi paytida fapt $D_n = 1$ qiymatga teng energetik o'tishlar sodir bo'ladi.

Shunisi muhimki, har qaysi funksional guruh uchun tebranish chastotalari kichik solado yotadi va uning shu chegaradagi o'zgarishi shu guruhnинг yaqin qurashoviga bog'liq. Spektrlarni to'liq tahlil juda qiyin masala bo'lgani uchun va murakkab tuzilishdagi molekulalarning spektrini o'rganish uchun qiyodlash usulidan foydalanadilar.




5-rasm. **a** - OH guruhining simmetrik valent tebranishi ($v_s = 3455-3650 \text{ sm}^{-1}$), **b** - asimmetrik valent tebranishi ($v_{as} = 3765 \text{ sm}^{-1}$), **d** - suv molekulasi, O-H bog'larining deformatsion tebranishi ($\delta = 1600 \text{ sm}^{-1}$).


Shu usul bilan -ON, -N₂H, -NO₂, =C=O kabi atomlar guruhi va C-C, C=C, C≡C, C=N, C≡N kabi ayrim bog'larni aniqlashga erishadilar. Bular ma'lum tebranish chastotalari bilan belgilanadi. Bu xildagi tebranish chastotalar turli organik birikmalarda kam farq qilgani uchun ularga xarakterli chastotalar deydiilar (3-jadval).

Fikrimizga misol tariqasida bir necha organik moddalarning IQ spektrlarini keltiramiz (6-8 rasmlar).

IQ spektrlari dagi xarakteristik tebranish chastotalari


Bog' yoki atomlar guruhi	Birikmalar	Chastota, v sm ⁻¹	Intensivlik va tabiatи
-C - H	Alkanlar	2850-2960	kuchli
= C - H	Alken va arenlar	3010-3100	o'rtacha
≡ C - H	Alkinlar	3300	kuchli, o'tkir
- C - C -	Alkanlar	600-1500	kuchsiz
C = C	Alkenlar	1620-1680	o'zgaruvchan
- C ≡ C -	Alkinlar	2100-2260	o'zgaruvchan
- C ≡ N	Nitrillar	2200-2300	o'zgaruvchan
- C - O -	Spirtlar, oddiy efirlar, kislotalar, murakkab efirlar	1000-1300	o'zgaruvchan
C = O	Aldegidlar	1720-1740	kuchli
C = O	Ketonlar	1705-1725	kuchli
C = O	Kislotalar va murakkab efirlar	1700-1750	kuchli
- OH	Spirtlar, fenollar	3590-3650	o'zgaruvchan, keskin
- NH ₂	Birlamchi aminlar	3300-3500 qo'sh cho'qqi	o'rtacha
- NH	Ikkilamchi aminlar	3300-3500 singlet	o'rtacha

**6-rasm. n-geksanning IQ spektri.**




7-*esum*-Metileketonun İQ spektarı

Quyidagi rasmda ko'rsatilgan 1Q spektr va 3-jadvaldagı qymatlardan foydalanib, atletosirkə kistota ejil o'strining ikki xil tautomer holda bo'lishi osonlik bilan aniqlanadi:



atsetosirka efining diketon shakli

acetosirkə efirining
keto-enol shakli



8-rasm. Atsetosirkal kislota etil efirining IQ spektri.

YAMR spektroskopiya

YAMR (yadro magnit rezonans spektroskopiya) usuli diamagnit zarrachalar, kompleks va organik birikmalarning tadqiqotini amalgalashish imkoniyatini beruvchi, jadal rivojlanib borayotgan zamонавији yuqori samarali fizik-kimyoviy tadqiqot usullaridan biridir. YAMR hodisasi dastlab 1945-yilda Parsell va Blox rahbarligidagi ikki guruh AQSH nazariyotchi fiziklar va ingliz olimi Rollin tomonidan tajriba paytida kashf qilingan. Ammo uning kimyo fani uchun ahamiyatli ekanligi 1949-1951- yillarda davomida anglandi. 1960-yillardan boshlab YAMR kimyoviy moddalarni o'rganuvchi asosiy fizik usullarning biriga aylandi. YAMR spektroskopik usul bilan xossalari tadqiqot qilinadigan modda atomlarining yadrosi magnit xususiyatiga ega bo'lishi kerak, ya'ni yadro spini noldan farq qilishi ($I \neq 0$) lozim. Spin deganda o'z magnit maydoniga ega bo'lган, harakatdagi zaryadli zarrachani tushunamiz.

YAMR spektroskopiysi radio to'lqinlarning yutilishiga asoslangan. Uning yordamida bir xil magnit xossalari yadroarning turli kimyoviy qurshovlarda har xil chastotalardagi radio to'lqinlarini yutib, signallar berishi kuzatiladi. Oqibatda kimyoviy jihatdan ekvivalent, ammo fazoviy va magnit qurshovi turlicha bo'lган noekvivalent yadroarning signallari molekula tarkibidagi boshqa magnit xususiyatli yadrolar soni va tabiatiga muvofig o'ta nozik strukturani hosil qiladi. Ya'ni molekuladagi yadroarning o'zaro spin-spin ta'siri oqibatida signallar yig'indisi (majmuasi) – YAMR spektrlari olinadi. Hosil bo'lган spektrdagagi signallarning intensivligi (signal cho'qqilarining yuzasi) molekula tarkibidagi har qaysi guruh magnitli yadroları soniga to'g'ri proporsionaldir. Bu spektrlar yordamida birikmalarning fazoviy tuzilishi, organik modda molekulalarining reaksiya jarayonidagi yoki eritmadiagi dinamikasi haqidagi muhim ma'lumotlar olinadi.

YAMR usulining dastlabki yutug'i vodorod yadrosi (^1H) spektrlarini statsionar holatda qilib bilan belgilanadi va bu jarayon, odatda, svi p-spektroskopik usul deyiladi. Organik molekulalar tarkibidagi boshqa magnitli yadroarga nisbatan vodorod izotopining (^1H) yadrosi – proton tabiatda juda katta miqdorda (99,98 %) bo'lib, ular kuchli intensivlikka ega bo'lган signallar beradi. Shuning uchun vodorod yadrosining spektrlari YAMR spektroskopiysining xususiy holi va PMR (proton magnit rezonans) spektri deb yuritiladi. Biz faqat PMR spektroskopiysi bilan tanishib chiqamiz.

Yadroarning magnit xususiyatlari

Ko'z oldimizga yadroni sharsimon model sifatida tasavvur qilib, undagi musbat zaryad shu sferik hajmda bir tekis tarqalgan deb faraz qilaylik.

Zaryadlangan zarmicha aylanishi oqibatida uning atrofidagi orbitasiga mos elektr toki paydo bo'lib, elektromagnit maydon hosil qiladi. Demak, atom tuzilishi haqidagi kimyoviy planetar model tushunchasiga ko'ra aylanayotgan zarracha o'zining burchak momentiga (harakat miqdori momenti) ega. Burchak momenti qiymati \hbar - birligida kvantlangan bo'ladi

$$\hbar = \frac{h}{2\pi}$$

\hbar - Plank doimysi:

Burchak momentining maksimal qiymati yadro spin bilan belgilanadi:

$$p = I \cdot \hbar = \frac{I\hbar}{2\pi} \quad (8)$$

I - butun yoki kasr son qiymatlariga ega bo'ladi. Yadro spin kvant soni (I) yoki yadro spinini tushunchasi elektron spinini tushunchasiga o'xshaydi. Bu qiymat shu yadro atomining tartib raqami (n), uning massa soni (M) - ya'ni yadrodaagi protonlar va neytronlar soni yig'indisi bilan belgilanadi. Tabiatda ko'p tangalgan izotoplar (${}^{16}\text{C}$, ${}^{16}\text{O}$, ${}^{32}\text{S}$) juft son tartib raqami va massa soniga ega ($I > 0$), magnit xossasiga yo'q va ular YAMR spektroskopiyasi bilan o'rnatilmaydi. Toq massa soni va toq tartib raqamli yadro larning spinni kasr sonlarga mo'keladi: $I = 1/2$ (${}^1\text{H}$, ${}^9\text{F}$, ${}^1\text{C}$, ${}^{15}\text{P}$); $I = 3/2$ (${}^6\text{B}$, ${}^{11}\text{CD}$). Bu yadrolar ta'shipti magnit maydonini ta'sirida o'zlarini magnitlardek tutadi va mi'lumi yo'nalishi bo'yicha ta'sirlashadi.

Bundan keyin suqat $I \neq 0$, antiprog'i $I = 1/2$ spinli yadro lardan protonlarning spektrlarini (PMR) o'rnatishiga kelishgan edik, chunki ular magnit dipol momentiga (soddaroq qilib aytaksak, magnit momentiga) ega. Bu mitti magnit chalarining yadro magnit momenti vektori - $\vec{\mu}$ va burchak momenti vektori - \vec{p} o'zaro kolleniardir (kolleniarlik vektorlarning bir chiziqli yoki o'zaro parallel ekanligini ifodalovchi tushuncha):

$$\vec{\mu} = \gamma \cdot \vec{p} \quad (9)$$

$\vec{\mu}$ - yadro magnit momenti vektori;

\vec{p} - burchak momenti vektori;


γ - giromagnit nisbati, radian / gauss sek.

Proporsionallik koefitsiyenti γ boshqacha giromagnit nisbat deyiladi. Bu kattalik yadro magnit momentiga o'xshab shu xildagi yadro larning fundamental xossasi bo'lib, bevosita YAMR eksperimentlari yordamida aniqlanadi.

PMR spektrini olish tartibi

Organik moddalarning PMR spektrlari zamonaviy YAMR spektro-metrlarida yozib olinadi. Bugungi kunda 100, 200, 300, 400 MGs ($1 \text{ MGs} = 10^6 \text{ gers}$) chastotada ishlaydigan spektrometrlar ishlab turibdi. Ularning to'lqin uzunligi 5-10 metrni tashkil qiladi, ya'ni radiochastotalarga mos keladi.

PMR spektri olish uchun, odatda, 5-10 foizli eritma tayyorlash kerak. Erituvchi sifatida YAMR spektrida signal bermaydigan erituvchilar (CCl_4 , CS_2), yoki vodorod atomlari deyteriyga almashtirilgan organik erituvchilar (CD_3OD , CDCl_3 , CF_3COOD , DMSO-d_6 , DMFA-d_7 , C_6D_6 va boshqalar) ishlatiladi. Spektrometrarda kuchli magnit maydoni hosil qiluvchi induksion chulg'amlar (1) bor, ular orasiga namuna eritmasi solingan kvars ampulalari (2) kiritiladi. O'zgaruvchan tok generatori (4) orqali chastota asta-sekin oshirilganda, ya'ni magnit maydoni kuchyib borgan sari modda orqali o'tuvchi radioto'lqin energiyasi rezonanslashib energiya yutiladi va bu o'zgarish yozib olivchi moslama (3) orqali qayd qilinadi (9-rasm).




9-rasm. PMR spektri olishning oddiy ko'rinishi.

1- kuchli magnit maydoni, 2- namuna solingan ampula, 3- yozuv moslamasi, 4 – yuqori kuchlanish generatori.

Demak, modda magnit maydoniga kiritilganda radiochastota o'zgarib, energiya qiymati konkret proton uchun bo'lganda energiya yutiladi va rezonans signali yoziladi. Bir qarashda barcha proton birgina signal berishi lozimdek ko'rinati, ammo molekulada har qaysi proton qo'shni atomlardagi elektron bulutlari ta'sirida turlichay ekranlashgani uchun rezonans signallar har qaysi hol uchun ham alohida qayd qilinadi. Proton qo'shni atomlar yoki funksional

guruhlar ta'sirida elektron bulut zichligini ko'p yo'qotsa kuchsiz maydonda, agar musbat induktiv effektli o'rinnbosarlar qurshovida bo'lsa, kuchli magnit maydonida rezonanslashadi. Rezonans signallari o'rnnini belgilash uchun kimyoviy siljish o'lechamsiz kattalik d harfi bilan belgilangan shkalada ifodalanadi.

Ko'pgina organik moddalar protonlarining kimyoviy siljish kattaligi $\delta = 10 \cdot 10^{-6}$ qiymatlari chegarasida kuzatiladi va 10^{-6} ishorasi o'rniiga million hissa (m.h.) tushumchasi ishlataladi. O'rganiqidigan namuna protonlarining rezonans signallari ma'lum bir etalonga nisbatan solishtirib aniqlanadi. Etalon birlik sifatida eng kuchli magnit maydonida signal beruvchi tetrametilsilbon [TMS, $(\text{CH}_3)_4\text{Si}$] qabul qilingan. Uning 12 ta protonlari kimyoviy va magnit jihatdan o'zaro ekvivalent bo'lib, eng kuchli maydonda yagona singlet signal beradi va bu signal o'rnni $\delta = 0$ m.h. deb belgilash qabul qilingan. Misol tariqasida etil spirtining PMR spektri 10-rasmda keltirilgan, unda signallarning o'rni, intensivligi va shaklini o'quvchi tushunadigan qilib izohlashga harakat qilamiz.



10-rasm: Etil spirtining PMR spektri.


Spektrni ko'rsak, kuchli maydonda ($\delta = 1,20$ m.h.) $\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{OH}$ molekulasining maksimal ekranshashgan CH_2 -guruhi protonlari rezonanslashadi, kuchsiz maydonda ($\delta = 5,34$ m.h.) maksimal deekranlashgan OH-guruhi protonidan signal kuzatiladi. CH_2 -guruhi protonlaridan ularning orasidagi maydonda ($\delta = 3,76$ m.h.) signal qayd qilingan. Bu uch xil guruh protonlar signali cho'qqilarining intensivligini solishtirsak, 3:2:1 kabi nisbatlar hosil bo'lganiga amin bo'lamiz. Shunday qilib, etil spirti molekulasida uch guruh protonlar bo'lib, intensivligiga ko'ra ulardan uchtasi o'zaro ekvivalent bo'lib CH_2 -guruhi, ikkitasi — CH_2 -guruhi va bittasi — OH-guruhi protoni hisoblanadi.

Har xil protonlarning kimyoviy siljishi (δ , m.h.)


Molekuladagi o'mi	δ , m.h.	Molekuladagi o'mi	δ , m.h.
R—CH ₃	0,9-1,0	I—CH ₃	2,2
siklo-C ₆ H ₁₂	1,42	Br—CH ₃	2,6
R—CH ₂ —R	1,3-1,5	Cl—CH ₃	2,2
Cl—CH ₂ —CH ₃	1,5	R—CH ₂ —I	3,0-3,4
Cl—CH ₂ —CH ₂ —R	1,7	R—CH ₂ —Br	3,4-3,6
Cl—CH ₂ —CH ₂ —R ₂	1,6-1,7	R—O—CH ₃	3,3-3,7
R ₂ —C=CR—CH ₃	1,7-2,0	R—CH ₂ —OH	3,4-4,0
R—C≡C—CH ₃	2,0	R—O—CH ₂ —R	3,5-3,9
R ₃ —CH	1,5-2,5	R—COO—CH ₃	3,7
R—CO—CH ₃	2,1	R—COO—CH ₂ R	3,6-4,5
R—CH ₂ —COOH	2,3	R—CH ₂ —Cl (Br, I)	4,0-4,6
R—COOH	10,0-13,0	R—CH ₂ —NO ₂	4,2-4,5
R—CH=CH—OH	15,0-18,0	R—NH ₂	1,0-1,5
R ₂ —C=CR—CH ₂ R	1,9-2,4	R—OH	1,0-5,5
C ₆ H ₅ —CH ₃	2,2-2,4	R—C(O)—H	8,5-11,0
R—C≡CH	2,3-3,0	C ₆ H ₅ —CH ₂ —Cl	4,5
R—CO—CH ₂ —R	2,0-2,8	C ₆ H ₅ —H	6,5-8,6
C ₆ H ₅ —CO—CH ₃	2,6	C ₆ H ₅ —OH	4,0-12,0
C ₆ H ₅ —CH ₂ —R	2,5-3,0	N—CH ₃	2,2
S—CH ₃	3,1	N—CH ₂ R	2,5
S—CH ₂ —R	3,3	N—CHR ₂	2,9

Kimyoviy siljish (δ) o'zgarmas kattalik va spektrometrning ishchi chastotasiga bog'liq emas, faqat signal beruvchi protonning atrofidagi o'rinnbosarlar tabiatini bilan belgilanadi. 4-jadvalda har xil protonlarning kimyoviy siljish chegaralari keltirilgan. Jadvaldan ko'rindaniki, protonlarning kimyoviy siljish kattaligiga unga yaqin turgan elektromanifiligi katta atomlar, elektronodonor va akseptor guruhlar, harakatchan p-elektronlar, ayniqsa, benzol halqasi elektron buluti kuchli ta'sir etadi.


Fikrimizni oydinlashtirish maqsadida 10-13 rasmlardagi ayrim organik moddalarning PMR spektrlarini qarab chiqishingizni va tahlil qilishingizni so'raymiz.




11-rasm. Digital editing PMR spektri.



12-rasm. Izopropiluchlamchibutil oddiy esirining PMR spektri.



13-rasm. 2-brompropanning PMR spektri



14-rasm. 4-metoksitoluolning PMR spektri.

Mass - spektrometriya

Kimyoiy elementlar atom massalarining kasri sonlar bilan ifodalananish sabablarini bilasiz. 1910-yilda inglez olimi F. Soddi massasi farq qiluvchi har xil atomlar borligini taxmin qildi. Bular izotoplari deb aytildi. Bu gi potezani isbothash uchun ingliz fizigi F. Aston elektr va magnit maydonida neonning nisbiy atom massasi 20 va 22 ga teng bo'lgan izotoplari borligini aniqladi. Aston elementlarning atom massasini aniqlashda ular parchalanganda hosil bo'ladigan ionlarning magnit maydonida og'ishini o'chaydigan asbob — mass-spektrometr yordamidan foydalandi.

Organik moddalarning mass-spektrometriya usulidni o'rganish 1950-yillar o'rtalarida boshlandi. Optik spektroskopiyada moddaga elektromagnit to'lqin ta'siri to'statilgandan keyin shu molekula yutgan energiyasini ajratib, boshlang'ich holatiga o'zgarmasdan qaytadi. Ammo mass-spektrometriyada energiya yutgan molekula qo'zg'aladi va molekulyar ionlarga parchalanadi, o'z-o'zidan tushunarlik, bu ionlardan boshlang'ich molekulaning qayta hosil bo'lishi mumkin emas. Mass-spektrometriyaning boshqa usullardan afzalligi shundaki, bu usul bilan ishlash uchun 10^{-14} g. miqdordagi o'rganiladigan modda namanasi bo'lin ham etarli bo'ladi. Ayniqsa, biologik faol moddalar, dorivor moddalar, gormonal preparatlarni aniqlash uchun ko'p modda sarflab bo'lmaydi, chunki ularni ajratib olish juda mushkul.

Mass-spektrometrik usul bilan moddalarni o'rganish quyidagi sohalarda juda ko'p ishlataladi: a) tabiiy gazlar, b) havo, d) sanotat chiqqindilari, e) yonish natijasida hosil bo'lgan gazlar, f) aerosollar. Mass-spektrometriyada molekulada sodir bo'ladigan ionlanish va disotsilanish hodisalar elektronlar, fotonlar oqimi va kuchli elektr maydoni ta'sirida ro'y beradi.

Tajriba uchun aniqlanadigan moddalarni mass-spektrometrarga kiritish usullari:

1. Sovuq holda kiritish, bu usul gazlar uchun qulay va xona haroratida amalga oshiriladi ($P = 10^{-4}$ mm simob ustuni).
2. Issiq holda namanalarini kiritish (harorat 300°C).
3. To'g'ridan-to'g'ri namanani kiritish ($P = 10^{-6}$ mm simob ustuni), keyin sekintlik bilan istish. Bu usulda molekulyar massasi $M = 2000$ gacha bo'lgan birikinalarni o'rganish mumkin.
4. Xromatograf yordamida kiritish.

Zamonaviy mass-spektrometrlerda yadro massalarini o'n milliondan bir atom birlik aniqlikda o'lehash mumkin. Demak, mass-spektrometriya gaz holdagi moddaning kuchli vakuuum ($P = 10^{-7}$ - 10^{-9} mm simob ustuni)da elektronlar oqimi bilan bombardimon qilib parchalash va hosil bo'lgan ion "bo'lak"larini tahlil qilishga asoslangan usul ekan.

Neytral molekula parchalanganda hosil bo'lgan molekulyar ion kation-radikal bo'lib, undan keyin hosil bo'lgan bo'lak ionlar yoki kation, yoki kation-radikal bo'lishi, molekulyar iordan ajralib chiqayotgan zarracha m° radikal yoki neytral molekula bo'lishi mumkin:




Mass-spektrometriyada bu ketma-ketlikdagi parchalanishni o'rghanish fragmentlarni hosil bo'lish yo'llari deyiladi.

Odatda, bombardimon qiluvchi elektronlar oqimining energiyasi 50-70 eV atrosida bo'ladi. Bu oqim ta'sirida modda molekulasidan bir dona elektron ajraladi va molekulyar ion deyiluvchi kation (M^+) hosil bo'ladi:



Molekulyar ionlar va istalgan bo'laklı ionlar (A^+ , B^+ , C^+ ...) bir necha yo'nalishlar bo'yicha parchalanishlari mumkin. Mass-spektrometriyada neytral molekula o'rganilmaydi, shuning uchun ham, mass-spektrlarni tahlil qilishda eng avval qaysi bog' uzelishini va qaysi bo'lak molekulyar-ion musbat zaryadni o'zida saqlashini bilishiniz kerak. Ionlanish jarayonida barcha bog'lar zaiflashadi, bunda bir bog' boshqasiga nisbatan ozmi-ko'pmi, har xil darajada zaiflanishi mumkin. Ionlarning parchalanishi bosqichma-bosqich ro'y beradi. Ular, asosan, boshlang'ich bo'laklı ionlarning dissotsilanishidan hosil bo'ladi:




So'ngra molekulyar ionning (M^+) bir qismi yoki hammasi parchalanadi. Hosil bo'lgan ionlarning massasiga qarab tashqi magnit maydoni ta'sirida ajraladilar, chunki har qanday zaryadlangan zarra magnit maydonida o'zinining harakat yo'nalishiga ega.

Mass-spektrlardagi har bir signal (cho'qqi) muayyan (m/z)ga teng ionga mos keladi. Ion miqdoriga qarab, unga muvofiq keladigan signal shuncha intensiv bo'ladi. Nisbiy intensivlikni ordinata (y) o'qiga, massa sonlarini

absissa (x) o'qiga qo'yib, mass-spektr grafik tasviri ohnadi. Bunda eng baland cho'qqi 100 % deb hisoblanadi. Bu fikrimizni tushuntirish uchun moy aldegidining mass-spektrini (14-rasm) tahlil qilaylik. Spektrdagи baland signal m/z = 44 (100%) ekanligini oson aniqlashimiz mumkin, ikkinchi m/z = 29 (M-43) signalning intensivligi 55 foiz ekanligini aniqlab, uchinchi intensiv signallardan biri m/z = 72 (M⁺)ga va uning intensivligi 75 foiziga moy kelishi rosimdan ko'rinib turibdi. Demak, tahlit uchun olingan moy aldegidining 75 foizi o'zgarmaydi, qolgan qismi C-C va C-H bog'lari bo'yicha parchalanadi.

Bu'yan mass-spektrda M+1 va M+2 kabi ionlar uchun ham signallar qayd etildi. Maxulat, benzolning spektrida m/z = 78 (M⁺) signallari bilan birga m/z = 79 (M+1)⁺ va m/z = 80 (M+2)⁺ signallari ham kuzatilgan. Bular benzol tarkibida ¹³C yoki D izotoplari borligi bilan izohlanadi. Molekulning og'ir izotoplarning miqdori uning rabiatcha tarqalganligi bilan mos tushadi. 3-jadval yordamida signal cho'qilari intensivliklarning foiz miqdorini aniqlab, izotoplar signallarini ajaratish mumkin. Benzolning mass-spektridagi m/z = 78 (M⁺) signallari 100 %, m/z = 79 (M+1)⁺ga tegishli signallar 6,48 % va m/z = 80 (M+2)⁺ signallari 0,18 % gacha qayd qilingan. Bu signallarning m/z = 78 (M⁺) qatori C₆H₆ benzolga taallighi bo'lса, m/z = 79(M+1)⁺ signali ¹³C(C₆H₅)⁺ yoki C₆H₅D⁺ burkmasidan kuzatiladi, m/z = 80 (M+2)⁺ signallari esa ¹³C₂(C₆H₅)⁺ yoki C₆H₅D₂⁺ kabi molekulalar borligini bildiradi.

Bu qator modellarning mass-spektrlari namuna sifatida keltirildi va talabalar ularni mustaqil tahlil qishi mumkin (15-19 rasmlar).




15-rasm. Moy aldegidining mass-spektri.

Demak, o'rganiladigan modda tarkibidagi elementlardan birining tabiatda barqaror uchraydigan izotopi bo'lsa, ularga mos keluvchi fragmentdan hamisha birdan ortiq signallar qayd etiladi. $\text{CH}_3\text{-Br}$ spektrida intensivligi bir xil ikkita $m/z = 94$ va $m/z = 96$ kabi signallar qayd etiladi, bu signallar $(\text{CH}_3{}^{79}\text{Br})^+$ va $(\text{CH}_3{}^{81}\text{Br})^+$ molekulyar ionlarga tegishli ekanligini 5-jadval yordamida aniqlaymiz.

5- j a d v a l.

Og'ir izotoplarning tabiatda tarqalishi

Og'ir izotop	${}^2\text{H(D)}$	${}^{13}\text{C}$	${}^{15}\text{N}$	${}^{18}\text{O}$	${}^{33}\text{S}$	${}^{34}\text{S}$	${}^{37}\text{Cl}$	${}^{79}\text{Br}$	${}^{81}\text{Br}$
Yengil izotopga nisbati, %	0,015	1,11	0,37	0,20	0,78	4,4	32,5	50,5	49,5




16-rasm. 1-ftor-3-brombutanning mass-spektri.


Mass-spektr olishda molekulaning qaysi qismidan ayni signal intensivligiga muvofiq keluvchi bo'lagini bilish uchun ayrim izotoplarni (${}^2\text{H}$ yoki (D), ${}^{13}\text{C}$, ${}^{33}\text{S}$, ${}^{34}\text{S}$) molekula tarkibiga kiritiladi. Bu ishlar natijasida spektrdagagi m_z ioniga muvofiq keluvchi signal bir birlik o'ngga siljigan bo'lsa [$\text{ya}'\text{ni}$ ($m_z\text{-H}$)+D],

qilmgan taxmin to'g'ri chiqqan hisoblanadi. Bu usul *deyteronishonlash* usuli deyiladi.


Nishonlash yo'li bilan benzoy kislota va metil spiriti o'zaro reaksiyaga kirishganda etr hosil qiluvchi kislorod atomi metanol molekulasiga tegishli okunligi va suv hosil qilishda benzoy kislotaning karboksil guruhidan OH ajratishi aniqlandi:




17-rasm. Parchalanishi bir-biriga guda yaqin bo'lgan pentanol-1 – (1) va penten-1 – (2) larning mass-spektrlari. (pentanol-1 mass-spektridagi $m/z = 45$ signalning qayd qilinishi o'rganiladigan modda tarkibida kislorod borligini ko'rsatadi).



18-rasm. Dixlortoluol – (a), 2,4-di(1-ethyl-2,4,6-trimethylheptyl)-fenol – (b), laurin $[CH_3(CH_2)_{10}COOH]$ kislota – (d), qizil bo'yoq tarkibidagi gaz – (e) va' geptadetsil spirt – (f) larning katta tezlikda olingan mass-spektrlari.



19-rasm. Nitrobenzol – (1), *para*-dinitrobenzol – (2), *ortho*-nitroanilin – (3), *meta*-nitroanilin – (4), *para*-nitroanilin – (5) kabi ayrim aromatik nitrobirikmalarning mass-spektrlari.



20-rasm. Intensivligi bir-biriga yaqin bo'lgan fluorenon – (1) va antraxinonlarning – (2) mass-spektrlari.

IZOMERIYA

Organik birikmalarning son jihatidan ko'pligining asosiy sababla-ridan biri ular orasida izomerianing keng uchrashidir. Tarkibi va molekulyar massasi bir xil, tuzilishi va xossalari turlicha bo'lgan birikmalarga **izomerlar** deyiladi. "Izomeriya" atamasini fanga 1832-yilda Y. Bersellius kiritdi. Organik birikmalarda uchraydigan izomeriya turlarini quyidagicha sinflash mumkin:






1. Struktur izomeriya: a) uglerod skeletining izomeriyasi; b) holat izomeriyasi; d) o'zaro holat izomeriyasi; e) metameriya; f) valent izomeriyasi.

2. Fazoviy izomeriya: a) geometrik izomeriya; b) optik izomeriya; d) diastereomeriya; e) aylanma izomeriya (konformatsiya).

3. Dinamik izomeriya (tautomeriya).

Struktur izomerlar bir-biridan kimyoiy tuzilishi bilan farq qiladi.

Uglerod skeletining izomeriyasida molekulada uglerod atomlarining joylashish tartibi turlicha bo'ladi:




anthracen






fenantren

Holat izomeriyasida uglerod skeleti bir xil, funksional guruh, qo'sh yoki uch bog'ning o'rni esa turliha bo'ladi.



O'taro holat izomeriyasida ikki va undan ortiq funksional guruh, qo'shibog' yoki uchbog'lar hisobiga nishbatan turliha joylashtigan.



orto-dixlorbenzol



meta-dixlorbenzol




para-dixlorbenzol


Strukturaviy izomerlar organik birikmalarning turli sinflariga mansub bo'lishi mumkin. Masalan, C_6H_6 formulasi $\text{CH}_2=\text{CH}-\text{C}\equiv\text{C}-\text{CH}=\text{CH}_2$ divinilatsetilen va benzolga, $\text{C}_2\text{H}_6\text{O}$ formulasi $\text{CH}_3-\text{CH}_2\text{OH}$ etanol va CH_3OSH_3 , dimetil efirga mansub bo'lishi mumkin.

Stereoizomerlar – kimyoviy tuzilishi bir xil bo'lib, fazoviy konfiguratsiyasi bilan farqlanadigan izomerlardir. Organik birikmalarda fazoviy izomerlarning ikki xili (geometrik va optik) keng tarqalgan.

Geometrik (yoki sis-trans-) izomeriya, asosan, qo'shbog'i bor organik birikmalar uchun xarakterlidir. $C = C$ qo'shbog' atrofida erkin aylanish imkoniyatining yo'qligidan $XHC = CHX$ kabi birikmalar ($X = CH_3, C_2H_5, Cl, Br$ va hokazo) sis- va trans - izomerlar holida uchraydi:




cis-izomer



trans-izomer

Geometrik izomeriya ayrim halqali birikmalarda ham uchraydi, bunda o'rribosarlar halqa tekisligiga nisbatan fazoda turlicha joylashadi:





cis-izomer




trans-izomer

Optik izomeriya tarkibida asimmetrik uglerod atomi tutgan organik birikmalarda uchraydi. Ularning tarkibi va tuzilishi bilan bir-biriga o'xshash bo'lsa ham, qutblangan nur tekisligiga munosabati bilan farqlanadilar. Bu hodisani to'rtta har xil o'rribosar bilan bog'langan uglerod atomi atrofida turli atomlar guruhining fazoda turlicha joylashishi bilan tuhsuntirish mumkin. Bunday uglerod atomi asimetrik uglerod atomi (C^*) yoki xiral markaz deyiladi. Asimetrik uglerod atomi bor barcha organik molekulalar optik faol moddalar bo'lib, ularning eritmalaridan qutblangan nur o'tkazilganda yurug'lik tekisligini o'ngga yoki chapga burish xususiyatiga ega. Bu fikrni birinchi marta rus olimi A.M. Butlerov aytgan bo'lsa ham, fransuz olimi L. Paster 1860-yilda optik faol birikmalarining "o'ng" va "chap" izomerlarining bo'lishi asimetrik molekulalarning mavjudligidan ekanligini aytadi. Bu fikr keyinchalik golland olimi Vant-Goff va fransuz olimi Lebel tomonidan rivojlantirildi. Natijada, bu olimlar bir-biriga bog'liq bo'limgan holda optik izomeriya nazariyasini yaratdilar, ya'ni bitta asimetrik uglerod atomi tutgan organik moddalar ikkita **optik** yoki **ko'zgu** izomerlari (**enantiomerlar** yoki **optik antipodlar**) holida bo'ladi:



(-) va (+) belgilari qutblangan nur tekisligini tegishli ravishda chapga yoki o'ngga burishini, D va L harflari esa ularning D- va L- qatorlarga mansubligini ko'rsatadi. Enantiomerlarning teng miqdordagi aralashmasi bir-birining optik faoliyti so'ndiradi va bu optik faoliyi yo'qolgan aralashmaga **ratsemat** deyiladi.

Diasterometriya, asosan, ikki va undan ortiq assimetrik markazi bor birikmalarda uchraydi. Ularning optik izomerlari har qaysi xiral markazga nisbatan alohida topiladi. Misalan, D(+) vino va L(-) vino kislotalari bilan mezovino kislotalari o'zaro **diasteromerlardir**. Bularidan mezovino kislota optik faoliyk xossasini yo'qotgan hisoblanadi, chunki molekulalarning bir qismi nur tekisligini chapga, ikkinchi qismi o'ngga buradi.



Tautomeriya (dinamik izomerlya) – ikkita izomer (tautomer)ning o'z-zidan bir-biriga aylanishida numoyon bo'ladigan izomeriyadir:




Xalqaro IYUPAK nomenklaturasiga ko'ra optik anti podlarni R (o'ngga buradigan, R-lotincha=*rectus*=o'ng so'zidan olingan) va S (chapga buradigan, S-lotincha=*sinister*=chap so'zidan olingan) – belgilari bilan belgilash qabul qilingan. Bu usul optik faol moddani etalon bilan solishtirish

natijasida emas, balki assimetrik S* atomi bilan bog'langan to'rt o'rribosarning ma'lum fazoviy ketma-ketlikda joylashishini aniqlashga asoslangan. Bu sistemaga ko'ra C* atomi bilan bog'langan o'rribosarlarni a,b,c,d – bilan belgilab, ulardan kichigi d-ga nisbatan qolgan o'rribosarlarning fazoviy joylashishi o'rganiлади. Ularning katta-kichikligi davriy sistemadagi tartib raqami bilan ifodalanadi, shu qoidadan foydalanib, galogenlarning kichrayib borish tartibida yozib chiqamiz:




C* atomi bilan bog'langan o'rribosarlarning tartib raqami bir xil bo'lganda, shu o'rribosar tarkibidagi keyingi atomlarning soniga qarab uning katta-kichikligi aniqlanadi, masalan: CH_3 va CH_2-CH_2- radikallaridan $\text{C}_2\text{H}_5 > \text{CH}_3$, bo'ladi va $\text{C}_2\text{H}_5 > \text{C}_2\text{H}_4 > \text{CH}_3$.

Shu qoidani esda saqlab, endi glitserin aldegidi uchun R, S- izomerlarining fazoviy tuzilishini yozishni mashq qilamiz. Dastlab eng kichik d - o'rribosar (vodorod atomi) tomonidan C atomi bilan boglangan guruhlarning joylashishini ko'rib chiqaylik:




R- glitserin aldegidi




S- glitserin aldegidi

Organik birikmalarda kimyoviy bog' tabiatи

Organik moddalarda asosiy kimyoviy bog'lar (C-C, C-H, C-F, bunda F - funksional guruhlar) o'zining kovalentligi va qutbsizligi bilan belgilanadi. Organik molekulalarda gomolitik bog' uzilishi faqat gaz holatda yoki kuchli nur ta'sirida kuzatiladi:



Ayrim hollardagina bu parchalanish eritmada kuzatiladi, masalan, geksaniletanning benzoldagi eritmasi radikallarga dissotsilanadi va bu reaksiya uchun muvozanat, asosan, o'ngga siljigan bo'ladi:




Funksional guruhlu organik moddalar anorganik birikmalar kabi ion mekanizmada (geterolitik) ham parchalanishi mumkin.



Bu misollardan ko'rindikti, organik molekulalarning R- radikal qismi va F- funksional guruh qismi xossalari orasidagi farg' kattadir. C=C, C-H, C-E kabi kovalent bog'lar qiyin *dissotsialandi*, shuning uchun ham, organik molekulalarning reaksiyon qobiliyat'i juda past hisoblanadi. Barcha organik birikmalarning kimyoviy xossalari va reaksiyon qobiliyat'i uning tarkibidagi funksional guruhlar tabiatli bilan anilganadi va shunga ko'rinishlari ayrim sinflarga ajratiladi.

Organik modelleringstekniker

Har qanday tabiiy fan o'z obyektlarini ayrim sinflarga ajratib o'rganadi. Anorganik moddalarini sinflash elementlar kimyoiy xossasiga ko'ra metall va metallmaslarga ajratiladi va davriy sistema asos qilib olinadi. Ular o'z navbatida yangi sinflar va guruhiilar (oksidlar, gidridlar, kislotalar, asoslar, oddiy va qo'sh tuzlar, kompleks birikmalari)ni vujudga keltiradi. Organik birikmalarni sinflash uglevodorodlar va ularning funksional hosilalariga ajratishdan boshlanadi. Bu hosila tarkibidagi funksional guruh bir yoki bir nechta bo'lishi mumkin.



Demak, uglevodorod hosilalari, o'z navbatida, fazoviy va elektron tuzilishi, funksional guruh soni va tabiatiga ko'ra yangi birikmalar turkumiga ajratiladi.

Uglevodorodlarning har qanday funksional hosilalarini o'rganishda funksional guruh nomini va unga tegishli sınıf birikmalari nomini yaxshi bilish talab etiladi. Quyidagi 6-jadvalda muhim organik birikmalarning ayrim namoyandalari va ularning nomlanishi haqidagi qisqa ma'lumotlar keltirilgan.

6- jadval

Monofunktional hosilalarning tuzilishi

Funksional guruh	Nomi	Birikmalar sınıfı	Misollar
1	2	3	4
Hal	Galogeno-	Galogenli hosilalar	CH_3Cl xlormetan $\text{C}_6\text{H}_5\text{F}$ ftorbenzol
-OH	Gidroksid	Spirtlar va fenollar	CH_3OH metanol $\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$ etanol $\text{C}_6\text{H}_5\text{OH}$ fenol
-O-	Oksidli	Oddiy efirlar Oksidlar	$\text{CH}_3-\text{O}-\text{CH}_3$ dimetil efiri $\text{CH}_2=\text{CH}_2$ etilen $\text{O}^{\text{-}}/\text{O}^{\text{+}}$ oksidi
-SH	Sulfgidril	Tiospirtlar (merkaptanlar)	CH_3SH tiometanol (metilmekraptan)
-S-	Sulfid	Sulfidlar	$\text{C}_2\text{H}_5-\text{S}-\text{C}_2\text{H}_5$ dietilsulfid
-SO ₂ OH	Sulfo -	Sulfokislotalar	$\text{C}_6\text{H}_5\text{SO}_2\text{OH}$ benzol sulfokislota
-NO	Nitrozo	Nitrozobirikmalar	$\text{C}_6\text{H}_5\text{-NO}$ nitrozobenzol
-NO ₂	Nitro-	Nitrobirikmalar	CH_3NO_2 nitrometan
-NH ₂ -NH, -N-	Amino -	Aminobirikmalar	CH_3NH_2 metilamin $(\text{CH}_3)_2\text{NH}$ dimetilamin $(\text{CH}_3)_3\text{N}$ trimetilamin
- NH- NH -	Gidrazo -	Gidrazobirikmalar	$\text{C}_6\text{H}_5\text{-NH-NH-C}_6\text{H}_5$ gidrazobenzol
- N = N -	Azo -	Azobirikmalar	$\text{C}_6\text{H}_5\text{-N=N-C}_6\text{H}_5$ azobenzol
- N ≡ N	Diazo -	Diazobirikmalar	$[\text{C}_6\text{H}_5\text{N}\equiv\text{N}]^+\text{Cl}^-$ fenildiazoniyl xloridi

	Formil	Aldegidlar	 O chumoli aldegidi
	Keto- (karbo nil)	Ketonlar	$\text{CH}_3\text{CO}\text{C}_2\text{H}_5$ metiletiketon
	Karboksil	Karbon kislotalar	CH_3COOH sirka kislotasi $\text{HOOC-CH}_2\text{COOH}$ malon kislotasi
	Galogenen- gigidrid	Kislotu galogenenigidridi	CH_3COCl utsetil xloridi
	Karbo- mid	Kislotu amidlari	 O sirka kislotu NH_2CH_3 amidi (utsetamid)
	Moraks- kah efti	Kislotular mumakkah efti	$\text{CH}_3\text{COOC}_2\text{H}_5$ etylasetat
	Karbo- ngigidrid	Kislotu ngigidridlari	$(\text{CH}_3\text{CO})_2\text{O}$ sirka ngigidridi
	Metallo- (M - metall)	Metalloorganik birikmalar	$(\text{CH}_3)_2\text{Zn}$ dimetilzink CH_3MgI metilmagniy iodid
	Elemento- (E - metall- mas)	Elementorganik birikmalar	$(\text{C}_6\text{H}_5)_3\text{P}$ trifenilfosfin $\text{Si}(\text{C}_2\text{H}_5)_4$ tetaetilsilan
	Aza-, tio-, imino-, okso va boshqular	Geterohalqali birikmalar	 piridin

Shuni alohida qayd qilamizki, Vatanimiz kimyogarlari ham organik kimyo fani va sanoatini rivojlantirish uchun o'zlarining munosib hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Dastlabki tadqiqot ishlari, asosan, bugungi Mirzo Ulugbek nomli O'zbekiston Milliy universitetida amalga oshirilgan. Akademiklar O.S. Sodiqov (1913-1987), I.P. Sukervanik (1901-1968), X.U. Usmonov (1916-1990),

Sh.T. Toli pov (1908-1990) shu universitetning kimyo fakulteti kafedralarini va undagi ilmiy-tadqiqotchilar maktabini yaratish uchun butun umrlarini bag'ishladilar. Bu fikrimizni tasdiqlash uchun birligina misol kifoya deb o'ylaymiz. Akad. Sh.T. Toli pov 1942-1984- yillar davomida universitet kimyo fakultetining dekani, 1938-1990- yillar davomida, ya'ni hayotining oxirigacha analitik kimyo kafedrasi mudiri lavozimida ishlagan. Hozirgi kunda Respublikamizda organik kimyo fani va sanoati yetakchi sohalardan biridir. Buyuk olimlarimiz yaratgan ilmiy yo'nalishlar bo'yicha izlanishlari O'zR Fanlar akademiyasi Bioorganik kimyo, O'simlik moddalar kimyosi, Polimerlar fizikasi va kimyosi ilmiy-tadqiqot institutlarida, bir qator universitet va institutlar kafedralarida ularning shogirdlari va maslakdoshlari tomonidan amalga oshirilmoqda.

ORGANIK BIRIKMALARDAGI KIMYOVİY BOĞ'LAR

Ko'pgina organik moddalar uglerod, vodorod, azot, kislorod, oltingugurt kabi bir necha elementlardan tarkib topgan, ba'zida ularning tarkibida boshqa elementlar ham uchraydi. Organik birikmalarning xilma-xilligi bir tomonidan ularning miqdoriy tarkibi bilan belgilansa, ikkinchi tomonidan atomlar orasidagi kimyoviy bog' tartibi va tabiatini bilan belgilanadi. Atom tuzilishi haqidagi nazariya rivojidan keyin kimyoviy bog' haqidagi zamonaviy tushunchalar shakllandi. Atomlar orasidagi bog' elektronlarning o'zaro ta'siri natijasida vujudga keladi. Har qaysi atomning elektronni tortish qobiliyatini uning **elektromanfiyligi** bilan o'chanadi. Bu kattalik atomlar orasida kimyoviy bog' hosil bo'lish jarayonida elektronni kuchli yoki zaifroq tortish qobiliyatini ko'rsatadi (7-jadval).

7-jadval.

Ayrim atomlarning elektromanfiylik qiymatlari




Atom	Elektromanfiylik	Atom	Elektromanfiylik	Atom	Elektromanfiylik
K	0,8	As	2,0	S	2,6
Na	0,9	H	2,1	I	2,6
Li	1,0	P	2,1	Br	2,8
Mg	1,2	Se	2,4	Cl	3,0
Al	1,5	C (sp^3)	2,5	N	3,0
Si	1,8	C (sp^2)	2,8	O	3,5
B	2,0	C (sp)	3,1	F	4,0

Elementlarning elektromansiylik qatorini AQSH olimi L. Poling tuzgan. Bu qatorda (7-jadval) uglerod atomidan oldin turgan va elektromansiylik qiymati 2,5 dan kichik elementlar kimyoviy bog' hosil qilganda C atomidagi elektron bulut zichligini oshiradi, aksinecha, elektromansiyligi 2,5 dan katta elementlar - bulut zichligini o'ziga tomon tortadi va uglerod atomida qisman musbat zaryad paydo bo'ladi.

A. Kovalent bog'

Anorganik brikimlar uchun 1916- yilda G. Luis va V. Kossel dublet- oktet qoidaligiga mosdigan ion bog'lar nazariyasini ishlab chiqdilar. Bu nazariya anorganik kimyo kursida o'tilgani uchun ungi batafsal to'xtamaymiz.

Bir xil atomlar yoki elektromansiyligi yaqin atomlar o'zaro ta'sir etganda ular orasida elektron ko'chishlar yuz bermaydi, balki elektronlar umumlashti. Inert gazlarning tugallangan elektron konfiguratsiyasini hosil qilish uchun atomlar orasida bir, ikki yoki uch just elektronlar bog' hosil qiladi va ular **kovalent bog'** deb ataladi. Kovalent bog' tushunchasiga ko'ra elektronlar justi ayni paytda har ikki atomga tegishli bo'lsa ham, alohida atomning elektronlar oktetini tashkil etadi. Vodorod atomi bundan mustasno bo'lib, unda elektron dubleti hosil bo'ladi.



Kovalent bog' organik kimyoda eng ko'p uchraydigan bog' bo'lib, umaksimal energiyaga ega. Elektromansiyligi bir xil atomlarning yoki elektromansiyligi yaqin atomlarning kovalent bog'iga **qutblanmagan kovalent bog'** deyiladi:




Agar har xil atomlardan molekula hosil bo'lsa, umumlashtiruvchi elektron justi elektronga moyilligi katta atom tomoniga siljiydi va **qutblangan kovalent bog'** hosil bo'ladi. Elektromansiyligi katta atom elektron bulut zichligini o'ziga tortib qisman manfiy zaryad va molekula hosil qiluvchi ikkinchi atom elektron zichligi kamayishi natijasida qisman imusbat zaryadga ega bo'ladi:




Demak, har xil atomlar kovalent bog' hosil qilganda, elektromansiyligi katta atomda elektron bulut zichligi ortadi, ya'ni unda manfiy zaryad hosil bo'ladi va molekula qutblanadi:



Elektron siljish oddiy bog'dan ko'ra qo'shbog' va uchbog'da osonroq kechadi, chunki π -bog' hosil qiluvchi elektronlar σ -bog' elektronlariga nisbatan harakatchan va ular oson qutblanadi:




O'rribosarlarning bunday ta'siri molekulaning fizik konstantalarini eksperimental o'lhash yoki reaksiyon qobiliyatini o'rganish bilan aniqlanadi. Zaryadning molekuladagi atomlar zanjiri orqali elektrostatik induktivlanishi natijasida kuzatilishi **induktiv effekt** deb aytildi va I harfi bilan belgilanadi. Induktiv effekti manfiy qiymatli ($-I$) bo'lishi mumkin. Bu hodisa molekuladagi o'rribosarlarning elektromanfiyligi C va H atomlarinikidan kattaroq bo'lganda kuzatiladi. Masalan, xlor atomining manfiy induktiv effekti ($-I$) molekula bo'ylab quyidagicha tarqaladi:



$-\text{F}$, $-\text{Cl}$, $-\text{Br}$, $-\text{I}$, $=\text{O}$, $=\text{S}$ atomlaridan tashqari, atomlar guruhidan iborat o'rribosarlar yoki ayrim funksional guruhlari ham manfiy induktiv effektiga ($-I$) ega bo'ladi: $-\text{CN}$, $-\text{CF}_3$, $-\text{CCl}_3$, $-\text{CHCl}_2$, $-\text{OH}$, $-\text{NO}_2$, $-\text{NH}_2$, $-\text{OR}$, $-\text{CHO}$, $-\text{COOH}$.

Metallar, manfiy zaryadli O^- va S^- ionlar, alkil radikallari $-\text{CH}_3$, $-\text{C}_2\text{H}_5$, $-\text{C}(\text{CH}_3)_3$ kabi o'rribosarlar musbat induktiv effektiga ($+I$) ega bo'ladi:



Umumlashgan elektronning bir atom tomoniga siljish darajasini ko'rsatish uchun **dipol momenti** tushunchasi kiritilgan va uning birligi debay (D) bilan o'lchanadi:


$$\mu = e \cdot l$$

- μ - dipol momenti;
- c - zaryadlar miqdori;
- I - zaryndlari orasidagi masofa.


Agar molekula qutblangan bo'lса, uning reaksiyon qobiliyati oshadi va aksincha, qutblanmagan molekula reaksiyaga shartlik bilan kirishmaydi.

B. Donor-akseptor bog'


Kimyoviy bog' hosil bo'lishi uchun yuqorida ko'ntilganidek, har doim ham atomdar bir xil elektronlar soni bilan ishtirok etavermaydi. Ba'zida bog' hosil qilish uchun elektron justini bir atom berishi mumkin. Azot, kislород, galogenlar va boshqa bir qator atomlar kovalent birikmalarida tugallangan oktetga ega bo'lsa ham, ularning tashqi qavatidagi hamma elektronlari ham kovalent bog' hosil qilishda ishtirok etmaydi. Bu elektronlar erkin (yoki umumlashmagan n -elektronlar) elektron justlari deyildi. Erkin elektron justi tutgan atomlar proton yoki tugallangan qavat bog'liq qilish uchun elektron justi yetishmaydigan boshqa atomlar bilan o'sarmo'sirlashtib yangi kovalent bog' hosil qiladi. Elektron justini beruvchi atom - **donor**, elektron justini qabul qiluvchi atom - **akseptor** deb ataladi. Bir atomning erkin elektron justi hisobidan paydo bo'lganidan kovalent bog'ga **donor-akseptor bog'** yoki **koordinatsion bog'** deyildi. Ammoniak yoki amminarning molekulasi bilan kislota orasida boradigan reaksiyada kislota protoni azot atomidagi erkin elektron justi hisobidan birikadi. Ammoniy kationining bu so'nggi N-H bog'i hosil bo'lishi jihatidan boshqa uchta N-H bog'lardan farq qilsa ham, fizik va kimyoviy tabiatи jihatidan ular bir-biridan farq qilmaydi:




Koordinatsion bog' hosil bo'lгanda donor atomining elektron justi har ikki atom uchun umumiy bo'ladi. Bu donor atomi bir elektronni yo'qtogani bilan barobar bo'lib, musbat zaryadga ega bo'ladi. Koordinatsion bog'ning bir ko'rinishi nitrobirikimalardagi azot va kislород atomlari orasida, N -oksidlarda $[(\text{CH}_3)_3\text{N}\rightarrow\text{O}]$ kuzatiladi. Nitrobirikmadagi azot atomi bir kislород bilan elektronlar umumlashuvli hisobidan qo'shbog' hosil qiladi. Erkin elektron justi hisobidan ikkinchi kislородни biriktiradi va azot musbat, kislород esa manfiy zaryadli ionlarga aylanadi. Demak, donor azot va akseptor kislород atomlari orasidagi bog' kovalent va ion bog'lari yig'indisidan iborat. Organik kimyoda bu kabi bog'larni **semipolyar bog'** ham deyiladi:



Kompleks birikmalarda ham donor-akseptor bog' mavjud, ammo ularda elektron ko'chishi to'liq sodir etilmagani uchun zaif bog' hosil bo'ladi. Ularda donor sifatida atomlarning erkin elektron jufti (n -elektronlar), π -bog' elektronlari yoki π -bog' tizimi ishtirok etishi mumkin:




Siklopentadienil anioni oraliq metallar (Fe^{2+} , Co^{2+} , Ni^{2+}) bilan hosil qilgan metallotsenlari juda barqaror π -komplekslar hisoblanadi. Ulardan ferrotsen deb ataluvchi sendvich-kompleksi $[(\text{C}_5\text{H}_5)_2\text{Fe}]$ aromatiklik xossalarni namoyon qiladi va 400°C gacha parchalanmaydigan barqaror birikmadir.




D. Vodorod bog'

Umumlashmagan elektron jufti tutgan va elektromanfiyligi katta atomlar (O , N , F , ba'zida Cl , Br , S) organik moddalarning molekulalaridagi faol vodorod atomi bilan **vodorod bog'lar** hosil qiladilar. Kuchli qutblangan bog' bilan bog'langan vodorodlarga ($\text{H} \cdot \text{O}$, $\text{H} \cdot \text{S}$, $\text{H} \cdot \text{N} \cdot$) faol atomlar deyiladi. Bu vodorod atomlari qoldiq elektron moyilligi hisobidan donor atomlarning

erkin elektron jut'gi bilan zaif bog' hosil qiladi. Vodorod atomi kichik o'lchamga ega va elektron qobig'i bilan ekranlanmagani uchun boshqa atom elektron jut'figa juda yaqin keladi va u bilan bog'lanadi. Vodorod bog'i tabiatan elektrostatik xarakterga ega va uchi nuqta bilan ko'tsatsiladi. Uning energiyasi kovalent bog'ga nisbatan ancha zaif va odatda, 1.8 kkal/mol kattalik bilan xarakterlanadi:




Mavjud elektrostatik tortishuv kuchi ta'sirida vodorod bog' bilan assotsilangan molekulalarning vodorod atomlari o'zaro almashimini ham mumkin:



Bu xildagi vodorod bog'larga **molekulalarnaro vodorod bog'lari** (MVB) deyiladi. Ular organik moddalarning kimyoiy va fizikaviy xossalarni belgilashda muhim ta'sir ko'tratadi - ularning uchuvchanligi kamayadi, qovushqoqligi ortadi, suyuqlanishi va qaymali harorati ko'tariladi. Masalan, chumoli kislotaning molekulalar massasi dietil efriga nisbatan kichik bo'lsa ham, fizik konstantalari ancha katta, chunki kislotga molekulalari MVB bilan dimerlangandir.

Ayrim organik moddalar molekulalining fazoviy tuzilishi **ichki molekulyar vodorod bog'lari** (IMVB) hosil qilishiga imkon beradi. Bu holda MVB hosil bo'lishiga to'sqinlik tug'iladi. Salitsil aldegidagi IMVB hosil qilishga moyil bo'lsa ham, uning izomeri *para*-oksibenzaldegid MVB bilan barqarorlashadi:



Biokimiyoviy jarayonlarda vodorod bog'larida juda muhim vazifalarni bajaradi. Oqsillarning ikkilamchi va uchlamchi tuzilishnini, RNK va DNA molekulasining qo'sh spiral tuzilishini vodorod bog'larida ta'minlaydi va boshqalar.

E. Bog' energiyasi

Atomlar orasidagi kimyoviy bog'ni uzish uchun sarflanadigan energiya kattaligi **bog' energiyasi** deyiladi (8-jadval). Bog' hosil bo'lganda esa xuddi shuncha miqdor energiya ajralib chiqadi.

8- jadval.

Kimyoviy bog' energiyasi

Bog'	E, kkal/mol	Bog'	E, kkal/mol	Bog'	E, kkal/mol
C – H	99	C – N	73	C – Cl	78
C – C	81	C = N	142	C – Br	65
C = C	146	C ≡ N	212	C – I	57
C ≡ C	199	O – H	110	O – O	35
C – O	88	N – H	93	-H...O<	~ 5
C = O	173	N – N	39	-H...N<	~ 2

Bog' energiyasi kkal/mol, ba'zi hollarda kJ/mol bilan ifodalanadi. Simmetrik molekulalardagi atomlarning elektromansiyiliqi 2-2,5 D (H – H, C – C) chegaralarida bo'lsa, kimyoviy bog' barqaror bo'ladi.

Agar elementlarning elektromansiylik qiymatlari juda katta yoki kichik bo'lsa, ular beqaror bog' (F-F, 36 kkal/mol; Na-Na, 18 kkal/mol) hosil qiladilar. Har xil atomlar orasidagi bog'lar maksimal (H-F, 135 kkal/mol) qiymatga ega bo'lsa, ion bog'larga o'tganda bu energiya (H-Li, 58 kkal/mol) kamayadi.

KIMYOVIY BOG'NING ELEKTRON NAZARIYASI

A. Atom orbitallari


Yuqorida ko'rganimizdek, organik molekulalarning tuzilishi haqidagi tushuncha bir necha xil kimyoviy bog'lar tabiatini o'rghanish natijasida vujudga keldi. Atomlar orasida kimyoviy bog' vujudga kelishi uchun atom orbitallari (AO)dan molekulyar orbitallar (MO) hosil bo'ladi.

Organik birikmalar ichida uglevodorodlar va ularning funksional bosifalarining elektron va geometrik strukturularini har xil bog'lar tabiatini belgiliaydi.

1913- yili N. Bohr tomonidan taklif etilgan atom tuzilishining planetar modeli hatto ikki elektron tutgan eng oddiy atomlarning spektral kattaliklarini tushuntiri olmadi. Bu nazariyani takomillashtirish uchun Sommerfeld ikkinchi I - azimutal kvant sonini kiritdi va elektronlar shurak orbitallardan tashqari ellipsisimon orbitallardajoylishi mumkinligini ko'rnatdi. Bosh kvant soni n -ga bog'liq ravishda ikkinchi kvant soni $I = 0$ dan $n-1$ gacha sonlar bilan belgilonadi, uning har bir qlymatiga ma'lum shakldagi elektron orbitallari to'g'ri ketadi: $I = 0$ s-orbital, $I = 1$ p-orbital, $I = 2$ d-orbital. 1924- yilda Fransuz olimi Lui de Broyl harakatdagi mikro-zarrachuning to'lqinli tabiatini tushundirib berdi. Uning fikricha, har bir zarrachaning to'lqm uzunligi (λ) uning impulsiga teskari proporsionalidir ($\lambda = mv/p$).


$$\lambda = \frac{h}{mv}$$

Elektronlar difraksiyasini o'rgangan Thompson 1928- yilda Lui de Broyl tenglamasini tajribada isbotladi. Bularning barchasi 1926- yilda mikroolam kvant mexanikasi hisoblanigan E. Shredingerning to'lqin kvant mexanikasini yaratishiga olib ketdi. Uning tenglamasi harakatdagi moddiy zarrachaning to'lqin tabiatni, fazoviy koordinatlari va energiyasini tushuntirdi.



21-rasm. s-orbitallarining turlicha tasvirlanishi.


s-elektron orbitali sharsimon ekanligini juda yaxshi bilamiz. Nils Bohr aniqlagan vodorod atomining radiusi $0,058 \text{ nm}$ bo'lsa, undagi s - elektron orbitali fazoviy chegarasi atom yadrosi sirtidan $0,14 \text{ nm}$ kichik bo'ladi. Kimyoviy bog' nazariyasiga ko'ra to'lqin funksiyalari yoki elektron bulutlari atom orbitallari (AO) deb nomlanadi. 20-rasmdan ko'rindiki, barcha s-AO sferik simmetriyaga ega, boshqa elektron orbitallari farqli ravishda sferik simmetriyaga ega emas. Masalan, p-elektron AO-fazoviy chegarasi (21-rasm) gantelsimon bo'lib, ular fazoning x, y, z - o'qlari bo'yicha aniq yo'nalgan. Shuning uchun bu atom orbitallarini koordinataning uchta o'qlariga mos ravishda p_x , p_y va p_z -orbitallari deb belgilash qabul qilingan. Bu atom orbitallar, koordinata o'qlariga nisbatan simmetrik tuzilgan va fazoviy yo'nalishidan tashqari barchsi o'zaro ekvivalentdir. p-AO ikki qismidan iborat, bu qismlarni ajratuvchi nuqtada elektronning bo'lish ehtimolligi nolga teng. To'lqin tenglamasi p-orbitalning shu nuqtasida o'zining qiymat ishorasini o'zgartiradi (+ qism va - qism):



22-rasm. Uglerodning atom orbitallari.

Bulardan tashqari beshta d-orbitallar ham bor. Bu elektron orbitallari, asosan, oraliq metallarda uchraydi, organik birikmalar kimyosida deyarli ulardan foydalaniilmaydi. Organik moddalar molekulasida o'zaro s- va p-elektronlar orasidagi gibrif orbitallar ham mavjudki, ularni AO deb hisoblash mumkin emas.

Atomdagagi elektronlar holatini va energiyasini bilgach, ularning energetik taqsimotini kvant yacheyskalari yordamida ifodalash mumkin (22-rasm):



23-rasm. Atom orbitalida elektronlarning joylashish tartibi.

B. Molekulyar orbitallari


Kvant kimyosi rivojlanishi kimyoviy bog' hosil bo'lish tabiatini tushuntirdimi? Atomlardagi elektronlarning to'lqin funksiyasi tenglamasini hisoblash EHM yordamida ham juda mushkul idi. Klassik organik kimyo bog' hosil bo'lishini atomlardagi elektronlarning o'zaro ta'siri va umumiy energiyani kamayishi deb tushuntiradi. Shredinger tenglamasi yordamida molekuladagi elektronlarning o'zaro ta'siri oglibatidu energiya kamayishini isbotlash mumkin. Buni anglash uchun qabul qilingan bu necha postulatlar mohiyatini etsatib o'tamiz:

1. Molekuladagi elektronlar MO larning to'lqin funksiyasi bilan xarakterlanadi.

2. AO elektronning bir atom yadroining kuchlamishi maydoni bilan xarakterlaydi, MOning ikki va undan ortiq yadrolar ta'siri ostida ekanligini bildiradi.

3. MO, ayz naybatida, AO bazic funksiyasi bilan belgilanadi va MO ni hisoblash uchun AO chiziqli kombinatsiyasi usuli ishlattiladi.

Atom orbitallarining chiziqli kombinatsiyasini tasavvur qilish uchun vodorod atomlaridan boshqaror H₂ molekulasi hosil bo'lishi shakli va grafigi bilan tanishaylik (23, 24-rasmilar).



24-rasm. Vodorod molekulasining potensial energiya egri chizigi.


bu energiya qiymati kamayishini ko'rsatadi. Organik molekulalarda, asosan, σ - bog' uchraydi, masalan, C-C, C-H, C-O, C-Hal. Shu ikki atom orasida ikkinchi qo'shimcha bog' hosil bo'lganda, u, albatta, π -bog' bo'ladi. 26-rasmdagi uglerod atomining ikkinchi qavatida elektronlar joylashishi

Atomlar orasidagi R kattaligi kichikleshgan satr energiya ham minimal qiymatiga intiladi, ya'ni R=r bo'lganda (r-barqaror molekuladagi bog' uzunligi). Bundan keyingi atomlar yaqinlashuviga yadrolarning o'zaro itarilishi natijasida energiya qiymati keskin ortadi. Grafikdan ko'rindiki, R = r yoki shunga yaqin bo'lsa, atom orbitallari o'rnida molekulyar orbital hosil bo'ladi.


Ikki atom yaqinlashganda bir vodorod yadrosi ikkinchi yadro elektronini o'ziga torta boshlaydi.

Potensial energiya egri chizig'iida

$2s^2 2p_3^1 2p_4^1$ ekamligi ko'rinib turibdi, demak, uglerod atomi birikmalarida 2 valentli bo'lishi kerak. Holbuki, organik birikmalarning barchasida uglerod atomi 4 valentli hisoblanadi va bu bog'lar doimo o'zaro ekvivalentdir.



25-rasm. σ -bog'ning hosil bo'lishi.



26-rasm. π -bog'ning hosil bo'lishi.


Furaz qilaylik, ma'lum energiya sarflab, $2s$ -orbitaldagи bir elektronni $2p$, orbitaliga o'tkazdik, bunda C atomining elektron tuzilishi $1s^2 2s^1 2p_x^1 2p_y^1 2p_z^1$ bo'ladi. 1 ta s-elektron va 3 ta p-elektronlar o'zaro ekvivalent 4 ta bir xil bog' hosil qilmaydi. Buni tushunish uchun gibriddanish hujudagi gi potezani eslasak kifoya. Har xil energiya va simmetriyaga ega AO o'zaro energiyasi va simmetriyasi bir xil bo'lgan suiddi shuncha gibriddangan orbitallar hosil qildi. Gibriddanish huqatgina kimyoiy bog' hosil bo'lish jurnyonida va AO larda bittadan toq elektron joylashganda sodir bo'ladi.



27-rasm. Asosiy va qo'zg'algan holatidagi C atomining elektron tuzilishi.


sp^3 -gibriddangan orbitallarining bog' hosil qilishida ajralib chiqqan energiya uglerod atomining qo'zg'alishi va orbitalarning gibriddanishiga sarflangan energiyaga nisbatan anche kattadir.

Shunday qilib, gibriddanishda har qanday tizim o'z energiyasini kamaytiradi va hosil bo'lgan metan molekulasining bargarorligi shu bilan tushuntiriladi. Uglerod atomining birinchi valent holati va sp^3 -gibriddanish alkanlar uchun xosdir.




28-rasm. Uglerod atomidagi 1 ta s- va 1 ta p-orbitallarining gibriddanishi.

Demak, 1 ta s- va 3 ta p-orbitalning o'zaro ta'siri va qo'shilishi natijasida to'rtta sp³-gibridlangan orbitallar hosil bo'ladi. Gibrid orbitallarning simmetriya o'qlari fazoda o'zaro $109^{\circ}28'$ burchak (tetraedrik burchak) ostida yo'nalgan. Bu uglerod atomining birinchi valent holati deyiladi (29-rasm). Uglerod atomi atom orbitallaridagi elektronlarining gibrildanishgi potezasini birinchi marta L. Poling 1931-yilda taklif etgan. Uglerod atomi elektron qobiqlarining qo'zg'algan holatga o'tishi uchun 400-640 kJ/mol energiya sarflanadi.




29-rasm. Metan molekulasining fazoviy tuzilishi.

Alkenlarda C atomining ikkinchi valent holati namoyon bo'ladi. Bunda gibrid orbitallar hosil bo'lishi uchun 1 ta s- va 2 ta p-orbitallar qatnashadi, gibrildanmagan p-elektron orbitali o'z shakli va simmetriyasini o'zgarmay saqlab qoladi (30-rasm).



30-rasm. C atomining ikkinchi valent holasi—qo'shib turilgan (C atomining ikkinchi valent holasi)



31-rasm. Etan – (a), etilen – (b) va atsetilen – (d) molekulalarning tuzilishi va bog‘larning kattaliklari.

sp^2 -gibrid orbitallari valent burchagi 120° ga teng, ya’ni bu uchta orbital bir tekislikda joylashgan, gibridlashmagan p-orbital bu tekislikka perpendikulyar yo’nalgan. Alken tarkibidagi gibridlangan orbitallar bir tekislikda 3ta σ -bog‘lar hosil qilsa, 2 ta uglerod atomining gibridlashmagan AO o’zaro qoplanib, π -bog‘ MO ni hosil qiladi. Alkinlarda uchraydigan C atomining uchinchi valent holatida faqat 1 tadan s- va p-orbitallar gibridlanishda qatnashadi va bu orbitallar to‘g‘ri chiziq bo‘ylab gibridlashmagan elektronlarning orbitallari o’zaro perpendikulyar tekisliklardek yo’nalgan bo‘ladi.

Uch xil valent holatidagi C atomlarining gibrildi orbitallari o’zaro farq qiladilar. Gibrildi orbitaldagagi s-elektronning foiz miqdori ortishi bilan ularning fazoviy shakli cho’zinchoq ellips shaklidan sharsimon shaklga yaqinlashadi, ya’ni gibrildi orbitaldagagi elektron bulut uzunligi qisqaradi. O’z-o’zidan tushunarlik, bu qatorda C-H bog‘lari ham qisqaradi va bu bog‘larning qutbliligi, qutblanuvchanligi ham o’zgarib boradi:

$$d_{(C-H)}^{sp^3} = 1,102 \text{ E} \quad d_{(C-H)}^{sp^2} = 1,09 \text{ E} \quad d_{(C-H)}^{sp} = 1,06 \text{ E}$$

6-jadvalda ko’rsatilganidek, uglerod atomining qutblanishiga qarab elektromanfiyligi bir-biridan farqli ekanligi endi ravshan bo‘ldi. Haqiqatan ham, uglerod atomlarining elektromanfiyligi eksperimental aniqlanganda, ularning qiymatlari quyidagicha bo‘lib chiqdi:

sp -gibrildlangan uglerod atomi uchun – 2,75,

sp^2 -gibrildlangan uglerod atomi uchun 2,62,

sp^3 -gibrildlangan uglerod atomi uchun – 2,50.

ORGANIK REAKSIYALARING TURLARI


Atom va molekulalarning kimyoviy o’zaro ta’sirlashuvining bosh omilini reaksiyaga kirishuvchi atomlarining tashqi elektron qavatidagi valent elektronlari belgilaydi. Atomlarining o’zaro ta’sirlashuvida AO birlashib boglovchi MO hosil qiladi. Bu jarayon minimal ichki energiyali barqaror molekula hosil qiluvchi kimyoviy bog‘ paydo bo‘lganini anglatadi, ya’ni kimyoviy reaksiya paytida tashqi elektron qavatidagi elektronlarning qayta taqsimlanishi sodir bo‘ladi.

O’zaro reaksiyaga kirishuvchi birikmalarning tabiatiga ko‘ra organik reaksiyalarni 4 ga bo‘lish mumkin; a) ***o’rin olish***, b) ***birikish***, d) ***ajralish***, e) ***qayta guruhanish***. Odatda, reaksiyaga kirishadigan asosiy organik muddani shartli ravishda “***substrat***”, ikkinchisini “***reagent***” deb nomlash qabul qilingan.

A. O'rın olish reaksiyaları

Molekulalari turkibidagi bir atom yoki atomlar guruhining ikkinchi atom yoki atomlar guruh bilan almashitiruvchi jarayonlarga o'rın olish reaksiyaları deyiladi. Bu sildagi reaksiyalar S_s belgisi bilan belgilanadi (*substitutio* - o'rın olish degani). Reaksiyalarda kovalent bog'ning uzilishi ikki xil amalga oshadi va bu jarayon kimyoviy reaksiya mexanizmi deyiladi. Bu xil reaksiyalarga **gomolitik va geterolitik mexanizmda** boruvchi reaksiyalar deyiladi.

Gomolitik (yoki radikal) mexanizmda reaksiyaga kirishuvchi moddalar molekulasidagi elektron juftining uzilishi bilan boradi va bu reaksiyalarga radikal o'rın olish yoki gomolitik reaksiyalar (S_r) deyiladi:




Bu reaksiyalarda yangi bog' hosil bo'lqanda reagent va substratning har ikkallasidan bittadan elektron qatnashadi. Radikal reaksiyalar yorug'lik ta'sirida, yuqori haroratda, urkin radikallar ta'sirida boradi. Bu reaksiya qutblanmagan erituvchitarda oson amalga oshib zanjir reaksiyalar hisoblanadi, ya'nii boshlangan reaksiya reagentlarning biri tugamaguncha davom etaveradi.

Geterolitik mexanizmda reaksiyon moddalarining biridagi elektron jufti buzilmasdan reaksiya mahsuloti molekulasiga o'tadi. Bu reaksiyalarni ionli reaksiyalar deb atashni biz anorganik kimyo kursidan bilamiz. Ionlarning zaryadiga ko'ra geterolitik reaksiyalar ikki xil bo'ladi.

1. Agar reaksiyanı boshlovchi reagent mansiy zaryadli bo'lsa, bunday reagentlar nukleofil zarrachalar deb ataladi va jarayon nukleofil o'rın olish reaksiyasi deyiladi (S_N):




Aksincha, ayrim reagentlar elektron zichligining kamligi bilan belgilanadi {kationlar - $+\text{NO}_2$, $[\text{C}_6\text{H}_5-\text{N}=\text{N}]$, yoki elektron bulut zichligi past molekulalar SO_3^- , BF_3^- } va ular substratning elektron zichligi katta bo'lgan markazlari bilan reaksiyaga kirishadi. Bu kabi zarrachalar reagent hisoblanib, reaksiyaga esa o'rın olish reaksiyasi deyiladi (S_E):




B. Birikish reaksiyalari

Qo'shbog' tutgan to'yinmagan organik moddalar tarkibidagi π - bog'ning uzilishi hisobidan atom yoki molekulalarning kiritilishiga ***birikish reaksiyaları*** (A) deyiladi. Organik kimyo kursidan birikish reaksiyalariga ko'p misollar keltirish mumkin:


a) *Gidrogenlash* – vodorodning katalitik birikishi;



b) *Gidratlanish* – suvning birikishi:



d) *Gidrogalogenlash-* galogenvodorođnina birikishi:



To'yinmagan uglevodorodlarda uglerod atomlari soni ikkidan ortiq va qo'shbog'ga nisbatan nosimmetrik tuzilishli bo'lsa, vodorod atomi eng ko'p gidrogenlangan C atomi bilan, halogenlar yoki suv molekulasining gidroksili kam vodorod tutgan C atomi bilan birikadi. Bu birikish Markovnikov qoidasi bilan belgilanadi.

c) **Glogenlash reaksiyalari** - galogenlarning birikishi;



6) Polimerlanish reaksiyalari, ular bir xil monomerler yordamida (izopolimerlanish) yoki har xil monomer molekulalari ishtirokida (sopolimerlanish) amalga oshishi mumkin. Har qanday polimerlanish uch bosqichda kechadi;

- I bosqich - zanjirni initsiirlash,
II bosqich - zanjirning o'sishi,
III bosqich - zanjirning uzilishi


t bosqich



H bosqich (n → polimerlanish darajasi)



III bosqich




D. Ajratish reaksiyaları


Ajralish reaksiyalarida (**E**) birikish reaksiyalariga (**A**) qarama-qarshı ravishda organik birikma molekulasiida karralı bog' hosil bo'lishi amalga oshadi:

- a) degidrogenlash reaksiyasi;
 - b) degidratlanish reaksiyasi;
 - c) degidroogenlash reaksiyasi;
 - d) ichki molekulyar nukleofil qayta guruhlanish:






Ajralish reaksiyaları ko'pincha elektrofil yoki nukleofil reagentlar ta'sirida amalga oshadi:




F. Qayta guruhanish reaksiyaları

Qayta guruhanish reaksiyaları ichki va boshqa molekulalardan orasida o'zaro amalga oshadi. Agar qayta guruhanish jarayonida ajraladigan zarracha shu molekulaning o'szida ko'chsa, ichki molekulyar reaksiya deyiladi. Reaksiyada ko'chadigan zarracha bir molekuladan ajralib ikkinchisiga biriksa, molekulalararo qayta guruhanish reaksiyası deyiladi. Ular, asosan, geterolitik xarakterga ega bo'ylib, yoki nukleofil zarracha ta'sirida amalga oshadi, ammo ba'zan radikal mexanizm bo'yicha ham borishi mumkin.

a) ichki molekulyar qayta guruhanish:



b) ichki molekulyar nukleofil qayta guruhanish:



Bu misollardan ko'rinadiki, qayta guruhlanish reaksiyalarida ajralgan zarracha qayta birikib, barcharor moddalarga aylanadi.


Organik reaksiyalarning mexanizmi huqida tushuncha

Reaksiya mexanizmiga ko'ra yoki kovalent bog'ning uzilishi va substratga ta'sir etuvchi reagentning tabiatiga ko'ra organik reaksiyalar radikal, va nukleofil deb sinflanadi. Biz yuqorida asosiy organik jarayonlar sifatida o'rin olish (S_n), birikish (A) va ajralish (I) reaksiyalarini amalga oshishni e'tirof etdik. Bu reaksiyalarning har biri tabiatiga ko'ra radikal (R), nukleofil (N) va elektrofil (E) bo'ladi. Ayrim reaksiyalar mexanizmiga ko'mi yana bir necha xilga ajraladi, masalan: S_n1 – ko'p bosqichli nukleofil o'rin olish reaksiysi, S_n2 – bir bosqichli nukleofil o'rin olish reaksiysi.


Organik reaksiyalarning bunday sinflanishi hujatgina shartli model sifatida qabul qilingan, ko'pincha jarayon ancha munakab ko'rinishida amalga oshadi. Ba'zan bir molekuladning ikki qismiga birl nukleofi, ikkinchisi elektrofil bo'lgan ikki reagent hujum boshlaydi va oraliq modda sifatida ikki, uch yoki undan ortiq molekulalardan tarkib topgan halqali birikimlar hosil bo'ladi. Bunday reaksiyalarga "halqali birikish" reaksiyalari deb aytildi, hosil bo'lgan halqali oraliq holat elektronlarning ejishti oqibatida barcharorlashuv, ba'zan esa buzilishi ham mumkin.

A. Radikal reaksiyalar

O'rin olish reaksiyasini boshlovchi zarracha radikal reagent bo'lsa, bu radikal o'rin olish (S_n1) mexanizmi deyiladi. Masalan, metanning xlorlanishida reaksiyanı boshlovchi radikal reagent $\text{Cl}\cdot$ quyosh nuri ta'sirida Cl_2 molekulasing parchalanishidan hosil bo'ladi va reaksiyanı boshlaydi. Radikallar hosil bo'lishi reaksiyaning boshlanishi va quyosh nuri initsiator deyiladi. Hosil bo'lgan $\text{Cl}\cdot$ radikallari substrat CH_4 molekulalari bilan to'qnashib, yangi radikallarni vujudga keltiradi (zanjirning o'sishi), ikki erkin radikalning o'zaro to'qnashib birikishi zanjir reaksiyaning to'xtashiga (zanjir uzilishi) olib keladi.




Birikish reaksiyalari (A_R) jarayonida erkin radikal reaksiya zanjirini boshlaydi:




Propen kabi nosimmetrik alkenlarga HBr birikishi mexanizmi bo'yicha birikadi. Ammo reaksiya peroksidlar ishtirokida amalga oshirilsa, radikal mexanizm bo'yicha Markovnikov qoidasiga zid birikish reaksiyasi amalga oshadi. Bu Xarashning "peroksid effekti" deyiladi:

- a) peroksidlar $\longrightarrow R^{\cdot}$
- b) HBr + R[·] $\longrightarrow RH + Br^{\cdot}$
- c) CH₃-CH=CH₂ + Br[·] $\longrightarrow CH_3 - 'CH - CH_2Br$
- e) CH₃-CH-CH₂Br + HBr $\longrightarrow CH_3 - CH_2 - CH_2Br^{\cdot} + Br^{\cdot}$

Ajralish reaksiyalari ham radikal ta'sirida amalga oshadi (E_R). Yuqori alkanlarning krekingida (pirolitik parchalanish) C-C bog'lari gomolitik uziladi:




Hosil bo'lgan radikallar juda beqaror va ularning har xil parchalanishi kuzatiladi. Reaksiyaning keyingi bosqichlari turli yo'nalishda amalga oshadi:



B. Nukleofil reaksiyalar

Bunda substrat (yoki uning qismi) nukleofil reagent ta'sirida reaksiyani boshlaydi. Nukleofil o'rin olish reaksiyalarda (S_N) nukleofil reagent substrat tarkibidan atom yoki atomlar guruhini siqib chiqaradi va bog' geterolitik uziladi:



Monogalogenli hosilalarga ishqorning suvli eritmasi ta'siri bunga misol bo'ladi:




Nukleofil o'rinni olish reaksiyalarini olinigan substratning tuzilishi va tabiatiga ko'ra ikki bosqichda (S_N1) yoki bir bosqichda (S_N2) amalga oshishi mumkin.

Ikki bosqichli mexanizmda (S_N1) dastlab bir nukleofil o'rmosar ajraladi, ikkinchi bosqichda bosqiq nukleofil zarracha hosil bo'lgan karboniy ioniga birkaldi. Bu reaksiyaning birinchi bosqichini amalga oshirish uchun aktivlanish energiyasi surʼanadi. Reaksiyaning ikkinchi bosqichi juda oson oson amalga oshadi:




Bir bosqichli (S_N2) reaksiyada begona nukleofil zarrachaning hujumi va substrat tarkibidagi nukleofilning ajralishi bir bosqichda sodir bo'ladi:




S_N2 reaksiyalarning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, substrat molekulasi tuzilishi o'zgaradi (inversiya hodisasi). Oddiyroq qilib aytganimizda, optik faol D-modda o'zining anti podi L-izomerga aylanadi (yoki aksincha L \rightarrow D):



Alkenlarda doimo C = C bog‘larida birikish radikal (A_R) yoki (A_E) mexanizm bo‘yicha amalga oshadi, chunki qo’shbog‘ katta elektron bulut zichligiga ega. Ammo aldegid va ketonlarning karbonil guruhi C=O dagi kislorod atomining yuqori elektromansiyfigi tufayli uglerod atomida qisman musbat zaryad yig‘iladi va nukleofil zarrachaning hujumiga moyil bo‘ladi:




Nukleofil ajralish reaksiyalarida (E_N) nukleofil o‘rin olish reaksiyasidek (CH), ikki bosqichli reaksiyada karboniy ioni yoki bir bosqichli reaksiyada oraliq kompleks hosil bo‘ladi. Shunga ko‘ra, E_N1 va E_N2 reaksiyaları mexanizmlari o‘rganilgan. E_N reaksiyaları bilan S_N reaksiyalarining o‘zaro raqobati natijasida almashib turadi. Masalan, agar etil xloridiga ishqorning suvli eritmasi o‘rniga spiritli eritmasi ta’sir etsak, S_N1 reaksiyasi o‘rniga ikki bosqichli E_N1 -deigidrogalogenlash reaksiyasi amalga oshadi va to‘yinmagan uglevodorod olinadi:




D. Elektrofil reaksiyalar

Nukleofil substratga (yoki molekulaning nukleofil markaziga) reagent tomonidan hujum bilan boshlanadigan jarayonlar elektrofil reaksiyalar deyiladi. O‘rin olish reaksiyaları (S_E) natijasida substrat molekulasiidan ajraladigan zarracha elektron juftini uglerod atomiga qoldiradi.




O‘rin olish reaksiyaları aromatik uglevodorodlar uchun xosdir. Reaksiya ikki bosqichda amalga oshib, avval zarracha aromatik halqa bilan π -kompleks hosil qiladi va keyin areniy kationiga aylanadi. Reaksiyaning uchinchi bosqichida

H^+ ioni ajralib, musbat zaryadli areniy kationi burqarorlashadi. Areniy kationidagi musbat zaryad butun aromatik halqa bo'ylab delokallashadi, bu reaksiyada katalizator sifatida (AlCl_3 , FeCl_3) ishlataladi:



Odatda, alkenlardagi $\text{C} = \text{C}$ qo'shbog'larini birikish reaksiyalari oson kirishadi, chunki qo'shbog' elektron buluti π -chligi katta va uning π -elektronlari harakatchamdir. Etilen bilan vodorod cloridining birikish reaksiyasi bunga misol bo'ladi. Birinchil bosqichda HCl daqt bog' geterolitik uzilib, H^+ ioni substrat qo'shbog'i bilan π -kompleks hosil qiladi. Ikkinci bosqichda E_{aktiv} yutgan π -kompleks karboniy ioniga nylanadi. Reaksiyaning uchinchi bosqichida C^+ ioni reaksiyaning birinchisi boqichida hosil bo'lgan elektron jufti tutgan nukleofil Cl^- bilan birikadi:



Galoidvodorod o'rniiga galogenlar ham qo'shbog'ga elektrofil mexanizm bo'yicha birikadi. Molekulaning qutblanishi erituvchi yoki katalizator ta'sirida kechadi, yoki reagent molekulasi substrat qo'shbog'iga yaqinlashgach, qutblanadi va bog' geterolitik uziladi. Masalan, bromlash reaksiyalarida Br_2 molekulasi geterolitik parchalanib Br^+ va Br^- ionlariga aylanadi. Br^+ kationi biriksa, Br^- anioni nukleofil birikib, reaksiyani tugatadi.

Tayanch iboralar

Organik kimyo. Vitalizm. Organik birikmalarning tuzilish nazariyasi. Radikallar nazariyasi. Iqlar nazariyasi. Kimyoviy tuzilish. Izomeriya tushunchasi. Stereokimyo. Organik moddalarning xomashyo manbalari (toshko'mir, qo'ng'ir ko'mir, neft, tabiiy gazlar, slanets, torf, o'simliklar va tirik jonivorlar dunyosi).

Organik moddalarni tozalash usullari (haydash, fraksiyalb haydash, suv bug'i bilan haydash, qayta kristallah, sublimatlash yoki quruq haydash, ekstraksiyalash, xromatografik usullar). Organik moddalarning sifat va miqdoriy tahlili. Zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari (UB-, IQ-, YAMR-, EPR spektroskopiylari, mass-spektrometriya, rentgenstruktur tahlil, belgilangan atomlar usuli, nazariy kvant-kimyiviy hisoblashlar). Moddalarning sindirish ko'rsatkichi, dipol momenti. Elektromagnit to'lqinlar. Monoxromator. Eritmadan o'tgan nur intensivligi. Buger-Lambert-Ber qonuni. Asosiy va qo'zg'algan holat. Aylanma, tebranma va elektron o'tishlar. Valent va deformatsion tebranishlar. Simmetrik va antisimmetrik tebranish chastotalari. Yadrolarning magnit xossalari. Yadro magnit rezonansi. Protonlarning elektron qurshovi va magnit rezonansi. YAMR spektrining parametrlari (kimyoviy siljish, signallarning intensivligi, signallarning ajralishi). Paskal diagrammasi. Spin-spin ta'sir, spin-spin ta'sir kostantasi (SSTK). YAMR spektroskopiya etalonlari. Mass-spektrometriya. Molekulyar-ion, kation, kation-radikal, bo'lakli ionlar.

Struktur, fazoviy, dinamik izomeriya turlari. Optik izomeriya, optik anti podlar, enantiomerlar, ratsemat aralashma, diastereomerlar. Organik moddalarning sinflanishi. Funksional guruhlar. Kimyoviy bog' tabiat. Kovalent bog'. Induktiv effekt. Semi polyar bog', vodorod bog'. Bog' energiyasi. Atom va molekulyar orbitallar. Elektron orbitallarining gibridlanishi. Organik reaksiya turlari. O'rinc olish, birikish, ajralish qayta guruhanish reaksiyalari. Reaksiya mexanizmi. Gomolitik va geterolitik mexanizmlar. Radikal, nukleofil va mexanizmlar.

Nazorat savollari

1. XIX asrgacha yashab, ijod etgan olimlardan qaysi birlari organik moddalar bilan ishlagan?
2. Bersellius Y.Ya., Vyoler F., Gmelin L., Shorlemmer K., Kuper R., Kekule A., Butlerov A.M. kabi olimlarning hayoti va ijodiy faoliyati haqida nimalarni bilasiz?

3. Organik kimyo fani va predmetini siz qanday tu'rillagan bo'lar edingiz?
4. XIX usmning birinchi yarmigacha bo'lgan davrdagi organik kimyoning nazariyasi asoslari haqida gapirib bering.
5. Sizning fikringizcha, hozirgi zamon talabolariga tiflar va radikallar nazariyasi bilan tanishuvni kerakmi?
6. Organik moddalarga xos xususiyatlarni bilasizmi? Fikringizni reaksiya tenglamalari va mukollar bilan izohlang.
7. Izomeriya hodisasini tushuntirib bering.
8. Yet yuzida tarqalgan organik moddalardan sonashyo nambahalarini qayd qiling.
9. Organik birikmalarning sinflanishida nimalgan e'tibor beriladi?
10. Geometrik izomeriya qaysi uglevodoroddarda uchraydi?
11. Optik izomeriya hodisasini kim kashf etgan?
12. Organik birikmalar tarkibidagi atomlar va atom guruhlarini bir-biriga ta'sir ko'shatadimi?
13. Sirka hidroja amidi uchun Lyuds formulasini yozing. Bu birikmadagi azot atomini to'la taysiflang (valentligi, kovalentligi, koordinatsion soni).
14. Hozirgi kunde organik birikmalarning tuzilishini A. M. Butlerov va kvant-kimyoiy nazariyalar orasida tushuntirildi. Nega bu ikki nazariya bir-birini rad etmaydi?
15. To'lqin funksiyasi, elektron orbitali va elektron bulut terminlarining mohiyatini oshib bering.
16. Qutblilik va qutblanuvchi hoidlik so'zlarining mohiyati nimani anglatadi?
17. "Elektron orbitallarining gibridlanishi fizikaviy hodisa" - degan tushunchani izohlang.
18. Nega $\text{H}_2\text{C}=\text{O}$ molekulasiidagi C atomining $\delta+$ zaryadisi $\text{H}_2\text{C}(\text{OCH}_3)_2$ molekulasiidagi C atomi zaryadiga nisbatan kattaroq?
19. $\text{H}_2\text{C}=\text{O}$ va $\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CH}=\text{O}$ molekulalaridagi π -bog'lar tizimi orasida qanday farq bor?
20. $\text{R}_2\text{C}=\text{O}$ va $\text{R}_2\text{C}=\text{PR}_3$ (R - eng oddiy uglevodorod radikallari) birikmalari tarkibidagi o'rinnbosarlarning mezomer effektlari orasida farq bormi?
21. $\text{ClCH}_2\text{N}(\text{CH}_3)_2^+$ birikmasining suvdagi eritmasi ion xossalalarini namoyon qiladi. Buning sababi nimada deb o'ylaysiz?
22. $(\text{CH}_3)_2\text{C}=\text{CHC}_2\text{H}_5$ moddalarning geometrik izomerlarini yozing va nomlang.
23. Analitik va organik kimyo hamda fizikaviy va organik kimyo fanlari orasida genetik aloqalar mavjudmi?
24. Organik moddalarning termik parchalanishi natijasida metil, izopropil va uchlamchi-butil radikallari hosil bo'ldi, ularning qaysi biri barqaror va qaysi biri juda beqarorligini tushuntiring.

25. Organik moddalarni sinflarga ajratishda nimaga e'tibor berish lozim?
26. Organik birikmalardagi kimyoviy bog' tabiatini va uning hosil bo'lish mohiyatini tushuntiring.
27. Uglerod atomidagi gibridlanish hodisasi nimani tushuntiradi?
28. Kimyoviy reaksiya turlari va mexanizmlarini tushuntirib bering.

Adabiyotlar

1. Грандберг И.И. Органическая химия.- Москва.- "Дрофа".- 2002.- С- 3-144.
2. Pirmuxamedov I. Organik kimyo.- Toshkent.- "Meditina".- 1987.- 5 – 58- betlar.
3. Вивюрский В.Я. Вопросы, упражнения и задачи по органической химии с ответами и решениями.- Москва.- "Владос".- 1999.- 688 с.
4. Umarov B.B. Fizikaviy tadqiqot usullari fanidan ma'ruzalar matni.- Buxoro.- "Ziyo-Rizograf".- 2000.- 176-bet.

ATSIKLIK BIRIKMALAR ALKANLAR

Uglerod va vodoroddan tarkib topgan eng oddiy organik birikmalarga uglevodorodlar deyiladi. Uglerod uglerod bog'ining tabiatiga qarab ular bir necha guruhga bo'linadi. Molekulasida har bir uglerod atomi boshqa uglerod atomlari bilan oddiy σ -bog' hosil qilgan to'yingan organik birikmalarga **alkanlar** yoki to'yingan uglevodorodlar deb aytildi.

Alkanlar (to'yingan uglevodorodlar) atomlari orasidagi σ -bog'lar mavjud va bu molekulalarda uglerod atomi sp^3 -gibridlangan holatda bo'ladi (uglerod atomining birinchi valent holati).

Alkanlarning gomologik qatori

Alkanlarning dastlabki eng oddiy vakillari - metan va etan molekulalarini o'zaro taqqoslasak, etan molekulasi metan molekulasidan CH_2 -guruh bilan farq qilishini ko'ramiz. Xuddi shunday propan etandan, butan propandan, pentan butandan va hokazolar CH_2 -guruh bilan farq qiladi. Demak, uglevodorodlarning har bir a'zosi o'zidan oldingi va keyingi a'zosidan CH_2 -guruh bilan farq qiladi.

- Kimyoviy xossalari jihatidan o'xshash bo'lib, molekulalarining tarkibi jihatidan bir-biridan bir yoki bir necha CH_2 -guruh bilan farqlanadigan birikmalar **gomologlar** deb ataladi va ular **gomologik qatorni** hosil qiladi.


- To'yigan uglevodorodlarning umumiy formulasi $\text{C}_n\text{H}_{2n+2}$ bilan ifoda lanadi ($n = \text{uglerod atomlari soni}, 2n + 2 = \text{esa vodorod atomlarining soni}$).

Izomeriyasi va tuzilishi


- Tarkibi va molekulyar massasi bir xil, ammo tuzilishi har xil bo'lib, fizik va kimyoviy xossalari jihatidan farqlanadigan birikmalar izomerlar deyiladi.

Alkanlarning gomologik qatorida izomeriya hoidasi C_n vakildan, ya'ni butandan boshlamadi. Butan ikkita, pentan uchta, geksan esa beshta izomerga ega. Masalan:

C_4H_{10} ning izomerlari:



C_5H_{12} ning izomerlari:



— I





— II

— III

Ikkala holda ham ushbu uglevodorodlar bir xil molekulyar formulalarga (C_4H_{10} va C_5H_{12}) va molekulyar massaga ega bo'lib, ammo tuzilishlari bilan farqlanadi. Birinchi holda uglerod atomlari tarmoqlanmagan zanjir yoki, boshqacha aytganda, normal zanjir hosil qiladi. Ikkinci va uchinchi hollarda esa uglerod zanjiri tarmoqlangan yoki izo-tuzilishdagi zanjir hosil qiladi. Bunday birikmalar izo-birikmalar deyiladi.


Uglerod atomi o'zidan boshqa faga't bitta uglerod atomi bilan bog'langan bo'lsa, birlamchi (I), ikkita uglerod atomi bilan bog'langan bo'lsa, ikkilamchi (II), uchta uglerod atomi bilan bog'langan bo'lsa, uchlamchi (III) va nihoyat, to'rtta uglerod atomi bilan bog'langan bo'lsa, to'rtlamchi uglerod atomi (IV) deb ataladi.

Masalan:



Bir yoki bir necha vodorod atomlari siqib chiqarilgan uglevodorod qoldig'i uglevodorod radikali – R deviladi. Agar radikalda alkanga nisbatan bitta vodorod atomi kam bo'lsa, u holda bir valentli – alkil bo'ladi. Alkillar sohlatda beqaror bo'lib, kimyoviy reaksiyaga kirishish qobiliyati juda yuqori bo'lган – zarrachadir. Alkil radikallarining nomi tegishli alkan nomidagi –an qo'shimchasini –il qo'shimchasiiga almashtirish bilan hosil qilinadi.

Masalan:




Nomenklaturasi



Organik birikmalarni nomlashda asosan, trivial, ratsional va xalqaro (IUPAC – International Union of Pure and Applied Chemistry inglizcha nazariy va amaliy kimyo xalqaro ittifoqi so'zlarining bosh harflari) nomenklaturalardan foydalaniladi. IUPAC nomenklaturasi maxsus komissiya tomonidan ishlab chiqilgan qoidalarni 1957 va 1965- yillarda o'tkazilgan syezdalarida ko'rib chiqib, kimyogarlarga tavsiya qildi. Bu nomenklaturadan ilmiy adabiyotlarda va darsliklarda keng foydalaniladi. Ba'zida bu nomenklatura radikal-funksional nomenklatura deb ham yuritiladi. IUPAC tomonidan karbotsiklik va geterotsiklik birikmalar uchun maxsus nomlash tartibi ishlab chiqilgan. Nomenklaturaning asosiy vazifasi moddaning nomlanishi bilan uning tuzilish formulasini to'g'ri yozish yoki yozilgan tuzilish formulasiga qarab uni nomlash imkoniyatini berishdan iborat.

Gomologik qatordagi dastlabki to'rtta vakillari: metan, etan, propan va butan trivial nomga ega. Shu qatordagi boshqa vakillarni nomlashda molekula tarkibidagi uglerod atomlari sonining grekcha nomi asos qilib olinadi. Masalan, C_5H_{12} tarkibli uglevodorod pentan, C_6H_{14} -geksan, C_7H_{16} -heptan va hokazo.




Uglevodorodlarning ratsional nomenklatura bo'yicha nomlashda metan nomi asos qilib olinadi. Barcha tuzilishga ega bo'lган uglevodorodlar metanning hosilasi deb qaraladi, masalan:



Murakkab tuzilishdagi uglevodorodlarning nomlanishi:



IUPAC nomenklaturasi bo'yicha tarmoqlangan zanjirbekalkanlarni nomlash quiyidagicha amalga oshiriladi. Birikmani nomlashda asosiy zanjirdagi uglerod atomlarining soniga mos keladigan uglevodorod nomi tanlab olinadi. Eng uzun va eng murakkab tuzilishdag'i uglerod atomlari zanjiri asosiy zanjir hisoblanadi. Agar uglevodorod zanjirida ikki yoki bir necha bir xil uzun zanjir mayjud bo'lsa, u holda eng ko'p tarmoqlanish soniga ega bo'lgan hosila asosiy zanjir sifatida tanlanadi. Asosiy zanjir aniqlangandan keyin uglerod atomlarini to'g'ri raqamlash kerak. Raqamlash yon o'rinnbosar yaqin tomondagi uglerod atomidan boshlanadi. Agar turli radikkallar zanjirning ikki uchidan baravar uzoqlikda turgan bo'lsa, raqamlash uglerod atomlari soni kam bo'lgan kichik radikal tomondan boshlanadi, misalani:



Alkanlarning olinishi

Alkanlar tabiatda keng tarqalgan moddalar bo'lib, uning quyi gomologlari (C_1 dan C_4 gacha) tabiiy gazning asosiy qismini tashkil etadi, neft esa alkanlar aralashmasining asosiy tabiiy manbayi sanaladi. Bundan tashqari, alkanlarning ayrimlari o'simlik dunyosi qoldiqlaridan ham ajratib olingan.

Laboratoriya da alkanlar turli sintetik usullar bilan olinadi. Ularning ayrimlarini ko'rib chiqamiz:

1. Alkenlarni gidrogenlash (qaytarilishi).




Bu xildagi gidrogenlash reaksiyalar uchun katalizator sifatida platina, palladiy, nikel metallari ishlataladi.

2. Alkilgalogenidlarning qaytarilishi


a) Katalitik qaytarilishi (qaytaruvchilar: Zn + HCl; LiAlH₄; Na + spirt)



b) Iodid kislota bilan qaytarish (1868- yil, Bertlo) Iodid kislota qizdirilganda vodorod va iod atomlariga parchalanadi, atomar vodorod esa kuchli qaytaruvchidir:



d) Alkil galogenidlarning magniy bilan ta'siri va oraliq mahsulotning gidrolizlanishi ancha qulay usuldir, bu reaksiyaning birinchi bosqichi suvsizlantirilgan (absolut) efir muhitida olib boriladi:





e) To'yingan monokarbon kislotalarning tuzlari o'yuvchi natriy, natron ohak yoki bariy gidroksid bilan aralashtirib qizdirilsa alkanlar hosil bo'ladi (Dyuma).



f) To'yingan monokarbon kislotalar tuzlarining suvdagi eritmasini elektroliz qilish (Kolbe, 1849- yil.):




Efir reaksiyada erituvchi va magniy bilan kompleks hosil qiluvchi Luis kislotasi sifatida qatnashadi, chunki efir kislorodi erkin elektron jutti hisobidan elektronodonorlik xususiyatini namoyon qiladi.



$X = Cl, Br, I$

Bu reaksiya yordamida metan deyarli miqdoriy unum bilan olinadi.




3. Vurs reaksiyasi (1855- yil, alkilgalogenidlarga natriy metalli ta'siri).


Reaksiya uchun bir xil alkilgalogenid olmasa, faqat birgina alkan hosil bo'ladidi:



Agar reaksiyaga 2 xil galogenakkum kiritilsa, uch xil alkan aralashmasi hosil bo'ladi:




Vurs reaksiyasi yordamida simmetrik tuzilishdagi alkanlar olinadi:




4. Karbon kislota tuzlarining elektrolizi. (Kolbe usuli, 1849- yil)

Kislota tuzlari eritmada ionlarga ajraladi, elektroliz vaqtida metall kationi katodga borib elektron biriktiradi va neytral atomga aylanadi. Bu atom suv bilan reaksiyaga kirishib ishqor liosil qiladi, hamda vodorod ajralib chiqadi.

Kislota qoldig'i esa anodda elektron beradi va erkin radikalga aylanadi. Bu radikal barqarorligi uchun CO_2 molekulasini ajratadi va hosil bo'lgan yangi ikki radikal o'zaro birikib alkan molekulasini hosil qiladi:



Elektrolizning umumiy ko'rinishi quyidagicha:



5. Karbon kislotalar va ular tuzlarining ishqor ta'sirida parchalanishi (dekarboksillash):



Odatda, ishqor o'rniiga natron ohagi ($\text{NaOH} + \text{CaO}$) olinadi:

Fizikaviy xossalari

Normal alkanylarning C_1 dan C_4 gacha bo'lgan a'zolari odatdagи sharoitda gaz, C_5 dan C_{17} gacha suyuqliklar bo'lib, C_{18} dan boshlab qattiq moddalardir. (9-jadval).

Molekulyar massalari ortishi bilan suyuqlanish va qaynash haroratlari oshib boradi, chunki molekulada atomlarning soni - qancha ko'p bo'lsa, molekulalararo kuch shuncha katta bo'ladi va ularni yengish uchun ko'p energiya talab qilinadi. Alkanlarning zichligi suvdan kichik. Molekulyar massasi oshib borishi bilan zichligi ortadi. Ular qutbsiz moddalar bo'lib, suvda, katta qutbli erituvchilarda erimaydi, ammo benzol, efir, xloroform kabi qutbsiz erituvchilarda yaxshi eriydi. Alkanlarning o'zi ham shunday moddalar uchun yaxshi erituvchidir.

Ayrim alkanlarning fizikaviy xossalari

Nomi	Formulasi	Suyuqlanish harorati, °C	Qaynash harorati, °C	Zichligi, g/sm ³ (suyuq holatida)
Metan	CH ₄	-183	-162	0,4150
Etan	C ₂ H ₆	-172	-88,5	0,5610
Propan	C ₃ H ₈	-187	-42	0,5853
Butan	C ₄ H ₁₀	-138	-0,5	0,60
Pantan	C ₅ H ₁₂	-130	36	0,626
Geksan	C ₆ H ₁₄	-95	69	0,659 (20°C da)
Geptan	C ₇ H ₁₆	-90,5	98	0,684 (20°C da)
Oktan	C ₈ H ₁₈	-57	126	0,703 (20°C da)
Nonan	C ₉ H ₂₀	-54	151	0,718 (20°C da)
Dekan	C ₁₀ H ₂₂	-30	174	0,730 (20°C da)
Undekan	C ₁₁ H ₂₄	-26	196	0,740 (20°C da)
Dodekan	C ₁₂ H ₂₆	-10	216	0,749 (20°C da)
Tetradekan	C ₁₄ H ₃₀	5,5	252	0,764 (20°C da)
Pentadekan	C ₁₅ H ₃₂	10	266	0,769 (20°C da)
Eykozan	C ₂₀ H ₄₂	36,4	343	0,778 (20°C da)
Pentakontan	C ₃₀ H ₆₂	93,0	342,7	-
Gektan	C ₁₀₀ H ₂₀₂	115,4	-	-

Alkanlarning IQ-spektrida ularga xarakterli bo'lgan 2800–3000 cm⁻¹ (C–H bog'ining valent tebranishi) va 1380–1470 cm⁻¹ (C–H bog'ining deformation tebranishi) atrofida yutilish chiziqlari qayd qilingan. C–C bog'larining yutilish chiziqlari juda zaif bo'lib; ular xarakterli spektral ma'lumotlarni bermaydi va olingan natijalar ko'pincha chalkashliklarga olib keladi.

Kimyoviy xossalari

Alkanlar kimyoviy jihatdan inert moddalardir. Odatdagi sharoitda konsentrangan sulfat kislotasi, qaynoq nitrat kislotasi, xromli aralashma, suyuqlantirilgan natriy gidroksidi alkanlarga ta'sir qilmaydi.

Alkanlarga xos reaksiyalar o'rinni olish va parchalanish reaksiyalaridir. Ularning molekulasiidagi o'zgarishlar vodorod atomlarining boshqa atom yoki guruuhda o'rinni olish va alkan zanjiridagi C–C bog'ining uzilishi natijasida ro'y beradi. Bu reaksiyalar juda qattiq sharoitda amalga oshadi. Odatda, reaksiyalar mahsuloti bir necha birikmalarining aralashmasidan iborat bo'ladi. Bu reaksiyalarning mexanizmi radikal o'rinni olish bo'yicha boradi. Haqiqatan

ham, faolligi juda kichik alkan molekulasining reaksiyoning qobiliyatini oshirish uchun ancha kuchli katalizator yoki o'ta faol zarracha – erkin radikal ta'sir etish kerak.




Alkanlardagi C–C va C–H bog'larining uzilishi uchun sarflanadigan energiya aniq o'lchangan: $E_{\text{C-C}} = 350 \text{ kJ/mol}$; $E_{\text{C-H}} = 413,7 \text{ kJ/mol}$. $E_{\text{C-H}} > E_{\text{C-C}}$ bo'lsa ham, dastlab reaksiya C–H bog'ining uzilishi hisobidan boshlanadi, chunki reaksiyani boshlovchi faol zarrachaning C–H bog'iga ta'siri fazoviy jihatdan C–C bog'iga ta'siridan ko'ra osonroq amalga oshadi.

Radikal ta'sirida bir necha C–H bog'lari uzilishi mumkin, ammo alkan tuzilishiga ko'ra bu bog'larni uzish uchun har xil energiya sarflanadi.

Bog'lar: $\text{CH}_3 - \text{H}$ $\text{CH}_2 - \text{CH}_2 - \text{H}$ $(\text{CH}_3)_2\text{CH} - \text{H}$ $(\text{CH}_3)_3\text{C} - \text{H}$
 $E_{\text{C-H}}, \text{ kJ/mol}$ 422,9 401,9 393,6 372,6

(Kelvin shkalasi bo'yicha 0 darajada)

Bu qiymatlardan ko'rindaniki, uchlasmchi uglerod atomi C–H bog'ini gomolitik uzish uchun kam energiya sarflanadi. Yuqoridagi birikmalardan hosil bo'ladigan radikallar barqarorligi ham har xildir:





1. Galogenlash reaksiyasi

Alkanlar ioddan boshqa galogenlar bilan reaksiyaga kirishadi:



Alkanlar fтор bilan bevosita reaksiyaga kirishsa, ular parchalanadi va vodorod fторidi hosil qiladi (reaksiya ekzotermik va fторning aktivligi katta).

Shuning uchun fторlash reaksiyasi azotli muhitda suyultirilgan fтор bilan olib boriladi.



Xlor alkanlar bilan ultrabinafsha nur ta'sirida $250\text{-}300^\circ\text{C}$ darajagacha qizdirilganda yoki katalizator ishtirokida reaksiyaga kirishadi.

Akademik N.N. Semyonovning metanni fotokimyoviy xlorlash jarayonidagi kuzatishlari bu reaksiya uchun quyidagi mexanizmini ko'rsatdi:

I. reaksiyaning boshlanishi:



II. zanjirning o'sishi:



III. zanjirning uzilishi:





Bu reaksiya zanjirli mexanizm bo'yicha metan molekulasi bilan barcha vodorod atomlarining slorga almashinishi bilan tugaydi, reaksiya mexanizmi shartli beligi = S_p (S = lotincha almashinish substitutio, R = radikal mexanizmi)

2. Sulfoxorlash va sulfooksidlash

Organik modda molekulasida sulfoguruhni ($\text{C}-\text{SO}_2\text{H}$) kiritish bilan boradigan reaksiya **sulfoxorlash** deyiladi. Sulfoxorlash reaksiyasidagi jastda birikmada C-S bog'i hosil bo'ladi. Odadagi sharoitda konentratsionli sulfat-kislota alkanlarga ta'ri etmaydi, yugor temperaturunda ularni oksidlaydi. Turaydigan sulfat-kislota = oleum metandan bosqqa alkanlar bilan qizdirilganda sulfoalkanlar hosil qiladi.




Bu reaksiya yong'likda yoki katalizator ishtirokida amalga oshadi. Sulfoxorlash reaksiyasini ham zanjirli erkin radikal mexanizmda boradi.




3. Nitrolash -(1888- yil, M.I. Konovalov reaksiyasi)

Organik modda molekulasiga nitroguruhni kiritish bilan boradigan reaksiyalarga **nitrolash** deyiladi. Bunda C-N bog' paydo bo'ladi.



Reaksiya natijasida bir qism alkan parchalanadi.



Reaksiya erkin radikal mexanizm bo'yicha boradi:

- a) $HO-NO_2 \longrightarrow NO_2 + HO^\cdot$
- b) $R-H + NO_2 \longrightarrow R^\cdot + HNO_2$
- c) $R^\cdot + HO-NO_2 \longrightarrow R-NO_2 + HO^\cdot$ yoki
 $R^\cdot + NO_2 \longrightarrow R-NO_2$
- d) $HNO_3 + HNO_2 \longrightarrow 2 NO_2 + H_2O$ yoki
 $2 HNO_2 \longrightarrow NO_2 + NO + H_2O$
 $HNO_3 + NO \rightleftharpoons 3 NO_2 + H_2O$


4. Oksidlash

Alkanlarning kislorod ishtirokida yonib katta issiqlik berishidan kundalik turmushda doimo foydalanamiz, bu reaksiya jarayonida tabiiy gaz yonib, karbonat angidridi va suvni hosil qiladi:




Alkanlar yuqori haroratda va kuchli oksidllovchilar ta'sirida $C - C$ bog'ining uzilishi bilan oksidlanaadi. Asosiy mahsulot sifatida karbon kislotalar va karbonat angidridi hosil bo'ladi. Sanoatda shu usul bilan 110-120°C da neft tarkibidagi yuqori molekulyar $CH_3-(CH_2)_n-CH_3$ ($n = 18-33$) parafinlarini $KMnO_4$ katalizatorligida havo bilan oksidlab, tarkibida 10 dan 20 gacha uglerod atomlari bor karbon kislotalar olinadi. Ular sovun pishirishda, sintetik yuvuvchi moddalar, surkov moylari, sintetik kauchuk, linoleum va boshqalarni ishlab chiqarishda ishlataladi.

Sanoatda metanni azot oksidlari katalizatorligida 500-600 °C da havo kislorodi bilan chala oksidlab, formaldegid olinadi:



Kreking

Yugorj molekulyar alkanlar 500-700 °C haroritda pirolitik parchalanadi va molekulyar massasi kichik bo'lgan to'yingan, to'yinmagan uglevodorodlar oralarhorda hosil bo'ladi (kreking jarayoni). Bu jarayon yordamida texnikada turli tuman mohsulotlar olinadi:




Alkanlar AlCl_3 yordamida izomerlanadi, platina iştirakida esa aromatik uglevodorodlar hosil qiladi. Kreking erkin radikal mehanizmi (Rays, 1931 yil) bo'yicha amalga oshadi:

a) parchalanish



b) disproportsiyalanish



c) birikish



d) izomerlanish



Ayrim vakillari

Metan CH_4 Hidsiz va rangsiz gaz, havodan yengil, suvda yomon eriydi, Botqoqlik yoki kon gazi deyiladi, chunki botqoqlikning havo kirmaydigan sharoitida o'simlik va tirik jonzodlarning qoldiqlari chirishi hamda yer ostida ko'mirning sekin parchalanishidan hosil bo'ladi. Metan tabiiy gazning asosiy tarkibiy qismi (90-98%)ni tashkil etadi. Ko'p miqdorda nefiting yo'ldosh gazlari va kreking gazlarida, shuningdek, yog'osh, torf, toshko'mirni quruq

haydashda hosil bo'ladigan gazlar tarkibida uchraydi. Metan uglerod va vodorodning nikel katalizatori ishtirokida bevosita ta'sirlashuvi natijasida ham olinishi mumkin:




Metan laboratoriya da quyidagi usullar bilan olinadi:

a) Aluminiy karbidga suv ta'sir etish orqali:



b) matriy atsetati tuzi va ishqor aralashmasini qizdirish yoki natron ohagi ($\text{NaOH} + \text{CaO}$) ta'sir etish yo'li bilan:



Sanoatda metan tabiiy gazdan olinadi. U hozirgi vaqtida bir qator muhim kimyoiy moddalar olinishi uchun dastlabki xomashyo sifatida keng ishlatalmoqda. Masalan, $1400-1500^{\circ}\text{C}$ da metanning pirolizi natijasida muhim gaz aralashmasi $\text{CO} + \text{H}_2$ (sintez-gaz) va to'yinmagan uglevodorodlarning eng muhim vakilidan biri – atsetilen hosil bo'ladi:



Etan C_2H_6 – suvda erimaydigan, rangsiz, hidsiz gaz. Tabiiy gazda (0,6–5%), neftning yo'ldosh gazlari (3–19,5%) tarkibida uchraydi. U sanoat miqyosida xlorli hosilalar, etilen, etilen oksidi, polietilen, etilenglikol, akrilonitril, etilbenzol va boshqa moddalarini sintez qilish uchun dastlabki xomashyo sifatida ishlataladi.

Izooktan C_8H_{18} – Benzin tarkibidagi uglevodorodlarning asosiy vakili. Avtomobil benzinining sifati va markasi izooktan miqdori bilan belgilanadi.

Surkov moylari $\text{C}_{18}-\text{C}_{25}$ tarkibli uglevodorodlardan iborat, ularning qaynash harorati $340-350^{\circ}\text{C}$ ni tashkil etadi.

Tayanch iboralar

Alkanlar. Gomologik qator. Botqoqlik gazi. Karbon kislota tuzlarining elektrolizi. Nomenklatura va uning turlari. Galogenlash. Sulfolash, sulfoksidlash, sulfoxolash. Nitrolash reaksiyaları. Kreking jarayoni. Surkov moylari.

Nazorat savollari

1. To'yingan uglevodorodlarning umumiy formulasini yozing.
2. Quyidagi uglevodorodlarning qaysi birlari alkanlar hisoblanadi: C_3H_6 , C_4H_8 , C_5H_{10} , C_6H_{16} , C_7H_{18} , C_8H_{12} , C_9H_{14} , $C_{10}H_{10}$?
3. $C=C$ oddiy bog'ining xususiyatlarini aytib bering.
4. Alkanlar tarkibidagi uglerod atomi qanday gibrid holatida bo'ladi?
5. Butil va ikkilamehi pentil radikallarining formulasini yozing.
6. 3-propileptan, 2,3-dimetilbutan, 2,2-dimetilpropan, 3,3,4-trimetilgeksan uglevodorodlarning formulasini yozing.
7. Alkanlarning to'la va qismi oksidlarni natijasida nimiral hosil bo'ladi? Reaksiya tenglamalarini yozing.
8. Butan, neopentan, 2,3-dimetilpentan, propanni nitrolash reaksiyalari natijasida qanday mahsulotlar olinadi?
9. Butan va 2,3-dimetilgeksan krektinglanganda nima bo'lib bo'ladi?
10. 60 litr (normal sharoitda) metan to'la yongandir qancha karbonat angidridi va surʼu bo'lib bo'ladi?
11. Natriy propinat tuzining elektrolyz natijasida qayd alkan olinadi?
12. 1,3 mol chiq nitrolanganda necha gramni nitrit kisloq surflanadi?
13. Gaz, suyuq va qutiq holdagi alkanlar qayordorda va qanday mag'sadlarda ishlataladi?
14. Pentandan 2-metilbutan olish mungkin? Reaksiya tenglamasini yozib, fikringizni izohlang.
15. Quyidagi moddalarining nomlari to'g'ri yozilganimi: a) 4-metilpentan, b) 2-etyl-3-metilbutan, d) 2,3-dimetilbutan, e) 2-etylpropan. Fikringizni isbotlash uchun tegishli alkan formulasini yozib ko'rsating.

Adabiyotlar

1. Грандберг И.И. Органическая химия.- Москва.- "Дрофа".- 2002.- С- 145 – 163.
2. Iskendarov S.I., Abdusamatov A.A., Shoymardonov R.A. Organik kimyo.- Toshkent.- "O'qituvchi".- 1979.- 97-127- betlar.
3. Pirmuxamedov I. Organik kimyo.- Toshkent.- "Meditina".- 1987.- 58-75- betlar.
4. Shoymardonov R.A. Organik kimyodan savol, masala va mashqlar.- Toshkent.- "O'qituvchi".- 1996.- 8-22- betlar.
5. Виворский В.Я. Вопросы, упражнения и задачи по органической химии с ответами и решениями.- Москва.- "Владос".- 1999.- С 11-12.

ALKENLAR (TO'YINMAGAN YOKI ETILEN, UGLEVODORODLAR)



Uglevodorod molekulalarida C—C va C—H bog'lanishdagi oddiy σ-bog'lardan tashqari yana C—C π-bog'lar mavjud bo'lsa, bunday birikmalar **alkenlar** yoki *etilen qatori to'yinmagan uglevodorodlar* deyiladi.

Alkenlarning gomologik qatori


To'yinmagan uglevodorodlar molekulasida vodorod atomlarining kamligi tufayli ular bir yoki bir necha qo'shbog'ga ega bo'lishi mumkin. To'yinmagan uglevodorodlar molekulasiidagi qo'shbog'ning soniga ko'ra alkenlar va alkadienlarga bo'linadi.

Molekulasida bitta qo'shbog' bo'lgan uglevodorodlar alkenlardir. Alkenlarning gomologik qatori C_nH_{2n} umumiy formula bilan ifodalanadi. Alkenlarning nomi tegishli to'yingan uglevodorodlar nomidagi -an qo'shimchani -ilen qo'shimchaga almashtirish yo'li bilan hosil qilinadi. Masalan, C_2H_4 – etan; C_2H_6 – etilen : C_3H_8 – propan: C_3H_6 – propilen va hokazo.

Sistematik nomenklaturaga binoan alkenlarni nomlashda ularning nomi tegishli to'yingan uglevodorodlar nomidagi -an qo'shimchasini -en qo'shimchaga almashtirish orqali hosil qilinadi. Qo'shbog' tutgan uglerod zanjiri asosiy zanjir deb olinadi. Zanjirdagi qo'shbog' o'rnnini ko'rsatish uchun uglerod atomlari raqamlanadi. Raqamlash zanjirning qo'shbog' yaqin bo'lgan uchidan boshlanadi. Zanjir tarmoqlangan bo'lsa, u holda uglerod atomlarining eng uzun zanjiri raqamlanadi. Bunda raqamlash zanjirning tarmoqlangan uchiga yaqin qismidan yoki qo'shbog'ga qaysi o'rnbosar yaqin turgan bo'lsa, shu uchidan boshlanadi:






Alkenlardan hosil bo'lgan uglevodorod radikallari nomiga –enil suffaksi qo'shib o'qiladi. Radikal erkin valentlikka ega bo'lgan uglerod atomdan boshlab raqamlanadi:





Izomeriya

Alkenlar qatorida ikki xil izomeriya mavjud. Bu qo'shibog' holatining izomeriyasi hamda fazoviy (sis-trans) izomeriyadur. Alkenlar oddiy vakillarining etilen va propilenlarning izomerlari yo'q. Buten qo'yidagi uchta izomerlarga ega. Buten-1 va buten-2 qo'shibog'ning holat izomerlari bo'lsa, 2-metilpropen esa tuzilish izomeriga misol bo'ladi.



S ta C atomiga ega bo'lgan uglerodvodorod pentenning 5 ta, geksemming 13 ta, nonenning 15 ta izomeri mavjud. Alkenlarda alkandardagi singuri uglerod-uglerod bog' atrofida ayrim metiller halqalar erkin harakat qilolmaydi. Shuning uchun vodorod atomlari va atomlar guruhi qo'shibog' atrofida har xil fazoviy joylashgan bo'lishi mumkin. Natijada fazoviy sis - trans izomeriya yoki geometrik izomeriya paydo bo'ladi.

Alkenlardagi o'rindbosarlar qo'shibog'ning bir tomonida joylashgan bo'lsa, sis-izomer, turli tomonida joylashgan bo'lsa, trans-izomer deyiladi. Buten-2 molekulasida atomlar bir tekislikda yotgani uchun CH_3 -guruuhlarining bir-biriga nisbatan joylashishi turliha bo'ladi:




Bu izomerlarning biridan ikkinchisiga o'rish uchun 250 kJ/mol energiya sarflab π -bog'ni uzish lozim. Bunday izomerlar diastereomerlar deyiladi. Qo'shibog' atrofida burilishi qiyin diastereomerga geometrik izomerlar deyiladi. Geometrik izomerlar faqat fizikaviy xususiyati bilan farqlanmasdan ular molekula shakli qutblanganligi bilan ham bir-biridan ajralib turadi. Diastereomerlarni fraksiyalab haydash usuli bilan ajratish mumkin. Bunday tashqari qayta kristallash yoki xromatografiya usulida ham ularni bir-biridan ajratsa bo'ladi.


Alkenlarning olinishi

Sanoat miqyosida alkenlar neft mahsulotlarini krekinglab olinadi. Ularning ayrim vakillarini sof holda ajratib olish mumkin. Molekuladagi oddiy C=C bog' o'miga C=C bog' kiritish uchun qo'shni uglerod atomlaridan ayrim o'mbosarlar ajratiladi.

1. Alkilgalogenidlarni degidrogalogenlash



Degidrogalogenlash mexanizmi C atomidan H⁺ ionini OH⁻ yordamida tortib olish bilan belgilanadi, ayni shu paytda X⁻ galogen anioni ham ajraladi:




Erkin radikallardan farqli ravishda C—H va C—X bog'lari nosimmetrik uziladi: galogen elektron jufti bilan uzilsa H⁺ ioni valent elektronlari justini uglerod atomida qoldiradi va bu elektron jufti π-bog' hosil qilishda qatnashadi. π-bog'ning hosil bo'lishi va C—X⁻ anioni spirtda solvatlanishida ajralib chiqqan energiyalar C—H va C—H bog'larini uzish uchun sarflangan energiyani to'liq qoplaydi. Ajralish reaksiyasi yo'naliishi hosil bo'ladigan alken molekulasi tuzilishiga bog'liq: alkenning barqarorligi qancha katta bo'lsa, reaksiya shuncha osonlik bilan boradi:





\longleftarrow Alkenlar barqarorligi

2. Spirtlarning degidratlanishi







Spirtlar tuzilishiga ko'ra suvning ajralish tezligi quyidagicha kamayib boradi:
uchlamchi > ikkilamchi > birlamchi.




2-metilpropanol-2 (uchlamchi spirit)

Spirtlarni suvsizhanirish uchun ular sulfat yoki fosfat kislota ihtiroyida 250°C gacha qizdiriladi yoki spirit bug'i $350-400^{\circ}\text{C}$ da Al_2O_3 ustidan o'tkaziladi.
Reaksiya tezligi spirit tuzilishiga ozviy ravishda bog'luq.



Spirtlar degidratlanganda karboniy ioni protonlangan R-OH₂⁺, spirt ionidan suv molekuläsining ajralishidan hosil bo'ladi:



Oraliq holat barqarorligi aktivlanish energiyasini pasaytiradi va reaksiya tezligi ortadi. Barqaror karboniy ioni juda tez hosil bo'ladi.


3. Vitsinal digalogenli hosilalarini degalogenlash




Bu usul qo'shbog'ni "himoya qilish" uchun eng qulaydir: alken avval bromlanadi va keyin qaytib qo'shbog'ga o'tiladi.

4. Alkinlarning qaytarilishi

Bu reaksiyada gidrogenlovchi agentlarni tanlab sis-va trans-izomerlarni olish mumkin.



5. Murakkab efirlarning termik parchalanishi



Fizikaviy xossalari

Alkenlar gomologik qatorining dastlabi uch vakili gaz, C₂ dan C₁₇ gacha bo'lganlari suyuqlik, C₁₈ dan yuqorilari qattiq moddalardir. Ularning fizik kattaliklari 10-jadvalda keltirilgan. Bu ma'lumotlardan ko'rinadiki, gomologik qatorda alkenlarning suyuqlanish va qaynash harorati, zichligi ortib boradi. Alkenlarning tarmoqlanmagan zanjirtli hosilalarini tarmoqlangan hosilalariga nisbatan yuqori haroratda qaynaydi. Ularning cis-izomerlari trans-izomerlariga qarnganda yuqori haroratda qaynaydi. Alkenlar suvda ermeydi, organik erituvchilarda (metil spirtdan tashqari) yoxshi eriydi. Alkenlarning barchasi yaxshi yonadi. Etilen va propilen tutab yonadi, hayvo bilan portlovchi aralashma hosil qildi.

Alkenlarning IQ spektrida 1650 sm⁻¹ sohadagi C=C qo'shbog'ga mos keladigan valent tebranish chastotalari namoyon bo'ladidi. Bundan tashqari spektrda deformatsion tebranish sifatida -CH₂ guruhi uchun 915 sm⁻¹ sohadagi hamda CH₂ guruh uchun 1000 sm⁻¹ sohalarda karakteristik yutilish chiziqlari kuzatiladi.

10-jadval
Ayrim alkenlarning fizikaviy xossalari


Nomi	Formulasit	Suyuqlanishi harorati, °C	Qaynash harorati, °C	20 °C dagi zichligi, g/sm ³
Etilen	H ₂ C=CH ₂	-169,1	-103,7	0,5700
Propilen	H ₂ C=CH-CH ₃	-187,6	-47,7	0,6100
Buten-1	H ₂ C=CH-CH ₂ -CH ₃	-185,3	-6,3	0,6300
Penten-1	H ₂ C=CH(CH ₂) ₂ CH ₃	-165,2	30,1	0,6400
Geksen-1	H ₂ C=CH(CH ₂) ₃ CH ₃	-139,8	63,5	0,6730
Gepten-1	H ₂ C=CH(CH ₂) ₄ CH ₃	-119	93,6	0,6970
Okten-1 Nonen-1	H ₂ C=CH(CH ₂) ₅ CH ₃	-101,7	121,3	0,7140
Detsen-1	H ₂ C=CH(CH ₂) ₆ CH ₃	-81,4	146,8	0,7290
	H ₂ C=CH(CH ₂) ₇ CH ₃	-66,3	170,6	0,7410

Kimyoviy xossalari

Alkenlar kimyosi – bu qo'shbog' xususiyatidir. Chunki "inert" alkil radikaliga nisbatan doimo molekula tarkibidagi biror funksional guruh yoki uning qutblangan qo'shni atomlar guruhi reaksiyada ishtirot etadi. Asosiy tipik reaksiyalar - bo'shroq π-bog'ning uzilib yangi ikki σ-bog' hosil

bo'lishidir Ko'pgina reaksiyalarda qo'shbog' xuddi asoslardek donor vazifasini o'taydi. U elektron juftini yo'qotgan (elektrofil agent) birikmalar bilan reaksiyaga kirishadi. Bu birikmalarni kislotalar deb qarash mumkin. Alkenlar ayrim hollarda erkin radikal mexanizm bo'yicha birikish reaksiyasiga kirishsa ham, ular uchun, asosan, elektrofil birikish reaksiyalari xosdir.


1. Katalitik gidrogenlash



Bu reaksiya yordamida birikkan vodorod miqdoriga qarab alken molekulasidagi qo'shbog'lar sonini aniqlash mumkin.

2. Galoidvodorodning birikishi

Alkenlar galoidvodorodlar HX ($\text{X} = \text{Cl, Br, I}$) bilan ta'sirlashib, tegishli alkilgalogenid hosil qiladi. Propen etilenden farqli ravishda, reaksiya sharoitiga ko'ra ikki xil mahsulot hosil qiladi.




V.V. Markovnikov ishlari (1869- yil) quyidagi qoidani isbotladi. Kislotalarning alken molekulasiga birikishida kislota vodorodi ko'p gidrogenlangan uglerod atomiga birikadi.



HCl va HI doimo Markovnikov qoidasiga muvofiq biriksa ham, HBr reaksiya sharoitiga qarab ba'zan boshqacha birikadi. M. Xarash va F. Mayoning ishlari bu hodisani tushuntirib berdi (1933- yil), ya'ni reaksiyon sistemaga ayrim ingibitorlar kiritilsa (gidroxinon, difenilamin), HBr alken molekulasi bilan Markovnikov qoidasiga teskari birikadi. Bu Xarashning "peroksid effekti" deyiladi. Reaksiya erkin radikal mexanizmi bo'yicha amalga oshadi:






3. Galogenlarning birikishi

Alkenlar inert erituvchilar (CCl_4) muhitida xlor va brom bilan oson reaksiyaga kirishadi. Bu reaksiya hozirgacha yinsinol digalogenli birikmalar olish usulining eng qulayidir.




Reaksiyan məzənimiz ikki bəsqlihdı analoji osbadı:




Brom molekulasi qutblanningan, ammox π -bog'ni hosti qılıqan elektron justi orbitali brom molekulasiga ta'sir etib uni qutblaydi.




4. Sulfat kislotaning birikishi




Alkilsulfatlar suv bilan oson reaksiyaga kirishadi va spirt hosil qiladi: masalan:







5. Suvning birikishi (gidratlanish)

Kislotalar ishtirokida alkenlarning qo'shbog'i suv molekulasini Markovnikov qoidasiga muvofiq biriktiradi:




Elektrofil birikish reaksiyasi ikki bosqichda amalga oshadi:




Reaksiyaning birinchi bosqichi – elektrofil zarracha hujumi bilan qiyin amalga oshadi va reaksiya tezligini belgilaydi:




Reaksiya mexanizmi birikish reaksiyasi yo'nalishi, alkenning reaksiyon qobiliyatini va qayta guruhlanishiga muvofiq keladi.





Reaksiya yo'nalishi qanday oraliq karboniy ioni hosil bo'lishi va uning tezligiga bog'liq. Alken qo'shbog'iga elektrofil birikish barqaror karboniy ion hosil bo'lish bosqichi orqali amalga oshadi, H^+ ionining qo'shbog'ga birikish tezligi karboniy ion barqarorligi bilan belgilanadi, barqaror karboniy kationi hosil qiluvchi alkenlarning reaksiyon qobiliyati quyidagicha kamayadi:



6. Alkillaş reaksiyasi




Bu reaksiya ham karboniy kionini orqali, lekin uch bosqichida amalga oshadi:




Reaksiyaning (d) bosqichida karboniy ioni alkan molekulasidan vodorod atomini valent elektron justi bilan qo'shib (gidrid-ion) tortib oladi va yangi karboniy ioni reaksiyani davom ettiradi.

7. Gipogalogenid kislotalarning birikishi



8. Polimerlanish reaksiyasi


Yuqori harorat va bosim ostida, kislorod ishtirokida etilen polimerlanadi:



Hosil bo'lgan yuqori molekulyar birikma – polimer, reaksiya uchun olingan oddiy etilen esa monomer deyiladi. Etilenning turli gomolog va hosilalari ham oson polimerlanadi va bunda turli o'rinxbosar tutgan polimer zanjiri hosil bo'ladi.

Polimerlanishni boshlash uchun initsiator sifatida peroksidlar olinadi, ular erkin radikal birikish reaksiyasini boshlab beradi va bu jarayon bir necha bosqichda amalga oshadi. Ammo bu usul, asosan, 1953-yillargacha keng ishlatildi. K. Sigler va J. Natta ishlaridan keyin turli katalizatorlarni qo'llash natijasida sanoatda etilenning ionli polimerlanishi joriy qilindi. Bu usulda olingan etilen polimerlanib tarmoqlanmagan zanjirli polimer hosil qiladi. Bunday polimer yuqori bosimda olingan polietilenden elastikligi jihatdan qolishsa ham, mustahkamligi va yuqori haroratga chidamliligi kabi afzalliklarga ega.

Propilen ham etilen kabi K. Sigler va J. Natta qo'llagan aluminiy etilati va titan xloridi ishtirokida oson polimerlanadi. Natijada polimerning tarkibidagi barcha metil guruhlari zanjir bir tomonida joylashgan **izotaktik polipropilen** olish imkoniyati yaratildi. Bu usuldagagi polimerlanish koordinatsion polimerlanish usuli deb nom oldi va sanoatga joriy qilindi. Polimerning zanjirining bunday tuzilishi uning yuqori mustahkamligini belgilaydi:




Undan sintetik tolalar olish mumkin, hatto poli propilen turli xil quvurlar tayyorlashda ham keng ishlataladi. Bu polimerning o'ta pishiqligi undan sintetik tolalar olishga ham imkoniyat yaratdi.

9. Oksidlanish reaksiyasi (Vagner reaksiyasi)


Odatda, KMnO_4 ning neytral muhitdag'i yoki ishqoriy eritmasidan foydalananish mumkin. Bu reaksiya HCOOOH – perchumoh kislota ishtirokida ham amalga oshiriladi. Reaksiya natijasida 'qo'shbog' uzilib, alken tarkibiga ikkita hidroksil guruhi kiritiladi.



Birinchi reaksiya natijasida sis-, ikkinchisida em trans-konformatsiyadagi glikollar hosil bo'ladi.





Kaliy permanganatining kislotali eritmasi ta'sir ettiligindan alken tarkibidagi 'qo'shbog'ning uzilishi hisobidan karbon kislotalari yoki kislota va ketonlar olinadi.




10. Ozonoliz (ozonlash reaksiyasi)

Birikish va o'r'in olish reaksiyalaridan tashqari alkenlar 'qo'shbog' hisobidan ajralish reaksiyasiga kirishadi va ikki kiclik molekulalarni hosil qiladi. Ozonlash reaksiyasi ikki bosqichda amalga oshadi. Dastlab ozon alkenning 'qo'shbog'iga birikib moysimon oraliq mahsulot (bezqor va kuchli portlovchi xususiyatga ega molozonid)ni hosil qiladi va so'ngra u suv ishtirokida qaytaruvchi agent bilan parchalanib, aldegid va ketonlarga aylanadi.






Qaytaruvchi agentning (rux kukuni) vazifasi aldegid va ketonlar bilan oson reaksiyaga kirishuvchi vodorod peroksidi hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslikdir. Olingan aldegid va ketonlar tuzilishi ularning reaksiyon qobiliyatiga ko'ra oson aniqlanadi va alkenning tuzilishi shu yo'sinda aniqlanadi:



II. Allil o'rin olish reaksiyasi

Hozirgacha alkenlarning qo'shbog'i orqali boradigan birikish reaksiyalarini o'rgandik. Ma'lumki, alkanlar ultrabinafsha nur ishtirokida yoki yuqori haroratda radikal mexanizm bo'yicha galogenlanadi. Alkenlar ham reaksiya sharoitiga ko'ra ikki xil reaksiyaga kirishadi:




Ayrim vakillari

Eten $\text{CH}_2=\text{CH}_2$. Etanga nisbatan past haroratda qaynaydi, neft krekingi jarayonida guda ko'p miqdorda hosil bo'ladi. Uning molekulasi UB spektrning uzoq sohasida ($\lambda = 180 \text{ nm}$) yutilish chizig'ini namoyon qiladi. Eten organik


sintezlar orasida sanoat miqyosida eng ko'p ishlab chiqariladi va kimyoviy korxonalar uchun xomashyo hisoblanadi. U o'stinivchi gormon hisoblanadi, mevalarning pishib etilishini boshqaradi va ularning rangini belgilaydi. Mahsulotlarning tez yetilishini ta'minlash uchun fermerlar mevali bog'larga etilenni purkab chiqadilar.

Kislotali muhitda eten va benzolning o'zaro reaksiyasidan stirol sintez qilinadi. Etilenni hidratlash bilan sintetik etil spirti va oksidlash orqali etilenglikolni kimyo sanoat korxonalarida ishlab chiqarish keng joriy qilingan.

Propilen $\text{CH}_3\text{CH}=\text{CH}_2$. Alosan, neftni krekinglab olinadi. Juda ko'p miqdordagi propilen polimer mahsulotlari ishlab chiqarishida surflanadi. Yaxshi erituvchi hisoblangan izopropil spirti sanoat miqyosida propilenni sulfat kislota ishtirokida hidratlab olinadi. Yuqori erituvchi xossaliga ega atseton ham sanoatda propilendan olinadi:



Butenlar C_4H_6 . Ugari qo'shibog'i tutgan alkenlarda geometrik izomeriya uchrashi haqida aytilib o'tgan edi. Shu faktin hisobga olsak, butilenlarning to'rtta izomeri bo'lishi mumkin: buten-1, izobutilen (2-metilpropen) hamda sis- va trans-buten-2. So'ngi ikki izomerlar o'zaro stereoizomerlardir:



Bu organik moddalardan izobutilen va buten-1 bir-biriga struktur izomerlar bo'lsa, sis- va trans-buten-2 lar o'zaro stereoizomerlardir. Ular turli fizikaviy va kimyoviy xossalari bilan farqlanadi.

Tayanch iboralar

Alkenlar. Alkenlarning gomologik qatori. Geometrik (sis-trans) izomeriya. Elektrofil birikish reaksiyalari. Gidrogenlash. Gidratlanish reaksiyasi. Vodorod galogenidlarning ta'siri. Markovnikov qoidasi. Xarashning peroksid effekti. Galogenlash. Polimerlanish. Polimerlarning tuzilishi. Ozonoliz. Molozonid va ozonidlar.

Nazorat savollari

1. Etilen qatori to'yinmagan uglevodorodlarning umumiy formulasini yozing.
2. Quyidagi birikmalarning qaysi birlari alkenlar ekanligini ko'rsating va nomlang: C_1H_6 , C_3H_8 , C_3H_6 , C_4H_8 , C_5H_8 , C_5H_{10} , C_5H_{12} , C_6H_{12} , C_6H_{14} .
3. Alkenlar tarkibidagi qo'shbog' tutgan uglerod atomi qanday gibrild holatda bo'ladi?
4. $C = C$ qo'shbog'dagi $\sigma -$ va $\pi -$ bog'larning xususiyatlari va farqini aytib bering.
5. Etil spirti va butanol-2 sulfat kislota ishtirokida qizdirilganda qanday alkenlar hosil bo'ladi?
6. Quyidagi uglevodorod karni nomlang: a) $CH_3-CH=CH-CH_2-CH_3$;
7. 3-propilgepten-2, 2,3-dimetilbuten-1, 2,2-dimetilgeksen-3, 3,3,4-trimetilpenten-1 uglevodorodlarning tuzilish formulalarini yozing.
8. Alkenlarning neytral va kislotali muhitda kaliy permanganati bilan oksidlanishi natijasida qanday mahsulotlar olinadi?
9. Buten-2, penten-1, 2,3-dimetilpenten-1, propenga vodorod bromidining birikish reaksiyasi natijasida qanday mahsulotlar olinadi?
10. Butan va 2,6-dimetilgeksan krekinglanganda nima hosil bo'ladi?
11. 33,6 litr eten to'la yonganda qancha kislorod sarf bo'ladi va necha gramm suv hosil bo'ladi?
12. Etilen va propilenning polimerlanishi natijasida olinadigan yuqori molekulyar birikmalar orasida farq bormi? Ular qayerda ishlatalidi?
13. Etilen qatori to'yinmagan uglevodorod ham tabiatda uchraydimi?
14. Quyidagi reagentlarning qaysi biri etilen bilan reaksiyaga kirishadi:
 - a) bromli suv, b) kaliy permanganatning kuchsiz ishqoriy muhitdagi eritmasi, d) kislorod, e) ozon. Tegishli reaksiya tenglamalarini yozing.

Adabiyotlar

1. Грандберг И.И. Органическая химия.- М.: "Дрофа".- 2002.- С-164-180.
2. Iskandarov S.I., Abdusamatov A.A., Shoymardonov R.A. Organik kimyo.- Toshkent.- "O'qituvchi".- 1979.- 180 – 209- betlar.
3. Primuxamedov I. Organik kimyo.- Toshkent.- "Meditina".- 1987.- 76-86- betlar.
4. Shoymardonov R.A. Organik kimyodan savol, masala va mashqlar.- Toshkent.- "O'qituvchi".- 1996.- 28 – 51- betlar.
5. Виворский В.Я. Вопросы, упражнения и задачи по органической химии с ответами и решениями.- Москва.- "Владос".- 1999.- С 27-34.

ALKADIENLAR (DIEN UGLEVODORODLAR)

Molekulada ikkita qo'shbog' tutgan to'yinmagan uglevodorodlar **alkadienlar** yoki dien uglevodorodlar deb ataladi.





Dien uglevodorodlar atsetilen qatori uglevodorodlariga o'xshab C_nH_{2n-2} umumiy formulaga ega. Demak, molekulada ikkita qo'shbog' bo'lishi uchun kamida uchta uglerod atomi kerak. Shu sababli dien uglevodorodlar ikkita qo'shbog'ning bir-biriga nisbatan joylashuviga qarab va kimyoviy xossalariiga ko'm uch turga bo'linadi.

1. Tutash qo'shbog'li uglevodorodlar (kumulirlangan) $-C=C=C=C-$ dienlar


2. Qo'shbog'lar bir-biriga nisbatan uzoqda joylashgan (izolirlangan) $-C-C-C-C-$ dienlar

3. Oralatma qo'shbog'li (kon'yugirlangan) $-C=C-C=C-$ dienlar.

Dien uglevodorodlar ko'pincha sistematik nomenklatura bo'yicha nomlanadi. Dien uglevodorodlarning nomi tegishli to'yinmagan uglevodorodlar nomidagi oxirgi harfin -dien qo'shimchasi bilan almashitirish orqali hosil qilinadi. Zanjir shunday raqamlanadiki, unda qo'shbog'ning holati eng kichik raqamlar bilan ifodalangan bo'lishi kerak. Masalan:




Ba'zida alkadienlar ikkita to'yinmagan radikalning hosilasidek ham nomlanadi:




Bu to'yinmagan va ikkita qo'shbog' tutgan uglevodorodlar ichida katta ahamiyatga ega bo'lgani konyugirlangan dienlardir va ular haqida batafsil to'xtalamiz.

Olinish usullari


1. Glikollarning degidratlanishi






2. Alkanlarni degidrogenlash

Odatda, alkanlar Cr_2O_3 tutgan katalizator ishtirokida krekinglanadi (A.A. Balandin va boshqalar).




3. Etil spirti bug'larini katalizator usidan o'tkazish

Sintetik kauchuk olishning bu usulidan dastlab sobiq SSSRda foydalanganlar va sanoatga joriy qilganlar (S.V. Lebedev, 1933- yil). Etil spirti esa kartoshka yoki bug'doydan olinardi, ammo qimmatli ozuqa manbalarini tejash maqsadida keyinchalik boshqa xomashyo manbalari topildi.




Reaksiya quyidagi bosqichlardan iborat:


a) spirtning aldeidga aylanishi (degidrogenlash)



b) aldegidning aldol kondensatlanishi



d) aldolning qaytarilishi



e) glikolning degidratlanishi



Fizikaviy xossalari

Butadien-1,3 oson suyuqlanadigan rangsiz gaz modda. Sintetik kauchuk olish uchun mulim xomashyo hisoblanadi. Uning ikkinchi gomologgi izopren yoki 2-metilbutadien-1,3 ham 34,1° haroratda qaynaydig'an suyuqlik bo'lib tabiiy kauchukning monomer zvenolari izoprendan tarkib topgan. Alkadienlar ayrim vakillarining fizikaviy kattaliklari 11-jadvalga keltirilgan. Ko'pgina boshqa tabiiy birikmalar tarkibida ham izopren uchraydi, misalani, A vitaminini sintezida qatnashuvchi β -karotin va xlorofill zarinchasi tarkibidagi fitolda uchraydi, tabiiy uglevodorodlar hisoblangan terpenlarning asosi ham izopren zanjiridan iborat.


11-jadval

Alkadienlarning fizikaviy xossalari


Nomi	Tuzilish formularsi	Suyuglanishi harorati, °C	Qaynash harorati, °C	Zichligi, d_4^{20}
Propadien	$\text{CH}_2=\text{C}-\text{CH}_3$	-136,1	-34,1	0,662
Butadien-1,2	$\text{CH}_2=\text{C}-\text{CH}_2-\text{CH}_3$	-	10,3	0,676
Butadien-1,3	$\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CH}=\text{CH}_2$	-113	-4,5	0,650
Pentadien-1,2	$\text{CH}_2=\text{C}-\text{CH}_2-\text{CH}_2=\text{CH}_2$	-	44,7	0,690
Pentadien-1,3	$\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CH}=\text{CH}_2-\text{CH}_3$	-87,5	42,0	0,683
Pentadien-2,3	$\text{CH}_3-\text{CH}=\text{C}=\text{CH}-\text{CH}_3$	-	49,0	0,702
Pentadien-1,4	$\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CH}_2-\text{CH}=\text{CH}_2$	-148,3	26,1	0,661

Kimyoviy xossalari


Konyugirlangan dien uglevodorodlari kimyoviy xossalari bilan alkenlarga o'xshasa ham, ayrim jihatlari bilan farqlanadi. Ayrim birikish reaksiyalariga osonlik bilan, ammo ayrimlariga qiyin kirishadi, ular uchun 1,2- va 1,4-birikish reaksiyalarini xarakterli hisoblanadi. Birikish mahsulotlarining hosil bo'lish nisbati alkadienning tuzilishi, reaksiya sharoiti, erituvchining va reaksiyaga kirishuvchi reagentlar tabiatini bilan belgilanadi.




Butadien-1,3 molekulasida C_1 va C_3 uglerod atomlarining p-elektron orbitallari fazoda qisman qoplanadi va natijada C_1-C_2 va C_3-C_4 orasidagi π -bog'lar qisman delokallashadi, ya'mi butadienni I va II rezonans gibrild strukturadan iborat deb qarash mumkin.



II Gibrild strukturada molekula qisman barqarorlashigan.




Odatdag'i alkanlarda
oddiy σ -bog'




alkenlardagi
qo'shbog'


1. 1,4-Birikish

Butadien-1,3 ko'pgina reaksiyalar paytida 1,2-birikish reaksiyalaridan tashqari 1,4-birikish mahsulotlarini ham hosil qiladi. Bu jarayonni quyidagicha tushuntirish mumkin.



Ilgari aytib o'tganimizdek, elektrofil birikish reaksiyasi ikki bosqichda boradi va oraliq barqaror karbokationining hosil bo'lishi reaksiya yo'nalishini belgilaydi.






Hosil bo'lgan bu ikki karbokationlardagi musbat zaryad ikkilamchi uglerod atomida bo'lsa ham, ufdan I oraliq mahsulot bargarordir, chunki musbat zaryadli uglerod atomi qo'shbog' tutgan uglerod atomi bilan bog'langan.

Karboniy ionlari bargarorligi:


Allil \rightarrow uchlamchi \rightarrow ikkilamchi \rightarrow hirlamchi \rightarrow CH_3

I ko'rinishdagi karbokationini unga ekvivalent bo'lgan III va IV shaklida ham yozish mumkin. Reaksiyaning ikkinchi bosqichida, yu'ni Cl^- amonining oson birikishi karbokationning IV rezonans shakliga ham 1,2-, ham 1,4-birikish yo'nalishida amalga oshadi:



2. 1,2- va 1,4-birikish, tezlik va muvozanat

Quyida keltirilgan reaksiya tenglamasidan ko'rindiki, 1,2- yoki 1,4-birikish haroratga bog'liq bo'lib, uning yo'nalishini o'torganish mumkin. Reaksiya mahsulotining unumdarligi past haroratda birikish tezligi bilan belgilanadi, yuqori haroratda esa mahsulotning ikki izomeri orasidagi muvozanat bilan belgilanadi:




3. Dienlarning erkin radikal polimerlanishi

Alkadienlar har xil katalizatorlar ishtirokida yoki ultrabimafsha nur ta'sirida osonlik bilan radikal mexanizm bo'yicha polimerlanadi. Polimer tarkibidagi monomerlarning soni ikkidan boshlab (dimer) bir necha o'n minglarga gacha bo'lishi mumkin. Butadien-1,3 polimerlanishi jarayonida osonlik bilan 1,2- va 1,4-birikish yo'nalishidagi polimer zanjirini hosil qiladi. Bunday polimerlanishda reaksiya yo'nalishidan qat'iy nazar har bir monomer zvenosi tarkibida bitta qo'shbog' qoladi:



Shuning uchun polibutadien tarkibidagi monomer zvenolar sis- yoki trans-konfiguratsiyaga ega bo'lishi mumkin:




Tabiiy kauchuk tuzilishi jihatdan polibutadienga juda yaqin va izopren zvenolaridan iborat, ammo monomer zvenolari fazoviy jihatdan faqat sis-tuzilishga ega bo'ladi:




Tabiiy kauchukning yana bir izomeri Indoneziya mamlakati va Malakka yarim orolida o'sadigan o'simliklardan olinadigan shira tarkibini tashkil etuvchi polimer **guttaperchadir**. U tarkibi jihatidan tabiiy kauchukka mos kelib umumiy $(C_4H_6)_n$ formula bilan ifodalansa ham, tabiiy kauchukdan trans-tuzilishi bilan farqlanadi. Guttapercha kabellarni izolatsiyalash uchun keng ko'landa ishlataladi.

Kauchuk molekulasiidagi qo'shbog'ning mavjudligi katta ahamiyat kasb etadi, ya'nini allij vodorod atomlari reaksiyon qobiliyatini belgiloychi xossalarni namoyon qiladi. Bu vodorod atomlari vulkanish jarayonda oson sulfid guruhlariga almashinadi va polimer zanjirining zvenolarini o'zaro fazoviy bog'laydi. Hosil bo'lgan bunday to'rsimon tuzilish kauchuk molekulasiining elastikligi va chidamlihgini belgilaydi, issiq haroratda esa uning yopishqoqligini yo'qotadi.




Polixloropren ham sanot mifqosida ishlab chiqariladigan sintetik kauchulkardan biridir, faqat uning molekulasida tabiiy kauchuk zanjiridagi tarmoqlangan metil guruhi o'migraxkor atomni kiritilgandir.




3. Dien sintezi (Dils-Alder reaksiyasi)

Oralatma qo'shbog' tizimi tutgan alkadienlar tarkibida faol qo'shbog' saqlagan alkenlar bilan 1,4-birikish reaksiyalariga kirishib bir qo'shbog' tutgan olti a'zoli halqali birikmalarga aylanadi (tarkibida CH, COOR, COR, CHO kabi elektromansiy guruhlar bilan qo'shni bo'lgan qo'shbog'ga faollashgan qo'shbog' deyiladi va ularning reaksiyon qobiliyatini yuqori bo'ladi).

- a) akril kislota nitrili bilan reaksiyasi;



b) to'yinmagan kislota angidridlari ta'siri:



Tayanch iboralar

Alkadienlar. Kumulirlangan yoki tutashgan alkadienlar. Konyugirlangan yoki oralatma qo'shbog'li dienlar. Izolirlangan yoki ajratilgan qo'shbog'li lien uglevodorodlar. Tutash tizim. 1,2- va 1,4-birikish reaksiyalar. Tabiiy va sintetik kauchuklar. Rezina va ebonit. Dien sintezi. Dienofil reagentlar.

Nazorat savollari

1. Alkadienlarning umumiyl formulasini yozing.
2. Dien uglevodorodlarda qanday izomeriya hodisasi uchraydi?
3. C_5H_8 uglevodorodi uchun mumkin bo'lgan barcha izomerlarning formulasini yozing va xalqaro nomenklatura bo'yicha nomlang.
4. Metandan butadien va izopren olish reaksiya tenglamalarini yozing.
5. Izoprenning tabiiy manbalarini bilasizmi, u sanoatda qanday olinadi?
6. Quyidagi uglevodorolarni to'g'ri nomlang:

- a) $\text{CH}_3 - \text{CH} = \text{CH} - \text{CH} = \text{CH}_2$
- b) $\text{CH}_2 - \underset{\text{CH}_3}{\text{CH}} - \underset{\text{CH}_3}{\text{CH}} - \underset{\text{CH}_3}{\text{C}} - \text{CH}_2 - \text{CH}_3$
- c) $\text{CH}_3 - \underset{\text{CH}_3}{\text{CH}} - \underset{\text{CH}_3}{\text{C}} - \text{CH} = \text{CH}_2$
- d) $\text{CH}_2 - \underset{\text{CH}_3}{\text{CH}} - \underset{\text{CH}_3}{\text{C}} - \text{CH} - \text{CH}_3$
- e) $\text{CH}_3 - \underset{\text{CH}_3}{\text{CH}} - \underset{\text{CH}_3}{\text{C}} - \text{CH} = \text{CH}_2$
- f) $\text{CH}_2 - \underset{\text{CH}_3}{\text{C}} - \text{CH}_2 - \underset{\text{CH}_3}{\text{CH}} - \underset{\text{CH}_3}{\text{C}} - \text{CH} - \underset{\text{CH}_3}{\text{CH}} - \text{CH}_3$

7. a) 4-pröpilgeptadien-1,3, b) 2,3-dimetilbutadien-1,3, d) 3,3-dimetilgeksadien-1,4, e) 2-etyl-4-metilpentadien-2,3 uglevodorodlarning tuzilish formulasini yozing. Ularning qaysi biri noto'g'ri nomlangan?

8. Pentadien-1,3 uglevodorodi bilan 2 molekula vodorod bromidining birikish reaksiyasi tenglamalarini yozing.

9. 33,6 litr geksadien aralashmasi to'li yonganda qincha hajm kistorod sarflanadi?

10. 2,5 mol pentadien-1,3 necha gramm brom bilan birikish reaksiyasiga kirishadi?

11. 10 litr izopren yonganda hosil bo'ldigan karbonat angidrididini yutish uchun necha gramm 5 % li NaOH eritmasi sarflanadi?

12. Divinil, izopren va pentadien-1,3 dien uglevodorodlarning brom bilan o'zaro reaksiyasida qanday moddalar hosil bo'lishi mumkin?

13. Butadien-1,3 va stipolning sopolimerlanish reaksiya tenglamasini yozing.

Adabiyotlar

1. Грандберг И.И. Органическая химия.- М.: "Дрофа".- 2002.- С-191-207.

2. Iskandarov S.I., Abdusamatov A.A., Shoymardonov R.A. Organik kimyo.- Toshkent.- "O'qituvchi".- 1979.- 220 – 258- betlar.

3. Pirmuxamedov I. Organik kimyo.- Toshkent.- "Meditina".- 1987.- 96–103- betlar.

4. Shoymardonov R.A. Organik kimyodan savol, masala va mashqlar.- Toshkent.- "O'qituvchi".- 1996.- 51–60- betlar.

5. Вивюрский В.Я. Вопросы, упражнения и задачи по органической химии с ответами и решениями.- Москва.- "Владос".- 1999.- С 34-35.


ALKINLAR (ATSETILEN QATORI UGLEVODORODLARI)

Uglevodorodlarning molekulasida uglerod atomlari o'zaro uchbog' bilan bog'langan bo'lsa, bunday birikmalarga **alkinlar** yoki atsetilen qatori uglevodorodlari deyiladi, chunki bu qator uglevodorodlarining birinchi vakili atsetilendir. Alkinlarning gomologik qatori C_nH_{2n-2} umumiy formula bilan ifodalanadi. Alkinlarning gomologik qatorida eng oddiy tuzilishdagi birinchi vakili atsetilen hisoblanadi. Uning tarkibidagi uchbog'ning ikkitasi $\pi-$ va bittasi σ -bog'dir:




Nomenklatura va izomeriyasi

Atsetilen qatori uglevodorodlarini sistematik nomenklaturaga binoan nomlash uchun tegishli to'yingan uglevodorod nomidagi –an qo'shimchasini –in qo'shimchasiga almashtirish bilan hosil qilinadi. Alkinlarni nomlashda uchbog' tutgan zanjir asosiy zanjir deb olinadi va raqamlash uchbog'ga yaqin tomondan boshlanadi. Oddiy tuzilishdagi quyi alkinlar ko'pincha ratsional nomenklaturaga binoan nomlanadi. Bu nomenklaturaga muvofiq ular atsetilenning bir yoki ikki vodorod atomi turli uglevodorod radikaliga almashingan hosilalar deb qaraladi va radikal nomiga atsetilen so'zi qo'shib o'qiladi. Masalan:




Alkinlarda uglerod zanjirining tarmoqlanishiga hamda uchbog'ning joylashishiga ko'ra izomeriya hodisasi kuzatiladi. Alkinlarda holat izomeriyasi C_4 -dan boshlansa ham, tuzilish izomeriyasi C_5 -dan boshlanadi:




Atsetilen qatori uglevodorodlari tarkibidagi uchbog'lar soni ikki va undan ortiq bo'lsa, ular alkadiin yoki alkatriinlar deb ataladi. Uglevodorod tarkibida ham qo'shbog', ham uchbog' uchrasa, qo'shbog' tutgan uglerod atomlari

kichik raqamga ega bo'lishi kerak. Agar qo'shbog' va uchbog' zanjir ikki chekkaşidan bir xil uzoqligidan joylashgan bo'lsa, raqamlash qo'shbog' tomondan boshlanadi:



Alkinlarning olinishi


Alkinlarning birinchi vakili – atsetilen sanoat miyosida katta ahamiyatga ega. U, asosan, kalsiy karbididan (CaC_2) sintez qilinadi. Kalsiy karbidi, o'z navbatida, sanoatda ikki usul bilan olinadi:



Hozirgi paytda atsetilen ancha arzon usul – tabiiy gaz va neft mahsulotlarini krekinglab olinadi:




Bugungi kunda Respublikamizda kimyo korxonasi giganti bo'lgan "Navoiy-azot" birlashmasida bu usul havosiz joyda ancha past haroratda olib boriladi:




Bu usulda har 1 t. atsetilen ishlab chiqarganda 100 kg gacha tipografik bo'yoqlar olish uchun zarur bo'lgan qurum olinadi. Ajralib chiqqan vodorod esa ammiak ishlab chiqarish uchun asosiy xomashyodir.


2. Vitsinal va geminal digalogenalkantarni degidrogalogenlash



Bu usul qo'shbog'ni uchbog'ga aylantirishning eng oson usullaridan biri sifatida katta ahamiyatga ega:




Bu reaksiyani geminal digalogenalkanlar bilan ham amalga oshirish mumkin, ular aldegid yoki ketonlardan PCl_5 ta'sirida olinadi.




3. Natriy atsetilenidi va birlamchi galoidalkillarning o'zaro ta'siri

Atsetilen gomologlari atsetilennenning o'zidan olinishi mumkin. Avval atsetilennenning metallorganik birikmasi – atsetilenidlar olinadi, keyin unga alkil guruhi kiritiladi. Bu usul bilan mono- va dialkilatsetilenidlar atsetilenden olinadi (J.I. Iotsich reaksiyasi).

a) Metall atsetilenidlari olish uchun atsetilenga ammiak ishtirokida metall amidi, oksidi yoki tuzlari ta'sir ettiriladi:




b) Hozirgi paytda mono- va dialkilatsetilenidlar atsetilenden magniyor-ganik birikmalar ta'sirida olinadi:



Bu reaksiya esir yoki tetragidrofur'an (TGF) ishtirokida olib boriladi. Alkillovchi agent sifatida birlamchi alkilgalogenidlari olinishi kerak, chunki ikkilamchi va uchlamchi alkilgalogenidlari qo'shimcha reaksiyaga kirishadi.

4. To'ynmagan ikki asosli karbon kislota tuzlarining gidrolizi



5. Tetragalogenidlarni degalogenlash

Bu usul bir müncha chegaralangan bo'lib, uchbgog'ning qo'shimcha reaksiyalardan himoya qilish uchun ishlataladi. Bunda dastlab alkin tetragalogenidlarga aylantiriladi va so'ngra qaytdan ruxukunni bilan ta'sir ettirilib uchbgog' hosil qilinadi:



Fizikaviy xossalari

Alkinlarning birinchi ikki vakili gaz moddalar. Gomologik qatorda molekulyar massaning ortib borishi bilan ularning fizik konstantalari ortib boradi (12-jadval). Sindirish ko'rsatkichi ham alkan va alkenlarga nisbatan katta.

12 - j a d v a l

Alkinlarning fizikaviy xossalari

Nomi	Formulasi	Suyuqlanish harorati, °C	Oaynash harorati, °C	20 °C dagi zichligi
Etin	HC≡CH	-82	-75	0,620(-80 °C da)
Propin	HC≡C – CH ₃	-101,5	-23	0,678(-27 °C da)
Butin-1	HC≡C – CH ₂ – CH ₃	-122	9	0,678(0 °C da)
Pentin-1	HC≡C(CH ₂) ₂ CH ₃	-98	40	0,695
Geksin-1	HC≡C(CH ₂) ₃ CH ₃	-124	72	0,719
Oktin-1	HC≡C(CH ₂) ₅ CH ₃	-70	126	0,747
Nonin-1	HC≡C(CH ₂) ₆ CH ₃	-65	151	0,763
Detsin-1	HC≡C(CH ₂) ₇ CH ₃	-36	182	0,770

Alkinlarning IQ spektrida yuqori chastotali 3300 sm⁻¹ sohada chekka ≡C–H guruh uchun xarakterli bo'lgan valent tebranish chastotasi kuzatiladi.

Quiiroq chastotada (2100 sm^{-1}) intensivligi kuchsizroq bo'lgan uchbog'ga xos valent tebranish chastotasi qayd qilinadi.


Ularning ultrabinafscha spektrlaridagi yutilish chizig'i alkan va alkenlarga o'xshab 200 nm dan past sohada namoyon bo'ladi.

Kimyoviy xossalari

Alkinlar alkenlardan ham faoliq elektrofil va nukleofil birikish reaksiyalariga kirishadi. Nukleofil zarracha bilan reaksiyaga kirishish sababi alkinlarning chiziqli tuzilishi bilan tushuntiriladi. Alkinlar birikish, polimerlanish, oksidlanish, qaytarilish, almashinish, izomerlanish va kondensatlanish reaksiyalariga kirishadilar.

Atsetilen molekulasi dagi uglerod atomlari sp-gibridlangan. Hosil bo'lgan ikkita bir xil gibrid orbital bir-biri bilan fazoda 180° burchak ostida joylashgan, shuning uchun ular o'rtasidagi o'zaro itarishish minimal bo'ladi. sp-gibridlanish holatidagi uglerod atomi uchinchi valent holatida bo'lib, uglerod atomida ikkita «foydalanilmagan» sof p-orbital qoladi. Atsetilen molekulasi hosil bo'lganda ikkita uglerod atomining sp-gibridlangan orbitallari bir-birini maksimal qoplaydi va σ -bogni hosil qiladi. Har qaysi uglerod atomidagi ikkitadan bo'sh p-elektron orbitallari esa bir-birini o'zaro perpendikular tekislikda yon tomondan qoplaydi.

Demak, atsetilen molekulasidagi uglerod atomlari ikkita π - va bitta σ -bog' bilan bog'langan. Atsetilen molekulasida $C\equiv C$ uchbosqechilik energiyasi 725 kJ/mol bo'lib, uzunligi 0,121 nm, C-H boglarining energiyasi 463 kJ/mol va uzunligi 0,106 nm ga teng:



Uchbog'ning (0,121 nm) qo'shbog'ga nisbatan (0,134 nm) qisqargani bu bog'ning qutblanuvchanligini pasaytiradi. Atsetilennenning C-H bog'larini hosil qilishda s-elektronlarning hissasi katta, s-elektronlarning gibrildanishdagi hissasi qancha katta bo'lsa, gibrild elektronlar yadroga shuncha yaqin joylashadi. Atsetilenda p-elektronlar bir-birini etilendagiga nisbatan kuchliroq qoplagan. Shuning uchun atsetilendagi π -bog' etilendagiga nisbatan mustahkam. Demak, alkinlar birikish reaksiyalariga alkenlarga nisbatan qiyinroq kirishadi. Atsetilenda uglerod atomlari orasidagi masofa etilendagiga nisbatan qisqa bo'lganidan ularga hujum qiladigan reagentlarning reaksiyasi sekin boradi. Lekin alkinlar nukleofil birikish reaksiyalariga alkenlarga nisbatan osonroq kirishadi.

Atsetilen molekulasida C—H bog'ining elektron jutli etilendagiga nisbatan anche qutblangan va bu qutblanish atsetilen va alkilatsetilenlarning kislota xossasini namoyon qilishiga sabab bo'ladi.

A. Birikish reaksiyaları


1. Vodorodning birikishi

Uchbog'ga bir molekula vodorod birikkanda tegishli alken hosil bo'ladi.

Birikish reaksiyası Pd, Pt va Ni katalizatori ishtirokida oson amalga oshadi, qaytarilish reaksiyası davom ettirilsa, alkanga aylanadi.




Qaytarilish reaksiyasining turli usullarini amalga oshirib, stereoselektiv mahsuloflarni olish mumkin. Marcus katalizator ishtirokida (indilar katalizatori — yangi qaytarib tayyorlangan palladiy) vodorod molekulasi ta'sir ettirilganda, sis-alken hosil bo'ladi. Buning sababi shundakki, avval vodorod molekulasidagi atomlar katalizator sirdida fuollashadi va so'ngra alkin uchbog'ining bir tomonidan birikadi. Suuyiq ammiakdag'i natriy yoki litiy ta'sirida trans-alkenlar olinadi.




2. Galogenlarning birikishi

Alkinlarni galogenlash alkenlarni galogenlashga nisbatan sekin borib, sis- va trans- digalogenalkenlar hosil bo'ladi. So'ngra reaksiya davom etib, ular ikkinchi molekula galogenni biriktirib, tetragalogenalkanlarga aylanadi:




3. Galoidvodorodning birikishi

Nosimmetrik alkinlarga vodorod galogenidlari (HI , HCl) V.V. Markovnikov qoidasiga (1869- yil) muvofiq birikadi:




Vodorod bromid esa peroksidlar ishtirokida Markovnikov qoidasiga teskari birikadi:




4. Suvning birikishi (gidratlanish reaksiyasi)

Alkinlar H_2SO_4 ishtirokida sulfat kislotaning suyultirilgan eritmasi ta'sirida gidratlanadi (M.G. Kucherov, 1881- yil). Birinchi bosqichda suvning $\text{C}\equiv\text{C}$ uchbog'ga nukleofil hujumi natijasida beqaror enollar hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan enollar barqaror shaklga o'tib aldegid va ketonlarga qayta guruhlanadi (A.P. Eltekovning qayta guruhlanishi, 1887- yil). Agar atsetilen olingan bo'lsa, aldegid hosil bo'ladi:



Atsetilenning barcha gomologlari gidratlanishidan ketonlar hosil bo'ladi. Suvning birikishi Markovnikov qoidasiga binoan amalga oshadi:



5. Spirtlarning birikishi

Atsetilen va 1-alkinlar o'yuvchi kaliy ishtirokida bosim ostida spirtlar bilan birikib, oddiy alkilvinil efirlar hosil qiladilar:



6. Vodorod sanadining birikishi


Vodorod sanadi katalizatorlar (NH_3 va CuCl_2) ishtirokida atsetilenga nukleofil birikadi. Bu reaksiyadan foydalanib sanoat niqyosida **akrilonitril** olinadi:



Akrilonitril sanoatda sintetik tolu – **nitron** va **sintetik kauchuklar** ishlab chiqarishda qimmatli somashyo hisoblanadi.

7. Karbonillash (oksovinit)

Nikel tetrakarbonili katalizatorligida atsetilen uglerod oksidi va harakatchan vodorod atomi bor birikmalar (sov, spirtlar, ammial, aminlar) bilan reaksiya-ga kirishganda akril kislota va uning hosilalari olinadi (V. Reppe, 1944 - yil):



8. Dimerlanish reaksiyasi

Alkinlar katalizatorlar ishtirokida (CuCl_2 va NH_4Cl tarning kislotali muhitdag'i eritmasi) dimer, halqali va chiziksimon polimerlarni hosil qiladi, chunki katalizatorlar uchbog'ni faollashtiradi:



Ishlab chiqarilgan vinilatsetilenning asosiy qismidan sanoatda xloropren olinadi, u esa xloroprenli sintetik kauchuk (marit)ning monomeridir:




Atsetilen CuCl_2 va oksidlovchilar ishtirokida polikondensatlanish reaksiyasiga kirishib karbin hosil qiladi:



B. Almashinish reaksiyaları

1. Yuqorida biz atsetilenning etilen va etanga nisbatan kislota xossalarini namoyon qilishi va uning sabablari haqida to'xtalgan edik. Atsetilen va monoalkil-atsetilenlar uchbog' tutgan uglerodning vodorod atomi hisobidan boshqa guruuhlar bilan almashinish reaksiyalariga kirishadi. Bu xildagi reaksiyalar bilan biz qisman atsetilen gomologlarini olishda tanishgan edik:



Reaksiya natriy amidi ta'sirida osonroq amalgam shadi:




2. Propin va butin-1 esa faqat bitta harakatchan vodorod atomi tutgani uchun bir xil birikmalar hosil qiladi:




3. Atsetilenni magniyorganik birikmaning eritmasidan o'tkazish orqali uning dimagniygalogenli hosilalari olinadi:





4. Atsetilen va uning gomologlari mis tuzlari va kumush oksidining ammiakdagi eritmasi bilan ham almashinish reaksiyalariga kirishadi va uning tuzlari cho'kmaga tushadi:



Hosil bo'lgan atsetilenidlar portlovchi xususiyatga ega, ularning reaksiyon qobiliyati ancha yuqori va turli organik birikmalar sintezida qo'llaniladi:




5. Natriy atsetilenidi aldegid yoki ketonlar bilan suyuq ammiak muhitida reaksiyaga kirishib, atsetilen qatori spirtlarini hosil qiladi:



Alkinlarning oksidlanishi

Alkinlar alkenlarga qaraganda oksidlovchilar ta'siriga chidamli. Ozon yoki kaliy permanganati kabi kuchli oksidlovchilar ta'sirida uchbog' uziladi va karbon kislotalar hosil bo'ladi. Bu reaksiya yordamida olingan kislotalarni aniqlab alkinlarning tuzilishini o'rganish mumkin:



Ishlab chiqariladigan atsetilenning juda katta miqdori metallarni payvandlashda sarflanadi. Chunki atsetilen kislorod ishtirokida yonganda katta miqdorda issiqlik ajralib chiqadi va haromat 2800°C gacha yetadi.



Ayrim vakillari

Atsetilen oson siqiluvchan rangsiz gaz. Suv (1,15:1) va spirtda (6 : 1) yomon eriydi, atseton (25 : 1) va dimetilformamidda (33,5 : 1) yaxshiroq eriydi. Bosim ostida atsetilenning atsetondagi eruvchanligi keskin ortadi va bundan atsdetilenni ballonlarda tashish uchun foydalaniildi. Erituvechisiz balonda bosim ostida siqilgan atsetilin juda xavfli – katta kuch bilan portlaydi.




Atsetilen dunyo miqyosida bir yilda 5 mlrn. tonnagacha ishlab chiqariladi. Uning 70 % organik sintez uchun, qolgan 30 % metallarni payvandlash va kesish uchun ishlatiladi.

Tayanch iboralar

Alkinlar. Alkinlarning gomologik qatori. Atsetilenidlar. Atsetilenidlar yordamida gomologlarning olinishi. Elektrofil birikish reaksiyalari. Gidrogenlash. Alkinlarning gidratlanishi. Galoidvodorodlarning ta'siri. Alkinlarning polimerlanishi. Sintetik tolalar olish.

Nazorat savollari

1. Alkinlarning umumiy formulasini yozing.
2. Quyidagi birikmalarning qaysi birlari alkinlar ekanligini ko'rsating: C_3H_4 , C_3H_6 , C_4H_6 , C_4H_8 , C_4H_{10} , C_5H_8 , C_5H_{12} , C_6H_{10} .
3. $\text{C} \equiv \text{C}$ uchbog'dagi σ - va π -bog'iarning xususiyatlari va farqini ayting.
4. Alkinlar tarkibidagi uchbog' tutgan uglerod atomi qanday gibrild holatda bo'ladi?
5. Quyidagi uglevodorodlarni to'g'ri nomlang:



6. Atsetilendan benzol olish reaksiya tenglamasini yozing va uni izohlang.
7. Atsetilen bilan kumush oksidining yangi taylorlangan eritmasi qanday reaksiyaga kirishadi?
8. Propin bilan natriy amidining reaksiya tenglamasini yozing.
9. Atsetilenden xloropren qanday reaksiyalar yordamida olinadi?
10. Atsetilenden butin-2 va etilatsetilen olish reaksiyalarini yozing.
11. Propin va butin-1 suv bilan o'zaro reaksiyaga kirishganda qanday mahsulotlar hosil bo'ladi?

Adabiyotlar

1. Грандберг И.И. Органическая химия.- М.: "Дрофа".- 2002.- С. 181 – 190.
2. Iskandarov S.I., Abdusamatov A.A., Shoymardonov R.A. Organik kimyo.- Toshkent.- "O'qituvchi".- 1979.- 209–220- betlar.
3. Pirmuxamedov I. Organik kimyo.- Toshkent.- "Meditrina".- 1987.- 87-95- betlar.
4. Shoymardonov R.A. Organik kimyodan savol, masala va mashqlar.- Toshkent.- "O'qituvchi".- 1996.- 41 – 51- betlar.
5. Виворский В.Я. Вопросы, упражнения и задачи по органической химии с ответами и решениями.- Москва.- "Владос".- 1999.- С. 35-42.

KARBOTSILIK BIRIKMALAR (SIKLOPARAFINLAR)

Yopiq zanjirli, saqat uglerod atomlaridan tarkib topgan uglevodorodlarga karbotsilik birikmalar deyiladi. Ular alitsilik va aromatik sinflarga bo'linadi. Alitsilik uglevodorodlar **sikloparafinlar** yoki **naftenlar**, ba'zi adabiyotlarda **siklanlar** deb ham yuritiladi. Birinchi marta bu birikmalarni V.V. Markovnikov Kavkaz nefti tarkibidan ajratib olgani uchun naftenlar deb atagan edi.


Nomenklatura va izomeriyasi

Bu uglevodorodlar kimyoviy xossalari alkanlarga o'xshagini uchun sikloalkanlar ham deyiladi. Ularning umumiy formulasasi: C_nH_{2n}


Tarixiy nomlanishi uchun ularning halqasidagi metilen guruhlari sonini qayd qilish kifoya:




siklopropan
(trimetilen)



siklobutan
(tetrametilen)




siklopentan
(pentametilen)




siklogeksan
(geksametilen)

Halqdagi o'rindbosarlar soni birdan ko'p bo'lar, ularning o'rnini raqamlar bilan ko'rsatiladi:



1,1-dimetil-
siklopropan



metil-
siklobutan




1,2-dimetil-
siklobutan




1,3-dimetil-
siklobutan

Yuqoridagi to'rtta moddalaridan birinchi va ikkinchisi o'zaro izomer, ular halqaning katta - kichikligi bilan farqlanadilar, uchinchi va to'rtinchi moddalar esa o'rindbosarlarning holati bilan bir-burdan farq qiladi. Uch- va to'rt a'zoli sikloalkanlarda C-C bog'i atrofida erkin nylanish imkoniyati bo'limgani sababli qo'shni uglerod atomlari bilan bog'langan o'rindbosarlar uchun sis-trans izomeriyasi ham bo'lishi mumkin:




cis-1,2-dimethylsiklobutan




trans-1,2-dimethylsiklobutan


Sikloparafin halqasi bilan bog'langan o'rindbosarlarning tarkibidagi uglerod atomlari soni va ularning tuzilishiga ko'ra har xil izomerlar mavjud bo'lishi mumkin:




1 -metil-2-ikkilamchi-
butilsiklogeksan




1 -propil-2-izopropil-
siklopentan




1 -metil-2-propil-3-
uchlamchibutil-
siklobutan




2-metilsiklo-
pentadien-1,3



siklogeksanol



metilsiklo-
propilketon




siklopentan-
karbon kislotasi

Olinish usullari


Sikloparafinlarning asosiy tabiiy manbayi neft hisoblanadi. MDH dagi barcha neft konlari ichida Boku nefti tarkibida eng ko'p miqdorda sikloparafinlar uchraydi. Markovnikov bu neftning tarkibini o'rGANIB, birinchi marta sikloparafinlarni ajratib olgani uchun ham ularni **n a f t e n l a r** deb atashni taklif qilgan edi.

I. Gustavson usuli


Uglevodorodlarning digalogenli hosilalariga rux metali ta'sir etib uch-, to'rt- va besh a'zoli sikilar olish. Fraynd rux o'rniغا ishqoriy metallar amalgamasidan foydalandi:



1,5-dibromopentan



siklopentan



1,4-dibrombutan




natriy
amalgamasi




siklobutan

2. Uch a'zoli halqalar alkenlarga diazometan parchalanishidan hosil bo'ladigan karbenlar ta'sir etib olinadi:




3. Ikki asosli karbon kislotalarning katsiyili yoki toriyili tuzlarining pirolizi

Reaksiya natijasida dastlab siklik keton hosil bo'ladi, so'ngra u tegishli uglevodorodgacha qaytariladi. Bu usulda, asosan, besh - va olti a'zoli sikloalkanlar olinadi:



4. Aromatik uglevodorodlarni qaytarish (gidrogenlash)





5. Alkadienlarning dimerlanishi



Fizikaviy xossalari

Sikloparafinlar fizikaviy xossalari jihatidan alkanlarga o'xshaydi, bu keltirilgan 12 - jadvalda ham ko'rindi.

Sikloparafinlarning hosilalaridan katta sonli halqa tutgan ayrim ketonlar o'tkir hidli va ular parfumeriyada ishlataladi, masalan:



12 - j a d v a l .

Sikloparafinlarning fizikaviy dommyliklari


Sikloalkan nomi	Suyuqlanish harorati, °C	Qaynash harorati, °C	Zichligi, d_4^{20} , g/sm ³
Siklopropan	-127	-35	-
Siklobutan	-50	-13	-
Siklopentan	-93	49	0,7512
Siklogeksan	-7	81	0,7793
Siklooktan	-14	151	0,8351

Kimyoviy xossalari

Siklopropan va siklobutandan boshqa sikloparafinlar kimyoviy xossalari jihatidan inert alkanlarga o'xshaydi. Siklo-propan molekulasingen elektron tuzilishi boshqa sikloalkanlarnikidan keskin farq qiladi. Zamonaviy tadqiqot usullarning aniqlashicha, siklopropan molekulasidegi - bog'lar oddiy σ - bog'lardan farqli va uglerod atomining sp^3 - gibrid orbitallarining tuzilishi alkanlarnikiga qaraganda ham boshqacha. Bu quyidagicha tushuntiriladi: uglerod atomlari orasida kimyoviy bog' hosil bo'lganda gibrid elektron orbitallarining qoplanishi maksimum darajada bo'lmaydi, chunki siklopropan molekulasidegi valent burchaklari nazariy jihatdan 60°ga teng bo'lishi kerak. Aslida σ - bog'lar hosil qilgan orbitallarning o'zaro bir-birini itarilishi natijasida valent burchaklari 106° gacha yiriklashib, molekula ichki kuchlanishi kamayadi (30-rasm).

Buning oqibatida σ -bog'larni hosil qiluvchi orbitallarning maksimum qoplanishi uglerod atomlari yadrosini tutashtiruvchi chiziqlardan chetga chiqadi va ular alkenlardagi π .-bog'larga o'xshab qisman to'yinmaganlik

xossalariiga ega bo'ladilar. C—C bog'lar energiyasi ham alkanlardagi oddiy σ -bog'larnikidan kichik bo'ladi. Bunday bog'larga bahan bog'lar deyiladi (32-rasm). Shuning uchun ham 80°C haroratdayoq nikel katalizatori ishtirokida siklopropan hidrogenlanib, propan hosil qiladi.




a




b

32- rasm. Siklopropan molekulasining elektron tuzilishi: elektron orbitalarining qoplanishi - (a) va elektron bulut zinchligining maksimal taqsimoti - (b).

1. Gidrogenlash reaksiyasi



b) siklopentanning ayni shunday reaksiyaga kirishi uchun katalizatoridan tashqari 300°C harorat talab qilinadi:



2. Galogen va galoidvodorodlarning ta'siri:


a) uch- va to'rt a'zoli sikloparafinlar galogenlar va galoidvodorodlar bilan birikish reaksiyasiga kirishadi:



b) agar siklopropan molekulasida o'rindbosarlar bo'lsa, birikish reaksiyasi Markovnikov qoidasiga binoan amalga oshadi:




d) Siklopentan va undan yuqori sikloparafinlar galogenlar bilan o'zaro ta'sirlashganda alkanlardek o'rinn olish reaksiyasiga kirishadi:




3. Oksidlanish reaksiyasi

Sikloalkanlar oksidlovchilar ta'sirida oxirgi mahsulot sifatida ikki asosli karbon kislotalar hosil qiladi:





4. Degidrogenlash reaksiyasi

Sikloheksan yuqori haroratda degidrogenlanib, benzolga aylanadi. Bu reaksiya N.D. Zelinskiy tomonidan o'rganilgan bo'lib, sikloheksan bug'i maydalangan palladiy kukuni ustidan o'tkaziladi. Neftni qayta ishslash sanoatida katta ahamiyat kasb etgan bu reaksiya neft mahsulotlarini aromatlashtirish jarayonining asosini tashkil etadi:



5. Izomerlanish reaksiyalari





Bayerning “kuchlanish nazarasi”

Siklopropan va siklobutan kimyoiy xossalarining boshqa sikloparafinlardan farqlanishi Bayerning kuchlanish nazarasi bilan tushuntirildi. 1885- yilda Adolf Bayer o‘zining kuchlanish nazarasi yordamida sikloparafinlar halqasining nisbiy mustahkamligini birinchи marta tushuntirib berdi. Bayer halqali birikmalardagi nazarasi jihatdan olganda uglerod atomlari bir tekislikda yotadi deb faraz qildi. Halqani hosil qilgan uglerod atomlari valent burchaklar tetraedrik burchakdan qancha ko‘p og‘sa, halqdagi ichki kuchlanish shuncha katta va bu sikloparafin beqaror deb tushuntiradi. Oddiy halqali birikmalar uchun uglerod atomi valent burchaklarini hisoblab topish juda oson:

	$\beta = (\alpha_{\text{exp}} - \alpha_{\text{akt}}) : 2$
siklopropanda	$\beta = (109^{\circ}28' - 60^{\circ}) : 2 = 24^{\circ}44'$
siklobutanda	$\beta = (109^{\circ}28' - 90^{\circ}) : 2 = 9^{\circ}44'$
siklopentanda	$\beta = (109^{\circ}28' - 108^{\circ}) : 2 = 0^{\circ}44'$
siklogeksanda	$\beta = (109^{\circ}28' - 120^{\circ}) : 2 = -5^{\circ}16'$

Bu hisoblashlardan ko‘rinadiki, siklopropan va siklobutan molekulasi dagi burchaklarning normal holatdan og‘ishi ancha katta va ular beqaror bo‘lib birikish reaksiyalariga oson kirishadi. Siklopentanda valent burchaklari orasidagi farq juda kichik va uning halqasi eng mustahkam hisoblanadi.

Siklogeksandagi konformatsion izomeriya

Siklogeksan molekulasi dagi valent burchaklari 120° ga teng bo‘lib, normal burchakdan farq qiladi. Shuning uchun ham, siklogeksan siklopentanga nisbatan beqaror bo‘lishi kerak, aslida bu hodisa kuzatilmaydi. Buning sababi shundaki, siklogeksan molekulasi dagi barcha uglerod atomlari bir tekislikda yotmaydi. Uning tuzilishini o‘rganish konformatsion tasavvurlarning yaratilishiga olib keldi. Konformatsiya molekulalarning turli xil fazoviy shakllari bo‘lib, ular oddiy C—C bog‘i atrofida atomlarning erkin aylanishi oqibatida vujudga keladi. Siklogeksanning ikkita konformatsiyalari kam ichki kuchlanishga ega, ular “qayiqcha” (yoki “vanna”) shakli va “kreslo” shaklidir (31-rasm). Oddiy xona haroratida siklogeksan, asosan, “kreslo” shaklida bo‘ladi.

Siklogeksanning tarkibidagi 12 ta vodorod atomlari 2 katta guruhga bo'linadi. Oltita vodorod atomi halqaning yon tomonlariga yo'nalgan bo'lib, ular ekvatorial bog'langan (H_e) atomlari deyiladi. Qolgan oltita vodorod atomlarning bog'lari siklogeksan molekulasi o'rtacha tekisligiga taxminan perpendikulyar yo'nalgan bo'lib, ular aksial bog'langan (H_a) atomlari deyiladi.




33-rasm. Siklogeksanning "vanna", "kreslo" - konfiguratsiyalari va ularning bir-biriga o'tishi.

Demak, siklogeksandagi har bir uglerod atomlari bitta ekvatorial va bitta aksial vodorod atomlari bilan bog'langan "vanna" shaklidagi konformer "kreslo" konformatsion ko'rinishga o'tadigan paytida molekuladagi barcha ekvatorial vodorod atomlari aksial holatga o'tadi va aksincha, bu hol takrorlanib turadi.

TERPENLAR

Sikloparafinlarning tabiatda eng ko'p uchraydigan hosilalari terpenlardir. Ularning umumiy formulasi $(C_nH_{2n})_n$ bo'lib, $n = 1$ dan 8 gacha qiymatlarga egadir. Terpenlardagi umumiy takrorlanadigan zveno izopren zanjiridan iborat:



Terpenlar izopren qoldig'i soniga qarab quyidagilarga ajratiladi:

- Alifatik terpenlar $C_{10}H_{16}$ umumiy formula bilan ifodalanadi, molekulada uglerod atomlari to'g'ri zanjir hosil qilgan va tarkibida uchta qo'shbog' tutadi.
- Monotsiklik terpenlar, uning tarkibida oltita uglerod atomi bitta halqa hosil qiladi va ikkita qo'shbog' uchraydi.

- Seskviterpenlar $C_{15}H_{24}$,


- Diterpenlar $C_{20}H_{32}$,

- Triterpenlar $C_{30}H_{48}$.


Bu terpenlarning barchasini shartli ravishda izopren zvenolariga ajratish imumkin. Terpen uglevodorodlaridan xohlagan spirt, karbonil birikmalar va

boshiga organik moddalarni olish mumkin. Tabiatda mono- va diterpenlar ko'p tarqalgan. Ular igna bargli daraxtlar shirasi va smolasi, turli o'simliklarning efir moylari tarkibida uchraydi va ularning hidini belgilaydi.


Alifatik terpenlar




mirsen — xmel moyi tarkibida uchraydi,



geraniol — atingul moyi tarkibida uchraydi,



linool — marvuridgul tarkibidan ajratib olingan,



sitral — evkalipt moyi tarkibida uchraydi.


Yuqorida keltirilgan terpenlar, asosan, parfumeriya va qandolatpazlik sanoatida ishlataladi. Bundan tashqari, sitral A vitamini sintezi uchun xomashyo hisoblanadi.

Monotsiklik terpenlar

Bularga mentan qatori terpenlari deyiladi, chunki ularning asosida ikkita izopren dimeri — mentan skeleti yotadi. Mentan simolni (4-izopropiltoluol) to'liq gidrogenlab olinadi. Monotsiklik terpenlarning eng birinchi oddiy vakili limonendir, u dastlab limonning efir moyidan ajratib olingani uchun shunday deb atalgan. Limonen asimmetrik uglerod atomi tutgani uchun optik izomeriyani namoyon qiladi. D-limonen limon moyidan tashqari apelsin po'stlog'i, selderey va zira moylarida ham bo'ladi,

L-limonen qarag'ay va pixta kabi ignabargli daraxtlarning efir moyida uchraydi. Limonenning ratsemat aralashmasiga di penten deyiladi va uski pidarning ba'zi turlarida saqlanadi, kauchukni quruq haydash usuli bilan olinishi mumkin.

Mentanning gidroksil guruhi tutgan hosilalaridan mentol va terpin muhim ahamiyatga ega.




Mentol yoki *3-mentanol* yalpiz efir moyining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, uning hidini belgilaydi. Odatda, u yalpizning efir moyidan ajratib olinadi yoki timolni hidrogenlab sintez qilish mumkin. Mentol suvda yomon, organik erituvchilarda yaxshi eriydi, tibbiyotda bosh og'tig'ini tinchlantiruvchi va antiseptik vosita sifatida ishlataladi. Mentolning izovalerian kislota mentil efiridagi eritmasi validol nomli doridir.

Terpin yoki *1,8-mentandiol*, bu ikki atomli spirt tabiatda uchramaydi. Odatda, skipidar tarkibidagi pinendan olinadi. Terpin bir molekula suv bilan kristallanadi, uning bu hosilasiga terpingidrat deyiladi. Terpingidrat tibbiyotda bronxit kasalligida balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida, ba'zi hollarda antiseptik va kuchsiz siyidik haydovchi vosita sifatida ham qo'llaniladi.

Bitsiklik terpenlar




Bitsiklik terpenlar tarkibida olti a'zoli halqa, uning ichida yana bir halqa va bir qo'shbog' bo'ladi. Ular yettita katta guruhg'a bo'linsa ham, eng asosiyları uch guruhdan iborat bo'lib, tarkibida qo'shbog'i bo'limgan uglevodorodlar karan, pinan, kamfandan hosil qilinadi. Shunga binoan ular karan, pinan va kamfan guruhi terpenlariga bo'linadi.




Pinen – pinan guruhining eng muhim vakili, odatdag'i sharoitda o'ziga xos hidli suyuqlik 156°C haroratda qaynaydi. Havo kislороди bilan oson oksidlanadi.U ignabargli daraxtlardan olinadigan skipidarning asosiy qismini tashkil etadi.Skipidar ignabargli daraxtlarning smolasini haydab olinadi va

uning ahamiyati tarkibidagi pinen bilan belgilanadi. Smola qoldig'i sifatida kamifol olinadi. Skipidar, asosan, erituvchi va tibbiyotda ko'p ishlataladigan terpingidrat va kamfara olish uchun asosiy xomashyodir, bundan tashqari oksidlovchi sifatida ham ishlataladi. Sovutilgan skipidarga vodorod xloridi ta'sir ettirilganda pinennen gidroxilordi $C_{10}H_{11}Cl$ ajralib chiqadi. Pinen faqat birikmalar bolida ajratib olinishi mumkin.

Kamfara — kamfan guruhining asosiy vakili, odatdag'i sharoitda o'ziga xos hidli va nechchiq ta'mli kristall modda, 175–179 °C haroratda suyuqlanadi, suvda erimaydi, ammo organik erituvchilarida va moylarda yaxshi eriydi. U kimyoiy tuzilishiga ko'ra terpenlurdan karbonil guruhu tutganligi bilan farqlanadi. Kamfara Yaponiya va Xitoy igna bargli daraxtlarining tarkibida uchraydigan keton bo'lib, tibbiyotda, tutunsiz porox olishda, nitro- va nesetilbelilozaga qo'shimcha sifatida ishlataladi. Kamfara ehti moyt tarkibidan suv bug'i bilan haydar olinadi. Suv sovuganda kamfara kristallari cho'kmiga ajralib tushadi. Uning tarkibida ikkita asimmetrik uglerod atomi borligi uchun to'rtta optik izomer mavjud.



Kamfara tuzilishini bиринчи мarta Bredt aniqladi. У осон оксидланып камфара кислота va oxirgi mahsulot sifatida trimetil qahrabo kislotasini hosil qiladi. Sintetik kamfara pinenden yoki pixta moyi tarkibidagi bornilatsetatdan olinadi. Bornilatsetat borneol spiritining sirka kislotasi efiri bo'lib, pixta moyida 30 - 40 % miqdorida uchraydi.




AROMATIK UGLEVODORODLAR VA ULARNING HOSILALARI

AROMATIK UGLEVODORODLAR (ARENLER)



Aromatik uglevodorodlar sistematik nomenklaturaga ko'ra arenlar deb ham yuritiladi. Arenlar sinfining dastlabki vakillari tabiatda uchraydigan mahsulotlardan (smola, balzam) ajratib olingan bo'lib, xushbo'y hidga ega. Shuning uchun ular aromatik (xushbo'y) uglevodorodlar deb yuritiladi. Keyinchalik bu moddalar tarkibida benzol yadrosi mavjudligi aniqlandi. Demak, aromatik uglevodorodlar molekulasi tarkibida benzol halqasini tutgan birikmalardir.

Benzolning tuzilishi





Avgust Kekule 1865- yilda benzol uchun quyidagi tuzilish formulasini taklif qilgan:



Bu formulalar halqadagi 6 uglerod atomlarining 4 valentli ekanligini tushuntiradi, ammoyne nega benzol to'yinmagan uglevodorodlar xossalarini namoyon qilmasligini tushuntira olmadı. Shundan keyin benzol uchun olimlar tomonidan boshqa xil formulalar taklif etildi. 1869-yilda Ladenburg o'zining prizmatik (a), 1887-yilda Armstrong-Bayer sentrik (b) va nihoyat, Klaus diagonal (c) formulalarini taklif etdilar:




Lekin bu formulalarning hammasi ham benzolning barcha kimyoiy xususiyatlarni tushuntirib berishga ojizlik qildi. Hozirgi tasavvurlarga ko'ra benzolda oddiy va qo'shbog'lar yo'q, balki uglerod atomlari orasida bog' hosil qiluvchi elektronlarning bututlari atomlar orasida bir xil taqsimlangan. Benzol molekulasi esa simmetrik truzilishiga ega va molekuladagi barcha uglerod atomlari bir tekislikda yotdi. Benzol halqasidagi C-C bog' orasidagi masofa 1,40 va C-H bog'larini orasidagi masofa 1,09 Å ga teng, chunki molekuladagi barcha uglerod atomlarning 6 ta gibridlanmagan p-elektronlari delokallashib, yaxlit π -elektron buluti hosil qiladi. Agar alkanlarda uglerod atomlari orasidagi masofa 1,54 va alkenlarda 1,34 Å ga tengligini hisobga olsak, benzol halqasidagi uglerod atomlari orasidagi bog'lar eddiy bog' ham, qo'shbog' ham emasligi aniq boladi. Quyida benzolning rezonans strukturalari, σ -va π -bog'larning hosil bo'lishi tasvirlangan:




Xyukkelning aromatiklik qoidasi

Aromatik birikmalarning barqaror bo'lishi uchun delokallashish shartigina kitoya qilmaydi. 1931- yilda Xyukkel kvant-kimyoiy hisoblashlar natijasida aromatiklik qoidasini e'lon qildi. Uning qoidasiga muvofiq molekula halqlari tekis tuzilishga va $4n + 2$ ta ($n = 0, 1, 2, 3$ va hokazo, aromatik halqlar soni) umumilashgan p-elektronlarga ega bo'lsagina aromatiklik xossasini namoyon qiladi. Demak, Xyukkel qoidasiga muvofiq tarkibida 6, 10, 14 va hokazo umumilashgan p-elektron tutgan bir, ikki va uch halqlali birikmalar aromatiklik xossasiga ega bo'lishi mumkin. Benzol molekulasida 6 ta ($n = 1$), naftalinda 10 ta ($n = 2$), antratsenda 14 ta ($n = 3$) elektronlar yaxlit π -elektron bulutini hosil qiladi:




naftalin



antratsen

Arenlarning nomlanishi va izomeriyasi

Benzol gomologik qatorining umumiyligi formulasi C_nH_{2n-6} . Benzol molekulasidagi vodorod atomlaridan birortasi radikal bilan almashingan bo'lsa, monoalkilbenzol, ikkitasi – dialkilbenzol deb ataladi. Monoalkilbenzollarning izomerlari bo'lmaydi, chunki benzol molekulasidagi barcha uglerod atomlari teng qiymatlidir:









toluol (metilbenzol)


Dialkilbenzollar molekulasida radikallarning joylashuviga ko'ra uch xil izomerlarga ega. Agar benzol halqasidagi alkil guruhlari yonma-yon joylashgan bo'lsa, **orto-**, bir uglerod atomi bilan ajratilgan bo'lsa, **meta-** va niroyat, ikki uglerod atomi bilan ajratilgan bo'lsa, **para**-izomerlar mavjud. Bunda yon zanjirning o'zi ham tuzilishi jihatidan farq qilishi mumkin, shuning uchun C_8H_{10} tarkibli benzol gomologining to'rtta izomeri bo'ladi:

Benzolning bir valentli radikalik **fenil** deyilsa, umuman aromatik uglevodorodlarning radikallariga arillar deb yuritiladi. Ko'pincha aromatik uglevodorodlarni nomlashda trivial nomenklaturadan ham foydalanadilar.

Masalan, metilbenzol – toluol, dimetilbenzollar – ksilol, izopropilbenzol – kumol, vinilbenzol – stirol deb yuritiladi va hokazo.



Murakkab tuzilishdagı arenlarnı salqato nomenklaturaga binoan nomlashida ham alitsiklik birikmalarını nomlagandagidek o'rinnbosarlarini raqamlashda ularning yig'indisi kichik sonni ifodalashiga alohida e'tibor berish kerak. Dastlab kichik zanjirli o'rinnbosarlar, keyin katta o'rinnbosarlar nomi aytilishi lozim. Masalan, tuzilishi quyida keltirilgan dimetiletibenzolni 1,4-dimetil-6-etylbenzol deb nomlagandan ko'ra 1,4-dimetil-2-etylbenzol deb nomlash maqsadga muvofiqdir.



1,4-dimetil-2-etylbenzol

Olinish usullari


Aromatik uglevodorodlarning tabiiy manbalari

Aromatik uglevodorodlar, asosan, neftdan, toshko'mir smolasidan va koks gazidan olinadi. Birinchi marta arenlar XIV asrda botqoqlik gazidan topilgan. 1825- yilda Faradey benzolni koks gazidan ajratib olgan.

Neftdan olish

Aromatik uglevodorodlarni ko'p miqdorda olish uchun neftni ikkilamchi qayta ishlashda katalitik riforming jarayonidan foydalilanadi. Bu jarayonda

benzin fraksiyasining mahsulotlari 500°C da, bosim ostida aluminiy–kobalt yoki platina katalizatorlari ishtirokida qizdiriladi:



Toshko'mir smolasidan olish


Koks-kimyoiy zavodlardan maxsus koks pechlarda toshko'mirni 1000°C atrofida havosiz qizdirib, to'rtta asosiy mahsulot: koks, toshko'mir smolasasi, ammiakli suv va koks gazi hosil qilinadi. Toshko'mir smolasasi tarkibida yuzdan ortiq birikmalar bor. Ularning asosiy qismi aromatik xossaga ega bo'lgan moddalaridir. Toshko'mir smolasasini fraksiyalarga ajratib haydash yo'li bilan benzol gomologlari, naftalin, antratsen, fenantren, shuningdek, kislorodli aromatik birikmalar: fenol, krezzollar, azotli moddalar: piridin, xinolin va boshqalar ajratib olinadi.

Koks gazidan olish

Toshko'mir quruq haydalganda ajralib chiqadigan mahsulot koks gazining kondensatlanishi natijasida hosil bo'ladigan yengil moylar o'zining tarkibida 60% gacha aromatik uglevodorodlar tutadi. Yengil moydan benzol toluol va boshqa moddalar ajratib olinadi.


I. Atsetilenden olinishi

Faollangan ko'mir solingenan naychani 650°C gacha qizdirib, u orqali atsetilen o'tkazilsa, benzol hosil bo'ladi;



2. Fridel-Krafs-Gustavson usuli (alkillash)

Benzolga katalizator ishtirokida galogenakkillar, spirtlar, alkenlar, etilen oksidi, oddiy yoki murakkab efirlar ta'sir ettirib, benzol gomologlari olinadi. Katalizator sifatida suvsiz aluminiy xlorid yoki boshqa birikmalar ishlataladi:




Bu reaksiyada benzol hosilasining faolligiga qarab alkillovchi agent tanlanadi, kat = Al_2O_3 ; AlBr_3 ; TiCl_4 ; BF_3 ; ZnCl_2 ; H_2SO_4 .

Alkillash reaksiyalarida alkilgalogenidning reaksiyon qobiliyati galogen tabiatini bilan belgilanadi:



3. Vyurs — Fittig usuli

Aromatik galoidli birikma va galoidalkil aralashmasiga natriy ta'sir ettirib, tegishli benzol gomologini olish:



Fizikavly xossaları

Aromatik uglevodorodlari, odatda, o'ziga xos hiddi, raugtsiz suyuqlikdir, ularning ayrim qattiq vakillari ham uchraydi. Arenlarning zichligi va sindirish ko'rsatkichi alkan va alkenlarga nisbatan katta. Turkibida ko'p miqdorda uglerod tutgani uchun ular tutab yonadi, suvda erimaydi, lekin organik erituvchilarida oson eriydi, o'zlarini ham organik moddalar uchun juda yaxshi erituvchi. Izomer uglevodorodlarning qaynash harorati bir-biriga yaqin bo'lsa-da, suyuqlanish harorati o'zaro katta farq qiladi (14-jadval).

Ko'pincha *para*-izomer *ortho*- va *meta*-izomerga qaraganda yuqori haroratda suyuqlanadi.

14-jadval

Aromatik uglevodorodlarning fizikaviy xossaları

Nomi	Brutto – formula	Suyuqlanish harorati, °C	Qaynash harorati, °C	Zichligi, d ₄₀
Benzol	C ₆ H ₆	5	80	0.8791
Toluol	C ₆ H ₅ -CH ₃	-95	111	0.8670
<i>o</i> -Ksilol	C ₆ H ₄ (CH ₃) ₂	-25	144	0.8802
<i>p</i> -Ksilol	C ₆ H ₄ (CH ₃) ₂	13	138	0.8610
<i>m</i> -Ksilol	C ₆ H ₄ (CH ₃) ₂	-48	139	0.8642
Naftalin	C ₁₀ H ₈	80	218	—
Antratsen	C ₁₄ H ₁₀	217	354	—
Fenantren	C ₁₄ H ₁₀	101	340	—


Kimyoviy xossalari

Benzol halqasidagi vodorod atomlarining reaksiyon qobiliyatini ilgari o'rganilgan to'yingan va to'yinmagan uglevodorodlarnikidan keskin farq qiladi. Benzolning aromatiklik xossalari uning tuzilishi bilan belgilanib, kimyoviy xossalarda namoyon bo'ladi. Aromatik halqa to'yinmagan bo'lsa ham, benzol birikish reaksiyalariga juda qiyinchilik bilan kirishadi. Alkenlar va butadienga xos bo'lgan bromli suv va kaliy permanganat eritimalarining rangsizlanishi arenlar uchun kuzatilmaydi. Benzol va uning gomologlari birikish reaksiyasidan ko'ra osonlik bilan o'r'in olish reaksiyalariga kirishadi. Ular oksidlovchi ta'siriga chidamli.



O'r'in olish reaksiyalarি

Alkillash (Fridel-Krafs reaksiyasi)

Benzol yadrosidagi vodorod atomlari Lyuis kislotalari ishtirokida (FeCl_3 , AlCl_3) alkil radikallarga almashinishidan benzol gomologlari hosil bo'ladi:




Reaksiya mexanizmi:




Atsillash

Benzolga katalizatorlar ishtirokida galogenangidridlar yoki kislota angidridlari ta'sir ettirish yo'li bilan aromatik uglevodorodlarning galogenli hosilalari olinadi:




Sulfolash

Benzolga konsentrланган sulfat kislota yoki oleum ta'sir ettirilganda benzolsulfokislota hosil bo'ladi:




Galogenlash

Reaksiyaning olib borilish sharoitiga ko'ra galogen yadroga yoki yon zanjirga yo'nalib, aromatik uglevodorodlarning galogenli hosilalarini hosil qiladi:




Nitrolash

Benzol va uning gomologlariga nitrolovchi aralashma ($\text{HNO}_3 + \text{H}_2\text{SO}_4$, konst.) ta'sir ettiligindan aromatik halqaga nitroguruh kiritiladi:



Reaksiya mexanizmi:



Benzol yadrosidagi o'rin almashinish qoidasi

Benzol gomologlari va boshqa hosilalarida yadrodagи uglerod atomlarining reaksiyon qobiliyatini uch narsa belgilaydi:

- halqadagi o'rinxosarning tabiatini va tutgan o'rni;
- ta'sir etadigan reagentning tabiatini;
- reaksiyani olib borish sharoiti.


Benzol yadro dagi har bir o'rinnbosar reaksiyaga kirishayotgan ikkinchi o'rinnbosarni yadro dagi ma'lum joyga yo'naltiradi. O'rinnbosarlar o'zining yo'naltirishda ta'singa ko'ra ikki guruhga bo'linadi.

I. Birinchi tur o'rinnbosarlar

Elektron bera oladigan, ya'ni elektronodonor atomlar guruhi kiradi, ular boshqacha *ortho*- va *para*- orientantlar (yo'naltiruvchilar) deb ham yuritiladi:


- birlamchi $-\text{NH}_2$; ikkilamchi $-\text{NHR}$; uchlamchi $-\text{NR}_2$ aminoguruuhlar;
- gidroksil $-\text{OH}$ guruhi;
- alkil guruuhlar ($-\text{CH}_3$; $-\text{C}-\text{H}_5$; $-\text{C}_3\text{H}_7$ va hokazo);
- alkaksi guruuhlar $-\text{OR}$ va boshqalar.

Birinchi tur o'rinnbosarlar elektronodonor atomlar guruhi tutgani uchun ular elektronlarini qisman benzol yadrosiga beradi. Buning natijasida yadro dagi elektronlar bulutining zichligi *ortho*- va *para*- holatlarda oshadi va elektrotol o'rinnbosarning kirishi osonlashadi. Birinchi tur o'rinnbosarlar benzol halqasiga o'zidan keyin kiruvchi o'rinnbosarlarni *ortho*- va *para*- holatlarga yo'naltiradi.



bunda: A = birinchi tur o'rinnbosar, B = ikkinchi kiritilayotgan o'rinnbosar guruhi


Galogenlar (-Cl, -Br, -I, -F) elektronakseptor guruuh bo'lsa ham, *ortho*- va *para*- orientantlar (yo'naltiruvchilar) hisoblanadi. Chunki ulardagagi erkin elektron justlari benzol halqasining π -elektron buluti bilan ta'sirlashadi va benzol halqasining *ortho*-, *para*-holatlaridagi elektron zichligini oshiradi:



II. Ikkinchi tur o'rinnbosarlar


Elektronoakseptor guruuhlar, ular yangi o'rinnbosarni *meta*-holatga yo'naltirgani uchun *meta*-orientantlar deyiladi: $-\text{C}=\text{N}$, $-\text{SO}_3\text{H}$, $-\text{CHO}$, $-\text{COOH}$, NO_2 va shunga o'xshash, qo'sh va uchbog'li funksional guruuhlar

Kiradi Benzol yadrosidagi elektron bulut bu guruhlar tomon tortiladi, ayniqsa *ortho*- va *para*-holatda elektron bulut zichligi kamayadi. Shuning uchun ikkinchi tur o'rribosarlar keyingi o'rribosarlarni *meta*-holatga yo'naltiradi:



bunda: A = ikkinchi tur o'rribosar, B = yangi kiritilayotgan guruh.


Ikki vodorodi har xil funksional guruhlarga almashigan benzol hosilalariga yangi tuchinchisi o'rribosarning kiritilishi turli xil yo'nalishda borishi mumkin. Misalani molekulasida ikkita birinchi tur o'rribosarlar bor *ortho*-krezol nitrolohanganda halqadagi ikkala birinchi tur o'rribosarlardan gidrosil yuruhuning yo'naltiruvchi ta'siri kuchliroq bo'ladi:



Har qanday o'rribosar o'zining elektron tabiatiga ko'ra benzol halqasiga ikki xil ta'sir etadi. Ulardan birinchisi induktiv effekt (ë I) bo'lsa, ikkinchisi benzol halqasi bilan tutash tizim hosil qiluvchi o'rribosarlarning mezomer effekti (ë M)dir. Ularning har ikkalasi ham benzol halqasidagi uglerod atomlarining elektron zichligini o'zgartiradi, bu, ayniqsa, reagentlarning o'zarlo reaksiyasi jarayonida yaqqol seziladi.


Aromatik utevodordrlarning birikish va oksidlanish reaksiyalari

Aromatik utevodordrlarga vodorodning birikishi faqat yuqori haroratda katalizatorlar (Ni , Pt , Pd , V_2O_5) ishtirokida boradi.




Benzol ozonni biriktirib, oson portlovchi modda – triozonid hosil qiladi.

Benzol oksidlovchilar ta'siriga juda chidamli. U yuqori haroratda ($350 - 450^\circ\text{C}$) katalizatorlar ishtirokida oksidlanganda, benzol halqasi uziladi va malein kislota hosil bo'ladi:



Benzolga nisbatan uning gomologlari oson oksidlanadi.



Arenlarning ayrim vakillari


Benzol. C_6H_6 xushbo'y hidli, 80°C da qaynaydigan suyuqlik, suvda yomon eriydi. Spirtlar, efirlar va ketonlar bilan istalgan nisbatlarda aralashadi. Benzol ko'pchilik organik birikmalar uchun erituvchi sifatida ishlataladi.

Toluol (metil benzol) - $\text{C}_6\text{H}_5-\text{CH}_3$. Rangsiz suyuqlik o'ziga xos hidga ega suvdan yengil, qaynash harorati $110,6^\circ\text{C}$. Toluol kuchli portlovchi modda hisoblangan trinitrotoluol (trotol, tol) anilin, sintetik yuvuvchi moddalar ishlab chiqarishda, shuningdek, oziq-ovqat va parfumeriya sanoatida ishlataladi.

Ksilol $\text{C}_6\text{H}_4(\text{CH}_3)_2$. Rangsiz suyuqlik, o'ziga xos hidga ega. Ksilol uchta (*ortho*-, *meta*-, *para*-) izomerlar holida uchraydi. Texnik ksiloldan erituvchi sifatida foydalilanildi, *para*-ksilol sintetik tola – lavsan ishlab chiqarishda yarim tayyor mahsulot, tereftal kislota sintezida ishlataladi.

Stirol (vinilbenzol) $C_6H_5-CH=CH_2$. Xushbo'y hidli, suvdan yengil $145^{\circ}C$ da qaynaydigan suyuqlik. Stirol oson polimerlanib, shaffof polimer — polistirol buxal qildi. Polistirol yuqori haroratda depolimerlanib, qayta stirolga aylanishi mumkin.

Banoatda stirol etilbenzoldan bug' fazada $540-590^{\circ}C$ da katalitik degidrogenlanib olinadi:





KO'P HALQALI AROMATIK BIRIKMALAR

Aromatik uglevodorodlar tarkibidagi benzol halqalarining soniga qarab bir yadroli va ko'p yadroli bo'ladi. Molekulasi bir necha benzol halqalaridan tarkib topgan uglevodorodlar ko'p halqali aromatik birikmalar deyiladi. Benzol halqalarining o'zaro birikishiga qarab, ular quyidagi guruhlarga bo'lindi:




1. Benzol halqalari o'zaro oddiy bog' orqali bog'langan birikmalar:



2. Benzol halqalari o'zaro bir yoki bir necha uglerod atomlari orqali bog'langan birikmalar:




3. Ikki yoki bir necha benzol halqalari o'zaro kondensirlangan birikmalar:



(**homolog**, **ko'p** halqali aromatik birkimlar ikki guruhga bo'linadi: a) **halqalari ko'p** halqali aromatik birkimlar (difenil, difenilmelan va difenilmestan qatori uglevodorodlar); b) kondensirlangan (tutash) ko'p halqali aromatik birkimlar (naftalin, antratsen, fenantren va boshqalar).

Naftalin va uning tuzilishi


Naftalin molekulasiidagi barcha uglerod atomlari elektron bulut zinchligi va kimyoiyi jihatdan o'zaro farq kilganligi uchun uning monoalmashigan hosilalari ikki xil, ya'ni α - va β -izomerlar ko'rinishida mavjud bo'lishi mumkin:



naftalin




α -bromonaftalin




β -oksinaftalin
(β -naftol)

Agar o'rribosarlar soni ikkidan ortiq bo'lsa, u holda naftalin halqasining uglerod atomlari quyidagi tartibda raqamlanadi va o'rribosarlar o'rni tegishli sonlar bilan ko'rsatiladi. Bunda 1,4,5,8-uglerod atomlari bilan bog'langan o'rribosarlar α -holatga va 2,3,6,7 —o'rribosarlar β -holatlarga tegishli bo'ladi:



naftalin



2-oxi-3,6-naftalindisulfokislota

Olinishi

Naftalin tarkibida 5% gacha naftalin tutgan toshko'mir smolasidan olinadi. Toshko'mir smolasi fraksiyalab haydalganda naftalin fenollar bilan birga karbol moyi fraksiyasiga o'tadi. Keyingi bosqichda naftalin fenppardan ishqor yordamida ajratiladi, chunki bunda fenollar ishqor ta'sirida fenolyatlar hosil qilib ajraladi. So'ngra naftalin vakuumda haydalib, sublimatsiya (quruq haydash) usuli bilan tozalanadi.


Fizikaviy xossalari

Naftalin 80°C da suyuqlanadigan oq, yaltiroq kristall modda, o'ziga xos o'tkir hidga ega. U qattiq modda bo'lishiga qaramasdan oson uchuvchan,


suvida erimaydi, benzol va esirda yaxshi eriydi, qizdirilganda spirtiladi. Nitronaftalinlari 13 — jadvalda berilgan.

Kimyoviy xossalari


Naftalin kimyoviy xossalari bilan benzolga o'xshaydi, aromatiklik xossalari namoyon qilib, o'rinni olish va birikish reaksiyalariga kirishadi. Naftalin α -holatidagi vodorod atomlari hisobidan oson galogenlanadi, nitrolanadi.




Naftalining α - va β -uglerod atomlari bilan bog'langan vodorod atomlari reaksiyon qobiliyatini, reaksiya yo'naliishing haroratga bog'liqligini sulfolash reaksiyasida misoldida ko'rib chiqamiz:



Naftalinsulfokislotalardagi sulfoguruh benzolsulfokislotalar o'xshash xossalarni namoyon qilib, oson gidrosil guruhiga almashinishi mumkin. Bu reaksiya natijasida naftollar hosil bo'lib, ular kimyoviy xossalari bilan fenollarga o'xshaydilar.




Nitronaftalinlar vodorod yordamida qaytarilganda aminonaftalin (yoki naftilaminlar) hosil bo'ladi:




Qaytarilish reaksiyasi

Naftalinning girogenlanishi natijasida reagentlarning miqdori va reaksiya sharoitiga qarab di-, tetra- va dekagidronaftalinlar hosil bo‘ladi. Bular ichida tetalin va dekalin sanoat miqyosida ishlab chiqariladi, chunki ular juda ko‘p ishlataladigan yaxshi organik erituvchilardir:



Oksidlanish reaksiyasi


Naftalin bug‘larini havo aralashmasi bilan V_2O_5 katalizatori ishtirokida 450°C gacha qizdirilganda, bitta aromatik halqa uzilib, ular oksidlanadi va fital kislotasi hosil:



Antratsen guruhi

Antratsen – uch yadroli kondensirlangan aromatik birikma. Uning molekulyar formulasi $C_{14}H_{10}$. Antratsen kristall modda, 213°C da suyuqlanadi. Suvda erimaydi, benzolda qizdirilganda yaxshi eriydi. Kimyoiy xossalari jihatidan naftalin xossalariiga o‘xshaydi. Uni toshko‘mir smolasni tarkibidagi «antratsen moyi» fraksiyasidan ajratib olinadi. Antratsen hosilalarining eng ko‘p ahamiyaga ega vakillari antraxinon va alizarindir.


Antraxinon antratsenning nitrat kislota bilan oksidlanishidan hosil qilinadi:




Antraxinon hosilalari bo‘yoqlar sintez qilishda, xususan, alizarin bo‘yoqlari uchun dastlabki xomashyo hisoblanadi.

Alizarin (1,2-dioksiantraxinon)

Alizarin qizil rangdagi ignasimon yoki ninasimon kristall modda bo'lib, 219°C da suyuqlanadi, suvda yomon eriydi. Fenol bo'lgani uchun ishqorlarda yoshi eriydi. Alizarin bevosita bo'yovchi birikma emas, lekin ba'zi metallarning (Al, Cr, Fe,) oksidlari bilan rangli birikmalar hosil qiladi:



Alizarin 1869-yilgacha Janubiy Yevropada o'sadigan marena o'simligidan olingan. 1873-yildan boshlab u sanoat miqyosida ishlab chiqarila boshlandi. Uzoqgi paytda alizarin antraxinondan sintetik usul bilan olinadi:



Fenantren

Fenantren antratsenning izomeri bo'lib 101°C da suyuqlanadigan kristall modda. Fenantren molekulasi ham uchta olti a'zoli halqalardan tashkil topgan, uning formulasi ikki xilda ifodalanadi:



Aslida bu formulalarning hech qanday farqi yo'q. U texnika ahamiyatiga ega emas, ammo fenantren halqasi bir necha fiziologik ta'sir qiluvchi birikmalar asosini tashkil qiladi. Qisman gidrogenlangan fenantren yadrosi morfin, kodein alkaloidlari, yurak glikozidlari, ayrim gormontlar va vitaminlar molekulasining asosini tashkil qiladi.

Tayanch iboralar

Karbotsaklik birikmalar. Sikloalkanlar (siklanlar). Naftenlar. Banan bog'lar. Bayernning kuchlanish nazariyasi. Siklogeksanning "vanna" va "kreslo" konformatsiyalari. Ekvatorial va aksial vodorod atomlari. Zelinskiyning qaytmas katalizi.

Terpenlar. Seskviterpenlar, di- va triterpenlar. Alifatik terpenlar. Monotsiklik va bitsiklik terpenlar. Mirsen, ge=raniol, linalool, sitral. Mentan, limonen, mentol, terpin, terpingidrat. Karan, pinan, kamfan, pinen, kamfora. Kamfon, kam-foron, trimetilqahrabo kislotalar. Borneol.

Arenlar. Benzolning prizmatik, sentrik va diagonal formulalari. Xyukkelning aromatiklik qoidasi. π - va σ -komplekslar. Benzol halqasidagi o'rinnbosarlarning orientatsion qoidasi. Birinchi va ikkinchi tur orientantlar. Ko'p halqali aromatik birikmalar. Tutash va tutashmas halqali aromatik birikmalar. Naftalin, antratsen, fenantren. Alizarin, antraxinon. Trifenilmetan bo'yog'lari.

Nazorat savollari

1. Qanday birikmalar sikloparafinlar deb ataladi?
2. Quyidagi sikloalkanlarning formulasini yozing:
 - a) 1,4-dimetil-5-etilsiklogeksan, b) 1,4-dimetil-3-etilsiklogeksan, d) 1,4-dimetil-2-etilsiklogeksan, e) 1,2-dimetil-4-etilsiklogeksan.
3. a) 1,2-dibrompentan. b) 2,4-dibrompentan, d) 1,4-dibrom-pantan, e) 1,2-dibrompentan kabi galogenalkanlar rux metali bilan reaksiyaga kirishganda qanday sikloparafinlar olinadi?
4. Quyidagi birikmalarning qaysilari bir gomologik qatorning vakillari hisoblanadi: a) etilsiklopropan, b) siklobutan, d) siklopropan, e) propan, f) izopren?
5. Gaz holidagi uglevodorodning havoga nisbatan zichligi 2,414 ga teng bo'lsa, uning formulasini aniqlang.
6. Qanday sikloparafinlardan benzol molekulasini hosil qilish mumkin?
7. Sikloparafinlar tabiatda uchraydimi? Ularning eng muhim vakillarini aytib bering.
8. Qaysi siklanlarning hosilalarida sis-trans izomeriya hodisasi kuzatiladi? Fikringizni misollar bilan isbotlang.
9. Uch- va to'rt a'zoli sikloparafinlar brom, vodorod va suv molekulasi bilan reaksiyaga kirishganlarida nima hosil bo'ladi?
10. Besh- va olti a'zoli sikloalkanlar birikish reaksiyasiga kirishadimi?
11. Siklogeksan molekulasining konformatsion izomerlari formulasini yozing. Ular qanday izomerlar deb ataladi?
12. Siklogeksan molekulasidagi 12 vodorod atomlari fazoda ikki xil yo'nalgan, ularning farqi nimada?

13. Terpenlar molekulyar formulasining asosini qanday zanjir bilan ko'rsatish mumkin?
14. Mono- va bitsiklik terpenlarning farqini bilasizmi?
15. Fabiatda uchraydigan diterpenlarga misollar keltiring.
16. Mentan va uning hosilalarini bilasizmi? Ular qayerda uchraydi?
17. Terpin hosilasi bo'lgan terpingidrat nima uchun ishlataladi?
18. Bitsiklik terpenlardan karan, pinan va kamfanlarning formulasini yozing.
19. Kamfora va uning qanday hosilalarini bilasiz?
20. C_6H_6 tarkibli organik modda uchun barcha tuzilish formulalarini yozing.
Ularning qaysi biri benzol formulasini to'g'ri tushuntiradi?
21. Benzol molekulasidagi oddiy va qo'shbog'lar bir-biridan farq qiladimi?
22. Nega benzol molekulasidagi C – C bog'lari oddiy va qo'shbog'lardan turq qiladi va kattaligi jihatidan ular orasida yotadi?
23. Benzol molekulasidagi barcha vodorod atomlari o'zaro ekvivalent ekansigini izohlab bering.
24. Benzol va uning gomologlariga qanday reaksiyalar xos hisoblanadi?
Ularغا misollar keltiring.
25. Benzoldan siklogeksan, xlorbenzol, geksaxlorsiklogeksan, toluol olish reaksiyalarini yozing.
26. Tarkibida 92,31 % uglerod va 7,69 % vodorod tutgan ugle-vodorod bug'larning vodorodga nisbatan zichligi 39 ga teng bo'lsa, uning molekulyar formulasini aniqlang.
27. 73,8 g nitrobenzol olish uchun necha gramm benzol sarflanadi?
28. Qanday reaksiyalar yordamida benzol gomologlarining to'yingan va to'yinmagan uglevodorodlardan farqini ko'rsatish mumkin?
29. Toluol bilan xlor o'zaro ekvimolyar nisbatda yorug'lik nuri ta'sirida reaksiyaga kirishdi. Reaksiya natijasida qanday mahsulot olindi?

Adabiyotlar


1. Грандберг И.И. Органическая химия.- Москва- "Дрофа".- 2002.- 208 – 260.
2. Iskandarov S.I., Abdusamatov A.A., Shoymardonov R.A. Organik kimyo.- Toshkent.- "O'qituvchi".- 1979.- 372 – 390- betlar.
3. Pirmuxamedov I. Organik kimyo.- Toshkent.- "Meditrina".- 1987.- 103–125 va 387–393- betlar.
4. Shoymardonov R.A. Organik kimyodan savol, masala va mashqlar.- Toshkent.- "O'qituvchi".- 1996.- 239–270- betlar.
5. Винзорский В.Я. Вопросы, упражнения и задачи по органической химии с ответами и решениями.- Москва.- "Владос". - 1999.- С. 35-42.

UGLEVODORODLARNING GALOGENLI HOSILALARI MONOGALOGENALKANLAR

Ahitatik uglevodorodlar molekulasidagi bir yoki bir necha vodorod atomlarning galogenlarga almashinishidan hosil bo'lgan birikmalarga uglevodorodlarning galogenli hosilalari deyiladi. Ahitatik uglevodorodlarning galogenli hosilalari molekulasidagi galogen atomlarining soniga qarab mono-, di- va poligalogenli, galogen bilan bog'langan radikalning tabiatiga qarab esa to'yingan va to'yinmagan galogenli hosilalarga bo'linadi. Galogen atomi bilan bog'langan radikalning tuzilishiga qarab, monogalogenalkanlar birlamchi RCH_2X , ikkilamchi R_2CHX va uchlamchi R_3CX bo'lishi mumkin.

Nomenklaturasi va izomeriyasi

To'yingan uglevodorodlarning monogalogenli hosilalari $C_nH_{2n+1}X$ umumiy formula bilan ifodalanadi ($X = F, Cl, Br, I$). Oddiy monogalogenli hosilalarni nomlashda bir valentli uglevodorod radikali nomiga galogen nomini qo'shish bilan hosil qilinadi:



Illi qo'shni uglerod atomidagi ikkita vodorod atomlari galogenlar bilan almashishingan bo'lsa, bunday digalogenli birikmalarning nomi oxiriga -en qo'shimchasi qo'shish bilan digalogenid nomi hosil qilinadi.





Uglevodorod zanjiri chekkasidagi uglerod atomlari bilan ikkita galogen bog'langan bo'lsa, hosil bo'lgan radikallar nomiga -iden qo'shimchasi qo'shib nomlanadi:





Molekulasidagi barcha vodorod atomlari galogenga almashining hosilalar pergalojenli hosilalar deyiladi:







Uglevodorod zanjiri murakkab tuzilishga ega bo'lsa, bunday hosilalarni sistematisk nomenklaturaga ko'ra nomlash qulaydir. Sistematisk nomenklaturaga ko'ra galogenli birikmalarning nomi tegishli uglevodorod nomidan hosil qillinch. Bunda dastlab galogen atomi bilan bog'langan uglerod atomining bo'isi zanjirdagi raqami, so'ngra esa galogen va alkanning nomi aytildi. Bosh zanjimi raqamlash o'rinnbosar yaqin tomondan boshlanishi kerakligi o'z-o'zidan tushunarli bo'lsa kerak:



Monogalogenli hosilalarning izomerlari soni tegishli uglevodorodlarning izomerlari sonidan ko'proq bo'ladi. Masalan, propanda izomer bo'lmagan holda xlorpropan uchun ikkita izomer mavjud:



Bundan tashqari monogalogenli hosilalar galogen tutgan uglerod atomi tabiatiga ko'ra birlamchi, ikkilamchi va uchlamchiga ajraladi:





Olinish usullari

I. Alkil xlorid va bromidlarning olinish usullari


Monoxlor- va bromalkanlar alkanlarni bevosita xlorlash va bromlash orqali radikal mexanizm bo'yicha olinishi bilan alkanlar mavzusida tanishgan edik. Erkin flor bilan alkanlarni bevosita storlash juda qiyin va uglevodorodning molekulasi bu reaksiyada parchalanib ketadi. Shuning uchun alkanlarni to'g'ridan-to'g'ri storlash amalda mumkin emas. Iodli xosilalarni esa bu usulda olib bo'lmaydi.

2. Spirtlarga galogenid kislotalar, shuningdek, fosfor va oltingugurtning galogenli birikmalarini ta'sir ettirish:

a) Spirtlarga galogenid kislota ta'sir etganda kislota miqdori ko'proq olinadi yoki suvni tortib oluvchi vositalar (H_2SO_4) ishtirokida olib boriladi. Katalizator sifatida kislotalarning ishlatalishi reaksiyaning birinchi bosqichida spirtning protonlanishidan dalolat beradi:



Dastlab reaksiyaning birinchi bosqichida spirt vodorod kationini biriktirib, protonlangan spirt hosil qiladi (I), so'ngra u suv va karboniy kationiga ajraladi (II), uchinehi bosqichda karboniy kationi galogen bilan birkadi.




Keltirilgan reaksiya mexanizmi S_N1 – nukleofil o'r'in olish reaksiyasidir, substrat sifatida protonlangan spirt nukleofil sifatida galogen ioni qatnashadi.

b) Spirtlarga fosforning pentagalogenli hosilalari ta'sir etganda reaksiya yaxshi unum bilan boradi, ammo PCl_3 olinganda birlamchi spirtlar galoid alkil o'rniiga fosforli efirlar hosil qilib reaksiyani qiyinlashtiradi.




d) Spirtlar molekulasiga iodni kiritish uchun PI_3 bevosita reaksiya jara-yonida fosfor va iodning o'zaro ta'siridan hosil qilinadi:



e) Spirtlarga tionil xloridi ta'sirida reaksiyani amalg'a oshirish eng maqbul usul hisoblanadi, chunki reaksiya natijasida hosil bo'lgan qo'shimcha mahsulotlar gaz holida bo'lib ularni asosiy mahsulotdan ajratish qiyinchiligi tug'ilmaydi.



J. Alkenlarga galogen vodorodning ta'siri





Odatdaň galogen vodorod gazi bevosita alkenga ta'sir ettiriladi. Ko'pincha qrituvchi sifatida sirka kislotasi ishlatiladi, chunki qutblı galogen vodorod qutbsız alken molekulasini ham eritadi. Galogen vodorodning suvli eritması reaksiyada ishlatilmaydi, chunki bu holda HX molekulası o'rniiga suv molekulası birikib, spirt aralashmasi hosil bo'lishi mumkin.

Alkenlarga HX molekulası birikishida H va X atomlarining qaysi uglerod atomiga yo'naliishi ularning tuzilishiga bog'liq va buni Markovnikov qoidası tushuntirib beradi; ya'ni birikish reaksiyası paytida qo'shbog' tutgan $\text{C}=\text{C}$ atomlaridan ko'p vodorod tutgani kislotा vodorodini ikkinchisi esa kislotা qoldig'ini biriktiradi:




Alkilftoridlarning olinishi


a) Alkenlarga HF ning birikishi:



b) Alkanlarni ftor tuzlari yordamida ftorlaganda perftoralkanlar hosil qildi. Odatda, alkenlarga CoF_3 ni 200°C haroratda ta'sir ettirib olnadi. Bunda CoF_3 200°C da asta-sekin ftor ajratib chiqaradi:



d) Bundan tashqari polixlorli hosilalarga surma(III)-ftorid katalizatori ishtirokida vodorod ftorid ta'sir ettirib, poliftorli hosilalar olinadi:



e) alkil iodid, xlorid yoki bromidga simob, kumush, kobalt, sur'ma va shu kabi boshqa ftoridlarni ta'sir ettirish orqali:



Alkil iodidlarning olinishi

a) Tegishli alkil xloridga natriy iodidni ta'sir ettirish:



b) Alkenlarga vodorod iodidining birikishi:



Fizikaviy xossalari

Odatdagи sharoitda metil, etil, propil va butil ftorid, metil va etil xlorid hamda metil bromidi gazzlardir. Boshqa to'yingan uglevodorodlarning ko'pgina galogenli hosilalari odatdagи sharoitda rangsiz suyuqliklar bo'lib, ularning o'ziga xos hidi bor. Alkilgalogenidlarning molekulasi tarkibidagi galogen atom massasining kattalashuvi bilan ularning suyuqlanish va qaynash harorati, nisbiy zichligi ham ortib boradi (14-jadval). Molekuladagi uglevodorod zanjirining uglerod atomlari soni ortishi bilan ularning nisbiy zichligi kamayadi, ammo qaynash harorati oshib boradi. Ular suvda yomon eriydi, chunki suv molekulasidek vodorod bog'lari hosil qilmaydi, lekin organik erituvchilarda yaxshi eriydi. Galogenalkanlarning o'zlari ham ko'pgina organik moddalar uchun erituvchi hisoblanadi.

C-F, C-Cl, C-Br, C-I qatorida kimyoviy bog'ning energiyasi kamayadi, bog' uzunligi va qutblanishi esa kattalashadi. C-I bog'ning energiyasi eng kichik, qutblanuvchanligi eng katta bo'lib, iodalkanlar nukleofil almashinish reaksiyalariga osongina, ftoralkanlar juda katta qiyinchilik bilan kirishadi.

Galogenalkanlarning spektral tadqiqoti ularning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatadi. UB-spektrlari ko'rib chiqilganda quyidagi sohalarda yutilish maksimumlari qayd qilingan: xlorli hosilalar uchun – 172 nm, bromli hosilalar – 204 nm va iodli hosilalar – 257 nm.

14 – jadval

Alkanlar monogalogenli hosilalarining fizikaviy xossalari

Nomi	Suyuqlanish harorati, °C	Qaynash harorati, °C	20 °C dagi zichligi
Metil ftorid	-141,8	-78,6	0,877
Metil xlorid	-103,6	-23,7	0,992
Metil bromid	-96,8	4,5	1,732
Metil iodid	-66,1	42,5	2,293
Etil ftorid	-143,2	-37,7	0,816
Etil xlorid	-140,8	12,2	0,918
Etil bromid	-119,0	38,4	1,468
Etil iodid	-110,9	72,8	1,944

Galogenli hosilalarining IQ spektrlariida 1350-1000 sm^{-1} sohasida C-F bog'larining, 800-600 sm^{-1} C-Cl bog' uchun, hamda 600-500 sm^{-1} oralig'ida C-Br va C-I bog'lari uchun xarakterli bo'lgan valent tebranish chastotalari namoyon bo'ladi.

Kimyoviy xossalari

Uglevodorodlar galogenli hosilalarining reaksiyaga kirishish xususiyati galogenning tabiatiga va organik radikalning tuzilishiga bog'liq. Galogenlarning qo'zg'aluvchanligi quyidagi tartibda ortib boradi: F → Cl → Br → I. Shuning uchun C-I bog'i boshqa C – Hal bog'lariga nisbatan oson qutblanadi. Radikalning tabiatи esa galogenning reaksiyaga kirishish xususiyatiga quyidagicha ta'sir qiladi:


- allil tipidagi $\text{H}_2\text{C}=\text{CH}-\text{CH}_2\text{X}$ birikmalarda galogen faol bo'lsa,
- vinil tipidagi $\text{H}_2\text{C}=\text{CH}-\text{X}$ birikmalarda galogen faolligi qisman yo'qolgan.

Galogenli hosilardagi galogen o'rnini boshqa o'rinnbosar bilan almashtirish nukleofil almashinish reaksiyasi hisoblanadi. Galogenalkillardagi

galogen atomi bilan bog'langan uglerod atomi qisimidan musbat zaryadga ega bo'lganligi uchun, u nukleofil o'rinni olish reaksiyalarida manfiy zarrachaning hujum qilishi uchun moyillikka ega. Umuman olganda galogenalkillarning nukleofil o'rinni olish reaksiyalari ikki xil mexanizm bo'yicha amalga oshadi. Bu mexanizm bilan tanishish uchun galogenalkillarga ishqorning suvdagi eritmasi ta'sirini ko'rib chiqaylik, bu reaksiya natijasida galogenalkillar osonlik bilan spirt hosil qiladi:



Yuqoridagi ikki reaksiyaning ikkinchisi qaytar bo'lib, reaksiya muvozanatini o'ngga siljitim uchun ko'p miqdorda suv olish yoki ishqor qo'shib turish kerak.




Bu reaksiya mexanizmi alkil radikal tuzilishiga ko'ra ikki xil amalga oshishi mumkin.


1. Nukleofil o'rinni olish reaksiyası S_N2

Mexanizm va kinetikasi


Birlamchi galogenalkillar ishqoriy gidroliz natijasida spirt hosil qiladi va reaksiya bir bosqichli bimolekulyar o'rinni olish reaksiyasi mexanizmi bo'yicha amalga oshadi. Bu reaksiya uchun oraliq kompleks hosil bo'lishi xarakterli hisoblanadi, masalan, metil bromidi va OH^- anioni reaksiyasi ikkinchi tartibli o'rinni olish reaksiyasi bo'lib, uning tezligi har ikki reagent konsentratsiyasi bilan belgilanadi:



Bu holatni oddiyroq qilib tushuntiradigan bo'lsak, reaksiyaning amalga oshishi uchun metil bromidi va HO^- ioni o'zaro to'qnashuvi kerak. Metil bromidning gidrolizlanishi S_N2 mexanizm bo'yicha borishi uchun manfiy zaryadli HO^- anioni (nukleofil zarracha) CH_3Br molekulasining qisman musbat zaryadli uglerod ato-miga bromga teskari tomondan hujum qilib, oraliq holatni hosil qiladi:



Bunda C-Br bog'i hali uzilmagan, ammo zaiflashgan bo'lib, metil guruhidagi uchta vodorod atomlari bir tekislikda joylashgan (valent burchaklari 109.5° dan 120° gacha o'zgaradi) Oraliq holatida uglerod atomi qisman gidroksil bilan ham, brom bilan ham bog'langan va ular bir-biridan maksimal uzoqlikda molekula tekisligining ikki tomonida bir chiziq bo'ylab joylashgan. Unda C-OH bog'i hali to'liq hosil bo'lmasagan va C-Br bog'i esa butunlay uzilgan emas. Reaksiyaning ikkinchi bosqichi tezlik bilan amalga oshib, uglerod atomi sp^2 -gibrid holatdan sp^3 -gibridlangan holatiga qaytadi. Ayin shu paytda uglerod va gidroksil anioni haqiqiy C-OH kovalent bog'i hosil qiladi, uglerod atomi bilan brom o'rtasidagi bog' esa to'la uziladi. Oraliq holatning hosil bo'lishi uchun maksimal faollanish energiyasi kerak, buni S_N2 -mexanizmlni reaksiyaning energetik diagrammasidan ko'rishimiz mumkin (34- rasm).



34- rasm. S_N2 -mexanizmlni reaksiyaning energetik diagrammasi.

Angliyalik olimlar Ingold va Xuz metil bromid bilan ishqorning suyl eritmasida gidroksil ionlari ishtirokida gidrolizlanish tezligini o'rganishdi. Nukleofil almashinish reaksiyasining tezligi va mexanizmi galogen atomi bilan bog'langan uglevodorod radikallarining tuzilishiga bog'liq bo'lishiuni aniqladilar.

Erituvchining qutbliligi S_N2 -reaksiyalar tezligiga juda kam ta'sir ko'rsatadi. S_N2 -reaksiyaning tezligi, asosan, radikal o'rindbosarlar hajmiga bog'liq. Metil


guruhining hajmi vodorodga nisbatan katta bo'lganidan, ular C atomiga nukleofil zarracha kelishini qiyinlashtiradi va ularning reaksiyon qobiliyati quyidagiicha o'zgaradi:




I. Nukleofil o'rinni olish reaksiyasi S_NI

Mexanizm va tezlikni belgilovchi omillar


Uchlamchi galogenalkillar vaallil ti pidagi birikmalar uchun ikki bosqichli monomolekulyar o'rinni olish reaksiyalari xosdir. Uchlamchi butil bromidining ishqoriy gidroliz reaksiyasi birinchi tartibli reaksiya bo'lib, uning tezligi faqat $(\text{CH}_3)_3\text{CBr}$ konsentratsiyasiga bog'liq:




Reaksiya tezligiga gidroksil anionlari konsentratsiyasi ta'sir etmaydigan bo'lsa, reaksiya tezligini belgilaydigan bosqichda HO^- anionlari qatnashmaydi degan xulosa chiqaramiz va bu xulosa to'g'riligini quyidagi mexanizm bilan tushuntiramiz. Reaksiya tezligini belgilovchi sekin boradigan birinchi bosqichda uchlamchi butil bromidning molekulasi $(\text{CH}_3)_3\text{C}^+$ va Br^- ionlariga geterolitik parchalanadi. Ikkinci bosqichda esa karbokation va HO^- anioni tez birikib, uchlamchi butil spirtini hosil qiladi:



A - dastlabki holat energiyasi



B - oraliq holat energiyasi



E_a - faollashish energiyasi

C - I bosqich (solvatlangan ionlar – $(\text{CH}_3)_3\text{C}^+$, Br^- , $:\text{OH}^-$ hosil bo'lishi) energiyasi


D - oxirgi holat energiyasi
 $(\text{CH}_3)_3\text{COH} + :\text{Br}^-)$

35-rasm. S_N1-mexanizmli reaksiyaning energetik diagrammasi.


Reaksiya tezligini belgilaydigan birinchi bosqich S_N1 – monomolekulyar nukleofil o'rinni olish mexanizmini ham aniqlaydi. Monomolekulyar deyilishining sababi reaksiya tezligi birligina reagent konsentratsiyasiga bog'liq, ya'ni alkilgalogenid qancha tez ionlarga ajrasa, reaksiya shunday tezlik bilan amalga oshadi. Buni S_N1 -mexanizmli reaksiyaning energetik diagrammasidan bilishimiz mumkin (35-rasm).

Galogenli hosilalar reaksiyasining asosiy mohiyati galogen atomining boshqa atomlar va turli radikkallar bilan almashinishidir yoki parchalanish natijasida galogenvodorodni ajratib, to'yinmagan hosilalarning olinishi hisoblanadi.

1. Nukleofil o'rinni olish reaksiyalari




Malon efiri ishtirokidagi sintezlar





2. Galogenalkanlarning qaytarilishi

a) Katalitik qaytarilish reaksiyasi

Monogalogenalkanlar katalizatorlar (Pd , Pt , Ni) ishtirokida vodorod bilan qaytarilganda alkanlar hosil bo'ladi :




b) kimyoviy qaytarilish reaksiyasi




3. Galogenning metall atomiga almashinishi

Galogenalkillar suvsiz dietil efirda litiy, natriy, rux, magniy singari metallar bilan reaksiyaga kirishib, metallorganik birikmalar hosil qiladi, bulardan eng muhimi Grinyar reaktivi ham xuddi shu usul bilan olinadi:




Bu reaksiyadan Vurs usuliga ko'ra alkanlar olishda foydalanadilar va biz buni alkanlar mavzusining olinishi bo'limida ko'rib chiqqan edik.



4. Degidrogalogenlash (ajralish) reaksiyasi

Galogenalkillarga ishqorning spirtdagi eritmasi ta'sir etib qizdirilganda, vodorod galogenidlarning ajralishi natijasida alkenlar hosil bo'ladi:




Nukleofil o'rinn olish reaksiyaları singari galogenalkanlarning ajralish reaksiyaları ham ikki xil mexanizm (E_N1 va E_N2) bo'yicha borishi mumkin. E_N1 -reaksiyasi ikki bosqichda boradi, uning tezligi sekin boruvchi birinchi bosqichda bitta modda (uchlamchi galoidli alkil) konsentratsiyasi bilan amqlanadi. E_N2 -reaksiyasi bir bosqichda borib, reaksiya tezligini birlamchi galogenalkil va gidroksil anionlari konsentratsiyasi belgilaydi.

DI-, TRI- VA POLIGALOGENALKANLAR


Agar 2 va undan ortiq galogenlar bir uglerod atomi bilan bog'langan bo'lса, ular (CH_2Cl_2) ***geminal*** galogenalkanlar deyiladi, agar galogenlar har xil uglerod atomlari bilan bog'langan bo'lса, ular ($\text{Cl}-\text{CH}_2-\text{CH}_2\text{Cl}$) ***vitsinal*** galogenalkanlar deyiladi. Galogenlar bir uglerod atomi bilan bog'langan bo'lса, C-Hal bog'i ancha qisqargan bo'ladi va ularning reaksiyon qobiliyati tegishli monogalogenalknlarga nisbatan zaifroqdir.

Olinish usullari

1. Alken va alkinlarga galogenlarning birikishi



Iod alken va alkinlар bunday birikish reaksiyasiga kirishmaydi. Xlorlash va bromlash reaksiyaları galogen bilan alkenni inert erituvci muhitida aralash-tirganda oson amalga oshadi. Hozirgacha bu usul vitsinal digalogenli hosila olishining eng qulay usuli bo'lib, reaksiya xona haroratida va katalizatorlarsiz kechadi. Alkenlar birikish mexanizmi bo'yicha reaksiyaga kirishsa, alkinlar uchbog' hisobidan bu reaksiyada ikki marta ko'proq galogenni biriktirib oladi:




2. To'yinmagan uglevodorodlarga galoid vodorod ta'siri

a) Nosimmetrik uglevodorodlar uchun galoid vodorod doimo Markovnikov qoidasiga binoan birikadi:




b) Agar qo'shbog' bilan galogen qo'shni 1,3-holatda bo'lishsa, reaksiya doimo Markovnikov qoidasiga teskari amalgga oshadi:




3. Bir uglerod atomida ikki galogen kiritish usuli

Aldegid va ketonlarga fosfor(V)-xloridi yoki bromidi ta'sir etish



4. Galoformlarning olinishi

Sirka aldegidiga galogenlarning ishqordagi eritmasini ta'sir etish usuli bilan CHCl_3 -xloroform, CHBr_3 -bromoform, CHI_3 -iodoformlarni sintez qilish mumkin:




TO'YINMAGAN GALOGENLI HOSILALAR

To'yinmagan galogenli hosilalarning olinish usullari va nomlanishi xuddi to'yingan galogenalkillarnikidek bajariladi.


Ular galogen va qo'shbog'ning o'rniqa qarab uch xil bo'lishi mumkin:

1. Galogen qo'shbog' tutgan uglerod atomi bilan bog'langan:



Bu birikmalarida qo'shbog'ning ham, galogenning ham reaksiyon qobiliyati past. Birikish va nukleofil o'rinni olish reaksiyalariga qiyin kirishadi, Bu hodisa galogenning erkin elektron justi va qo'shbog'ning π -bog'i orasida tutashish tizimi hosil bo'lishi bilan izohlanadi.

2. Galogen qo'shbog'ga nisbatan α - C atomi bilan bog'langan:




Bu xil galogenli hosilalarning reaksiyon qibiliyati katta, chunki galogen-uglerod bog'i geterolitik uzilganda hosil bo'lgan karboniy kationining zaryadini qo'shbog' barqarorlashtiradi:



3. Qo'shbog' bilan galogen bir-biridan uzoqlashgan:

Qo'shbog' bilan galogen orasida bir necha CH_2 -guruuhlarining borligi uchun ular odatdagagi alkenlar va galoidatkillar xossalari namoyon qiladi.



Muhim vakillari

CH_3Cl -metil xlorid. Sanoatda metan xlorlab olinadi, suvda erimaydi, metil va etil spirtlarida yaxshi eriydi. Asosan, metillovchi agent sifatida ishlataladi. Sanoat miqyosida issiqqa chidamli silikon kauchuklar va boshqa kremniyorganik birkmalar olishda ishlataladi.


CH_2Cl_2 -metilen xlorid. Yonmaydigan va oson uchuvchan erituvchi, qaynash harorati – 41°C. Selluloza atsetatidan kinoplyonka olishda erituvchi sifatida ishlataladi.

CHCl_3 xloroform. Rangsiz, o'ziga xos hidli og'ir suyuqlik, 61,3 °C da qaynaydi, suvda erimaydi, spirit va efirda yaxshi eriydi, o'zi ham kuchli erituvchi sifatida ishlataladi. Ilgari hushsizlantiruvchi narkotik modda sifatida ishlatalilar edi. Sanoat usulida spirit va ketonlardan olinadi. Xloroform ancha beqaror modda bo'lgani uchun yorug'lik ta'sirida kislorod bilan reaksiyaga kirishib, o'ta zaharli fosgen moddasini hosil qiladi:




Fosgen hosil bo'lmasligi uchun, xloroformni barqarorlashtirish maqsadida bu forzgacha suvsiz etil spiriti qo'shiladi. Xloroform kauchuk, polimerlar, vog'lar, alkaloidlar, sellulozaning ba'zi efirlari va boshqa organik moddalar uchun erituvchi sifatida ishlataladi.

CCl₄ – tetraxlormetan. Yonmaydigan erituvchi sifatida ishlatiladi, kimyoviy laboratoriya va sanoat korxonalarida yong'inni o'chirishda keng qo'llaniladi. Sanoatda undan freon-12 olinadi:



CF₂Cl₂ – freon-12 (difordixlormetan). Aralash poligalogenli hosila, odatdag'i sharoitda rangsiz va hidsiz gaz, bosim ostida -30°C da qaynaydigan suyuqlikka aylanadi. Freon-12 oson uchuvechan, zaharsiz va yonmaydigan organik modda bo'lgani uchun sovutgichlar va kondinsionerlarda sovutuvchi agent sifatida keng qo'llaniladi, chunki u gidrolizlanmaydi va metallarni korroziyalamaydi. Freon-12 aerozollar olishda erituvchi sifatida ishlatiladi. Masalan, qishloq xo'jaligi zararkunandalari va hasharotlarga qarshi kurashish uchun ishlatiladigan zaharli kimyoviy preparatlari – pestitsidlar tayyorlashda keng qo'llaniladi. Tayyorlangan eritma yerga sepilganda freon-12 tezda bug'lanib ketadi va zaharli preparatlari aerozol qatlami hosil qiladi. Bunday preparatlarga propellantlar deyiladi.

CH₃CH₂Cl – etil xloridi. Odatdag'i sharoitda gazsimon modda. Tibbiyotda og'riqni qoldiruvchi mahalliy narkoz sifatida keng ishlatiladi. Etil xlorid sanoatda etil selluloza va antidetonator sifatida ishlatiladigan tetraetil qo'rg'oshin olishda xomashiyo sifatida ishlatiladi va o'zi sanoatda etilenden olinadi:




CF₃CHClBr – fluorotan. Xloroform o'rniда tibbiyotda hushsizlantiruvchi narkotik modda sifatida ishlatiadi, bemorlar narkozdan tezda o'ziga keladi va uncha salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.

CCl₃–CCl₃ – geksaxlorethan. Oddiy sharoitda, 189,5 °C haroratda suyuqlanmasdan bug'lanadigan kristall modda. Zararli hasharotlarga qarshi insektitsid sifatida ishlatiladi. Don va g'allalarni omborlarda saqlashdan avval shu maydon u bilan dezinfeksiya qilinadi. Shuning uchun bu modda qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi ishlatiladi.

CH₂=CHCl – vinil xlorid. Odatdag'i sharoitda gaz, atsetilen yoki etilenden olinadi, juda yaxshi polimerlanadi. Undan yuqori haroratga chidamli va elektr izolatsion materiallar tayyorlanadigan polivinilxlorid (PVX) polimeri sintez qilinadi.

CH₂=CH-CH₂Cl – allil xlorid. 45°C da qaynaydigan suyuqlik. Propilenni yuqori haroratda xlorlab olinadi. Allil spiriti va glitserin olish uchun ishlatiladi.


$\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CCl}=\text{CH}_2$ – 2-xlorbutadien-1,3 yoki xloropren, 59°C da qaynaydigan suyuqlik. Xloroprendan o'tga chidamli, yedirilmaydigan va gazlarni o'tkazmadigan sintetik kauchuk olinadi. Uning polimerlanishi va vulkanlanishi o'z-o'zidan havo kislorodi ishtirokida boradi. Sanoatda xloropren vinilatsetilendan olinadi:



AROMATIK UGLEVODORODLARNING GALOGENLI HOSILALARI

Aromatik uglevodorodlarning galogenli hosilalari ikki xil bo'lishi mumkin:


- a) galogen bevosita halqa bilan bog'langan;
- b) galogen halqaning yon zanjiri bilan bog'langan.



Olinish usullari


1. Galogenlarni bevosita benzol halqasiga kiritish

Aromatik uglevodorodlar katalizator ishtirokida galogenlanadi:




kat = Lyuis kislotalari (FeCl_3 , FeBr_3 , AlCl_3 , AlBr_3 , SbCl_3).

Alkilbenzollar reaksiyaning o'tkazilish sharoitiga qarab galogen atomlari bilan yon zanjirdagi vodorod atomlari hissobidan ham o'rin olish reaksiyasiga kirishi mumkin. Masalan, toluolga katalizator ishtirokida brom ta'sir ettirilsa, reaksiya, asosan, yadro bo'yicha boradi, agar quyosh nuri ta'sirida yoki yuqori haroratda olib borilsa, reaksiya mahsulotidagi galogen atomi yon zanjir vodorodlari o'rnnini egallaydi:





Reaksiyalarning mexanizmi quyidagicha amalga oshadi:


a) Geterolitik mexanizm



b) Gomolitik mexanizm




Gomolitik o'rin olish reaksiyalarida benzol gomologlari yon zanjirning tuzilishidan qat'iy nazar doimo fenil halqasiga nisbatan α-holatdagи uglerod atomi vodorodlari hisobidan o'rin olish reaksiyasiga kirishadi:



2. Diazoniy tuzlari orqali sintezlar

Benzol halqasiga fluor kiritish fenildiazoniy tuzlari orqali amalga oshiriladi. Ummuman, barcha galogenlar bu usul bilan benzol halqasiga oson kiritiladi:




Fizikaviy xossalari

Galogenli hosilalar ko'pincha suyuqliklar zichligi birdan katta bo'lub, suruda erimaydi. Halqada galogen tutgan hosilalar aromatik hidga ega, yon zanjirda galogen tutganlari o'tkir hidli, ko'zni yoshlantiradigan birikmalardir.

Kimyoviy xossalari

Oddiy galoid arenlar kimyoviy jihatdan juda inert va barqaror birikmalardir. Alifatik uglevodorodlarning galogenli hosilalaridek ishqor, kumush tuzlari, qumidlar, sulfidlar natriy alkogolyati bilan reaksiyaga kirishmaydi. Chunki galogen atomining erkin elektron juftlari benzol halqasi bilan kuchli bog' hosil qilib, bir qancha rezonans strukturalar hosil qiladi:




III rezonans struktura ancha beqaror bo'lgani uchun zarrachalar o'rin olish reaksiyalari paytida *ortho-* va *para*-holatga birikadi.


Galoidalkillardek nukleofil o'rin olish reaksiyalari galogenarillar uchun xo's emas, fuqat kuchli nukleofil reagent ta'sirida reaksiya borishi mumkin. Bunda dastlab HX ajralib chiqib, degidrobenzol oraliq kompleksi hosil bo'ladi. Bu gibriddashgan elektron orbitallari p-elektron orbitasi bilan yaxlit π -bog' boqil qilish o'mniga juda zaif bog' hosil qiladi. Reaksiya jarayonida u osonlik bilan uolib, yangidan birikish reaksiyasiga kirishadi.

A. Elektrofil o'rın olish reaksiyalari


1. Nitrolash reaksiyasi




2. Sulfolash reaksiyasi




3. Alkillash reaksiyasi




B. Nukleofil o'rın olish reaksiyalari




a) Para-xlortoluolga yuqori haroratda ishqor ta'sir etilganda ikki xil izomer hosil bo'ladi:




b) Aminlash reaksiyasi paytida esa faqatgina bir xil izomer hosil bo'ladi:



Galogenarillarning galogenga nisbatan *ortho*- va *para*-holatidagi vodorod atomi elektroneokseptor guruhlar bilan (CN , NO_2 , COOH , SO_3H) almashtirilgan bo'lsa, nukleofil o'r'in olish reaksiyalarida galogen atomining faoliigi ortadi, chunki hosil bo'lgan σ -kompleks manfiy zaryadni qisman delokallashda qatnashadi:



Galogen bilan bog'langan uglerod atomidagi elektron zichtikning sylaklashganligi sababli bu atom nukleofil zarrachalar bilan oson reaksiyaga kirishadi. Hatto reaksiyon jihatdan ancha inert hisoblangan fтор atomi ham osonlik bilan nukleofil zarrachalar ta'sirida almashinadi. Bioorganik kimyo fами bilan mashg'ul olimlar bu reaksiyadan tabiiy polimer hisoblangan oqsil molekulasingning tarkibida aminokislotalar ketma-ketligini aniqlashda unumli toydalanadilar:



Tayanch iboralar

Monogalogenalkanlar. Poligalogenalkanlar. Etilen xloridi, etiliden xloridi, perfloretan. Fosfop(III)-xlorid. Tionil xlorid. Nukleofil o'r'in olish reaksiyaları ($\text{S}_{\text{N}}2$, $\text{S}_{\text{N}}1$). Oraliq holat, reagent, substrat. Grinyar reaktiv. Geminal va vitsinal di- yoki trigalogenalkanlar. Vinil xloridi, allil xloridi. Fosgen. Ftorotan. Freon-12 (diftordixlormetan). Xloropren. Diazoniy xloridi tuzlari. Galogenarillar. Degidrobenzol. 2,4-dinitroftorbenzol.

Nazorat savollari

1. Mono- va poligalogenalkanlarning farqini bilasizmi?
2. Birbaumchi, ikkilamchi va uchlamchi butil xloridi formulalarini yozing va ularni xalqaro nomenklaturaga binoan nomlang.

3. $C_4H_8Cl_2$ tarkibli dixloralkanning barcha izomerlari formulalarini yozing va xalqaro nomenklatura bo'yicha nomlang.

4. Quyidagi galogenli hosilalarning formulalarini yozing: a) 1,1-dixloretan, b) 1,2-dixloretan, d) 1,2-dixlorpentan, e) 1,1,12,2-pentaxlorpentan, f) perxlorbutan.

5. Galogenli hosilalning molekulasi qisman qutblangan bo'ladi. Buni nima bilan izohlaysiz?

6. To'yinmagan uglevodorodlarning galogenli hosilalariga misollar yozing va ularni xalqaro nomenklaturaga binoan nomlang.

7. Vinil xlorid va allil xloridlarining reaksiyon qobiliyatidagi farqlarini tushuntirib bering. Izohingizni elektron nuqtai nazaridan asoslang.

8. Birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi galogenalkanlarning gidrolizi qanday mexanizm bo'yicha amalgal oshadi?

9. Monoxlorbutan, 2,2-dixlorpropan va 1,1,1-tribrombutan gidrolizlanganda qanday organik moddalar hosil bo'ladi?

10. Quyidagi reaksiyalarning qausi biri katta tezlik bilan amalgal oshadi?



11. Etil xlorid, storotan, xloroform qanday maqsadlarda ishlatiladi? Ularning formulalarini yozing.

12. Geksaxlorsiklogeksan qaysi usul bilan olinadi va qanday maqsadda ishlatiladi?

13. Toluol va benzol quyosh nuri ta'sirida va $AlCl_3$ katalizatori ishtirokida bromlanganda qanday mahsulotlar olinadi?

14. 70 litr (n.sh.da) propen bromli suv bilan reaksiyaga kirishganda necha gramm brom sarflanadi?

15. Propen, buten-2 va 3-metilpenten-2 vodorod bromidi bilan reaksiyaga kirishganda nimalar olinishini reaksiya tenglamalari orqali yozib ko'rsating.

16. Aromatik uglevodorodlarning galogenli hosilalari ishqor bilan reaksiyaga kirishganda qanday mahsulotlar olinadi?

17. Xloroprenning polimerlanish reaksiyasini yozing. Olingan bu yuqori molekulali birikma nima uchun ishlatiladi?

18. Tarkibida 8 % uglerod va 92 % xlor tutgan organik birikmaning molekulyar massasi 152 ga teng bo'lsa, uning formulasini aniqlang.

19. 36,5 % li xlorid kislota va marganets(IV) oksidining o'zaro reaksiyasi natijasida ajralib chiqqan xlor bilan metan reaksiyaga kirishdi. Hosil bo'lgan xlormetanning hajmini aniqlang.

20. $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{Cl}$ va $\text{CH}_3\text{CHClCH}_3$ tarkibli organik moddalarning kimyo-viy reaksiyon qobiliyatini solishtiring. Ularning qaysi biri osonroq gidrolizlanadi yoki ishqorning spirtdagi eritmasi bilan oson reaksiyaga kirishadi?

21. $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{Cl}$ va $\text{CH}_3\text{CHClCH}_2\text{CH}_3$ tarkibli organik moddalarning qaysi biri ishqorning spirtdagi eritmasi bilan oson reaksiyaga kirishadi?

22. Qaysi galogenalkanlar kundalik turmushda va sanoat niqyosida ko'p ishlataladi? Ularning ishlatalishi qanday kimyoviy xossalariiga asoslangan?

23. Benzol molekulasi temir(III) xloridi ishtirokida xlor bilan reaksiyaga kirishib, quyidagi moddalarning qaysi birini hosil qiladi: a) geksaxlorsiklogeksan, b) xlorbenzol, d) xlorsiklogeksan, e) vinil xloridi, f) geksaxloran.

24. Quyidagi o'zgarishlarni qanday reaksiyalar yordamida amalga oshirasiz:



25. Metandan benzol olish uchun qanday oraliq reaksiyalarni amalga oshirish lozim?

26. Geksaxloretan formulasini yozing. Bu modda qishloq xo'jaligi va kundalik turmushda ishlataladimi?

27. Freon 12 qanday organik modda va u nima uchun ishlataladi?

28. Nega alkanlarni xlorlash va bromlash mumkin-u, ammo bevosita ftoplash mumkin emas?

Adabiyotlar

1. Грандберг И.И. Органическая химия.- М.: "Дрофа".- 2002.- С-261-277.

2. Iskandarov S.I., Abdusamatov A.A., Shoymardonov R.A. Organik kimyo.- Toshkent.- "O'qituvchi".- 1979.- 615-bet.

3. Pirmuxamedov I. Organik kimyo.- Toshkent.- "Meditina".- 1987.- 136-147- betlar.

4. Shoymardonov R.A. Organik kimyodan savol, masala va mashqlar.- Toshkent.- "O'qituvchi".- 1996.- 60 – 73 va 270–278- betlar.

5. Виворский В.Я. Вопросы, упражнения и задачи по органической химии с ответами и решениями.- "Москва".- Владос.- 1999.- С. 35-42.

II. KISLOROD TUTGAN ORGANIK BIRIKMALAR


SPIRTLAR (ALKANOLLAR YOKI ALKOGOLLAR)

Uglevodorod radikali bilan bir yoki bir nechta gidroksil guruhlari bog'langan birikmalarga *spirtlar* deyiladi.

Molekula tarkibidagi gidroksil guruhining soniga qarab, ular ***bir-*, *ikki-*, *uch-* va *ko'p atomli spirtlarga*** bo'linadi:

- CH_3OH – bir atomli spirt (metanol);
- $\text{HOCH}_2 - \text{CH}_2\text{OH}$ – ikki atomli spirt (etandiol);
- $\text{HOCH}_2 - \text{CH}(\text{OH}) - \text{CH}_2\text{OH}$ – uch atomli spirt (propantriol).

Radikal xarakteriga ko'ra, spirtlar to'yigan, to'ymagan, atsiklik va siklik bo'ladi. Gidroksil guruh bilan bog'langan uglerod atomining tabiatiga ko'ra, birlamchi, ikkilamchi va uchlasmchi spirtlarga bo'linadi



BIR ATOMLI TO'YINGAN SPIRTLAR

Izomeriya va nomenklaturasi


Bu sinf spirtlarining umumiy formulasi $\text{R}-\text{OH}$ bilan belgilanadi. Bir atomli spirtlar $\text{C}_n\text{H}_{2n+1}\text{OH}$ umumiy formulaga ega bo'lgan gomologik qator hosil qiladi. Spirtlarning izomeriyasi ikkiga bo'linadi:

- uglerod zanjirining izomeriyasi;
- uglerod zanjiridagi gidroksil guruhining holat izomeriyasi.


Metanol, etanol kabi oddiy spirtlarning izomerlari bo'lmaydi, bu hodisa propil spirtidan boshlanib, uning ikkita izomerlari bor, chunki gidroksil guruhi birlamchi yoki ikkilamchi uglerod atomlari bilan bog'lanishi mumkin:



Ratsional nomenklaturasiga ko'ra spirtlar metil spirti - **karbinol** hosilalari deb qabul qilinadi va shunga binoan nomlanadi:




Sistematik nomenklaturaga binoan spirlarni nomlash uchun tegishli to'yingan uglevodorodlar nomiga **-ol** qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilinadi va gidrosil guruhi bog'langan uglerod atomi raqam bilan ko'rsatiladi. Raqamlash OH-guruhga yaqin tomondan boshlanadi:



Spirtlarning olinishi

1. Monogalogenalkillarning gidrolizi


Organik moddalarning molekularida gidrosil guruhi kiritishning umumiy usullaridan biri:




Gidroliz ishqoriy muhitda olib boriladi. Ishqor jarayonni tezlashtiradi va hosil bo'ladigan kislotani neytrallab, uni qaytmasligini ta'minlaydi.

2. Alkenlarning gidratlanishi

Spirtlar olish uchun etilen uglevodorodlarini katalizatorlar (H_2SO_4 , ZnCl_2) ishtirokida suv bilan qizdirish kerak:






Etilendan birlamchi spirt olinadi. Etilen gomologlari esa ikkilamchi va uchlamchi spirlarni hosil qiladi.



3. Aldegid va ketonlarni qaytarilishi

Bu reaksiyada aldegidlar birlamchi, ketonlar esa ikkilamchi spirlarni hosil qiladi:



4. Gidroborlash-oksidlash usuli


Alkenlar diboran (BH_3)₂ bilan reaksiyaga kirishib, alkilboranga aylanadi, keyin esa yumshoq oksidlovchi bilan oksidlanadi:






Gidroborlash reaksiyasi oson va qulay bo'lib, reaksiyaning unumdorligi kattadir.

5. Grinyar reaktivini yordamida spirlarning sintezi

Grinyar reaktivini RMgX tegishli alkilgalogenidga magniy metali ta'sirida olinadi. (R – birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi, allil, aril radikallari bo'lishi mumkin), $\text{X} = \text{Cl}$, Br yoki I .



Reaksiya natijasida olinadigan spirt dastlab olingan karbonilli birikma tuzilishiga bog'liq: chumoli aldeigid birlamchi, boshqa aldeigidlar – ikkilamchi, ketonlar uchlamchi spirlarni hosil qiladilar.



Fizikaviy xossalari

Spirtlarni molekulyar massasi yaqin bo'lgan uglevodorodlar bilan solishtirilganda, ular fizikaviy xossalari jihatidan keskin farq qiladilar. Spirtlar tegishli uglevodorodlarga nisbatan yuqori suyuqlanish va qaynash haroratiga ega bo'lib, uchuvchanligi pastroq. Ammo gomologik qatorda molekulyar massasining ortib borishi bilan bu farq kamayadi. Tarmoqlanmagan zanjirli birlamchi spirtlarning 11 uglerod atomi tutgan vakili $-(C_{11}H_{23}OH)$ undetsilgacha bo'lganlari suyuqlik, $(C_{12}H_{25}OH)$ dodetsildan boshlab keyingilari qattiq moddalardir.

Quyi spirtlar (metil, etil va propil) suv bilan istalgan nisbatda aralashadi. Masalan, metil spirti tarkibidagi gidroksil guruhining massasi molukulyar massasining yarmini tashkil qiladi. Shuning uchun ham, metanol suv bilan istalgan nisbatda aralashadi. Molekulyar massasi ortishi bilan spirtlarning suvda eruvchanligi keskin kamayib boradi. Yuqori spirtlar suvda deyarli etimaydi. Gomologik qatordagisi o'rta spirtlar o'tkir hidli, yuqori spirtlar esa hidsiz bo'ladi. Birlamchi spirtlar ikkilamchi spirtlarga nisbatan, ikkilamchi

spirtlar esa uchlamchi spirtlarga nisbatan yuqori haroratda qaynaydi. Spirtlarning fizikaviy xossalari idagi bunday farqlarning asosiy sababi – ularning tarkibidagi gidroksil guruhlari o'zaro molekulalararo vodorod bog'lari hosil qilib assotsiatlarga aylanishi bilan tushuntiriladi. Bu ma'lumotlar 15-jadvalda keltirilgan.

15 - j a d v a l .

Spirtlarning fizikaviy xossalari

Birikmaning nomi	Spirtlarning formulasi	T.suyuq., t°C	T.qayn. t°C	Zichligi d_{20}^4
Metanol	CH ₃ OH	-98	65	0,7924
Etanol	CH ₃ CH ₂ OH	-117	78	0,7891
Propanol-1	CH ₃ CH ₂ CH ₂ OH	-127	97	0,8044
Propanol-2	CH ₃ CH(OH)CH ₃	-88	82	0,7849
Butanol-1	CH ₃ CH ₂ CH ₂ CH ₂ OH	-89	118	0,8096
Butanol-2	CH ₃ CH(OH)CH ₂ CH ₃	-89	100	0,8087
2-metilpropanol-1	(CH ₃) ₂ CHCH ₂ OH	-108	108	0,8008
2-metilpropanol-2	(CH ₃) ₃ COH	25	83	0,7882
Etilenglikol	HOCH ₂ —CH ₂ OH	-17	197	1,1155
Glitserin	CH ₂ (OH)CH(OH) CH ₂ OH	17	290	-
Allil sperti	CH ₂ —CH—CH ₂ —OH	-129	97	0,855
Krotil sperti	CH ₃ —CH=CH—CH ₂ —OH		118	0,853

Kimyoviy xossalari


Spirtlar neytral modda bo'lib, yaqqol ifodalangan kislota va asos xossalariiga ega emas. Spirtlarning (R-OH) kimyoviy xossalari ularning funksional OH-guruhi bilan belgilanadi. Spirtlar reaksiya paytida kimyoviy bog'larning ikki xil uzilishi bilan ishtirok etadi:

C—OH bog'i uzilib, gidroksil guruuh ajraladi;

O—N bog'i uzilib, vodorod ajraladi.



Bu xildagi reaksiyalar o'r'in olish yoki ajralish reaksiyasi bo'lishi mumkin. Spirtlardagi R-radikali tuzilishi ularning reaksiyon qobiliyati o'zgarishiga va ba'zan reaksiya yo'nalishini butunlay o'zgartirishga olib keladi.

1. Galogenvodorodlarning ta'siri





Bu reaksiya jarayonida R radikali qayta guruhanishi mumkin. Galogenvodorodning tabiatи va spirtdagи gidroksil guruhi bilan bog'langan radikalning tuzilishiga ko'ra reaksiya tezligi turlicha bo'ladi:


III > HBr > HCl
 $R - OH$: alid > benzil > uchlamchi > ikkilamchi > birlamchi




2. Fosfor (III) galogenidi ta'siri




3. Spirtlarning degidratlanishi (suvning ajralishi)




Spirtlarning reaksiyon qobiliyati quyidagicha o'zgaradi:
 uchlamchi > ikkilamchi > birlamchi







4. Aktiv metallar ta'siri

Bunda spirtlar kislotadek reaksiyaga kirishadi.




5. Efirlarning hosil bo'tishi




6. Oksidlanish

Odatda, spirtlarni oksidlanish reaksiyasi $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7 + \text{H}_2\text{SO}_4$ yoki $\text{KMnO}_4 + \text{H}_2\text{SO}_4$ kabi kuchli oksidlovchi agentlar ta'sirida amalga oshiriladi.


Birlamchi spirtlar:



Ikkilamchi spirtlar:




Uchlamchi spirtlar:



Spirtlarning ayrim vakillari


CH_3OH -Metil spirti (metanol) rangsiz, o'ziga xos hidli suyuqlik, 65°C da qaynaydi, o'ta zaharli modda! Metil spirt turli organik mahsulotlarni sintez qilish uchun kimyo sanoatida ko'p miqdorda ishlataladi. Hozirgi vaqtida metil spirt uglerod(II)-oksidi bilan vodorod aralashmasini yuqori harorat va bosim ostida rux va xrom oksidlari katalizatorlari ustidan o'tkazib olinadi:



Metil spirti formaldegid, dimetilanilin, metil xlorid, murakkab metil chirlar, metilamin, bo'yoqlar va boshqa organik moddalar ishlab chiqarishda ishlataladi.

$\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$ – Etil spirt (etanol) rangsiz suyuqlik, $78,3^{\circ}\text{C}$ da qaynaydi. Kartoshka va boshqoli o'simliklardan olingan etil spirtidan, asosan, ozig-ovqat sanotida, ichirnlik mahsulotlari tayyorlashda va konditer mahsulotlari ishlab chiqarishda foydalaniлади. Ularning tarkibidagi uglevodlarning bijg'ishidan ham xil mahsulotlar aralashmasi olinadi. Xomaki haydash usuli bilan ajratib olingan aralashmada etil spirtidan tashqari o'tkir va yoqimsiz hidli moddalar ham bo'ladi. Bu aralashma qayta haydash usuli bilan 96% $\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$ tutgan spirt-rektifikat va sivush moylari deb ataluvchi qoldiqqa ajratiladi. Sivush moyi tarkibida propil, izobutil va izoamil spirtlari ham uchraydi va ular kishi organizmi uchun o'ta zaharli ta'sir etuvchi moddalar hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida etil spirti, asosan, etilenden olinadi va u ko'pincha erituvchi sifatida yoki texnik maqsadlarda ishlataladi.




Olingan spirtning konsentratsiyasi, massa va hajmi foizlarda ifodalanadi. Spitning hajmiy foizi daraja deyiladi.

$\text{C}_3\text{H}_7\text{OH}$ - Propil spirtlari. Birlamchi propil spirti sivush moyi tarkibida 7% gacha bo'ladi. U rangsiz suyuqlik, $97,2^{\circ}\text{C}$ da qaynaydi, suv bilan yaxshi aralashadi, yonadi. Izopropil spirt (CH_3)₂CHOH erituvchi sifatida, atseton va murakkab efirlar olishda katta amaliy ahamiyatga ega. U $82,5^{\circ}\text{C}$ da qaynaydi, suv bilan istalgan nisbatda aralashadi. Propil spirt va uning efirlari erituvchi sifatida ishlataladi.


$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_2-\text{CH}_2\text{OH}$ n-butil spirti, suyuqlik, $117,9^{\circ}\text{C}$ da qaynaydi. Plastifikatorlar, ayrim murakkab efirlar, erituvchilar (lak-bo'yoq sanoati uchun) va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishda muhim xomashyo hisoblanadi.

Propilendan oksosintez orqali butil spirt olish eng qulay usul hisoblanadi:




TO'YINMAGAN SPIRTLAR


To'yinmagan spirlarning eng oddiy vakili vinil spirtidir, u juda beqaror va erkin holda ajratib olinmagan.



Vinil spirti darhol qayta guruhanib, sirkal aldegi hosil qiladi. Bu hodisani 1887-yilda birinchi marta A.P. Eltekov kuzatgan va tushuntirgan (Eltekov qoidasi). Bu qoidaga ko'ra qo'shbog' tutgan uglerod atomi hidroksil guruhi bilan bog' hosil qilmaydi. Qo'shbog' tutgan uglerod va OH-guruhi tutgan fragment enol-shakl deyiladi. Bu tautomer shaklning barqaror holatga o'tishi keto-enol tautomeriyasi deyiladi:




Kvant-kiinyoviy hisoblashlarning ko'rsatishicha, keto-shakl enolga nisbatan ~ 14 kkal/mol barqaror bo'lGANI uchun muvozanat to'liq o'ng tomonga siljiydi. Vinil spirtiga nisbatan uning oddiy yoki murakkab efirlari barqaror va juda muhim ahamiyatga ega birikmalar hisoblanadi:




Vinilatsetat 73°C da qaynaydigan suyuqlik, u oson polimerlanib, polivinilatsetatga aylanadi:



Polivinilatsetat (PVA) ishqorli yoki kislotali muhitda oson gidrolizlanib, polivinil spirtiga aylanadi. Polivinil spirti asosida olingan polimer shaffof va suvda juda yaxshi eriydi. Polivinil spirtidan sintetik tolalar, dorivor moddalar va lak ishlab chiqarishda unumli foydalaniildi:




$\text{CH}_2=\text{CH-CH}_2\text{-OH}$ – *Allil spirti*, 97°C da qaynaydigan suyuqlik, suvda cheksiz eriydi. Dastlab allil spirti yog'oshni qurqiq haydash mahsuloti tarkibidan ajratib olingan. Glitserin bilan oksidat yoki chumoh kislotasini qo'shib qizdirilganda ham allil spirti hostil bo'ladi:




Agar to'yimagan spirt molekulasiidagi qo'shbog' va gidroksil guruhlari orasida bir qancha uglerod atomlari bo'lsa, ular bir-birining ta'sirini sezmaydi va modda bifunktsional xossalarii namoyon qiladi, ya'ni qo'shbog' oddiy alkenlardek, OH guruhi esa spirlardek reaksiyaga kirishadi.

To'yimagan spirlarning keyingi vakillaridan *sitronellol* spirti *geraniol* bilan birga ko'p o'simliklar tarkibida uchraydi. Ular o'tkir yoqimli hidga ega va shuning uchun parfumeriyada keng ishlataliladi. Atirgul, limon va geran moylarida sitronellol boshqa spirlar bilan birga aralashma tarzida uchraydi.






Tarkibida ikkita qo'shbog' tutgan spirlarning birinchi vakili geranioldir. U atirgul, geran, limon moylari tarkibida uchraydi.





IKKI ATOMLI SPIRTLAR (GLIKOLLAR)

Ikki atomli spirtlar molekulasida ikkita gidroksil guruhi uglerod zanjiridagi har xil uglerod atomlari bilan bog'langan bo'ladi. Ikki atomli spirlarning ratsional nomlari tegishli olefinlarning nomlariga glikol so'zini qo'shish bilan ifodalananadi: masalan,




Sistematik (IUPAC) nomenklaturaga ko'ra ikki atomli spirlarni nomlash uchun to'yigan uglevodorodlarning nomiga — **diol** qo'shimchasi qo'shib aytildi. Bunda gidroksil guruhi bilan birikkan uglerod atomlari raqamlar bilan ko'rsatiladi, masalan:




Olinish usullari

1. Digalogen alkanlarning gidrolizlanishi

Etilenglikol ishqorli muhitda dibrometandan hosil bo'ladi (Vyurs reaksiyasi):




2. Alkenlarni KMnO_4 bilan neytral muhitda oksidlash



Kimyoviy xossalari


Glikollar bir atomli spirtlarga xos bo'lgan barcha reaksiyalarga kirishadi. Ularning molekulasida ikkita gidroksil guruuh bo'lganligi uchun reaksiyada bitta yoki ikkala gidroksil guruhi ham qatnashishi mumkin.

Ishqoriy metallar ta'sir ettirilganda, glikolyatlar hosil bo'ladi:




Ushbu reaksiyadan ko'rinib turibdiki, dastlabki bosqichida oraliq mahsulot natriy monoglikolyat hosil bo'ladi.

Glikollar oraliq metallarning ionlari bilan xelat tuzilishiga ega rangli kompleks birikmalar hosil qiladilar:




Bu reaksiya glikollar uchun sifat reaksiya hisoblanadi.

Glikollar oksidlanishi natijasida bir qator organik moddalar aralashmasi hosil bo'ladi:



Etilenglikolning olinishi va ishlatalishi


Sanoatda etilenden dan etilenglikol quyidagi usullarda olinadi:



Etilenglikoldan antifriz xususiyatlariiga ega bo'lgan moddalar tayyorlashda foydalaniлади. Etilenglikol murakkab poliefirlar, lak-bo'yoq va sintetik tolalar (masalan, lavsan) olishda muhim xomashyo hisoblanadi.

UCH ATOMLI SPIRTLAR (GLITSERINLAR)

Uch atomli spirtlarning eng oddiy vakili — **glitserin**



U sistematik nomenklaturasiga binoan **propantriol-1,2,3** deb ataladi.

Olinishi


Glitserin tabiatda erkin holda uchramaydi, lekin murakkab efirlar holida keng tarqalgan.

Glitserin sanoatda yog' va moylarni ishqorli muhitda gidrolizlash yo'li bilan olinadi:




Bunda R — yuqori molekulyar yog' yoki moy kislota radikali.

Qandsimon moddalarning yatriy bisulfit ishtirokida bijg'ishi natijasida ham glitserin hosil bo'ladi:



Hozirgi vaqtida glitserin sanoatda propilenden ham olinadi:




Glitserinning fizik-kimyoviy xossalari


Glitserin quyuq moysimon, shirin ta'mli suyuqlik. U suv bilan istalgan nisbatda aralashadi, zichligi 1,26 g/ml, spirtda eriydi, efir va xloroformda erimaydi.

Glitserin spirtlarga xos bo'lgan barcha reaksiyalarga kirishadi. Glitserin mono-, di- va tribirikmalar hosil qiladi.


Glitseringa ishqoriy metallar ta'sir ettirib, glitseratlar olinadi. Bunda kimyoviy reaksiyaga kirishayotgan gidroksil guruhlarning soniga qarab monoglitserat, diglitserat va triglitseratlar hosil bo'lishi mumkin.




Glitserin ikki valenli metall hidroksidlari ta'sirida ham glitseratlar hosil qiladi:



Glitseringa noorganik va organik kislotalar ta'sir ettirilganda murakkab effilar hosil bo'ldi:



Glitserin nitrat kislota bilan trinitroglitserin hosil qiladi:



Glitserin oziq-ovqat sanoatida vino, likyor, limonad ichimliklariga shirinta'm berishda, to'qimachilik sanoatida matolarni pardozlashda, elektrotexnika sanoatida, nitroglitserin va tutunsiz porox olishda, perfumeriya va tibbiyotda ishlatiladi.


Glitserin ko'p asosli karbon kislotalari bilan polikondensatlanish reaksiyalariga kirishganda poliesfir (alkid) polimerlari olinadi. Bu polimerlar plenka hosil qiluvchi material sisfatida va lak-bo'yq sanoatida qo'llaniladi.

Glitserindan ham ko'proq gidroksil guruhlari tutgan spirtlar tabiiy birikmalar holida uchraydi. Ularning barchasi normal tuzilishdagi uglerod skeletidan iborat va tegishli qandsimon moddalardan hosil bo'ladi.


F E N O L L A R

Gidroksil guruhi bevosita aromatik halqdagi uglerod atomlariga bog'langan organik birikmalarga **fenollar** deyiladi. Fenollar bir-, ikki- va ko'p atomli bo'ladi.

Bir atomli fenollarning eng oddiy vakili fenol C_6H_5OH hisoblanadi. Fenolning izomeri yo'q. Toluil $CH_3C_6H_4OH$ - radikal fenolning uchta izomeri bor. Ular krezzolar deb ataladi.



fenol



orto-krezol



meta-krezol




para-krezol


Fenollarning olinishi


1. Toshko'mir smolasidan olish

Toshko'mirni kokslash paytida hosil bo'ladigan ikkinchi fraksiyani (qoramoy fraksiyasi) ishqorlar bilan qayta ishlab haydalganda fenol va uning gomologlari (*ortho*-, *meta*- va *para*-krezzollar) olinadi. Hosil bo'lgan fenolyatlar kislotalar bilan reaksiyaga kirishib, fenollarga aylanadi, nihoyat ular qaytadan fraksiyalab haydaladi va tozalanadi:




2. Izopropil benzoldan fenol olish





3. A. Kekule reaksiyasi. Sulfokislota tuzlarini o'yuvchi ishqorlar bilan aralashtirib qizdirganda ham fenollar hosil bo'ladi:



Fizikaviy xossalari

16-jadval

Fenollarning fizikaviy xossalari

Birikmaning nomi	Fenollarning formulasi	Soyuqlanish harorati, °C	Qaynash harorati, °C
Fenol	C ₆ H ₅ OH	41	182
o-Krezol	C ₆ H ₄ (OH) ₂	30	192
m-Krezol	C ₆ H ₃ (OH) ₂	11	203
p-Krezol	C ₆ H ₃ (OH) ₂	36	202
Pirokatesin	1,2-C ₆ H ₄ (OH) ₂	105	245
Rezorsin	1,3-C ₆ H ₄ (OH) ₂	110	277
Gidroxinon	1,4-C ₆ H ₄ (OH) ₂	171	286
Pirogallol	1,2,3-C ₆ H ₃ (OH) ₃	133	*
Floroglyutsin	1,3,5-C ₆ H ₃ (OH) ₃	219	*

Izoh: * - yuqori haroratda parchalanadi

Bir atomli fenollar o'tkir hidli kristall modda. Ular suvda yomon, spirt va esfirda yaxshi eriydi. Fenollar antisептик xossaga ega. Ularning fizikaviy doimiyliklari 16-jadvalga keltirilgan.

Kimyoviy xossalari

Fenollar spirtlardan farqli ravishda kuchsiz kislota xossasini namoyon qiladi. Fenol uchun pKa = 9,7 bo'lib, ularning kislotali xossalari spirlardan kuchli. Bunga sabab kislorodning erkin elektron jufti benzol halqasining π -bogi bilan p- π tutashish tizimi hosil qilishidir. Buning natijasida elektron buluti zichligining bir qismi kisloroddan C-O bog'i orqali halqaga tomon siljiydi. Shunday qilib, vodorod atomida musbat zaryad paydo bo'ladi va fenol gidroksilining vodorodi kislota xossalariiga ega bo'lib qoladi:




1. Alkillash reaksiyasi (Fridel-Krafs-Gustavson reaksiyasi)




2. Fenollar oddiy efirlarining hosil bo'lishi


Fenolyatlarga galogenalkanlar yoki galogenatenlar ta'sir ettirib olinadi:



3. Fenollar murakkab efirlarining hosil bo'lishi




Fenollarga galogenlar ta'sir ettirilsa, uchta vodorod atomi o'rinn almashtinib, uch galogenli fenollar hosil bo'ladi:



Fenollarning nitrolanishi

Suyultrilgan nitrat kislota ta'sir ettirilganda *orto-* va *para*-nitrofenollar aralashmasi hosil bo'ladi:





4. Fenolga konsentrangan nitrat kislota ta'sir ettirilganda faqat trinitrofenol hosil bo'ladi:

Fenol va uning sanoatda ishlatalishi

Fenol, asosan, sintetik smolalar va plastmassa ishlab chiqarishda, shuningdek, bo'yoqlar, dori-darmonlar va har xil organik birikmalar sintezida xomashyo sifatida qo'llaniladi. Fenolning ma'lum miqdori poliamid tolalar ishlab chiqarishda ishlatalidi. Fenol kuchli antiseptik modda bo'lgani uchun ilgari tibbiyotda ishlatalilar edi. Uning 0,5-3 % li eritmalari jarrohlik asboblarni dezinfeksiyalash uchun ishlatalidi.

Fenol formaldegid bilan kondensatlanib, *ortho*- va *para*-oksimetilfenollar hosil qiladi. Bu modda, o'z navbatida, yana fenol bilan reaksiyaga kirishib, yuqori molekulyar birikmaga aylanadi:




Olingan fenoplastlar elektrotexnikada, mashinsozlik, kimyo sanoati-ning turli tarmoqlarida rangli va qoni metallar o'rniда ishlatalidi.




IKKI- VA UCH ATOMLI FENOLLAR

Ikki atomli fenollar uchta izomer holida mayjud.


Ikki atomli fenollar fenollarga xos barcha reaksiyalarga kirishadi. Bunda bitta yoki ikkita gidroksil guruh reaksiyada qatnashishi mumkin. Molekuladagi gidroksil guruqlar soni ortishi bilan ularning oksidlovchilar ta'siriga moyilligi ortadi va oson oksidlanadi.



Pirokatexin. Orto-sulfofenoldan ishqorlar ishtirokida qizdirish yordamida suyuqlantirib olinadi:




Pirokatexin FeCl_3 , bilan yashil rang hosil qiladi. U oson oksidlanadi.






Rezorsin. Rezorsin ham boshqa ikki atomli fenollar kabi oksidlanadi. Undan bo'yoqlar va polimer materiallar sintezida oraliq mahsulot sifatida foydalaniladi.

Gidroxinon. Suvda oson eriydi, oksidlanganda sariq rangli xinonga aylanadi:




Gidroxinon juda tez oksidlanganligi uchun fotografiyada ochiltirgich (proyavitel) va sanoat tarmoqlarida antioksidant sifatida ishlataladi.

Uch atomli fenollarning uchta izomeri bor:



Pirogallol. Kristall modda, 132°C da suyuqlanadi. U tabiatda uchraydigan gall kislotasini qizdirib olinadi:



Pirogalloldan gazlarni tahlil qilishda, fotografiyada va bo'yoglar sintezida foydalaniлади.

Benzol kabi qo'sh yadroli aren hisoblangan naftalining ham hidroksil guruhi tutgan hosilalari mavjud. Ular halqadagi OH guruhi o'rniga ko'ra ikki xil izomerlar hosil qildi:




Naftollar fenollardek tegishli sulfokislotalarni ishqor bilan suyuqlantirib olinadi. Naftoltarning diazoniyli tuzlari bo'yoglar olishda juda muhim birikmalar hisoblanadi.

AROMATIK SPIRTLAR

Yon zanjirida hidroksil guruhlarini tutgan alkilaromatik uglevodorodlarning hosilalari **aromatik spirtlar** deb ataladi.

Nomenklaturasi

Odatda, aromatik spirtlar ratsional nomenklatura bo'yicha nomlanadi:




Olinishi

Erkin holatda va ayniqsa efirlar ko'rinishida aromatik spirtlar tabiatda keng tarqalgan. Odatda, ular efir moylari tarkibida bo'ladi. Aromatik spirtlarning sintez qilish usullari, xuddi alifatik spirtlarnikidek, masalan, tegishli aromatik uglevodorodlarning galogenli hosilalariga ishqorlar ta'sir ettirish:



Benzil spirti (fenilkarbinol) rangsiz suyuqlik bo'lib, 250°C haroratda qaynaydi, suvda yomon eriydi, organik erituvchilarida yaxshi eriydi. Xushbo'y hidga ega murakkab efirlar ko'rinishida o'simlik smolalarida va jasminning efir moyida (sirka kislota efiri ko'rinishida) uchraydi. Benzil spirtning murakkab efirlari parfumeriya sanoatida ishlataladi.



β -feniletil spirti. Qaynash harorati 220°C bo'lgan suyuqlik, atirgul hidli. U atirgul moyining asosiy qismini (60% gacha) tashkil qiladi.

β -feniletil spirti parfumeriya sanoatida qimmatbaho modda hisoblanadi. Sanoat miqyosida β -feniletil spirti benzol va etilen oksiddan quyidagi reaksiya bo'yicha olinadi:



Xossalari

Aromatik spirtlarning fenollardan dastlabki farqi shundan iboratki, ularda yaqqol ifodalanadigan kislotali xossalari deyarli yo'q. Ular kimyoviy xossalari jihatidan alifatik qator spirtlarga juda yaqin. Ishqoriy metallar ta'sirida alkogolyatlar hosil qiladi, oksidlanganda esa tuzilishiga ko'ra tegishli aldegid yoki ketonlarga aylanadi. Osonlik bilan oddiy va murakkab efirlar hosil qiladi va hokazo.


ODDIY EFIRLAR

Spirtlar molekulasi dagi gidroksil guruhi vodorod atomining boshqa uglevodorod radikaliga o'rinn almashtishidan hosil bo'lgan birikmalar **oddiy efirlar** deyiladi. Oddiy efirlarning umumiy formulasi:



Bunda R va R' – uglevodorod radikallari.




Oddiy efirlarni spirtlarning angidridlari deb qarash mumkin:





Oddiy efirlar molekulasidagi radikallarning tuzilishiga qarab bir xil yoki aralash bo'lishi mumkin. Aralash oddiy efirlarning molekulasida radikallar har xil bo'ladi.

Nomenklatura va izomertyasi

Sistematik (IUPAC) nomenklurasiga binoan oddiy efirlar ikki usulda nomlanadi: vodorod atomi alkaksi guruh bilan o'rin almashgan hosila $-O-R$ deb qaraladi va nomlashda alkaksi guruh nomiga uglevodorod nomi qo'shib atyiladi:



Ratsional nomenklaturaga binoan oddiy efirlar nomi uglevodorod radikalni nomiga efir so'zini qo'shish bilan hosil qilinadi:



Oddiy efirlarning olinishi

Oddiy efirlar olishning umumiy usuli – alkilgalogenidlarga alkogolyatlar ta'sir ettirishdir:



Kislota ta'sirida spirtlarning bevosita ikki molekulasi o'zaro degidratlanib, oddiy efirlar hosil qiladi:




Bu reaksiya faqat simmetrik efirlar olish uchun ishlataladi.

Fizikaviy xossalari

Dimetil va metiletik efirlar gaz, dietil efirdan boshlanadi. Ular rangsiz suyuqlik. Yuqori molekulyar oddiy efirlar qattiq moddalardir. Oddiy efirlar suvdagi yomon, ko'pchilik organik erituvchilarda oson eriydi. Ularning qaynash harorati tegishli spirtlarning qaynash haroratidan ancha past, chunki ular molekulalararo vodorod bog'i hosil qilmaydi. Oddiy efirlarning solishtirma og'irliklari esa birdan kichik bo'ladi.

Kimyoviy xossalari

Kimyoviy jihatdan oddiy efirlar neytral xossaga ega, shu sababdan ularning reaksiyon qobiliyati past. Ular odatdagisi sharoitda ishqoriy metallar, suv, o'yuvchi ishqorlar va kislotalar (H_2SO_4 va HI lardan tashqari) bilan reaksiya ga kirishimaydi. Konsentrangan yodid kislota oddiy efirlarni parchalaydi:




Analitik kimyoda bu reaksiya yordamida fenollarning efirlari tarkibidagi metoksi $\text{CH}_3\text{O}-$ va etoksi $\text{C}_2\text{H}_5\text{O}-$ guruhlar aniqlanadi (Seyzal usuli). Sof aromatik efirlar masalan, difenil efir $(\text{C}_6\text{H}_5)_2\text{O}$ yodid kislota ta'sirida parchalanmaydi.

Oddiy efirlarga konsentrangan kislotalar ta'sir ettirilganda ular issiqlik ajratib o'zaro aralashadi, natijada oksoniy birikmalar hosil bo'ladi:




Bu reaksiyada H^+ protoni erkin elektron juftli kislород atomiga birikadi:



Bunda yangi kovalent bog'lanish hosil bo'ladi, bu bog'lanish o'zining hosil bo'lish mexanizmiga binoan koordinatsion bog'lanish hisoblanadi. Bunda kislород atomi uchta kovalent bog' hosil qilganidan oksoniy kompleks ioni xlor anioni bilan elektrovalent bog'lanadi. Oksoniy tuzlar beqaror, ularga suv qo'shilganda parchalanib, dastlabki mahsulotlarga aylanadi.

Ayrim vakillari


$C_2H_5-O-C_2H_5$, **dietil efir** rangsiz, ancha xushbo'y suyuqlik, qaynash harorati 35°C , nisbiy zichligi $0,714 \text{ kg/m}^3$, u juda uchuvchan, oson alangalanadi. Dietil efirni uzoq vaqt saqlaganda, yorug'lik ta'sirida u havo kislороди bilan asta-sekin oksidlanib, portlovchi gidroperoksidlar hosil qiladi:




Um haydashdan oldin KI yordamida peroksid birikmalar bor-yo'qligini aniqlash lozim:




Dietyl efir yog', smola va boshqa organik moddalar uchun yaxshi erituvchi hisoblanadi. Uning spirit bilan aralashmasi **Gofmann tomchilari** nomi bilan og'riqni qoldiruvchi vosita sifatida ishlataladi.

 **Etilen oksid** etilen hidini eslatuchi, past haroratda qaynaydi ($T_{\text{qayn}} = +11^{\circ}\text{C}$).

Etilen oksidi etilenglikolning ichki efiri hisoblanadi. U ikki usul bilan olinadi:



Altisiklik oddiy chilarga nebatan etilen oksidi juda yuqori reaksiyon qobiliyatga ega bo'lib, ham nukleofil, ham elektrofil zarrachalar bilan reaksiyaga kirishiadi. Uning yuqori reaksiyon faolligi uch a'zoli halqaning katta ichki kuchlanishi bilan tushuntiriladi:



Halqali efirlarning keyingi boshqa vakillari molekulasidagi ichki kuchlanish yo'qolgani uchun oddiy efirlardek juda past reaksiyon xossalarni namoyon qiladi.

Tayanch iboralar





Spirtlar. Bir-, ikki-, uch atomli spirltar. Birlamchi, ikkilamchi va uchlamlchi spirltar. Karbinollar. Gidroborlash—oksidlash reaksiyasi. Ichki va molekulalararo vodorod bog'lari. Spirtlarning degidratlanishi. Xromli aralashma ($K_2Cr_2O_7 + H_2SO_4$). Eltekov qoidasi. Glikollar. Xelat tuzilishli rangli kompleks birikmalar. Glitserin. Glitseridlar. Natriy mono-, di- va tri- glitserati. Mis glitserati. Glitserin triatsetati. Trinitroglitserin.

Fenollar. Krezol. Fenolyatlar. Fridel - Krafs -Gustavson reaksiyasi. Fenol -formaldegid polimerlari. Fenoplastlar. Ikki atomli (gidroxinon, rezorsin va pirokatezin) va uch atomli (pirogallol, floroglyutsin) fenollar. Naftalin qatori fenollari (α -naftol, β -naftol). Aromatik spirltar, benzil spirti.

Oddiy efirlar. Etoksietan. Anizol. Fenetol. Etilen oksidi. Gosman tomchilar.

Nazorat savollari


- Qanday organik birikmalarga spirltar deyiladi?
- Birlamchi-, ikkilamchi- va uchlamlchi spirltarga misollar yozing va ularni xalqaro nomenklatura bo'yicha nomlang.
- a) 2-metilpropanol-2, b) butanol-2, d) 2-metilpentanol-3, e) propanol-2 nomli spirtlarning formulalarini yozing va ularni ratsional nomenklaturaga ko'ra nomlang.
- a) 2,2-dimetil-4-propilbutanol-1, b) 3,3-dimetil-2-propilbutanol-2, d) 4,5,5-trimetilgeksanol-4, e) 2,2,3-trimetilgeksanol-3 nomlariga mos keluvchi tegishli spirtlarning formulalarini yozing. Yozilgan spirt formulalariga qarab ular xalqaro nomenklatura qoidalariga muvosiq nomlanganligini tekshirib ko'ring va xatolarini tuzating.
- Quyidagi spirtlarni xalqaro nomenklaturaga ko'ra nomlang:



- Propen-1, buten-1, buten-2 nomli alkenlar suv bilan reaksiyaga kirishganda qanday spirtlar olinadi?

- Propanol-2 quyidagi qaysi moddalar bilan reaksiyaga kirishadi:
 - sirka kislota, b) kaliy, d) mis(II) gidroksidi, e) vodorod bromidi, d) etilen.

8. Etanolning sanoat usulida olish reaksiyasi tenglamalarini yozing.
9. Uti spirti va dimetil efiri o'zaro izomer bo'lsa ham, etil spirti efirga nisbatan yuqori qaynash haroratiga ega ekanligini nima bilan izohlaysiz?
10. Spirit molekulasi tarkibidagi uglerod atomlari sonining ortib borishi ularning xossalariiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
11. Quyidagi birikmalarning qaysi biri yuqori qaynash harorati bilan boshqalaridan farqlanadi: a) etan, b) dimetil efiri, d) etanol, e) xloretan.
12. Quyidagi o'zgarishlarni qaysi reaksiyalar yordamida amalga oshirish mumkin?



13. Noma'lum moddalarning yonishidan hosil bo'lgan uglerod(IV) oksid va suvning molar nisbatlan 6:8 va 2:3. Ularning molekulyar formulalarini aniqlang va mumkin bulgan struktura formulalarini yozib, xalqaro nomenklaturaga muvofiq nomlang.

14. Oidrokolt guruhlarning soni spiritning xossaliga qanday ta'sir ko'rsatadi? Minot keltiring.

15. Glitserin, etilenglikol va izopropil spiritlardan qaysi biri kimyoiy faotroq?

16. Qanday reaksiyalar yordamida quyidagi o'zgarishlarni amalga oshirish mumkin?



17. Qaysi reaksiya yordamida etanoldan glitserinni farqlash mumkin?

18. Etilenglikolning 50% li eritmasi avtomobillar dvigatellarini sovitish uchun antifriz sifatida qo'llaniladi. 5 litr (zichligi 1,11 g/sm³) etilenglikol olish uchun qanday xajmdagi (n.sh. da) etilen zarur?


19. Fenollar deb qanday moddalarga aytildi?

20. Molekulyar formulasasi $\text{C}_8\text{H}_{10}\text{OH}$ bo'lgan barcha fenollar va aromatik spiritarning struktura formulalarini yozing va xalqaro nomenklaturaga binoan nomlang.

21. $\text{C}_6\text{H}_4(\text{OH})_2$ izomerlarining soni nechta bo'lishi mumkin? Formularini yozib, ularni nomlang.

22. Quyida keltirilgan qaysi moddaning umumiyl formulasi $\text{C}_n\text{H}_{2n+2}\text{O}$ bilan ifodalananadi: *para*-krezol, metilpropil efir, benzil spirt, 3-metilpentanol-3.

23. Fenol hosil bo'lishi bilan boradigan reaksiya tenglamalarini ko'rsating:



24. Etil spirti, etilenglikol va fenol qatorida gidroksil guruhidagi vodorod atomining harakatchanligi qanday o'zgaradi? Gidroksil guruhining xossalarini farqini ko'rsatish uchun tegishli reaksiya tenglamalaridan misollar keltiring.

25. Quyida keltirilgan moddalarning qaysi biri bilan benzil spirti fenol kabi reaksiyaga kirishadi: a) vodorod xlorid; b) kaliy; d) kaliy hidroksidning suvdagi eritmasi; g) natriy hidrokarbonat.

26. Fenol, 2,4,6-tribromfenol va 2,4,6-trinitrofenol qatorida qaysi moddaning kislota xossasi kuchli va nima uchun? Fikringizni tegishli reaksiya tenglamalari bilan isbotlang.

27. Quyidagi birikmalarning qaysi ikkitasi organik sintez sanoatida fenol olish uchun ishlatiladi: a) toluol; b) benzol; d) etilen; e) propilen.

28. Sanoatda miqyosida qaysi moddalarni olish uchun fenol xomashyo sifatida ishlatiladi: Ularни toping. a) plastmassa; b) dorivor preparatlar; d) buyoklar; e) etanol.

29. Quyidagi qaysi moddalari jisfdan foydalanib, kaliy fenolyat olish mumkin: a) fenol va kaliy; b) fenol va kaliy hidroksid; d) kaliy atsetat va fenol; e) fenol va kaliy xlorid.

30. Atirgul moyining asosini tashkil etuvchi aromatik spirt formulasini yozing.

31. Oddiy esirlar oksoniy birikmalari shaklidagi komplekslar hosil qiladi. Ana shunday moddalarning formulasini yozing.

Adabiyotlar

1. Грандберг И.И. Органическая химия.- Москва.- “Дрофа”.- 1980.- С. 278 – 310.

2. Iskandarov S.I., Abdusamatov A.A., Shoymardonov R.A. Organik kimyo.- Toshkent.- “O'qituvchi”.- 1979.- 615-bet.

3. Pirmuxamedov I. Organik kimyo.- Toshkent.- “Meditina”.- 1987.- 148–183- betlar.

4. Shoymardonov R.A. Organik kimyodan savol, masala va mashqlar.- Toshkent.- “O'qituvchi”.- 1996.- 73 – 94 va 294–301- betlar.


5. Вивюрский В.Я. Вопросы, упражнения и задачи по органической химии с ответами и решениями.- Москва.- “Владос”.- 1999.- С. 51-58.

OKSOBIRIKMALAR (ALDEGID VA KETONLAR) ALIFATIK ALDEGID VA KETONLAR

Tarkibida karbonil guruh $>\text{C}=\text{O}$ tutgan organik birikmalar *oksobirikmalar* yoki *karbonil birikmalar* deyiladi. Ular o‘z navbatida aldegid va ketonlarga bo‘linadi. Aldegidlardan $\text{R}-\text{CHO}$, ketonlardan $\text{R}-\text{C}(\text{O})-\text{R}'$ umumiy formulaga ega. R va R' radikal guruhlari alifatik, aromatik, geteroaromatik bo‘lishi mumkin.




Aldegidlardan ham, ketonlardan ham $>\text{C}=\text{O}$ guruhni tutgan organik birikmalar bo‘lib, ularning kimyoiy xossalari shu guruh bilan belgilanadi. Karbonil guruhuning oglerod atomi boshqa uchta atomlarga π -bog‘ bilan birlashtir. Bu bog‘lar sp² gibrid bog‘lari bo‘lib, bir tekislikda joylashgani, valent burchaklari 120° ga teng. Oglerod atomining gibridlanumagan p-orbitallari kislorod atomi p-orbitali bilan qoplanishi π -bog‘ hosil qiladi.




π -bog‘ elektronlarning elektromansiyligi bir-biridan farqli atomlar orasida hosil bo‘lib, uning elektron buluti kislorodga tomon siljigan. Aldegid va ketonlarning katta dipol momenti (2,3–2,8 D) karbonil guruhidagi C=O bog‘ning qutblanganligini ko‘rsatadi.

Nomenklatura va izomeriyasi


Aldegidlarni nomlashda tarixiy, ratsional va xalqaro (IUPAC) nomenklaturalaridan foydalananish mumkin. Xalqaro nomenklaturaga binoan, aldegidlarni nomi ularga mos uglevodorodlar nomiga **-al** qo’shimchasini qo’shish bilan hosil qilinadi.



Aldegidlar qatorida izomeriya to'rtta uglerod atomi bo'lgan uglevodoroddan boshlanadi:



moy aldegidi
butanal




Beshta uglerod atomi bo'lgan aldegid esa to'rtta izomerga ega.


Ketonlarning oddiy nomlari, odatda, karbonil guruh bilan bog'langan uglevodorod radikallari nomiga keton so'zini qo'shish bilan hosil qilinadi:




dimetilketon (ratsional)
propanon (xalqaro)




metiletilketon (ratsional)
(butanon-2)



pentanon-2
(metilpropilketon)



pentanon-3
(dietilketon)



3-metilbutanon-2
(metilizopropilketon)


Ketonlarning izomeriyasi uglevodorod radikallarining tuzilishi va uglerod zanjiridagi karbonil guruhning holatiga bog'lik:

Olinish usullari



Spirt, uglevodorod yoki xlorangidridlarning oksidlanishi va qaytarilishi natijasida tuzilishi o'zgarmagan mahsulot olinadi. Ayrim hollarda yangi C=C bog'lari hosil bo'lib, dastlabki modda molekulasiga nisbatan ko'proq uglerod atomlari tutgan aldegid va keton olinadi.

Aldegidlarning olinishi

I. Birlamchi spirlarning oksidlanishi




Qizdirilgan mis yordamida spirlarni degidrogenlab aldegid olish eng qulay usullardan biri hisoblanadi:




Etil spirtini xromli aralashma ($\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7 + \text{H}_2\text{SO}_4$) bilan oksidlaganda ham, hosil bo'ladigan sirka aldegidni karbon kislotagacha oksidlamaydi va reaksiyon aralashmosidan qaynash turorati nthoyatda kichik bo'lgan uchun oson ajratib olimadi.

2. Xlorangidrlarning qaytarilishi




Misollar:





3. Geminal digalogen birikmalarning gidrolizi

Geminal digalogenli hosilalarni suv yoki ishqor ta'sir ettirib, gidrolizlaganda, aldegid hosil bo'лади:




4. Atsetilenning gidratlanishi (Kucherov reaksiyasi)




5. Oksosintez usuli

To'yinmagan uglevodorodlarga yuqori harorat va bosimda kobalt katalizatori ishtirokida CO va H_2 ta'sir ettirilganda aldegidlar hosil bo'ladi. Masalan:




Ketonlarning olinishi


1. Ikkilamchi spirlarning oksidlanishi




2. Karbon kislotalar tuzlarini quruq haydash



3. Geminal digalogen alkanlarning gidrolizi



4. Alkilatsetilenlarning gidratlanishi



Fizikaviy xossalari

Aldegidlar gomologik qatorining birinchi vakili – chumoli aldegid o'tkir hidro gaz, o'rta vakillari – suyuqlik, yuqori vakillari qattiq moddalardir. Quyi aldeigidlar suv bilan yaxshi aralashadi. Yuqori vakillari suvda erimaydi (17-jadval).

Ketondarning quyi vakillari o'ziga xos hidro suyuqlik, suvda yaxshi eriydi. Ullarning yuqori vakillari qattiq moddalardir. Ketonlar spirit va efirda yaxshi eriydi (17-jadval).


17 - jadval.

Aldegid va ketonlarning fizikaviy xossalari

Birkmaning nomi	Formulasi	T _{suyuq.} , t°C	T _{qayn.} , t°C	Zichligi d ²⁰ ₄
Formaldegid	H ₂ C=O	-92	-21	-
Atsetaldegid	CH ₃ CHO	-122	21	0,7812
Propion aldegid	CH ₃ CH ₂ CHO	-81	49	0,8068
Moy aldegid	CH ₃ (CH ₂) ₂ CHO	-99	76	0,8174
Izomoy aldegid	(CH ₃) ₂ CHCHO	-66	62	0,7942
Valerian aldegid	CH ₃ (CH ₂) ₃ CHO	-92	103	0,8096
Akrolein	CH ₂ =CHCHO	-87	52	0,8410
Benzoy aldegid	C ₆ H ₅ CHO	-26	180	1,0484
Atseton	CH ₃ -CO-CH ₃	-95	56	0,7921
Metiletilketon	CH ₃ COC ₂ H ₅	-86	80	0,8054
Metilpropilketon	CH ₃ COC ₃ H ₇	-78	102	0,8094
Dietilketon	C ₂ H ₅ COC ₂ H ₅	-42	103	0,8159
Mezitil oksidi	(CH ₃) ₂ C=CHCOCH ₃	-59	129	0,8580
Benzofenon	C ₆ H ₅ COC ₆ H ₅	49	306	-
Atsetofenon	C ₆ H ₅ COCH ₃	20	202	1,0256


Kimyoviy xossalari

Aldegid va ketonlar xususiyatini karbonil guruh belgilashini ilgari ta'kidlagan edik. $>\text{C}=\text{O}$ – guruh nukleofil zarracha hujumiga moyil (ya'ni oson reaksiyaga kirishadi) va α -uglerod atomi bilan bog'langan vodorod atomlarining kislotali xususiyatini oshiradi.



Nukleofil birikish reaksiyalari


Karbonil guruhi uglerod atomining elektron buluti (zichligi) kislorodga tomon siljigani uchun, uning nukleofil zarrachalar (elektron zichligi katta guruh - asoslar) bilan reaksiyaga kirishi osonlashgan. Aldegidlar ketonlarga nisbatan nukleofil birikish reaksiyasiga oson kirishadi. Ketonlardagi ikki radikal oraliq tedraedrik tuzilishga o'tishida fazoviy jihatdan xalaqit beradi.




Alkil guruhlari elektrodonor tabiatini bilan oraliq holatdagi kislorod anioni manfiy zaryadini kuchaytiradi va reaksiyon qobiliyatini kamaytiradi. Aldegidlar tarkibida birgina radikal tutgani uchun karbonil guruhidagi bu qutblanish ketonlarga nisbatan ancha kuchaygan va reaksiyon qibiliyatini oshgan.

Oksidlanish reaksiyalari

a) Aldegidlar




Misol tariqasida aldegidlarning "kumush ko'zgu" reaksiyasini ko'rsatishimiz mumkin, bu reaksiya "Tollens tajribasi" ham deyiladi:




Barcha organik moddalar ichida aldegidlar eng oson oksidlanadi va bu jarayon ularni identifikasiyalashda keng miqyosda ishlataladi.

b) Metil ketonlar (Galoform reaksiyasi)




Ketonlar Popov qoidasiga binoan destruktiv oksidlanadi, ya'ni C=O guruhgaga qo'shni bo'lgan har ikki C-C bog'lari uziladi. Bunday reaksiyani amalga oshirish uchun kuchli oksidlovchi ishlataladi:




Qaytarilish reaksiyaları

a) Spirtlargacha qaytarish



Aldegidler qaytarilganda birlamchi, ketonlar esa ikkilamchi spirlarlarni hosil qiladi. Qaytarilish reaksiyasi katalitik usulda yoki kuchli qaytaruvchigi agent LiAlH_4 (litiyaluminiygidrid) ishtirokida olib boriladi:



Aldegid va ketonlar metall gidridlari bilan oson qaytariladi




Nukleofil agent sifatida gidrid ioni H^- karbonil guruh uglerodiga birikadi.




b) Uglevodorodlargacha qaytarish

Aldegid va ketonlar quyidagi hollarda tegishli uglevodorodlargacha qaytariladi:

- amalgamalangan rux bilan HCl_{kons} ta'siri (Klemensen),
- gidrazin yoki KOH va uchlamchi kaliy butilati kabi kuchli qaytaruvchilar ta'siri (Kijner-Volf usuli):




d) Qaytarilish-aminlash reaksiyasi





e) Ammiak hosilalarining birikishi

Animiak hosilalarining birikishi azot atomdagи bo'sh elektron jufti mukleofilligi hisobidan amalga oshadi va muhit kislotaligi oshsa, protonning birikishi hisobidan $\text{H}_2\text{N} - \text{G}$ reaksiyon qobiliyatini yo'qotadi. Demak, reaksiyaning oson amalga oshishi uchun kuchsiz kislotali muhit bo'lishi lozim.



Mekhanizmi:



$\text{H}_2\text{N}-\text{G}$
uning fuzi, nukleofilligi
yo'qolgan

Reaksiya mahsuloti

$\text{H}_2\text{N}-\text{OH}$ gidroksilamin

$\text{H}_2\text{N}-\text{NH}_2$ gidrazin

$\text{H}_2\text{N}-\text{NHCO}_2\text{H}$ fenilgidrazin

$\text{H}_2\text{N}-\text{NHCONH}_2$ semikarbazid



C=N-OH oksim

C=N-NH_2 gidrazon

$\text{C=N-NHC}_6\text{H}_5$ fenilgidrazon

C=N-NHCONH_2 semikarbazon

Misollar:




D) Urotropinning olinishi


Chumoli aldegidining suvdagi 40 % li eritmasi (formalin) bilan ammiak boshqacha reaksiyaga kirishib, tibbiyotda antisептик vosita sifatida ishlataladigan urotropin nomli preparat hosil qiladi. Bu reaksiyani birinchi marta A.M. Butlerov amalgalama shartida oshirganda:




Urotropin oq kristall modda bo'lib, kislotali muhitda gidrolizlanadi va dastlabki mahsulotlarga parchalanadi. Uning tuzilishi quyidagicha ifodalanadi:



Grinyar reaktivining birikishi




Grinyar reaktivining aldegid va ketonlarga birikishi murakkab efirlar sintezining asosiy manbayidir. Grinyar reaktividagi organik molekula qoldig'i elektron jufti bilan uzeladi va nukleofil agent sifatida reaksiyani boshlaydi:




Sianid-ionining birikishi



Misollar:







Odatda, natriy siangidrinning suvli eritmasi bilan karbonilli birikma aralashmasiga mineral kislota qo'shish bilan reaksiya amalga oshiriladi. Dastlab reaksiya sianid-ionining nukleofil agent sifatidu ta'siri bilan boshlanadi va oksimtril gidrolizlantib, α -oksikislotaga aylandi.

Bisulfit ionining birikishi


Natriy bisulfiti ko'pgina aldegidlar va metilketonlar bilan reaksiyaga oson kirishadi.




Misolalar




Spirtlarning birikishi



Spirtlar aldegidlar bilan, suvsiz kislota katalizatorligi bilan reaksiyaga kirishadi. Masalan:




Ketonlar spirit bilan bu reaksiyaga juda qiyin kirishadi, shuning uchun ketallar boshqacha usul bilan sintez qilinadi. Reaksiya mexanizmini tushunish uchun odatda, aldegid spirtdagi eritmada yarim atsetal tarzida bo'ladi va u ikkinchi spirit molekulasi bilan reaksiyaga kirishib oddiy efir hosil qiladi.




Kannitsaro reaksiyasi


Ishqorning suvdagi yoki spirtdagi konsentratsiyaning eritmasi ta'sirida xona haroratida aldegidlar ichki oksidlanish-qaytarilish reaksiyasiga kirishadi, bunda ular spirit va karbon kislota tuzlari hosil qiladi (α -uglerod atomida vodorod tutgan aldegidlar bundan mustasno, chunki ular bu sharoitda aldol kondensatlanish reaksiyasiga kirishadi:



Bu reaksiyada ishqorning katalizatorlik mohiyati uning karbanion hosil qilish jarayonida ishtiroki bilan belgilanadi:



Aniqrog'i, aldol birikishi deyish to'g'ri bo'lar edi, 1872-yilda Borodin va Vyurs tomonidan o'r ganilgan bu reaksiya natijasida β -gidroksikarbonil birikma olindi.




Muhim rakillari

H = CHO — chumoli aldegid (formaldegid) rangsiz, o'ziga xos o'tkiz hildli gaz, -21°C da qaynaydi, suvda yaxshi eriydi. Suvdagri 40 foizli eritmasi formalin deyiladi. Formalindan suv bug'latilsa, yoki 100q vaqt past haroratda usqlanshi, polimerlanadi va paraform deb atahiychi og'chokma hosil qiladi. Paraform tarkibida uchtadan sakkizta-yuha formaldegid molekulalarini tutadi va u polimerlanadi:

Chumoli aldegidning kimyovali xossalari boshqa aldegidlarning xossalardan farq qiladi. Masalan, chumoli aldegidga ishqor ta'sir ettirilsa, metil spirt va chumoli kialoti tuzi hosil bo'ladi, uning gomologlari esa smola hosil qiladi.

Chumoli aldegid fenol bilan reaksiyaga kirishib, fenol-formaldegid smola, mochhevina bilan reaksiyayidan esa karbamid smola olinadi. Ular asosida plastik massasi tayyorlamadi. Plastmassalardan qurilish materiallari, texnik maqsadlar uchun har xil detallar, uy-ro'zg'or buyumlari va boshqalar ishlab chiqariladi.

Sanoatda formaldegid metanolni katalitik oksidlash yo'li bilan olinadi.



Formaldegid ko'nchilik sanoatida charmlarni ohorlashda, g'alla va meva usqlaydigan omborlarni dezinfeksiyalashda ham ishlatiladi. Formaldegid ko'mir va yog'osh yonganda hosil bo'ladicidan tutun tarkibida bo'ladi. Insoniyat bu hodisadan oqilonaga foydalaniib kelmoqda — gosht, baliq va boshqa matusilotlar dudlanganda ularning sirtidagi bakteriyalar aldegid ta'sirida nobud bo'ladi va dudlangan mahsulotlar uzoq vaqt buzilmaydi.

CH₃-CHO — sirka aldegidi (atsetaldegid, etanal), suvda yaxshi eriydigan, tinq, oson uchuvchan suyuqlik, 21°C da qaynaydu. Sirka aldegidiga xona haroratida bir tomchi suv qo'shilsa, polimerlanadi. Uning hosil qilgan halqali

trimeri – $(\text{CH}_3\text{CHO})_3$, 124°C da qaynaydigan suyuqlik. Paraldegid tibbiyotda tinchlantiruvchi dori sifatida ishlataladi. Paraldegiddan presslangan metaldegid tugmachalari tayyorlanadi. U “quruq spirt” nomi bilan alpinistlar, turistlar, ovchilar orasida mashhur va yonilg'i sifatida ishlataladi.

Yuqori molekulyar aldeigidlar xushbo'y gul hidli bo'lib, ular parfumeriya sanoatida turli atirlar tayyorlashda xomashyo sifatida qo'llaniladi.

$\text{C}_7\text{H}_{15}\text{CHO}$ – kapril aldegidi (oktanal),

$\text{C}_8\text{H}_{17}\text{CHO}$ – pelargon aldegidi (nonanal),

$\text{C}_9\text{H}_{19}\text{CHO}$ – detsil aldegidi (dekanal),

$\text{CCl}_3\text{-CHO}$ – trikloratsetaldegidi (xloral), og'ir suyuqlik, 90°C da qaynaydi. Bir molekula suv biriktirib olib, xloralgidrat deb ataluvchi qattiq modda hosil qiladi:




Xloralgidrat ishqor ta'sirida oson parchalanadi va xloroform bilan chumoli kislota tuzlari hosil bo'ladi. Paraldegid kabi tibbiyotda uyqu keltiruvchi dori sifatida qo'llaniladi.

$\text{CH}_3-\text{C}(\text{O})-\text{CH}_3$ – **atseton** (dimetil keton) rangsiz, o'ziga xos hidli suyuqlik, 56°C da qaynaydi. Suvda yaxshi eriydi. Atseton ko'pchilik organik moddalar uchun yaxshi erituvchi, shuning uchun undan sanoatda turli mahsulotlar ishlab chiqarishda erituvchi sifatida foydalaniadi. Bulardan tashqari, atseton lak-bo'yoq sanoatida, kinotasma olishda, sintetik tolalar ishlab chiqarishda erituvchi sifatida, tutunsiz porox ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi.

Hozirgi vaqtida atseton neftni qayta ishlashtida hosil bo'ladigan xomashyo – propilenden olinmoqda. Bunda dastlab, propilen gidratlash yo'li bilan izopropil spitga aylantiriladi va 450-500° da kumush katalizatori ishtirokida oksidlanadi.


TO'YINMAGAN ALDEGID VA KETONLAR

To'yinmagan aldegid va ketonlar orasida tutash tizim hosil qilgan α , β - oksobirkimlar muhim hisoblanadi:



Agar molekuladagi C=C bog'i va karbonil guruhi orasida birdan ortiq oddiy bog' bo'lса, ularning tabiatи bir-biriga ta'sir etmaydi va alohida ikkita funktsional guruh xossalari namoyon qiladi.

$\text{H}_2\text{C}=\text{CH}-\text{CHO}$ - **akrolein** (propenal), eng sodda to'yinmagan aldegid, 52°C da qaynaydigan rangsiz suyuqlik. Akroleininning juda o'tkir hidi bor. Uning nomi ham shu ma'noni anglatadi: akre - o'tkir, oleum - moy. Yog' va moy qattiq qizdirilganda qisman hosil bo'lgan glitserin parchalanadi va ikki molekula suv ajratib akrolein hosil qiladi. Tomogri qichitib, ko'zni yoshlantiruvchi bu qo'lansa hid akrolein hosil bo'lganini anglatadi:



Sanoatda akrolein sintetik glitserin olish jarayonida oraliq mahsulot sifatida ajratib olinadi yoki propilenini katalitik oksidlab ham olish mumkin. Undan bix qator sintetik polimer smolalar ishlab chiqarishda daslabki mahsulot sifatida qollaniladi.

Akroleininning boshipa gomologlari aldot-kroton kondensatsianishi natijasida sintez qilinadi:




$\text{CH}_3-\text{CH}=\text{CH}-\text{C}(=\text{O})-\text{CH}_3$ - metilvinilketon, 81°C da qaynaydigan suyuqlik. U formaldegid va atsetonning o'zaro kondensatsianishidan olinadi, oson polymerlanadi va shishasimon massa hosil qiladi. Metilvinilketon nukleofil birikishi reaksiyasiga karbonil guruhi emas, qo'shbog' hisobidan reaksiyaga kirishadi.



To'yinmagan aldegid va ketonlarning ayrim vakillari o'simlik dunyosida keng tarqalgan va izoprenoid zanjiri bilan genetik bog'langan, buni biz terpenlar mavzusida muhokama qilgan edik.

KETENLAR

Keten atsetonning pirolizi natijasida olinadi:





Keten ketonlarga xos reaksiyalarga kirishmaydi. Undan turli organik moddalar sintezida reagent sifatida foydalanadilar:




AROMATIK ALDEGID VA KETONLAR

Aromatik aldegidlarning dastlabki eng oddiy vakili benzoy aldegid hisoblanadi. Unda karbonil guruhi bevosita benzol halqasiga birikkan. Karbonil guruhi yon zanjir bilan bog'langan bo'lishi ham mumkin:




Olinishi

Alifatik qator aldegidlarni olinishining barcha usullaridan foydalanib aromatik aldegidlarni ham olish mumkin (tegishli spirlarni oksidlash, kislotalarni qaytarish va boshqalar). Benzaldegid kabi aromatik aldegidlarni olish uchun spetsifik usullar qo'llaniladi, masalan, benzol gomologlarini oksidlash:




Benzoy aldegid (benzaldegid) odatdagи sharoitda rangsiz suyuqlik qaynash harorati 179°C kuchli achchiq bodomli hidga ega. Benzaldegid amigdalin glikozidi tarkibiga kiradi. Amigdalin gidrolizlanganda benzaldegid va sianid kislota ajralishi sodir bo'ladi.

Benzaldegid daqtibki yoki oraliq modda sifatida bo'yoglar va turli organik birkinalarning sintezi uchun ishlataladi. Benzaldegid va uning hosilalari ushibo'y moddalarni sintez qilish uchun qo'llaniladi. Benzaldegidning o'zi unoatda tohuoldan ikki usul bilan olinadi:



toluolni yuqori haroratda xlorlash va olingan benziliden xloridini kalsiy gidroksidi yoki sulfat kislotasi ishtirotkida gidrolizlash;

– toluolni bevosita havo kislороди bilan katalizator ishtirotkida oksidlash.




Xossalari

Aromatik halqa bilan bog'langan karbonil guruh, alifatik qator aldegidlar uchun xarakterli bo'lgan bir qator kimyoviy reaksiyalarga kirishadi: kumush ko'zgu reaksiyasi, havo kislороди bilan oksidlanishi, sianid kislota va natriy bisulfitni biriktirishi va hokazo. Bundan tashqari, ular ba'zi bir xususiy reaksiyalarni ham namoyon qiladi:


Kannitssaro reaksiyasi

Konsentrangan ishqor eritmasi ishtirotkida ikki molekula benzaldegiddan bittasi benzil spirti hosil bo'lishigacha qaytariladi, ikkinchisi esa benzoy kislotagacha oksidlanadi:




Benzoin kondensatlanishi

Kaliy sianidining katalitik ta'siri ostida ikki molekula benzaldegid kondensatlanish reaksiyasiga kirishib, benzoin deb nomlangan moddani hosil qiladi:




Xlor ta'siri

Aromatik aldegidlarga xlor ta'sir ettirilganda (masalan, benzaldegidga) aldegid guruhidagi vodorod atomi xorgia almashinadi va kislota xlorangidridi hosil bo'ladi:



Dolchin aldeгidi (*3-fenilpropen-2-al*) moysimon suyuqlik, 252°C haroratda qisman parchalanib haydaladi.



Juda xushbo'y hidi bor, ko'ргина сифр moyollar tarkibida uchraydi. Parfumeriyada va oziq-ovgat sanоatida ta'm beruvchi modda sifatida ishlatalindi. Benzoq va sirkal aldeгidlarining ishqoriy mihitda aldol kondensatlanishi natijasida olinadi.

Aromatik ketonlar

Aromatik ketonlar ikki guruhga bo'linadi:

1. Faqat aromatik – ikkita aromatik radikal bilan bog'langan karbonil guruhli tutgan birikmalar. Ularning umumiy formulasi:




2. Aralash – aromatik va alifatik radikallar bilan bog'langan karbonil guruh tutgan birikmalar, umumiy formulasi:




Nomenklaturasi


Odatda, aromatik va aralash ketonlarning ratsional nomenklatura bo'yicha nomlaganda tegishli aromatik yoki alifatik radikallarning nomlari asos sifatida qabul qilinadi va ularga keton so'zi qo'shib ataladi. Ayrim ketonlar tarixiy nomlarga ham ega:



difenilketon
(benzofenon)



metilfenilketon
(atsetofenon)




etilfenilketon
(propiofenon)


Olinishi

Iridel-Krafs reaksiyasi

Aromatik uglevodorodlarga aluminiy xlorid ishtirokida alifatik yoki aromatik kislotalarning xlor angidridlari ta'sir ettirib olinadi:



Metilfenilketon (atsetofenon) kristall modda bo'lib, uning suyuqlanish harorati 20°C , suvdagi erimaydi. Xushbo'y moddalar va dor darmon preparatlari sintezi uchun ishlatiladi.



Sanoatda atsetofenon benzoy kislota va sirkak kislota aralashmasidan katalizatorlar ishtirokida (toriy oksid, magniy oksid) $400\text{--}500^\circ\text{C}$ haroratda olinadi:




Atsetofenonning galoidli hosilalari – xloratsetofenon $\text{C}_6\text{H}_5\text{CO}-\text{CH}_2\text{Cl}$ va bromatsetofenon $\text{C}_6\text{H}_5\text{CO}-\text{CH}_2\text{Br}$ kristall moddalar, terini yallig'lantiradigan va ko'zdan yosh oqizadigan ta'sirga ega.


DIKARBONIL BIRIKMALAR


Sorlavhaning o'zidan ma'lum bo'ladiki, bu moddalarning tarkibida ikkita karbonil guruhli bor. Ular dialdegid, diketon va nihoyat, ketoaldegid shakllarida ham bo'lishi mumkin. Molekuladagi karbonil guruhlarining zanjirdagi bir-biriga mabtani holatiga qarab α -, β -, γ - va boshqa hosilalarga ajratiladi. Ularning eng oddiy vakillaridan bir necha misollar keltiramiz.

Glioksal (etandial) sariq pangli, 15°C da suyuqlanadigan kristall modda. Etil spirtini nitrat kislota bilan ohista oksidlاب olinadi. Suyuq glioksal oson polimerlanadi. Aldegidlarga xos barcha reaksiyalarga kirishadi.




malon aldegidi (propandial)





qahrabó aldejidi (butandial)




Metilglioksal, eng oddiy ketoaldejidning vakili, 72°C da qaynaydigan, harakatchan, sariq rangli suyuqlik. Uglevodlarning biokimyoviy almashinuvida muhim vazifani bajaradi. Ularning spirthi va sut kislotali bijg'ishidan hosil bo'ladi. Diatsetil (butandion). Ketonlarga xos barcha xususiyatlarni namoyon qiluvchi oddiy a-diketon. 88°C da qaynaydigan, o'tkir hidli, moysimon suyuqlik. Sariyog' hidiga ega, shuning uchun margarin olishda ishlataladi. Diatsetilga nisbatan uning ikki molekula gidroksilalarni bilan kondensatlanish reaksiyasiga kirishib hosil qilgan mahsulot – dimetilglioksim muhim ahamiyat kasb etdi:




Dimetilglioksim tahliliy kimyoda Chugayev reaktivini nomi bilan ma'lum bo'lib, nikel ioni bilan barqaror qizil rangli kompleks birikma hosil qiladi va nikelni aniqlash uchun reagent sifatida ishlataladi.


Muhim β -dikarbonil birikmalardan biri – atsetilatsetondir (pentandion-2,4).



Atsetilatseton va uning hosilalari oraliq metalllar bilan mustahkam xelat birikmalar hosil qilgani uchun tahliliy kimyoda reagent sifatida ishlataladi. Chunki ular oddiy monokarbonil birilmalar uchun beqaror bo'lgan enol shaklida ham mavjud bo'ladi. Dikarbonil birikmalarning keto-enol tautomeriyasi dinamik muvozanatda bo'lib, bu hodisa ikki va uch valentli oraliq d-elementlar bilan barqaror ichki kompleks birikmalar hosil qilishini ta'minlaydi. Diketon shakl bilan birga keto-enol tautomer holatning barqarorligini ichki molekulyar vodorod bog' hosil bo'lishi bilan belgilanadi:





diketon shakl




keto-enol shakl

Oraliq d-metallarning kompleks birikmalari fotometrik usulda boshqa spektroskopik tadjiqot usullari bilan hamkorlikda miqdor jihatdan aniq hisoblab topiladi. Atsetilatseton tarkibidagi metil guruhi yoki γ -metilen guruhining vodorod atomlarini boshqa elektronondonor yoki elektronakseptor guruhlarga almashtirish yo'li bilan diketonlarning ekstraksion, selektiv kompleks hosil qilish va boshqa reaksiyon qobiliyatini o'zgartirish mumkin. Bular orasida eng ko'p ishlatiladigan ikki vakillari benzoilatseton va atsetilpinakolinidir. Ularning birida musbat induktiv effektga ega bo'lgan CH_3 -guruhi o'rniiga C_6H_5 -fenil, ikkinchisida esa hajmi katta $(\text{CH}_3)_3\text{C}$ – *uchlamchi*-butil radikallari bilan almashtirilgan:



Benzoilatsetondagi fenil guruhi atsetilatsetondagi metil guruhiaga nisbatan katta elektromansiyligi bilan farqlansa, atsetilpinakolinda fazoviy jihatdan katta hajm egallagan *uchlamchi*-butil guruhi bu birikmalarning reaksiyon qibiliyatini atsetilatsetonga nisbatan butunlay o'zgartiradi.



Atsetilatsetonning 3d-metallar bilan hosil qilgan xelat birikmalari shunchalik barqarorki, ular sulfat kislota ta'siridagina parchalanadi.

Tayanch iboralar

Oksobirikmalar: Oksosintez. Atsetilen va alkilatsetilenlarning gidratlanishi. Karbonil guruhining nukleofil birikish reaksiysi, oraliq holat. "Kumush ko'zgu" (Tollens tajribasi) reaksiysi. Galoform reaksiysi. Ketonlarning destruktiv oksidlansishi (Popov qoidasi). Aldegid va ketonlarning qaytarilishi (Klemens, Kijner - Volt usuli). Qaytarilish-aminlash reaksiysi. Ammiak va ammiak hositlatining birikishi (oksim, gidrazon, fenilgidrazon, semikarbozonlarning olinishi). Geksametilentetramin (urotropin). Atsetal va

yarim atsetallar. Kannitssaro reaksiyasi. Aldol -kroton kondensatlanishi. Fenol - formaldegid va karbamid smolalari.

To'yinmagan aldegid va ketonlar. Akrolein. Kroton aldegidi. Metilvinil keton. Keten. Diketen.

Aromatik aldegid va ketonlar. Benzaldegid. Benzooin kondensatlanishi. Dolchin aldegidi. Benzofenon. Atsetofenon.

Dikarbonil birikmalar. Glioksal (etandial). Propandial. Metilglioksal. Ketoaldegid. Diatsetil (butandion). Atsetilatseton. Benzoilatseton. Atsetilpinakolin.

Nazorat savollari

1. Aldegid va ketonlarning umumiy formulasini yozing. Ular orasida farq bormi?


2. Karbonil guruhidagi bog'larning elektron zichligi qanday taqsimlangan?

3. Nega uglerod va kislorod atomlaridagi qisman zaryadlar bir xil emas?

4. Aldegid yoki keton molekulasida vodorod bog'lari hosil bo'ladimi?


5. Metil spirti, sirka aldegidi va atseton molekulalarida σ - va -bog'larning hosil bo'lishini tushuntirib bering.

6. Quyidagi birikmaning barcha izomerlarini yozing va xalqaro nomenklaturaga muvofiq nomlang:



7. Quyidagi birikmalarning tuzilish formulalarini yozing: a) metanal, b) 2,2 - dimetilpropanal, d) 3 - metilpentanal, e) sirka aldegidi, f) moy aldegidi.

8. Quyidagi birikmalardan qaysi birlarining reaksiyon qobiliyati yuqori:



9. 1 mol sirka aldegidi 2 mol mis(II) gidroksidi bilan reaksiyaga kirishdi. Reaksiya tenglamasi va olingan modda tuzilishini yozing.

10. Sirka aldegidi bilan ammiak, gidrosilamin, gidrazin o'zaro reaksiyaga kirishsa, qanday mahsulotlar olinadi? Reaksiya tenglamalarini har qaysi hol uchun alohida yozing.

11. Etin va propinga suvning birikish reaksiyasini yozing. Qanday birikmalar hosil bo'lishini tushuntiring.

12. Atsetondan foydalanib, qaysi benzol gomologini sintez qilish mumkin?

13. a) Chumoli aldegidi va propion aldegidi, b) sırka aldegidi va moy aldegidi, d) sırka aldegidi va atseton o'zaro kondensatlanganda qanday birikmalar hosil bo'ladi?

14. Kannitssaro reaksiyasi tenglamasini yozing. Bu reaksiya qaysi birikmalar uchun xos?

15. Aldegid va ketonlar oksidlanganda qanday birikmalar olinadi?

16. Aldegid va ketonlarning qaytarilish reaksiyasi tenglamalarini yozing. Olingan mahsulotlar bir – biridan farqlanadimi?

17. Chumoli aldegidi qaysi organik moddalar bilan polikondensat-lanish reaksiyalariga kirishadi? Bunda qaysi mahsulotlarni sintez qilish mumkin?

18. Formaldegid va sırka aldegidlari qanday sharoitda polimerlanadi? Bu polimerlardan biri qanday kasb egalari tomonidan va nima maqsadda ishlataladi?

19. Benzoy aldegidi va fenilsırka aldegidi formulalarini yozing.

20. Benzoy aldegidi va β -fenilpropion aldegidi oksidlanganda nima hosil bo'ladi? Reaksiya tenglamalarini yozing.

21. Benzofenon va atsetofenon nima? Ular qanday reaksiya yordamida olinadi?

22. Dolchin aldegidining formulasini yozing. U tabiatda uchraydimi?

23. Yuqori molekulyar alifatik aldegidlari xushbo'y hid va ta'mga ega. Ularning formulalarini yozib bering.

24. Atsetondan yuqori haroratda keten sintez qilinadi. Shu reaksiya tenglamasini yozing.

25. Keten yordamida organik birikmalar sinfining qaysi vakillari osonlik bilan olinadi? Fikringizni isbotlash uchun tegishli reaksiya tenglamalarini yozib bering.

26. Dialdegid va diketonlar tuzilishini bilasizmi? Ayrim vakillarini yozib bering. Aldegidketonlarni-chi?

27. α , β , γ - va keyingi dikarbonil birikmalar nimasi bilan farqlanadi?

28. Monokarbonil birikmalar uchun keton shakl barqaror bo'lib, enol shaklidagi hositalari juda beqaror hisoblanadi (Eltekov qoidasi). Dikarbonil birikmalri uchun ham bu holat kuzatiladimi?

29. Difatsetilning muhim hosilasi dimetilglioksim qaysi reaksiya yordamida olinadi?

30. Dimetilglioksim kimyoda nima uchun ishlataladi?

31. Benzilatetoning keto - enol tautomeriyasini yozing.







32. Atsetilatseton va atsetilpinakolingga mis(II) atsetati ta'sir ettirilganda ichki kompleks birikmalar olinadi. Shu reaksiya tenglamalarini yozing.

Adabiyotlar

- Грандберг И.И. Органическая химия.- Москва.- “Дрофа”.- 2002.- С. 330-356.
- Iskandarov S.I., Abdusamatov A.A., Shoymardonov R.A. Organik ximiya.- Toshkent. - “O’qituvchi”. - 615-bet.
- Pirmuhamedov I. Organik ximiya.- Toshkent. “Meditina”.- 1987.- 185 –206- betlar.
- Вивюрский В.Я. Вопросы, упражнения и задачи по органической химии с ответами и решениями.- Москва.- “Владос”,- С. 58-63.

KARBON KISLOTALAR

Tarkibida karboksil guruhi $-\text{COOH}$ tutgan organik birikmalarga **karbon kislotalar** deyiladi. Karboksil guruhi soniga qarab, karbon kislotalar bir, ikki va ko’p asosli bo’ladi. Karbon kislotalar radikalning xarakteriga qarab, to’yingan to’yinmagan, aromatik va hokazo bo’lishi mumkin:




Nomenklatura va izomeriyasi




To’yingan bir asosli karbon kislotalarning gomologik qatori chumoli kislotadan $\text{H}-\text{COOH}$ boshlanadi va $\text{C}_n\text{H}_{2n+1}\text{COOH}$ umumiyl formula bilan ifodalanadi.

Karbon kislotalarni nomlashda tarixiy, ratsional va sistematik (IYUPAK) nomenklaturalari qo’llaniladi. Tarixiy nomlar kislotalarning dastlab qanday xomashyodan olinganligini ko’rsatadi.



Ratsional nomenklaturaga binoan nomlashda karboksil guruhi bilan birikkan uglevodorod nomiga karbon kislota so’zi qo’shiladi:



Sistematik (IYUPAK) nomenklaturaga, asosan, nomlashda asosiy uglerod zanjiridagi karboksil guruhidagi uglerod atomini birinchi deb hisobga olib, tegishli to’yingan uglevodorodlar nomiga kislota so’zini qo’shib aytildi:




Kislotalarda izomeriya gomologik qatorning to'rtinchisi a'zosi bo'lgan moy kislotadan boshlanadi. Uning ikkita izomeri bor:



Karbon kislota tuzlari


Karbon kislotalari ma'dan kislotalarga nisbatan kuchsiz bo'tsa ham, ishqor ta'sirida tuzlar hosil qiladi.



Karbon kislota tuzlari, odatda, kristall moddalar, uchuvchan emas, imusbat va manfiy zaryadli ionlarga ega. NH_4^+ , K^+ , Na^+ tuzlari suvda yaxshi eriydi, ammo qutbsiz organik erituvchilarda erimaydi. Mis, kumush, temir kabibi og'ir metallarning tuzlari suvda erimaydi.


Karbon kislotalarining olinishi

1. Birlamchi spirtlarning oksidlanishi



2. Alkanlarning oksidlanishi


Sanoatda neft tarkibidagi yuqori uglevodorodlarni katalitik oksidlab, yuqori molekulyar yog' kislotalar olinadi:



3. Grinyar sintezi


Organik galogenidlardan yoki spirtlardan dastlab Grinyar reaktivsi olinadi, olingan mahsulot karbonat angidridi ta'sirida karbon kislota tuzlariga va ular

o'z navbatida, ma'dan kislota ta'sirida gidrolizlanib, tegishli karbon kislotasiga aylantiriladi:




4. Nitril sintezi

Nitrillar alkilgalogenidlarga natriy sianidi ta'sir etib, olinadi. Reaksiya xona haroratida dimetilsulfoksid (DMSO) eritmasida olib boriladi. Olingan nitril ishqor yoki kislota ishtirokida qaynatib gidrolizlanadi:




Bu nukleofil o'rinni olish reaksiyasidir; birlamchi alkilgalogenidlar oson, ikkilamchi hosililar juda qiyn va uchlamchilar boshqacha reaksiyaga kirishadi:




Dikarbon kislotalarning sintezi

Quyida ayrim dikarbon kislotalarning olinish usullari keltirilgan.

I. Oksalat kislota




2. Malon kislota




Malon kislotaning dietil efiri (ko'pincha **malon efiri** deb yuritiladi) meva hidini eslatuvchi xushbo'y suyuqlik, 199°C da qaynaydi va organik sintezda asosiy reagentlardan biri hisoblanadi. Malon efiri kuchli reaksiyon qobiliyatli birikma bo'lgani uchun uning asosida normal va izo tuzilishga ega bo'lgan bir va ikki asosli kislotalar va ularning hosilalari sintez qilinadi. Malo efiri farmatsevtikada turli dorilar olishda, jumladan, barbital olishda ishlataliladi.

3. Qahrabo kislotasi



4. Adipin kislota




Fizikaviy xossallari

Barcha karbon kislotalar suvda eriydi va kuchsiz dissotsilanadi. Karbon kislotalaridan chumoli kislotaning karboksil guruhi alkil o'ribbosari bilan bog'lanmagani uchun kuchliroq kislotasi xossasiga ega. Ularning dastlabki to'rtta vakili suv bilan istalgan nisbatda aralashuvchi o'tkir hidli suyuqliklar, C₅-C₉-tarkibli va izomoy kislotasi moysimon yoqimsiz hidli suyuqlik bo'lsa ham, ular suvda oz eriydi. Yuqori karbon kislotalar (C₁₀dan keyingilari) qattiq moddalar, suvda erimaydi va haydalganda oson parchalanadi.

Karbon kislotalarining fizikaviy xossalarini ichki molekulyar vodorod bog'larining borligi belgilaydi va pirovard natijada assotsiatlarning hosil bo'lishi katta ta'sir ko'rsatadi (18-jadval).


Kislotasi molekulasi dagi vodorod bog' energiyasi spirtlar yoki alkilgalogenidlar molekulasiga nisbatan mustahкамроq, chunki karboksildagi O—H bog'i katta elekromanfiylikka ega karbonil guruhi ta'sirida kuchliroq qutblangan. Qattiq va suyuq holdagi karbon kislotalar, asosan, halqali dimer shaklida uchraydi:




Kimyoviy xossalari

Karbon kislotasi kimyoviy xossalari karboksil guruhi —COOH tabiatini bilan belgilanadi. Karbonil guruhi (C=O) ta'sirida OH - gidrosil guruhi faollahshgan; H⁺ ionini almashtirish yoki OH-guruhi hisobidan o'rinni olish reaksiyalariga kirishadi. Karboksil guruhi bilan bog'langan radikalning tuzilishiga ko'ra ular turli-tuman kimyoviy xossalarni namoyon qiladi.

1. Tuzlarning olinishi



2. Qaytarilish reaksiyasi



Ayrim karbon kislotalarining fizikaviy xossalari


Kislota	Formulasi	T suyuq. °C	T qayn. °C	Zichligi gr/sm ³
Chumoli	H-COOH	8	101	1,2206
Sirka	CH ₃ -COOH	17	118	1,0484
Propion	C ₂ H ₅ -COOH	-22	141	0,9926
Moy	C ₃ H ₇ -COOH	-8	165	0,9581
Izomoy	(CH ₃) ₂ CH-COOH	-47	154	0,9482
Valerian	CH ₃ (CH ₂) ₃ -COOH	-59	187	0,9420
Kapron	CH ₃ (CH ₂) ₄ -COOH	-2	205	0,9291
Enant	CH ₃ (CH ₂) ₅ -COOH	-10,5	223	
Kapril	CH ₃ (CH ₂) ₈ -COOH	16,5	237	
Palmitin	CH ₃ (CH ₂) ₁₄ -COOH	63,1	268*	
Margarin	CH ₃ (CH ₂) ₁₅ -COOH	62,0	277*	
Stearin	CH ₃ (CH ₂) ₁₆ -COOH	70,4	287*	
Araxin	C ₁₉ H ₃₉ -COOH	75		
Oksalat	HOOC-COOH	189		
Malon	HOOC-CH ₂ -COOH	136		
Qahrabو	HOOC-(CH ₂) ₂ -COOH	185		
Glutar	HOOC-(CH ₂) ₃ -COOH	98		
Adipin	HOOC-(CH ₂) ₄ -COOH	153		
Akril	CH ₂ =CHCOOH	12	142	1,0621
Kroton	trans-CH ₃ -CH=CH-COOH	72	189	1,0196
Izokroton	tsis-CH ₃ -CH=CH-COOH	15	172	1,0314
Olein	tsis-CH ₃ (CH ₂) ₇ CH=CH(CH ₂) ₇ -COOH	14	286*	0,8951
Elaidin	trans-CH ₃ (CH ₂) ₇ CH=CH(CH ₂) ₇ -COOH	52	288*	-
Linol	CH ₃ (CH ₂) ₄ CH=CHCH ₂ CH=CH(CH ₂) ₇ -COOH	-11	230**	0,9025
Linolen	CH ₃ (CH ₂) ₂ CH=CH(CH ₂) ₃ (CH ₂) ₇ -COOH	-	231**	0,9050
Benzoy	C ₆ H ₅ -COOH	122	249	1,2643
Etal	ortho-C ₆ H ₄ (COOH) ₂	207	-	-
Tereftal	para-C ₆ H ₄ (COOH) ₂	300	-	-

Izoh: * - 100 mm simob ustuni bosimida,

** - 16-17 mm simob ustuni bosimida

3. Oksidlanish reaksiyasi

Bir asosli karbon kislotalardan faqat chumoli kislota (CO_2 va H_2O gacha) va uchlamchi uglerod atomi tutgan kislotalar oson oksidlanib, α -oksikislotalarga aylanadi:





Tirik organizmlarda bir asosli kislotalar oksidlanganda oksidlovchi kislorod atomi doimo β -holatga yo'naladi. Masalan, qandli diabet bilan og'rigan bemorlarning organizmida moy kislota oksidlanib, β -oksimoy kislota hosil qiladi:



4. Radikal tarmog'i reaksiyalari

Alifatik kislotalarning α -C atomini galogenlash (Gel-Folgart-Zelinskiy) reaksiyasi:




5. Kislota funksional hosilalarining olinishi



a) Xlorangidridlarning olinishi




b) Murakkab efirlarning olinishi






Misol:



(1) Amidlarning olinishi




Misol:



Kislotalardagi karboksilat anionining tuzilishi

Karbon kislotalarning xossalari ularning tuzilishi bilan belgilanadi. Buni biz kislota kislotaliligi, kislutaning o'zi va uning anioni barqarorligidagi farqlar bilan belgilaymiz.


Karboksil guruhi tarkibidagi hidroksil guruhi oddiy OH-guruhgaga nisbatan protonni H⁺ osonroq ajratadi (spirtlardagi OH guruhgaga nisbatan ham), nega bunday bo'lishini tahlil qilamiz. Buning uchun karbon kislota va spirt molekulalaridan proton ajralganda hosil bo'ladigan anion tuzilishini ko'rib chiqish kifoya:



nockvivalent tuzilishlar,
rezonans yo'q

ekvivalent strukturalar,
o'zaro rezonanslashgan

Bu tenglamalardan ko‘rinadiki, spirt molekulasi va alkogolyat anionini faqat birgina struktura bilan ifodalash mumkin. Karbon kislota uchun ehtimolligi mavjud I va II tuzilish formulalarini, karboksilat anioni uchun III va IV formulalarini yozish mumkin. Bu formulalar bir-biriga rezonans gibridi kabi I va II formulaga nisbatan III va IV o‘zaro barqarorlashgan ekvivalent rezonans struktura uchun ahamiyatlari qoldi, ya’ni muvozanat kislota molekulasi ionlanishi ‘omonga silijiysi, K_{a} ortadi. Rezonans nazariyaga muvofiq karboksilat-anion ikki xil tuzilishli struktura gibridi hisoblanadi, ya’ni manfiy zaryad ikki kislorod atomlari orasida teng taqsimlangan:




Haqiqatan ham anionning rezonanslashgan gibrid holatini isbotlash uchun chumoli kislota va natriy formiati bog’lari kattaliklari bilan tanishsak yetarli deb hisoblaymiz:



Kislotalikka o‘rinbosarlarning ta’siri


Kislotalikka COOH-guruh bilan bog’langan radikalning tabiatini va tuzilishi muhim o‘rin tutadi. Alifatik kislotalarni solishtirganimizda, alkil guruhning elektronondonorligi tufayli kislotalardagi karboksil guruh qutblanishini pasaytiradi. Masalan, sirka kislotasi CH_3-COOH chumoli kislotasiga $\text{H}-\text{COOH}$ nisbatan 10 marta kuchsizroq. Karboksil guruhi bilan bog’langan alkil radikali vodorod atomlarini elektronakseptor atomlarga almashtirsak, karbon kislotalarining kislotaligi ortadi. Masalan, $\text{Cl}-\text{CH}_2-\text{COOH}$ xlorsirka kislotasi CH_2-COOH – sirka kislotasiga nisbatan 100 martadan oshiqroq kislotali xususiyatga ega, trixlorsirka kislotasi $\text{Cl}_3\text{C}-\text{COOH}$ esa 10 000 marta kuchli.



Ikki asosli kislotalarga haroratning ta'siri

Dikarbon kislotalar qizdirilganda, hosil bo'ladigan mahsulot turlicha bo'ladi:



Odatda, karbon kislotalar qizdirilganda angidrid hosil bo'lmaydi, ammo zanjirdagi uglerod atomlari soni oshishi bilan bu xususiyat paydo bo'ladi (qahrab, malein kislotalari).



Malon efiri yordamida karbon kislotalarni sintezlash

Malon kislota dietil efiri yoki malon efiri turli karbon kislotalar olishda muhit o'rinni tutadi. Malon efiridagi metilen guruhining vodorod atomlari (α -vodorod atomlari) σ -bog'lar qutblanishi natijasida reaksiyon qobiliyati oshgan va reaksiyalarga oson kirishadi. Malon efiri α -vodorodi ionlanganda ikki qo'shni karbonil guruhlar zaryadni qayta taqsimlaydi (karboniy anion bajarorlashadi). Buning oqibatida malon efirining α -vodorod atomlari hisobidan kislotalik xususiyati ayrim karbon kislotalar va etanolga nisbatan kuchliroq namoyon bo'ladi.

Malon efiri suvsiz etil sperti muhitida natriy etilati ta'sirida vodorodning avval bir, keyin esa har ikki atomi natriy bilan o'rin almashinishi natijasida natriymalon va dimatriymalon efirlariga aylanadi.




Alkilgalogenidlar ta'sirida bu tuz etilalkilmalonat efiriiga aylanadi.



Olingen natriyli tuz ikkinchi alkilgalogenid molekulasi bilan reaksiyaga kirishib, dialkilmalon efiri hosil qiladi.


Mono- va dialkilmalon esfirlari gidroliz va qizdirish usuli bilan turli xil monokarbon kislotalarga aylantirish mumkin:




TO'YINMAGAN BIR ASOSLI KARBON KISLOTALAR

Bitta qo'shbog' tutgan to'yinmagan bir asosli karbon kislotalarning tarkibini C_nH_{2n-3}COOH umumiyl formula bilan ifodalash mumkin. Turli bifunktional birikmalarga o'xshab, ular ham kislotalar va ham olefinlar uchun xarakterli bo'lgan reaksiyalarga kirishadi.



α,β-to'yinmagan karbon kislotalarning kuchliligi tegishli to'yingan karbon kislotalardan ancha yuqori, chunki qo'shbog' karboksil guruh bilan yonmayon joylashgan, bu esa uning kislotali xossalariini kuchaytiradi.




Akril kislota akroleinni yumshoq oksidlab olinadi.




Allil spirtini oksidlاب yoki akril kislota nitrilini hidrolizлаб olish mumkin.




Texnikada akril kislota etilensiangidrin orqali etilen oksididan olinadi:




Akril kislota oson polimerlanib yuqori molekulyar poliakril kislotasini hosil qiladi:




Akril kislota efirlarining polimerlaridan turli xil plastmassa olish uchun qo'llaniladi.



α -oksiizomoy kislotasidan suvni ajratib olinadi:




Metakril kislotaning murakkab efirlari asosida polimerlar, masalan, metilmekrilatdan organik shisha (pleksiglas) ishlab chiqarishda keng foydalaniлади:




Olein, linol va linolen kislotalari

Olein kislotasi $C_{17}H_{33}COOH$ tabiatda glitserin efiri ko'rinishida keng tarqalgan. Uning tuzilishi quyidagi formula bilan ifodalanadi:





Olein kislotasining tarkibida qo'shbog' borligi uchun uning molekulasi ikki atom galogenni biriktirish qobiliyatiga ega:



9,10- dibromstearin kislota



Linol ($C_{17}H_{33}COOH$) va linolen ($C_{17}H_{31}COOH$) kislotalari tarkibida ikki va uchta qo'shbog'lar mavjud, ularning tuzilishi quyidagicha:




Linol kislotasi to'rt atom vodorod yoki galogenni biriktirishi mumkin. Linolen kislotasi tarkibida uchta qo'shbog' borligi uchun u uch molekula vodorod yoki galogenni biriktira oladi. Har ikkala kislotalar gidrogenlanganda, oxirgi mahsulot sifatida stearin kislotasi ($C_{17}H_{35}COOH$) hosil bo'ladi.

Malein va fumar kislotalari

Oddiy to'yinmagan ikki asosli karbon kislotalarning vakillari bo'lib, ular bir-biridan fazoviy tuzilishi bilan farq qiladigan sis-trans izomerlardir:




Ikkala kislota ham olma kislotasini qizdirish yo'li bilan olinadi:




Malein va fumar kislotalari bir-biridan fizik-kimyoviy xossalari bilan farqlanadi. Masalan, malein kislota qizdirilganda osonlik bilan bir molekula

suvgi ajratib malein angidridiga aylanadi, fumar kislotasi bunday xossaga ega emas.



Yuqori molekulali to'yingan karbon (yog') kislotalar

Ularning asosiy vakillaridan palmitin ($\text{C}_{15}\text{H}_{30}\text{COOH}$) va stearin ($\text{C}_{17}\text{H}_{34}\text{COOH}$) kislotalar katta ahamiyatga ega. Palmitin va stearin kislotalar to'yingmagan (olein, linol va linolen) kislotalar bilan birgalikda tabiatda keng tarqalgan bo'lib, o'simlik moylari va hayvon yog'larning asosiy qismi bo'lgan triglitseridlar holida uchraydi. Palmitin va stearin kislotasi aralashmasi yog'larning gidrolizi natijasida olinadi. Bu jarayon 100-120°C haroratda, shiqoriy metallarning tuzlari ta'sirida olib boriladi. Yuqori molekulali yog' kislotalarining bu tuzlari sovunlar deyiladi. Yog' kislotalarining natriyi tuzi qattiq sovun, kaliyli tuzi — suyuq sovun deyiladi. Oddiy sovun, asosan, palmitin, stearin va olein kislotalarining natriyi tuzlari aralashmasidir. Sovun shhibab chiqarishda yog'lar, asosan, o'yuvchi natriy yoki kaliy bilan hidrolizlanadi:



AROMATIK KARBON KISLOTALAR


Aromatik uglevodorodlardagi bir yoki bir necha vodorod atomlarining karboksil guruhiga o'rIN almashinishi natijasida hosil bo'ladigan birikmalarga **aromatik karbon kislotalar** deyiladi.

Aromatik kislotalarda karboksil guruh bevosita benzol halqasi bilan bog'langan. Ular ham karboksil guruhining soniga ko'ra bir, ikki va ko'p asosli bo'ladi.

Bir asosli aromatik kislotalarining eng oddiy vakili benzoy kislotasıdır, uning tuzilish formulasi $\text{C}_6\text{H}_5\text{COOH}$. U antiseptik xossaga ega bo'lganligi

uchun oziq-ovqat sanoatida va tibbiyotda foydalaniladi. Benzoy kislotaning ko'p qismi benzoil peroksid bo'lib, u har xil bo'yoqlar va turli organik moddalar tayyorlashda ishlatalidi.


Sanoatda benzoy kislota toluolni oksidlab olinadi:




Benzoy kislota kimyoviy xossalari ko'ra alifatik kislotalarga o'xshaydi. Ammo sirka kislotaga nisbatan uning kislotalik xossalari kuchliroq, chunki fenil radikalining elektronakseptorlik ta'siri natijasida --COOH guruhdagi vodorod faollashgan. Masalan, u ishqorlar ta'sirida tuz hosil qiladi:



Spirtlar bilan reaksiyaga kirishib, murakkab efir hosil qiladi:




Uning hosilasi o-sulfobenzoy kislota shakardan 300 marta shirin bo'lgan saxarinni sintez qilish uchun muhim xomashyodir. Saxarin 1879- yilda tasodifan kimyogar olim tomonidan yaratilgan, 1900- yildan boshlab sanoat miqyosida ishlab chiqarilmoqda. Saxarin oziq-ovqat sanoatida shirin pishiriqlar tayorlashda ishlatalidi:




Tabiatda benzoy kislota, asosan, bog'langan holatda uchraydi. Uning hosilasi gippur kislota benzoy va aminosirka kislotalarining qoldiqlaridan iborat:




para-Aminobenzoy kislotasi. p-Aminobenzoy kislotaning etil efiri anestezin nomi bilan ma'lum, u tibbiyotda og'riqsizlantiruvchi (anestezirlovchi) vosita sifatida ishlatalidi.





o-Oksibenzoy (saltsil) kislotasi:



Saltsil kislotasi kristal modda, suyuqlanish harorati 159°C . Sovuq suvda qiyin eriydi. Sanoatda saltsil kislotasi ko'p miqdorda quruq natriy fenolyatga bosim ostida uglerod(IV) oksidi ta'sir ettirib olinadi:




Saltsil kislotaning hosilalari tibbiyotda keng ishlataladi. Atsetilsaltsil kislotasi – aspirin (issiqlikni pasaytiruvchi vosita sifatida) va saltsil kislotaning fenil efiri-salol (ichak kasalliklariada dezinfeksiyalovchi vosita sifatida).




Ikki asosli aromatik karbon kislotalar


Benzol qatoridagi ikki asosli kislotalarning uch xil izomeri ma'lum: *ortho*-fenilendikarbon (ftal kislota), *para*-fenilendikarbon (tereftal) va *meta*-fenilendikarbon (izoftal) kislotalari:



ftal kislota




tereftal kislota




izoftal kislota


ftal kislota. Kristall modda, suyuqlanish haroratidan yuqori haroratda qidirilganda ($200-230^\circ\text{C}$) bir molekula suv yo'qotib, ftal angidridiga aylandi:



Ftal kislota, odatda, naftalin yoki o-ksilolni katalizatorlar (molibden, vanadiy yoki kremniy oksidlari) ishtirokida yuqori haroratda oksidlab olinadi:




Reaksiyadan ko'rindiki, hosil bo'lgan ftal kislota tezda o'zidan bir molekula suv yo'qotib, ftal angidridga aylanadi. Ftal angidridga ammiak ta'sir ettirilsa, ftalimid hosil bo'ladi:




Ftalimid - bo'yoqlar va turli boshqa organik birikmalar sintezi uchun muhim dastlabki xomashyo hisoblanadi.

Tereftal (n-fenilendikarbon) kislota. 300°C da suyuqlanmasdan, quruq haydaladigan amorf kukun modda. Etilenglikol bilan kondensatlanishidan yuqori molekulyar esir – polietilentereftalat hosil bo'ladi. Polietilentereftalat sintetik tola -lavsan olish uchun ishlatalidi:




Hozirgi vaqtida yengil sanoatda bu polimerga tabiiy tola (jun, paxta) va lavsanni aralashtirib, gazlamalar tayyorlanmoqda.

Tereftal kislota sanoatda n-ksilolni 160°C da bosim ostida, katalizatorlar (marganets yoki kobalt) ishtirokida havo kislorodi bilan oksidlab olinadi:



Kislotalarning muhim vakillari


Chumoli kislota H-COOH. Rangsiz, o'tkir hidli, 100,5°C da qaynaydigan suyuqlik. Suv bilan yaxshi aralashadi. Sanoatda chumoli kislota uning natriyli tuzidan quyidagicha olinadi:



Chumoli kislota boshqa karbon kislotalardan farq qilib, KMnO_4 , CrO_3 va Ag_2O ta'sirida oson oksidlanadi, natijada karbonat angidridi va suv hosil bo'ladi.




Chumoli kislota va uning tuzlariga koncentrlangan sulfat kislota ta'sir ettirilganda, uglerod(II) oksidi va suvg'a parchalamadi:



Chumoli kislota organik sinteza, to'qimachilik, ko'nchilik sanoatlarida, tibbiyotda va boshqa sohalarda keng ishlataladi.

Sirka kislota CH_3COOH . O'tkir hidli, rangsiz suyuqlik 118,5°C da qaynaydi. Suv bilan istalgan nisbatda aralashadi, +16,6°C dan past haroratda muzga o'xshash kristallarga aylanadi.

Sirka kislota olishning asosiyo sanoat usuli atsetilenden olinadigan sirka aldegidini marganets katalizatorlari ishtirokida havo kislorodi bilan oksidlashdan iborat:



Sirka kislota tuzlari – atsetatlar kimyo sanoatining turli sohalarida ishlataladi. Lemur, ammoniy va xrom atsetatlari to'qimachilik sanoatida ohorlovchi (xumush) sifatida, mis(II) asosli atsetati (yar-medyanka) bo'yoyq sifatida ishlataladi. Sirka kislota tuzlaridan ko'proq ishlataladigani **qo'rg'oshin qandi** deb ataluvchi qo'rg'oshin atsetatining kristallogidratidir $[(\text{CH}_3\text{COO})_2\text{Pb}(\text{H}_2\text{O})]$; bu tuz zaharli bo'lishiga qaramasdan oq belila olishda keng ishlataladi. Sirka kislotadan oziq-ovqat sanoatida go'sht va baliq mahsulotlarini konservalishi, kimyo sanoatida murakkab efirlar, sirka angidridi, sintetik atsetat tofa'xushibo'y moddalar va erituvchilar olishda ham foydalaniлади.

Benzoy kislota C_6H_5COOH . 121,5°C da suyuqlanadigan hidsiz kristall modda, oson sublimatlarnadi. Sovuq suvda yomon, issiq suvda esa yaxshi eriydi, organik erituvchilardan spirt va efirlarda ham yaxshi eriydi. Benzoy kislota tabiatda peruan va toluan malhamlari tarkibida, ayniqsa, benzoy smolasi tarkibida bog'langan holda uchraydi. Benzoy kislota antiseptik xossaga ega bo'lgani uchun farmatsiyada surtma dorilar tayyorlashda ishlataladi. Sanoatda bo'yoqlar sintez qilishda, oziq-ovqat mahsulotlarini konservalashda ishlataladi. Tibbiyotda benzoy kislota tuzi – natriy benzoat katta ahamiyatga ega.


Natriy benzoat C_6H_5COONa . Bu tuz sof benzoy kislotaga nisbatan shilliq pardalarga kuchli ta'sir etmaydi. Undan tibbiyotda balg'am ko'chiruvchi, revmatizmni davolovchi va siyidik haydovchi vosita sifatida ishlataladi, bundan tashqari tibbiyotda ishlataladigan ba'zi bir qo'sh tuzlarni olishda ham qo'llaniladi.

Tayanch iboralar

Karbon kislotalar. Karbon kislota tuzlari. Grinyar va nitril sintezi. Malon efiri. Karboksil guruhi qutblanishiga radikallarning ta'siri. Qahrabo angidridi. α -to'yinmagan karbon kislotalar. Yuqori molekulyar to'yingan va to'yinmagan yog' kislotalari (palmitin, stearin, margarin, olein, linol, linolen kislotalar). Malein va fumar kislotalari, malein angidridi. Aromatik karbon kislotalar. Sulfobenzoy kislotalari. Saxarin. Salitsil kislota. Aspirin (atsetilsalitsil kislota). Salol, *orto*-, *meta*-, *para*-ftal kislotalari. Lavsan sintetik tolasi (polietilen tereftalat). Qo'rg'oshin atsetati kristallogidrati (qo'rg'oshin qandi). Benzoy kislotasi va uning hosilalari (peruan va toluan malhami).

Nazorat savollari

1. Karbon kislolarining umumiy formulasini yozing.
2. Karbon kislota tarkibidagi carboksil guruhining elektron tuzilishini va tarkibiy qismlarini ko'rsatib bering.
3. Bir va ko'p atomli spirtlar, fenollar va karbon kislotalar tarkibidagi gidroksil guruh vodorodining harakatchanligi va reaksiyon qobiliyatini taqqoslang.
4. Karbon kislolarini tarkibida ichki va molekulalararo vodorod bog'lari uchraydimi? Fikringizni misollar bilan isbotlang.
5. Carboksil guruhi bilan bog'langan radikal tabiatini va tuzilishi vodorod atomining harakatchanligiga ta'sir etadimi?
6. Quyidagi karbon kislolarini ratsional va xalqaro nomenklatura buyicha nomlang:



7. $\text{CH}_3-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{COOH}$ formula bilan ifodalanadigan karbon kislotalaring barcha izomerlarini yozing va nomlang.

8. Quyidagi karbon kislotalarining tuzilish formulalarini yozing; a) 2-metilpropan kislota; b) 2,3 -dimetilbutan kislota; d) 3-metilpentan kislota; e) izomoy kislota; f) izovalerian kislota.


9. a) butanol-1, b) 2-metilbutanal, d) butanon, e) pentanon-3 oksidlanguanda qanday kislotalar hosil bo'lishini reaksiya tenglamalari orqali ifodalang.

10. Sirkal kislotasini etil spirtidan, 1,1,1-trixloretandan, metilxlorididan, etilendan olish usullarining reaksiya tenglamalarini yozing.

11. Nega bir atomli spirtlar ishqor bilan reaksiyaga kirishmaydi, karbon kislotalar osonlik bilan tuz hosil qiladi?

12. Uchta ikki asosli karbon kislota formulalarini yozing va nomlang.

13. Quyidagi reaksiya tenglamalarini yozing, dastlabki va olingan mahsulotlarni to'g'ri nomlang:



14. Olein kislotasining a) vodorod; b) brom; d) suv; e) glitserin; bilan reaksiya tenglamalarini yozing va olingan mahsulotlarni nomlang.

15. Quyidagi juftlik kislotalarning qaysi birlari metallar bilan oson reaksiyaga kirishadi.

- a) sirkal va xlorsirkal kislota,
- b) propion va chumoli kislota,
- d) α -izomoy va γ -bromvalerian kislota.

16. 6 gramm sirkal kislota necha litr (n.sh.da) xlor bilan reaksiyaga kirishib, xlorsirkal kislotani hosil qiladi?

17. 10 mol metakril kislota polimerlanib, 70 % unum bilan organik shisha hosil qildi. Olingan shallop moddaning massasini aniqlang.

18. Tereftal kislota va ikki atomli spirt – propandiol-1,3 orasidagi polikondensatsiyalish reaksiya tenglamasini yozing.

19. Aromatik mono- va dikarbon kislotalar qanday usullar bilan olinadi? Reaksiya tenglamalarini yozing.

20. Qahrabo kislota bilan ikki mol etil spirtining o'zaro reaksiya tenglamasini yozing.

21. Akril kislotaga a) vodorod bromidi, b) etil spirti, d) mo'l miqdordagi o'yuvchi kaliy ta'sir ettirilganda nimalar hosil bo'lsdi? Olingan birikmalarni nomlang va reaksiya tenglamalarini tuzing.

22. Yuqori molekulalni karbon kislotalari qanday olinadi?

23. Linol va linolen kislotalari glitserin bilan reaksiyaga kirishsa, nima hosil bo'ladi?

24. Salitsil kislotasining etil spirti va sirka kislotasi bilan reaksiya tenglamalarini tuzing. Olingan mahsulotlarni nomlang.

25. Benzoy kislotaning qanday hosilalari tibbiyotda ishlataladi?

26. To'yingan ikki asosli karbon kislotalari qizdirilganda qanday moddalar hosil bo'ladi?

27. Karbon kislotalarining kundalik turmushida ishlataladigan qanday muhim hosilalarini bilasiz?

Adabiyotlar


1. Грандберг И.И. Органическая химия.- Москва.- "Дрофа".- 2002.- С. 357-392.

2. Pirmuxamedov I. Organik ximiya.- Toshkent.- "Meditina".- 1987.- 206-240- betlar.




3. Вивюрский В.Я. Вопросы, упражнения и задачи по органической химии с ответами и решениями.- Москва.- "Владос".- С. 63-69.

KARBON KISLOTALARING HOSILALARI MURAKKAB EFIRLAR

Karbon kislota tarkibidagi gidroksil guruhini spirt qoldig'i bilan – RO-almashingan hosilalariga murakkab efirlar deyiladi. Odatta, murakkab efirlar karbon kislotalariga kislotali muhitda spirt ta'sir ettirib olinadi. Reaksiya qaytar bo'lgani uchun reaksiyon mahsulotdagi hosil bo'lgan suv haydab turilishi lozim. Spirtlar kislotalarga nisbatan ularning galogenangidridi yoki angidridlari bilan oson reaksiyaga kirishadi:




Misol:



Murakkab efirlarning ko'pchiligi mevalar, gullarning tarkibida uchrab, olarning xushbo'y hidri va ta'mini belgilaydi. Masalan: etilatsetati ($\text{CH}_3\text{COOC}_2\text{H}_5$) o'trik hidini, benzil atsetati ($\text{CH}_3\text{COOCH}_2\text{C}_6\text{H}_5$) shaftoli va jasmim guli hidini, etil butirat ($\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{COOC}_2\text{H}_5$) olma va ananas hidini, *n*-oktilatsetati ($\text{CH}_3\text{COOC}_8\text{H}_{17}$) apelsin hidini beradi. Tereftal kislotaning yuqori spiritlar bilan hosil qilgan diefirlari (masalan, dibutilftalat $\text{C}_8\text{H}_{17}\text{OOC-C}_6\text{H}_4-\text{COOC}_4\text{H}_9$ va dioktilftalat $\text{C}_8\text{H}_{17}\text{OOC-C}_6\text{H}_4-\text{COOC}_8\text{H}_{17}$) reppelentlar va plastifikatorlar sifatida keng ishlatiladi.

GALOGENANGIDRIDLAR


Karboksil guruhidagi OH-guruhini galogenga almashtirish natijasida olingan murakkab moddalarga **galogenangidridlar** deyiladi. Galogenangidridlar o'tkir hidri uchuvchani (tutaydigan) suyuqliklardir. Ulardan chumoli angidridi **xlorangidridi** modda. Galogenangidridlarni olish uchun karbon kislotalariga fosfor galogenidi yoki tronti xloridi ta'sir ettiriladi:




Galogenlovchi reagent sifatida POCl_3 , SO_2Cl_2 , PCl_5 , PBr_3 , COCl , kabi moddalar ham ishlataladi.

Karbon kislotalarning galogenangidridlari nukleofil reagentlar bilan oson reaksiyaga kirishadi, chunki ular tarkibidagi $\text{C} - \text{Hal}$ bog'i kuchli qutblangan va galogen atomi yuqori reaksiyon qobiliyatga ega:



Ular metall atomi tutgan yoki faol vodorod atomi tutgan organik birikmalar bilan oson reaksiyaga kirishadi:



Ular metall atomi yoki faol vodorod atomi tutgan organik birikmalar bilan oson reaksiyaga kirishadi:



Shuning uchun galogenangidridlardan juda ko'p organik atsillovchi reagent sifatida foydalananilar va karbon kislotalar turli hosilalarining sintezini amalga oshiradilar:




Galogenangidridlarning bu xossalardan foydalaniб, ular yordamida karbon kislotalarning barcha hosilalari: tuz, angidrid, murakkab esiflar, amid, peroksid va nitrillarni sintez qilish mumkin.

KISLOTA ANGIDRIDLARI


Karbon kislotalarining suvsizlanishi yoki galogenangidrid bilan tuzlarning o'zaro reaksiyasi natijasida angidridlar olinadi. Sirka angidrid sirka kislotani qizdirganda osonlik bilan olinadi, ammo boshqa angidridlar bu usulda hosil bo'lmaydi:




Kislotalar bug'lari yuqori haroratda aluminiy oksidi ustidan o'tkazilib, tez sovutilganda ham angidridlar olinadi:




Triforsirka kislotalarini olish uchun uning bug'lari kuchli suv ajratib oluvchi vosita P_2O_5 ustidan o'tkaziladi:




Aralash angidrid olish uchun ikki xil kislotalar galogenangidridi va tuzi o'zaro ta'sir ettiriladi:




Ikki asosli karbon kislotalaridan qahrabo va glutar kislotalari qizdirilganda bir molekulasidan suv ajralib, besh va olti a'zoli halqa tutgan barqaror ichki angidridlar hosil qiladi:




To'yinmagan va aromatik ikki asosli karbon kislotalarning (malein va ftal kislotalar) ichki angidridlari bundan ham osonroq olinadi va ular ko'pgina organik sintezlar uchun dastlabki reagent hisoblanadi:




Malein angidridi sanoatda benzolni, butenlarni yoki furfurolni katalitik oksidlash usuli bilan olinadi.




Kislota angidridlari galogenangidridlarga nisbatan kuchli atsillovchi agent hisoblanadi va nukleofil o'r'in olish reaksiyasiga oson kirishadi:




Angidridlar o'tkir hidli suvda erimaydigan suyuqliklar, suv bilan sekin qizdirilganda u bilan reaksiyaga kirishib, tegishli karbon kislotalariga aylanadi:




Spirtlar bilan reaksiyaga kirishganda, murakkab efir va kislota hosil bo'ladi:




Ammiak bilan reaksiyaga kirishganda, kislotaning ammoniyli tuzi va amid aralashmasi hosil bo'ladi:




Angidridlar α -vodorod atomlari faollashgani uchun karbon kislotalari shitirokida aromatik karbonil birikmalar bilan kondensatlanish reaksiyasiga kirishib, to'yingan va to'yinmagan kislotalar hosil qiladi:



Malein angidridi faol qo'shbog' tutgani uchun dienofil reagent sifatida alkadienlar bilan Dils-Alderning dien sintezi orqali turli organik moddalar olish uchun (stirol bilan sopolimerlar olish, poliesfir smolalar, gerbitsidlar sintezi,) keng miqyosda ishlataladi:




Halqali angidridlar ammiak bilan oson reaksiyaga kirishib kislota xossalarini namoyon qiluvchi amidlar hosil qiladi, ayniqsa, ftal amidi yaqqol kislota xossasiga ega ($\text{pK}_a = 8,1$):




KISLOTA AMIDLARI. MOCHEVINA

Kislota bug'i bilan ammiak aralashmasi suvni tortib oluvchi katalizator ustidan o'tkazilsa; yoki avval xlorangidrid olinib, unga ammiak ta'sir etilsa, kislota amidlari hosil bo'ladi:




Misol:




Kislota amidlari, asosan, kiristall moddalar, ulardagagi kuchli mezomer effekt ta'siri natijasida azot atomining erkin elektron jufti tutash tizim hosil qiladi va amin guruhi asoslik xossalalarini to'liq yo'qotadi, protonlanish kislorod atomi hisobidan amalga oshadi:




Kislotali yoki ishqoriy muhitda amidlar oson gidrolizlanib, kislota va aminlarga parchalanadi:



Amidlar qizdirilganda, bir molekula suv ajratib, nitrilga aylanadi:




Amidlar tarkibidagi aminoguruhning vodorod atomlari amid guruhidagi bog'larining qutblanishi natijasida harakatchan bo'ladi va osonlik bilan metallarga almashinadi:



Karbonat kislota va uning tuzlari bilan anorganik kimyo kursida tanishgan edi. Uning monofunktional organik hosilalari beqaror bo'sha ham, bifunksional hosilalari ancha barqaror organik birikmlardir. Ularning orasida karbamid yoki mochevina deb ataluvchi dialmashingan amid organik kimyoda muhim o'rinni tutadi. Mochevina kuchsiz asos xossalni kristall modda, uning molekulasi tekis tuzilishga ega bo'lib, kuchli tutash tizim hosil qiladi:




Mochevina sanoatda 130°C haroratda va 50 atm bosim ostida karbonat angidridi va ammiakning o'zaro ta'siridan olinadi:



Mochevina suv bilan qizdirilganda yoki tirik organizmda ham ureaza fermenti ta'sirida gidrolizlanadi va dastlabki moddalar (karbonat angidridi va suv molekulalari)ga parchalanadi:




Karbamid qizdirilganda sian kislotaga aylanadi va u yangi mochevina molekulasi bilan reaksiyaga kirishib, biuret hosil qiladi:



Mochevina muhim azotli o'g'it sifatida va kavsh qaytaruvchi hayvonlar (qoramlol, qo'y-echikilar va boshqa chorvachilik mollari)ni boqishda qo'shimcha ozuqi sifatida keng ishlataladi va ko'p tonnajli ishlab chiqariladigan mahsulot hisoblanadi.

Malon kislota dietil efiri (malon efir) bilan mochevina reaksiyaga kirishib, barbitur kislota hosil qiladi:




Barbitur kislotasining hosilalari barbituratlar nomi bilan tibbiyotda tinchlantiruvchi dori sifatida juda ko'p qo'llaniladi va ular malon efiri o'rniiga uning metilen guruhidagi harakatchan vodorod atomlari o'rnnini radikallar egallagan dialkilalmashingan efirlarga mochevina ta'sir ettirib, olinadi.

Mochevina molekulasidagi kislorod o'rniiga azot atomi bilan almashtirilganda olingan modda mochevina imimi yoki **guanidin** deb ataladi. Guanidininning asosli xossasi ammiakdan kuchli (tutash tizimli kislota uchun, ya'ni protonlangan hosila uchun $pK_a = 13,7$), chunki guanidiniy kationida paydo bo'lgan musbat zaryad molekula bo'ylab tekis taqsimlanadi:



Guanidin – rangsiz kristall modda 50°C da suyuqlanadi. Havodagi H_2O va CO_2 lar bilan bog'lanadi, odatda, nitrat tuzlari barqaror. U tabiiy birikmalar tarkibida uchraydi, chunonchi murakkab oqsil tarkibida uchraydigan argininning fragmentini guanidin hosilasi deb qarash mumkin:



L I P I D L A R

O'simlik va hayvonot dunyosidan olinadigan yog'lar va yog'simon moddalarning barchasi **lipidlar** sinfiga kiradi. Odatda, ular ikki katta guruhg'a ajratiladi:

- oddiy lipidlar – yog'lar va moylar;
- murakkab lipidlar, ulargafosfatidlar, serebrozidlar va fosfosphingozidlar kabi murakkab organik moddalalar kiradi. Odatda, mumlar, sterinlar, uzun radikal tutgan erkin moy kislotalari ham lipoidlar deb ataladi.

Barcha tirik organizmlarning faoliyati uchun manba undagi yog'larning oksidlanib parchalanish natijasida ajralib chiqadigan energiya hisoblanadi.

Sut emizuvchilarining barchasi uchun li pidlar oqsil va uglevodlar bilan birga asosiy ozuqa komponent hisoblanadi.

Asosiy ozuqa komponent deb e'tirof etiladigan yog'larning ba'zi salbiy ta'siri ham bor. Ko'p miqdorda yog' va yog'li mahsulotlarni iste'mol qilish inson organizmi uchun o'ta zararli ekanligi ilgaridan ma'lum edi. Ayniqsa, polisaxaridlar miqdori yog'larga nisbatan kam bo'lganda kishi organizmi turli kasalliklarga chalinishi tibbiyot xodimlari tomonidan ishonchli dalillar bilan isbotlangan: bularga yo'gon ichak, ko'krakdag'i saraton kasalligi, o't pufagida tosh paydo bo'lishi, insult, appenditsit va boshqa kasalliklarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Muammolar shundaki, biz iste'mol qiladigan taomlarimizning aksari haddan fashqari yog'li bo'lishiga intilib kelamiz. Qabul qilingan oziq mahsuloti tarkibidagi yog'larning ayrimlari organizm tomonidan juda katta qiyinchilik bilan huzm qilinadi, sog'lom organizm o'zining ichki resurslari hisobidan bu nomutanosiblikka chidaydi, ammo bunda jigar va buyrak kabi ichki a'zolar katta zo'riqish bilan ishlaydi. Miokard infarkti yoki stenokardiya kabi kasalliklarning dastlabki belgilari qayd qilinganda yurak tomirlarining torayishi 80-90 % ga yetib qoladi. Taomlanganimizda ko'p miqdordagi yog'larning qabul qilinishi, organizmini kistorod bilan ta'minlovchi arteriyalarining ichki yuzasini toraytiradi, ya'ni ateroskleroz kasalligini kuchaytiradi, qon esa quyuqlashadi va uning oquvchanligi pasayadi. Yog'li ovqatlarning yana bir salbiy ta'siri shundaki, ular tarkibida xolesterin moddasi miqdori ko'p bo'ladi. Xolesterin, o'z navbatida, infarkt, insult va ateroskleroz kasalligini kuchaytiruvchi vosita hisoblanadi. Shuning uchun biz kundalik iste'mol qiladigan ovqatlarimizning tarkibiga e'tiborimizni kuchaytirishimiz kerak. Qattiq yog'lar, margarin, sariyog' kabi mahsulotlar deyarli 100 % yog'lardan iborat ekanligini unutmasligimiz sog'ligimiz garovidir. Go'sht, tuxum, yong'oq pishloq kabi mahsulotlarni oqsil manbayi sifatida iste'mol qilsak ham, ularning 50-80 % qismi li pid ekanligini e'tiborgaolish foydadan holi emas. Haddan ziyod iste'mol qiladigan yog'li taomlarning bir qismini mevalar sabzavotlar, boshoqli va dukkakli o'simliklardan tayyorlangan mahsulotlar bilan almashtirishimiz bizning sog'ligimizni asrash va uzoq umr ko'rish garovi bo'lib xizmat qiladi. Eng ko'p li pidlar tutgan oziq mahsulotlarning ayrimlari tirik organizmga kerakli energiyaning necha foizini yetkazib berishiga misol ko'rsatib o'tamiz: qo'y, mol va cho'chqa go'shti – 65-80 %, sosiska – 85 %, dudlangan go'shtlar – 85 %, pishloq – 60-85 %, qaymoq – 85 %, quytirib konservalangan shirin sut – 50 %.

So'nggi yillarda aniqlanishicha, li pidlar membrana hujayralarning faoliyatini uchun muhim vazifani bajaradi. Barcha hujayralarning tarkibi

oqsil va polisaxaridlardan tashqari 20 dan 75 % gacha qutbli va neytral lipidlardan (fosfolipidlар, sfingolipidlар, xolesterin yayuqori molekulyar moy kislotalari) iborat. Lipidlар organizmda 5 nm qalinlikdagi bimolekulyar qatlam hosil qiladi. Anashunday bimolekulyar lipidlar qatlamining qutblangan guruhlari har ikki tomoniga yo'nalgan bo'lib, tirk organizm hujayralaridagi moddalar almashinuvini boshqaradi. Membranalar orqali barcha ionlar, noelektolitlar, suv molekulalarining o'tkazuvchanligini ta'minlaydi. Haddan ziyod yog'li taom emoq shu qatlamning ortib ketishiga, ayniqsa, qorin bo'shlig'i, ichak va yurak atrofida, son, yelka va inson bo'ksasida yog' depolari qatlamining o'sishiga olib keladi. Bu o'z navbatida, gavda tuzilishimizning ko'rksamligini yo'qotish bilan birga, bizga ortiqcha dalmazalar berishini endi har kim ham tushungan bo'lsa kerak.

Sog'ligimizni yaxshilash va uzoq umr ko'rish uchun kamroq xolesterin iste'mol qilish kerak degan fikrni yuqorida aytib o'tdik, endi ikki og'iz xolesteringa ham to'xtolib o'tamiz. Xolesterin muddasi o'ta zararli bo'lgani bilan uning foydalı tomonlarini ham qayd qilishimiz lozim. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi: suyak to'qimalariming mustahkamligini oshirish, organizmning turli stress holatlardagi javob reaksiyasini kuchaytirish, jinsiy gormonlarning tuzilishini belgilash va hokazo. Shuni qayd qilish kerakki, xolesterin inson organizmiga hayvonot dunyosi mahsulotlari orqali kirib keladi, o'simliklardan tayyorlangan taomlarda xolesterin uchramaydi. Ayrim mahsulotlar tarkibida xolesterin miqdori quyidagicha bo'ladi: 237 ml yog'sizlantirilgan sutda - 5 mg, 113 g tvorogda - 24, 227 g muzqaymoqda - 54, 140 g baliqda - 85, 140 g tovuq yoki qoramol go'shtida - 135, bir dona tuxum sarig'i - 220, 85 g jigarda - 370 mg. Olimlarning hisoblashicha, inson tanasidagi qonning tarkibida xolesterin darajasi 160 mg % (yoki 4,1 mmol/l) bo'lsa, organizmning ateroskleroz kasalligiga chalinishi keskin kamayadi, agar bu miqdor 260 mg % (6,8 mmol/l)dan ortib ketsa, kishilarning miokard infarkti bilan kasallanib o'lish ehtimolligi to'rt marta ortadi. Demak, oddiygina sog'lom parhezga rioya qilish, iste'mol qilinadigan ovqatimizning yog'lilik darajasiga e'tibor berishimiz, hayvonot dunyosi mahsulotlari bilan birga etarli miqdorda sabzavot, meva va shu kabi taomlarni kundalik turmushimizga joriy qilishimiz o'z qo'llimizda bo'lib, sog'ligimizni asrashning bosh omili hisoblanadi. Bulardan tashqari, yog', moy, qand, alkogol kabi mahsulotlarning iste'molini kamaytirishimiz "ortiqcha" energiya manbayini kamaytiradi va qon tarkibidagi xolesterin miqdorini nazorat qilishimizga yordam beradi, doimiy ravishda badantarbiya mashqlarining bajarilishi bu jarayonni yanada osonlashtiradi, kishi organizmining har xil kasalliklarga chalinishiga to'sqinlik qiladi.

YOG'LAR VA MOYLAR

Hayvonot va o'simliklardan olinadigan barcha *oddiy lipidlar*, asosan, tarkibida C₁₀–C₁₈ uglerod atomlari tutgan karbon kislotalarining glitserin bilan hosil qilgan murakkab esirlari yoki *glitseridlardir*. Odatda, hayvonot dunyosidan olinadigan qattiq li lipidlarni *yog'lar*, o'simliklardan olinadigan suyuq li lipidlarni *moylar* deb atash qabul qilingan. Bareta tabiiy li lipidlar tarkibida uch atomli spirkklarning birinchi vakili – glitserin va 2-3 ta to'yingan va to'yinmagan karbon kislota qoldig'i uchragani uchun ularning asosiy farqlarini karbon kislotalar belgilaydi. Tabiiy yog'lar tarkibidagi karbon kislotalar bir asosli bo'lib, ularning radikali to'g'ri zanjirdan iborat va juft sonli uglerod atomlari tutadi (19-jadval).

19 – jadval.

Tabiiy yog' va moylar tarkibida uchraydigan muhim kislotalar

Kislotalar	Uglerod soni	Formulasi
To'yingan yog' kislotalari		
Kapron	C ₆	CH ₃ (CH ₂) ₄ COOH
Kapril	C ₈	CH ₃ (CH ₂) ₆ COOH
Kaprin	C ₁₀	CH ₃ (CH ₂) ₈ COOH
Laurin	C ₁₂	CH ₃ (CH ₂) ₁₀ COOH
Miristin	C ₁₄	CH ₃ (CH ₂) ₁₂ COOH
Palmitin	C ₁₆	CH ₃ (CH ₂) ₁₄ COOH
Stearin	C ₁₈	CH ₃ (CH ₂) ₁₆ COOH
Anaxin	C ₂₀	CH ₃ (CH ₂) ₁₈ COOH
To'yinmagan moy kislotalari		
Olein	C ₁₈	CH ₃ (CH ₂) ₇ CH ¹⁰ =H ⁹ (CH ₂) ₇ COOH
Linol	C ₁₈	CH ₃ (CH ₂) ₄ CH ¹³ =CH ¹² CH ₂ CH ¹⁰ =CH ⁹ -(CH ₂) ₇ COOH
Linolen	C ₁₈	CH ₃ CH ₂ CH ¹⁶ =CH ¹⁵ CH ₂ CH ¹³ =CH ¹² CH ₂ -CH ¹⁰ =CH ⁹ -(CH ₂) ₇ COOH
Eleostearin	C ₁₈	CH ₃ (CH ₂) ₃ CH ¹⁴ =CH ¹³ CH ¹² =CH ¹¹ -CH ¹⁰ =CH ⁹ (CH ₂) ₇ -COOH
Fruk	C ₂₂	CH ₃ (CH ₂) ₇ CH ¹⁴ =CH ¹³ (CH ₂) ₁₁ COOH

Gidroliz usuli bilan yog'lardan olinadigan karbon kislotalarni ajratish uchun qayta kristallash, mochevina va dekstrinlar bilan kompleks hosil qilish, ekstraksiya va xromatografiya usullaridan foydalananadilar. Bular ichida qog'oz va gaz-suyuqlik xromatografiyasi eng afzal usul hisoblanadi.

Tabiiy moylarda eng ko'p miqdorda olein kislotasi uchraydi, ammo linol va linolen kislotalarining suyuq moylar tarkibida kamroq uchrashi aniqlangan. Linol va linolen kislotalari o'simliklardan olinadigan moylar tarkibida uchraydi va tirik organizm uchun almashinmaydigan kislotasi hisoblanadi. Hayvonot dunyosi yog'larida, asosan, palmitin, ozroq laurin va miristin kislotalarini uchraydi. Yog'lardagi palmitin kislotasi miqdori 10-50% ni tashkil etsa, stearin kislotasi 25 % gacha uchraydi. Glitseridlarning tarkibini kuzatsak, kungaboqar moyining 90 % olein va linol kislotasi efirlaridan tarkib topgan, qoramol yog'i va sariyog' esa 50% miristin, palmitin va stearin kislotasi efirlaridan iborat. Yog'larga bo'lgan ehtiyoj katta bo'lgani uchun bir qism paxta, kungaboqar, makkajo'xori, araxis moylari sanoat miqyosida qo'shbog'lari vodorod bilan gidrogenlanadi va margaringa aylantiriladi. Moylarga nisbatan yog'lar barqaror organik moddalar hisoblanadi. Bu o'rinda xalqimizning "**Asal aynimas, oltin zanglamas, sariyog' sasimas**" degan maqolinti eslatishimiz mumkin.

Quriydigan moylar

To'yinmagan organik moddalar to'yinmagan birikmalarga nisbatan oson oksidlanishi bizga ma'lum. Shuning uchun ham, moylar uzoq saqlanganda havo kislorodi bilan oksidlanib, taxirlanadi.


Kislorod molekulasi ikkita toq elektron tutgan biradikal bo'lgani uchun moy tarkibidagi to'yinmagan kislotasi qoldiqlarini erkin radikal mexanizmi bo'yicha polimerlaydi. Bunday moylar quriydigan moylar (zig'ir va paxta moyi) deb ataladi. Ulardan texnikada lak, moyli bo'yoqlar, olifalar olish sanoat miqyosida rivojlangan. Quriydigan moylar polimerlanganda yaltiroq, elastik va tashqi muhit ta'siriga chidamli, organik erituvchilarda erimaydigan yupqa qatlama hosil qildilar. Moylarning polimerlanishi va qotishini tezlashtirish uchun ularga sikkativlar deb ataluvchi har xil katalizatorlar qo'shiladi. Sikkativlar sifatida qo'rg'oshin birikmalari (surik, oxra), marganetsning ayrim tuzlari, kobalt stearati kabi moddalar ishlataladi. Shunday jarayonlardan biri linoleum olish uchun ko'p miqdorda to'yinmagan kislotasi efirlari tutgan murakkab moddalar har xil bo'yoqlar ishtirokida yuqori molekulyar massali polimerlarga aylantiriladi.

Sovun va sintetik yuvuvchi vositalar

Biz karbon kislotalar mavzusida sovun olishning reaksiyasini ko'rsatgan edik. Yuqori molekulyar karbon kislotalarining tuzlari sovun sifatida ishlataladi. Natriyli va kaliyli tuzlar suvda yaxshi eriydi, kalsiy va magniy yoki boshqa og'ir metallarning tuzlari suvda erimaydi. Natriyli sovun qattiq holda, kaliyli tuzlar esa suyuq sovun deb yuritiladi.


Sanoatda sovun olish uchun xomashyo sifatida hayvonlarning past sifatli yog'lar, paxta, palma, kokos moylari va gidrogenlangan yog'lar ishlataladi. Ular natriy gidroksidi bilan aralashtirib qizdirilganda gidrolizlanish natijasida quyuq aralashma hosil bo'ladi. Sovunni ajratish uchun bu aralashmaga osh tuzi qoshiladi va qattiq sovun ajratib olinadi. Keyingi yillarda sovun olish uchun yog'lar bosim ostida va katalizator ishtirokida gidrolizlanadi va soda ta'sirida sovunga aylantirilmoqda.


Tibbiyotda ko'pincha suyuq kaliyli sovun ishlataladi va metilen bo'yog'i qo'shilgani uchun yashil rangga bo'yalgan bo'ladi. Tarkibida qo'rg'oshin tutgan sovunlar $[(C_{15}H_{31}COO)_2Pb]$ tibbiyotda plastir nomi bilan yuritiladi va ular quydagicha olinadi:



Sovunlarning yuvish sifati ularning gidrolizlanishi va ishqoriy muhit paydo bo'lishi bilan belgilanadi. Bilamizki, sovun molekulasi ikki qismdan iborat. Karboksil guruh tomoni gidrofil xossaga va uglevodorod radikali qismi gidrofob xususiyatga ega. Molekulaning mana shu qismlari kir yuvish jarayonida tartibli joylashib, kirdagi yog' tomchilarini atrofida yupqa parda hosil qiladi va turg'un emilsiyani vujudga keltiradi. Pirovard natijada kirdagi yog'lar matolar, uylo'zg'or buyumlari sirtidan suv bilan oson yuviladi.

Qattiq suvda sovun kalsiy(II), magniy(II) va temir(III) kabi ionlar bilan suvda erimaydigan tuzlar hosil qiladi va ko'pirmaydi, ya'ni kirdagi organik birikmalar bilan emulsiya hosil qilish xossasini yo'qotadi. Shuning uchun dastlab kir yuvishdan ilgari "qattiq" suv har xil xelat birikmalar hosil qiluvchi reagentlar bilan (masalan, EDTA – etilendiamintetrasirka kislota) "yumshatiladi". Bu reagent turli mamlakatkarda juda ko'p miqdorda ishlataladi va turlichcha nomlanadi (tolon B, titripleks III, xelaton III, irgalon, versen vahokazo):






36-rasm. Suv-moy emulsiyasining detergent ta'sirida barqarorlashuvi.

Oxirgi yillarda sovun o'rniiga **detergentlar** nomi bilan ataluvchi turli xil yuvuvchi vositalardan foydalanish yo'lga qo'yilgan. **Detergenlash** deb sovun yoki boshqa kir yuvish vositasi yordamida suv-moy emulsiyasi barqarorligini oshirishga aytiladi. Ular har xil nomlar bilan chiqariladigan kir yuvish kukunlari va emulsiyalaridir. Bular kimyoiy jihatdan sovun o'rniiga ishlataladigan yuqori molekulyar spirlarning natriy bisulfati bilan hosil qilgan efirlaridir. Ular umumiyligi nomda alkilsulfonatlar deb ataladi va quyidagi umumiy formula bilan ifodalanadi: $R-O-SO_3Na$ bu formuladagi $R = C_{10}$ dan C_{18} gacha bo'lgan radikallar, ammo juda ko'p hollarda lauril ($C_{12}H_{25}OH$) va setil ($C_{16}H_{33}OH$) spirlari hosilalari ishlataladi. Kir yuvish kukunlari sovnulardek gidrolizlanib, kuchli ishqoriy muhit hosil qilmaydi va kiyimlarimizning uzoq muddat xizmat qilishini ta'minlaydi, kalsiy va magniy kabi ionlar ta'sirida cho'kmaga tushmaydi. Sovun kabi kir yuvish kukunlarining sifati ham ularning suvda barqaror emulsiya hosil qilishi bilan ifodalanadi. Bu jaarayon shartli ravishda 34-rasmda tasvirlangan:

Sintetik kir yuvish vositalarining sifatini oshirish maqsadida ularga ikki muhim komponentalar qo'shiladi. Ulardan biri natriy tri polifosfatidir; bu birikma pigment, eritmadiagi boshqa qattiq holdagi mayda zarrachalarni, ayrim gilmoyalarni tarkibini buzishi yoki ular bilan suspenziya hosil qilishi mumkin. Ko'pgina og'ir metall ionlarining ta'sirida xelat tuzilishdagi kompleks birikmalarga aylanadi. Boshqa fosfatlar ham yuvish xossalariga ega, sulfonatlar bilan birikmalar hosil qilsa bunday xususiyat keskin ortadi. Shunday sulfonatlardan biri, ya'ni uzun alkil radikal tutgan benzolsulfokislota tuzining olinishini misol tariqasida keltiramiz:



Sintetik kir yuvish vositalari suvda dissotsilanishaga qarab uch xilga bo'lindi:

anionfaol yuvuvchi vositalar;

kationfaol yuvuvchi vositalar;



ionlarga dissotsilanmaydigan yuvish vositalari.

Har qanday sintetik kir yuvish vositasining molekulasi sovun kabi ikki qism (gidrofil va gidrofob guruhlar)dan it orat bo'lishi kerak.

Anionfaol kir yuvish vositalari suvda dissotsilanganda kation va yuvish vositaliga ega bo'lgan anionga parchalanadi:



Bularidan eng ko'p ishlataladiganlari alkilkarbonatlar va alkilsulfatlar hisoblanadi. Ular quyidagicha olinadi:



Kationfaol yuvuvchi vositalar juda keng qo'llanilmadi, ular, asosan, bakteriyalarni o'ldiruvchi preparat – bakteritsid sifatida ishlatalmoqda.

Mumlar

Mumlar, asosan, bir yoki ikki asosli yuqori molekulali karbon kislotalarning yuqori molekulali spirtlar bilan hosil qilgan murakkab efirlaridir.

Spirtlardan, asosan, juft sonli uglerod atomlari tutgan vakillari ($C_{16}-C_{36}$) uchraydi. Bundan tashqari, mumlar tarkibida doimo erkin kislotalar, spirtlar va ba'zida uglevodorodlar ham bo'lib turadi. Sterinlar, karotinoidlar turkumiga kiruvchi bo'yq moddalar ham mum tarkibini tashkil etadi.

Mumlar o'simlik va tirik organizmlar tarkibida uchrashiga qarab ikkiga ajratiladi. O'simlik mumlari yuqori molekulyar massali murakkab tuzilishga ega bo'lgan organik modda bo'ladi. Ularning muhim ahamiyati shundaki, o'simlik poyasi, mevasi va barglar yuzasida yupqa qatlama hosil qiladi va har xil hasharotlar va kasalliklardan asraydi, barg yuzasidan issiq va qurg'oqchilik maydonlarda suvning bug'lanishini kamaytirib, suv tanqisligini yengishda yordam beradilar. O'simlik mumlari orasida eng ko'p ishlatiladigan Braziliya mamlakati daryolari bo'yida o'sadigan palma daraxtlari bargidan ajratib olinadi. Bu mum nusxa ko'chiruvchi qora qog'oz tayyorlashda, pollarni qoplashda ishlatiladi.

Hayvon mumlaridan biri kashalot bosh miyasidagi moy tarkibidan ajratib olinadigan spermatsetdir. Uning asosini palmitin kislotasining setil efiri – $C_{15}H_{31}COOC_{16}H_{33}$ tashkil etadi.

Asalari mumi 8 ta mum bezlarida ishlab chiqariladi. 8 kg asal olish davomida 1 kg mum hosil bo'ladi. Bu mum asalari tanasini bir tekisda qoplab, uzoq mehnat jarayonida organizm suvsizlanishining oldini olish kabi ulkan vazifani bajaradi. Asalari mumi tarkibida $C_{24}-C_{34}$ tarkibli yuqori spirtlarning efirlari (masalan, 12-17 % uglevodorodlar, palmitin kislota miritsil efiri – $C_{15}H_{31}COOC_{31}H_{63}$ va serotin kislota – $C_{25}H_{51}COOH$ uchraydi. Xitoy mumida boshqa murakkab efirlar bilan birga serotin kislota seril efiri – $C_{25}H_{51}COOC_{26}H_{53}$ ham ko'p miqdorda bo'ladi.

Mumlar har xil krem va surtma dorilar tayyorlashda, galvanoplastikada, kitob va jurnallarni nashr etishda,sovun, plastirlar va lab bo'yoqlari ishlab chiqarishda qo'llaniladi.


Murakkab lipidlar

Bosh va orqa miya to'qimalari oqsil, xolesterin, fosfatidlar deb ataluvchi fosfolipidlardan iborat murakkab tuzilishdagi birikmalardan tashkil topgan.


Gidroliz natijasida glitserin va yuqori karbon kislotalardan tashqari fosfat kislota, aminospirtlar yoki boshqa murakkab spirtlar hosil qiluvchi lipidlarga **fosphatidlar** deyiladi. Quyida juda ko'p uchraydigan fosfatidlarning ayrim vakillariga to'xtalib o'tamiz.

Letsitinlar – birinchi marta tuxum sarig'idan (yunoncha lekithos - tuxum sarig'i degani) ajratib olingan glitserid. Bu modda glitserinning ikki gidroksili ikki xil kislotalar bilan eterifikatsiyalangan va fosfoxolin guruhi tutgan birik-


madir. Letsitin gidrolizlanganda glitserin, sovun, anorganik fosfat va to'rtlamchi ammoniy asosi — **xolin** hosil bo'ladi:




Kefalinlar — tuzilishi letsitinga o'xshagan glitserinning murakkab efirlari, faqatgina xolin o'rniغا kolamin yoki etanolamin birikkan bo'ladi. Kefalinlar tarkibiga palmitin, stearin, olein kislota qoldiqlari uchraydi. Kefalin (kephale bosh degani) birinchi marta bosh miya to'qimalaridan ajratib olingan:





Serinfosfatid — asoslari birikma sifatida fosfat kislota qoldig'i bilan serin aminokislotasi tutadi va fosfat kislota qoldig'i bilan birikkan bo'ladi. Fosfatidlar tashqi ko'rinishi jihatidan imumga o'xshagan gigroskopik oq rangli moddalar. Ular sirt faol moddalar bo'tlib, sirt tarangligini kamaytiradi va barqaror emulsiya hosil qilish xususiyatiga ega:



Murakkab lipidlar tarkibiga ayrim yog'simon moddalar, jumladan, **fosfosphingozid va sfingomielinlar** ham kiritilgan. Ularning tarkibida yuqori yog' kislotalar, fosfat kislotasi, asoslardan xolin va sfingozin uchraydi:



Sfingomielinning gidrolizi natijasida faqatgina to'rt xil kislotalar olinganligi ma'lum. Bular palmitin, stearin, lignotserin va nervon kislotalaridir:




Serebrozid yoki **glikosfingoziidlар** ham murakkab lipidlar bo'lib ular glikozidlар turkumiga kiritilgan. Serebrozidlар tarkibida sfingozin, yuqori yog' kislotalari va qand moddalari (D-glukoza yoki D-galaktoza) uchraydi, ko'pgina murakkab lipidlardan formal farqi fosfat kislota qoldig'i yo'qligi bilan belgilanadi.

Tayanch iboralar

Murakkab efirlar. Essensiyalar. Galogenangidridlar. Reppelentlar, plastifikatorlar. Peroksidlar. Kislota angidridlari. Amidlar. Nitrillar. Aralash angidrid. Halqali angidridlar. Atsillovchi agentlar. Faollashgan α -vodorod atomi. Ftalimid. Mochevina (karbamid). Biuret. Barbitur kislota, barbituratlar. Guanidin, arginin. Oddiy vamurakkab lipidlar. Xolesterin. Glitseridlар, yog'lar vamoylar. Quriydig'an va qurimaydig'an moylar, margarin. Fosfolipidlар, serebrozid, fosfatosfingoziidlар. Sikkativlar. Sovun va sintetik yuvuvchi vositalar, detergentlar. Plastir. Anion- va kationfaol yuvuvchi vositalar. Mumlar, asalari va xitoy mumlari. Letsitin, kefalin, xolin, serinfosfatid, sfingomielin.

Nazorat savollari

1. Murakkab efirlarning umumiyl formulasini yozing.
2. Murakkab efirlar qanday usullar bilan olinadi?
3. Sirka kislotaning qanday efirlari tabiiy birikmalar tarkibida uchraydi?
4. 1 mol sirka kislota 75 ml etil spiriti bilan reaksiyaga kirishib, etilatsetat efirini hosil qildi, dastlabki moddalarning qaysi biri ortib qoladi?
5. Quyidagi reaksiya tenglamasidagi dinamik muvozanatini o'ngga siljitim uchun nima qilish lozim?



6. Quyidagi karbon kislota murakkab efirlarining nomlarini ratsional va xalqaro nomenklatura bo'yicha nomlang:

- a) H - COOCH₃ b) CH₃-CH₂-CH- COOC₂H₅ d) CH₃-CH- COOC₂H₅

7. $\text{CH}_3-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{COOCH}_3$ formula bilan ifodalanadigan murakkab efirning barcha izomerlarini yozing va nomlang.

8. Quyidagi murakkab efirlarning tuzilish formulalarini yozing: a) 2-metil-propan kislota etil efiri, b) 3-metilpentan kislota metil eftri, d) 3-metilpentan kislota izopropil efiri, e) metil propionat.

9. $\text{C}_5\text{H}_8\text{O}_2$ tarkibli ikki moddalarning biri suvda eriganda laksus qog'ozini qizartiradi, ikkinchisi gidrolizlanganda metil spirti hosil qiladi. Bu ikki birikmaning tuzilish formulalarini yozing.

10. Karbon kislota galogenangidridlari qanday usullar bilan olinadi?

11. Halqali angidridlar qaysi kislotalardan olinishi mumkin? Reaksiya tenglamalarini yozing.

12. Malein angidridi 20 g butadien bilan reaksiyaga kirishsa, necha gramm bitsiklik birikma olinadi? Oilingan mahsulotni nomlang.

13. Sintetik kir yuvuvchi vositalarning sovundan farqi bormi?

14. Nega oddiy xo'jalik sovuni "qattiq" suvda ko'pirmaydi?

15. Qattiq va suyuq sovun orasida qanday farq mavjud? Ularning olinish reaksiya tenglamasiga misol yozing.

16. Mumlar tarkibida qaysi yuqori molekulaligi spirtlar uchraydi?



17. Murakkab lipidlarning tarkibi oddiy lipidlardan nimabilan farq qiladi?

18. Letsitin va kefalin formulalarini tarkib jihatdan nimasi bilan farqlanadi?

19. 20 g mochevina olish uchun qancha ammiak sarflanadi?

20. 10 g karbamid termik parchalanganda, qancha karbonat angidridi ajralib chiqadi?

21. Quyidagi reaksiya tenglamalarini yozing, dastlabki va olingan mahsulotlarni to'g'ri nomlang:



22. Mochevina bilan 100 g malon efiri reaksiyaga kirishsa, qancha barbitur kislotasi olinadi?

23. Bir molekula qahrabo kislota va ikki molekula etilamining reaksiyasi tenglamasini yozing.

24. Aromatik mono- va dikarbon kislotalarining angidridlari qanday olinadi? Reaksiya tenglamalarini yozing.

25. Bir mol tereftal kislota bilan 2 mol etil spirtining o'zaro reaksiya tenglamasini yozing va qancha murakkab efir hosil bo'lishini hisobling.

26. Moylarning taxirlanishi nima bilan izohlanadi?
27. Quriydigan va qurimaydigan moylarning farqini ko'rsatib bering. Fikringizni reaksiya tenglamalari bilan isbotlang.
28. Linol, linolen va olein kislotalari 20 g glitserin bilan reaksiyaga kirishsa, qancha murakkab esfir hosil bo'ladi?
29. Ikki molekula stearin kislota va bir molekula olein kislota qoldigi tutgan 50 g triglitserid katalizator ishtirokida gidrogenlanganda qancha hajm (n.sh.da) vodorod sarflanadi?
30. Suyuq moylarni gidrogenlash sanoat miqyosida qanday amalga oshiriladi? Bu reaksiyaning kundalik turmush uchun ahamiyatini bilasizmi?
31. Yog' va moylar tarkibida qanday karbon kislotalar uchraydi?
32. Tristearat glitseridi gidrolizlanganda, 85 % unum bilan glitserin hosil bo'ladi. 60 g sof glitserin olish uchun qancha yog' sarflanadi?

Adabiyotlar

- Грандберг И.И. Органическая химия.- Москва.- "Дрофа".- 2002.- С. 370 – 407.
- Римухамедов І. Organik ximiya.- Toshkent.- "Meditina".- 1987.- 379-386- betlar.
- Вивюрский В.Я. Вопросы, упражнения и задачи по органической химии с ответами и решениями.- Москва.- "Владос".- С. 69 – 71.
- Ладинитон Э., Дейль Г. Гамлешко И. Ключи к здоровью.- Тула.- Изд-во Источник жизни.- 2003.- С. 29 – 36.


GIDROKSI- VA OKSOKISLOTALAR

Molekulasi tarkibida karboksil va hidroksil guruhlari tutgan organik birikmalarga **gidroksikislotalar** deyiladi.


Alifatik oksikislotalar

Nomenklatura va izomeriyasi

Ayrim oksikislotalar (aslida hidroksikislotalar deyish o'rinni bo'ladi) tarixiy nomenklatura bo'yicha nomlanadi:




Ko'pincha oksikislotalar tegishli bir asosli karbon kislotalarning nomiga oksi- so'zi qo'shib, gidroksil guruhining o'rni esa grek alfavitidagi harflar bilan belgilangan holda nomlanadi;



Sistematik (IUPAC) nomenklatura qoidasiga binoan oksikislotalar tegishli karbon kislotalar nomiga oksi- qo'shimcha qo'shib, gidroksil guruhini tutgan uglerod atomi raqam bilan ko'rsatiladi:



Oksikislotalarda izomeriya uglerod skeletining tuzilishiغا va uglerod zanjiridagi gidroksil guruh holatiga bog'liq.




Bundan tashqari, oksikislotalar uchun fazoviy izomeriya turlaridan biri ko'zgu izomeriyasi ham xarakterlidir.

Oksikislotalarning olinishi

Bu birikmalar laboratoriya va sanoatda, asosan, spirtlar va karbon kislotalardan olinadi:

1. Glikollarni oksidlash




2. α-Galogenalmashiningan karbon kislotalardagi galogenni gidroksil guruhiga almashinishi

Reaksiya suv yoki ishqor ta'sirida qizdirilganda amalga oshadi:





3. Karboksil guruhiga nisbatan α -holatda uchlamchi uglerod atomi tutgan karbon kislotalarini KMnO_4 ta'sirida oksidlash:






4. Karbonil birikmalardan olinishi

Aldegid va ketonlarga nitril kislota ta'sir ettirib olingan oksinitril birikmalarning ma'dan kislotalar ishtirokida gidrolizlanishi natijasida α -okzikislotalar hosil bo'ladi:



5. Lakton va laktidlardan hidroliz orqali olinishi







Fizik va kimyoviy xossalari


Bir asosli oksikislotalarning dastlabki vakillari moy Simon suyuqlik, ikki asosdilari – kristall moddalar, suyda yasshi eriydi. Ular tegishli to'yingan karbon kislotalarga nisbatan kuchli hisoblanadi. Oksikislotalar tuz, efir karbon kislota amidi va nitrili, galogenangidridlari hosil qildi.

Oksikislotalarning molekulusida hidroksil va karboksil guruhlari borligi uchun ular spirtlar va kislotalarga xos barcha kimyoviy reaksiyalarga kirishbadи. Oksikislotalar tuz, efir, karbon kislota amidi va nitrili, galogenangidridlari hosil qildi.

Oksikislotalar molekulasi turkibida hidrosil va karbonil guruhlari borligidan, ular spirtlar va kislotalarga xos reaksiyalarga kirishadi:




α -oksikislotalar suytirilgan sulfat kislotasi bilan qizdirilganda, aldegidlar va chumohi kislotasigacha parchalanadi;



Gidrosil guruhining zanjirdagi o'rniga qarab oksikislotalar qizdirish jarayonida suv molekulasini ajratib, turli xil moddalar hosil qiladi.

α -Oksikislotalar


α -Oksikislotalar qizdirilganda olti a'zoli siklik murakkab efir laktid hosil qiladi;



Laktidlar kristall modda. Kislota yoki ishqor ishtirokida suv bilan qaynatilganda gidrolizlanib, dastlabki α -oksikislotani hosil qiladi.

β -Oksikislotalar


β -oksikislota qizdirilganda suv molekulasini ajratib, to'yinmagan karbon kislota hosil qiladi:



γ - va δ -oksikislotalar

Erkin holda beqaror modda. Ular qizdirilmasdan asta-sekin o'zidan bir molekula suv ajratib, besh yoki olti a'zoli siklik birikma – laktonlar hosil qiladi.

Masalan:




Bu usul yordamida hosil bo'lgan moddalarning tuzilishiga yoki xiliga qarab α - , β - , γ -oksikislotalarni bir-biridan farqini bilib olish mumkin.


Oksikislotalarning optik faolligi

Organik birikmalardagi fazoviy yoki stereoizomeriyaning bir turi — optik izomeriya hodisasi kuzatiladi.

Aniqlanishi: agar, organik moddalardagi biron uglerod atomi to'rt xil atom yoki atomlar guruhi bilan birikkan bo'lsa, bunday uglerod atomi asimmetrik uglerod atomi deb ataladi va yulduzcha bilan nishonlanadi. Bunday moddalar asimmetrik markazga ega bo'ladi:



Asimetrik uglerod atomiga ega bo'lgan birikmalar molekulalari fazoda ikki xil shakldagi ikkita izomerni vujudga keltiradi. Izomerlarning har ikkala modeli bir-biriga o'xshash, ammo sinchliklab qaralganda ulardan biri ikkinchisiga nicbatan ko'zgudagi tasviri ekanligi seziladi.



Optik izomerlar o'zining fizik-kimyoviy xossalari bilan bir xil bo'ladi, lekin ularning eritmasidan qutblangan nur o'tkazilganda qutblanish tekisligi o'ngga yoki chapga buriladi. Bu xossa optik faollik deyiladi. Qutblangan nurdagi tebranish tekisligiga perpendikulyar bo'lgan tekislik qutblanish tekisligi deyiladi. Qutblanish tekisligini o'ngga va chapga buradigan moddalar bir-biriga izomer hisoblanadi va ular **antipodlar** deyiladi.

Solishtirma buruvchanlik

Organik moddalarning optik faollik kattaligi polyarimetrda aniqlanadi. Polyarimetr, asosan, ikkita Nikol prizmalaridan tarkib topgan. Prizmalar o'ralligida tekshiriladigan moddaning eritmasi solingen kyuveta joylashtiriladi. Tekshirilayotgan modda eritmasi solingen naychaga qutblangan yorug'lik nuri tushiriladi. Agar modda optik faol bo'lsa, qutblangan nur tekisligini o'ngga yoki chapga buradi.

Qutblanish tekisligining burilishi (α) tekshirilayotgan moddaning (eritma) qalinligiga, konsentratsiyasiga, haroratga, unga tushuyotgan yorug'lik nuring to'lqin uzumligiga bog'liq va u quyidagicha ifodalananadi:

$$[\alpha]_d' = \frac{\alpha \cdot 100}{l \cdot C}$$



bu yerda; α - burish burchagi;

C - konsentratsiya, g/sm³;

l - eritma qaliligi, sm;


Asimmetrik optik faol birikmalar

Achitish yo'lli bilan olingen sut kislotada optik burish xususiyatining yo'qligi uning bir xil miqdordagi o'ngga va chapga buruvechi shakllar aralashmasidan, ya'ni ikkita optik anti podlar aralashmasidan iborat ekanligining natijasidir. Bunday optik anti podlarning teng molekulyar aralashmasi **ratsematlar** deyiladi. Sut kislota anti podining tuzilishi Fisherning proyekzion formulasi yordamida quyidagicha tasvirlanadi:



Formuladan ko'rinish turibdiki, asimmetrik uglerod atomiga birikkan o'rribosar (vodorod va gidroksil) fazoda turlicha joylashgan. Bu esa sut kislota proyekzion formulalarining bir-biridan farq qilishini ko'rsatadi.

Molekulasi bir nechta asimmetrik uglerod atom tutgan moddalar fazoviy diastereomerlar justiga ega. Ularda molekulaning yarim konfiguratsiyasi o'zaro mos tushadi, ikkinchi yarmi farq qiladi. Diastereomer justini tashkil etuvchi moddalar optik burishi bilangina emas, balki barcha fizik-kimyoviy xossalari bilan ham o'zaro farq qiladi. Buni xlorolma kislota misolida ko'rib chiqamiz. Xlorolma kislota HOOS-CH(Cl)-CH(OH)-COOH uchun asimmetrik uglerod atomidagi konfiguratsiyasi bilan farqlanuvchi (I - IV) to'rtta stereoizomerlarni yozish mumkin:




Xlorolma kislota stereoizomerlarining birinchisi ikkinchisi bilan, uchinchisi to'rtinchisi bilan o'zaro optik anti podlardir, chunki ular bir-birining ko'z-

gudagi aksiga o'xshaydi. Biroq I-III, I-IV, II-III, II-IV juftlar o'zaro diastereomer, ya'ni ularning ko'zgudagi tasviri bir-biriga o'xshamaydi.

Tabiiy vino kislota optik faol bo'lib, qutblanish tekisligini o'ngga buradi. O'ngga buruvchi D-vino kislota suv qo'shib, asta-sekin qizdirilganda, mezovino kislota, so'ngra uzum kislota hosil bo'ladi. Mezovino va uzum kislota optik jihatdan faolligini yo'qotgan birikma hisoblanadi.

Fransuz olimi L. Paster birinchi bo'lib optik izomerlar aralashmasini optikanti podlarga ajratdi. Paster uzum kislota misolida ilgarli ma'lum bo'l-
m
a g a n α-^g_an vino kislota borligini aniqladi. Hozirgi vaqtida vino kislotaning quyidagi to'rtta optik izomeri ma'lum;



(+) va (-) vino kislota optik antipodlar (enantiomerlar) hisoblansa, mezovino kislota ularning diastereomerlaridir.

Ratsematlarni optik antipodlarga ajratish

Sintetik usulda olingen asimmetrik birikmalar, odatda, ratsematlar holida bo'ladi. Ratsemat moddalarni optik anti podlarga ajratish ancha murakkab bo'lib, bu jarayon muhim ahamiyatga ega. L. Paster uzum kislota misolida ratsematlarni ajratishning qator klassik usullarini ishlab chiqdi.

1. Kimyoviy usul

Ratsematlarga optik faol diastereomerlar optik anti podlardan va bir-biridan fizik-kimyoviy xossalari bilan ham farq qiladi. Ularni bir-biridan qayta kristallah usuli bilan ajratish mumkin. Bu usul yordamida (\pm) vino kislota anti podlarga ajratilgan. Bunda optik faol asos sifatida chapga buruvchi sinxonin alkaloidi ishlatilgan (Paster, 1852- yil).

2. Biologik usul

Ayrim mikroorganizmlar o'zining hayot faoliyatida muayyan bir optik antimodni iste'mol qilishga moslashgan bo'ladi. Masalan, siyoh zamburug'i, usosan, o'nga buruvchi vino kislotaning D-anti podini iste'mol qiladi. Shuning uchun ham, siyoh zamburug'i iste'molidan so'ng ratsemat uzum kislotada faqatgina chapga buruvchi L – vino kislota qoladi. Fermentativ usul bilan ham ratsematlarni anti podlarga ajratish mumkin.

3. Mexanik usul

Ratsemat birikmalar kristallanish vaqtida ikki xil shaklga ega bo'lgan kristallardan, ya'ni o'nga va chapga buruvchi izomerlardan tarkib topadi. Masalan, uzum kislotaning natriy-ammoniyli tuzlari $\text{NaOOC-CH(OH)-CH(OH)-COONH}_4$; $4\text{H}_2\text{O}$ 28°C dan past haroratda kristallanib, (+) va (-) vino kislotaning tuzlari aralashmasini hosil qiladi. Bu kristallar tashqi ko'rinishdan bir-biridan farq qilganligi uchun ularni mexanik usul bilan, ya'ni pinset yordamida ajratish mumkin. So'ngra bu kristallarga kuchli kislota ta'sir ettirib, vino kislota enantiomerlariga aylantiriladi. Bu usul yordamida boshqa ratsemik moddalarni ham anti podlarga ajratish mumkin (masalan, izogidrobenzoin, glutamin kislota, va kamfora).

Oksikislotalarning muhim vakillari

HOOC-CH(OH)-CH₂-COOH olma kislota molekulasida bitta asimmetrik uglerod atomi bor. Bu kislota uch xil shaklda ya'ni o'ngga va chapga buruvchi izomer va ratsemat holida bo'ladi. Chapga buruvchi olma kislota, ryabina, uzum va boshqa mevalarda bo'ladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida akademik O.S. Sodiqov va uning shogirdlari tomonidan olma kislotani g'o'za bargidan ajratib olish usuli ham ishlab chiqilgan.


Tabiiy olma kislota 100°C da, sintetik usulda olingan ratsemat olma kislota esa 130°C da suyuqlanadi.

HOOC-CH(OH)-CH(OH)-COOH vino kislota. Tabiatda ko'pgina mevalarning tarkibida, masalan uzumda uchraydi. Uning tarkibida ikkita asimmetrik uglerod atomi mavjudligi uchun to'rtta stereoizomerga ega. Tabiiy vino kislota optik faol bo'lib, qutblangan nur tekisligini o'ngga buradi. U kristall modda, 170°C da suyuqlanadi, suvda va spirtda yaxshi eriydi. O'ngga buruvchi D-vino kislota uzum sharbatini achitish usuli bilan vino tayyorlashda bochkada qoladigan cho'kma – vino toshidan ajratib olinadi. Cho'kma, asosan, vino kislotaning nordon kaliy tuzidan $\text{KOOC-CH(OH)-CH(OH)-COOH}$ iborat bo'ladi. Vino kislotaning tuzlari turli sanoat tarmoqlarida, tibbiyotda va radiotexnikada ishlatiladi.

HOOC-CH₂-C(OH)-CH₂-COOH limon kislota.

COOH


Uch asosli, to'rt atomli kislotadir. U, asosan, xom limon sharbatida, citrus mevalarda, smorodina, olcha, uzum, malina kabi mevalarda va lavlagi tarkibida bo'ladi. Hozirgi vaqtida uni g'o'za bargidan olish usuli ishlab chiqilgan. Limon kislota sanoatda shakarsimon moddalarni mikroorganizmlar yordamida bijg'itish yo'li bilan olinadi:




Limon kislota kristall modda, 153°C da suyuqlanadi, suvda yaxshi eriydi. Limon kislota oziq-ovqat, to'qimachilik sanoatida, tibbiyotda va boshqa sohalarda ishlatiladi.

ALDEGIDO- VA KETOKISLOTALAR

Molekulasida aldegid va karboksil guruhlari tutgan organik birikmalar **aldegidokislotalar** deyiladi:




Molekulasida keton va karboksil guruhlari tutgan organik birikmalar **ketokislotalar** deyiladi:




Karbonil va karboksil guruhlarining bir-biriga nisbatan joylashuviga binoan, ular α -, β -, γ - aldegido- va ketokislotalarga bo'linadi.

Aldegido- va ketokislotalarning vakillari


OHC-COOH glioksil kislota. U oddiy sharoitda tiniq suyuqlik, suvda yaxshi eriydi. Glioksil kislota dixlorsirka kislotani gidrolizlab olinadi:



Vino kislota dietil efrining qo'rg'oshin tetraatsetati bilan oksidlanishidan glioksil kislota etil efiri hosil bo'ladi (Krike reaksiyasi):




Glioksil kislota aldegid va kislotalarga xos reaksiyalarga kirishadi. Ishqorlar bilan qizdirilganda, glikol va oksalat kislotalarning tuzlariga aylanadi:




CH₃-C(O)-COOH pirouzum kislota. Suv bilan har qanday nisbatda aralashadi. U spirtli va boshqa bijg'ichlarda hosil bo'ladigan oraliq mahsulot hisoblanadi. Pirouzum kislotani sintetik usullar bilan ham olish mumkin. Masalan, sirka kislotaning xlorangidridiga kumush sianid ta'sir ettirib, ketokislota nitrili olinadi va so'ngra uni gidrolizlab, pirouzum kislota hosil qilinadi:



Boshqa usullar yordamida ham pirouzum kislotani olish mumkin:




Pirouzum kislotani propion kislotaning digaloidli hosilalaridan olish eng quay usul hisoblanadi.



Pirouzum kislota tirik organizmlardagi karbon kislotalar, yog'lar va oqsillarning o'zgarishida oraliq mahsulot bo'lib, juda muhim biologik ahamiyatga ega.

CH-C(O)-CH₂-COOH atsetosirka kislota. Barcha β-ketokislotalarga o'xshash, atsetosirka kislota beqaror modda bo'lib, qizdirilganda oson parchalanadi:




Atsetosirka efiri


Ketokislotalar hosilalaridan eng katta ahamiyatga ega bo'lgan vakili atsetosirka kislotaning etil efiri $\text{H}_3\text{C}-\text{C}(\text{O})-\text{CH}_2-\text{COOC}_2\text{H}_5$ hisoblanadi va organik sintezda juda ko'p qo'llaniladi.

Sirka kislota etil efiriga natriy ta'sir ettirib, atsetosirka efiri olinadi (Klayzen kondensalanishi).


Reaksiyaning yo'nalishi:



Qutblangan etilatsetat molekulasi bilan karbanion to'qashiadi, hosil bo'lgan oraliq mahsulot spirt molekulasini ajratib, atsetosirka efiri amioniga aylanadi:



Efir anioni reaksiya natijasida oksikroton kislota etil esirining natriyli hosilasiga aylanadi, avval u kislotalar ta'sirida erkin holatda ajralib chiqadi va ikkinchi bosqichda atsetosirka efiriga izomerlanadi:




Atsetosirka efirining tautomeriyasi


Atsetosirka efiri ikki xil shakldagi bir-biriga o'tib turadigan izomerlarga ega bo'lub, reaksiya natijasida har ikki shaklga tegishli hosilalarini ajratib olish mumkin.

Agar modda bir necha izomer shakllar ko'rinishida mavjud bo'lib, bir-biriga oson o'tadigan va harakatchan muvozanatda bo'lsa, bu hodisa tautomeriya deb nomlanadi. Bir-biriga o'tadigan shakllarga tautomerlar deyiladi.


Atsetosirkalari esirining izomeriyasi karbonil guruhining enol shaklga aylanishi bilan belgilangani uchun bu o'tishga keto-enol tautomeriyasi deyiladi:



Atsetosirkalari esiriga natriy yoki natriy alkogolyati ta'sir ettirilganda, uning molekulasidagi bitta vodorod atomi natriy bilan o'rin almashinish natijasida natriy atsetosirkalari esiri hosil bo'ladi:



Agar natriy atsetosirkalari esiriga xlorid kislotasi ta'sir ettirilsa, u paytda suvda yomon eriydigan atsetosirkalari esirining enolli shakli ajraladi:




Atsetosirkalari esirining enol shakli keton shakliga qaraganda ishqor ta'sirida darhol eriydi, bromni biriktiradi, temir(III) xloridi bilan rang beradi. Odatdagisi xona haroratida atsetosirkalari esiri keton va enol shakllarining aralashmasidan iborat bo'lib, ular doimiy dinamik muvozanatda bo'ladi:




Atsetosirkalari esiri asosida sintezlar

Atsetosirkalari esiriga kislotasi va ishqorlar ta'sir ettirilganda u parchalanadi. Bu parchalanish sharoitga qarab har xil sodir bo'ladi. Suyultirilgan ishqorlar (yoki kislotalar) eritmalarini ta'sirida atsetosirkalari esiri gidrolizlanadi va hosil bo'lgan atsetosirkalari kislotadan reaksiyaning keyingi bosqichida CO_2 ajralib chiqadi:



Atsetosirka efirining bu ko'rinishdagi parchalanish ketonli parchalanish deyiladi va natijada uglerod to'rt oksidi, etil spirti va keton hosil bo'ladi.


Atsetosirka efirini konsentrланган ishqorlar eritmalar bilan qizdirilganda, kislotali parchalanish sodir bo'ladi va ikki molekula sirka kislota ajralib chiqadi:




Natriyatsetosirka sirka efiriga alkilgalogenidlar ta'sir ettirilganda, alkil radikali uglerod atomiga, galogen esa natriy bilan birikadi:



Hosil qilingan monoalkillangan efirning qolgan harakatchan vodorod atomi ham natriy bilan almashinishi mumkin va alkillash reaksiyasini davom ettirib, dialkil hosilalar sintez qilinadi:




Atsetosirka efiriga o'xshab, uning bir- yoki ikki radikal almashingan hosilalari ham ketonli parchalanish qobiliyatiga ega. Bundan foydalaniib, turli tuzilishdagi ketonlarni sintez qilish mumkin:





Kislotali parchalanishdan foydalanib, atsetosirka esifidan va uning bir va ikki almashingan hosilalaridan normal tuzilishga ega va tarmoqlangan karbon kislotalarni sintez qilish mumkin:



Tayanch iboralar

Oksi- yoki gidroksikislotalar. Alifatik α -, β -, γ - va hokazo oksikislotalar. Siangidrinlar. Lakton va laktidlar. Stereoizomeriya. Optik faollik, asimmetrik uglerod atomi. Qutblangan monoxromatik nur. Optik anti podlar, ratsemat aralashma va uni ajratish usullari. Vino- va mezovino kislotalari. Enantiomer va diastereomerlar.

Okso- (aldegid- va keto-)kislotalar. Atsetosirka kislota etil esiri. Atsetosirka esirining tautomeriysi va reaksiyon qobiliyati. Ketonli va kislotali parchalanish.

Nazorat savollari

1. Oksikislotalarning tabiiy manbalarini bilasizmi? Misollar keltiring.
2. Sut kislotasining olinish usullariga misol yozing. Nega sintez jarayonida ratsemat aralashma hosil bo'ladi?
3. Sut, vino, olma, limon kislotalarining tuzilish formulalarini yozing va ular tarkibidagi asimmetrik uglerod atomlarini belgilang.
4. Chumoli aldegid, izomoy aldegid, metilbutanon kabi birikmalarning sianid kislotasi bilan reaksiya tenglamalarini yozing. Birikish reaksiyasi mahsulotlarini gidrolizlang. Olingan moddalarni nomlang.
5. Propion aldegididan aldol kondensatlanishi orqali 2-metil-3-oksi pentan kislotasini oling. Uning sirka angidridi va etil spirti bilan o'zaro reaksiya tenglamalarini tuzing.
6. D- va L -glitserin kislotasi proheksion formulalarini yozing.

7. Quyidagi moddalarning ishqorli muhitda gidrolizlanish reaksiyasi tenglamalarini yozing: a) α -brompropion kislota, b) β -xlormoy kislota, d) γ -xlor-valerian kislota, e) xlorqahrabo kislota.

8. Trans-siklopropan-1,2-dikarbon kislota va trans-1,3-dixlorsiklobutan formulalarini yozing va ulardagи xiral markazlarni ko'rsating.

9. α -, β -, γ - va boshqa oksikislotalarning harorat ta'sirida qanday o'zgarishlarga uchrashini reaksiya tenglamalari yordamida asoslab bering.

10. Sxemada ko'rsatilgan barcha reaksiya tenglamalarini yozing, olingan mahsulotlar orasida optik faol birikmalar bormi?



11. Quyidagi birikmalarni nomlang:

- a) $\text{CH}_3\text{-CO-CH}_2\text{-COOH}$ b) $\text{CH}_3\text{-CH}_2\text{-CO-CH}_2\text{-COOH}$ d) $\text{CH}_3\text{-COCN}$
CH₃ CH₃
e) $\text{CH}_3\text{-C(OH)-COOH}$ f) $\text{OCH}_3\text{-CH}_2\text{-COOH}$

12. 3,3 - dibrommoy va β,β - dixlorizokpron kislotalarining gidrolizlanishi va so'ngra dekarboksillanishi natijasida qanday mahsulotlar olinadi?

13. Quyidagi moddalar bilan kaliy sianidi o'zaro reaksiyaga kirishganda qaysi birikmalar olinadi: a) propionilxlorid, b) butirilbromid, d) bromatseton.

14. Yuqorida olingan mahsulotlardan birining gidroksilamin bilan o'zaro reaksiya tenglamasini yozing.





15. Etilpropionat uchun murakkab efir kondensathlanish (Klyayzen) reaksiyasi tenglamasini tuzing. Olingan mahsulotning a) brom, b) metilmagniy-iodidi bilan o'zaro reaksiyalarini yozing.

16. Atsetosirka efirining quyidagi moddalar bilan reaksiya tenglamalarini tuzing: a) sianid kislota, b) natriy bisulfit, d) hidroksilamin, e) atsetilxlorid, f) ammiak.

17. Quyidagi birikmalardan pirouzum kislotasi olish reaksiya tenglamalarni yozing:

- a) $\text{CH}_3\text{-COOH}$ b) $\text{CH}_3\text{-CH}_2\text{-COOH}$ d) $\text{HOOC}-\text{CH}_2\text{-CH}_2\text{-COOH}$
OH HO OH

18. Quyida keltirilgan birikmalarning qaysi biri xona haroratida suylitilgan ishqor eritmasi ta'sirida enolyatlar hosil qiladi



Adabiyotlar


1. Грандберг И.И. Органическая химия.- Москва.- “Дрофа”.- 2002.- С. 410 – 452.

2. Pirmuxamedov I. Organik ximiya.- Toshkent.- “Meditina”.- 1987.- 253-269 - betlar.


3. Вивюрский В.Я. Вопросы, упражнения и задачи по органической химии с ответами и решениями.- Москва.- “Владос”.- С. 69 – 71.

AZOT TUTGAN ORGANIK BIRIKMALAR ALIFATIK NITROBIRIKMALAR


Uglevodorod molekulاسining bir yoki bir nechta vodorod atomi nitroguruhga ($-\text{NO}_2$) almashingan hosilalariga ***nitrobirimkalar*** deyiladi. Ularning tarkibidagi nitroguruh soniga ko'ra mono-, di- yoki polinitrobirimkalar bo'lishi mumkin, radikal tabiatiga ko'ra to'yingan va to'yingagan nitrobirimkallarga bo'linadi. Alifatik nitrobirimkalar alkanlardek nomlanadi:



1-nitropropan




2-nitropropan




2-metil-3-nitrobutan

Ular quyidagicha tuzilishga ega:




yoki




Nitrobirimkalar alkilnitrillarga izomer hisoblanadi:

Olinish usullari


1. Alifatik nitrobirimkalar birinchi marta 1872- yilda nemis olimi V. Meyer tomonidan sintez qilingan:



2. Nitrobirikmalar, asosan, M.I. Konovalov reaksiyasiga muvofiq suyultirilgan nitrat kislota ta'sirida alkanlardan sintez qilinadi (1888-yil). Reaksiya natijasida nitrobirikmalar aralashmasi olinadi va qisman alkanlarning oksidlanish mahsulotlari ham hosil bo'ladi. Bu reaksiya mexanizmini Titov o'rgangan:



Bu reaksiyaning mexanizmini Titov o'rgangan:




Nitrolash reaksiyasida alkanlarning uchlamichi uglerod atomi bilan bog'langan vodorodlari oson, ikkilamchilar undan qiyinroq va birlamchi vodorodlar juda qiyin reaksiyaga kirishadi.

Fizikaviy xossalari


Nitrobirikmalar yoqimli hidli, sunda yomon eriydigan birikmalar, ularning suvli eritmasi neytral muhitga ega, metallarga ta'sir etmaydi. Nitrobirikmalarning molekulasi qutblangan bo'lib, dipol momentining qiymati $\mu = 3,5-4,0 \text{ D}$ bo'ladi.

Kimyoziy xossalari

I. Nitrobirikmalarga nitrit kislota ta'siri xarakterli reaksiya hisoblanadi.
a) birlamchi nitrobirikmalar bu reaksiya natijasida nitrol kislota hosil qiladi va ular tuzlarining eritmasi qizil tusga bo'yaladi:



b) ikkilamchi nitrobirikmalar reaksiyaga kirishganda psevdonitrol olinib, reaksiyaning ikkinchi bosqichi amalga oshmaydi va oshiq ko'k rangli eritma hosil bo'ladi:




d) uchlamchi nitrobirikmalar nitrit kislota ta'sirida bu reaksiyaga kirishmaydi.


2. Nitrobirikmalar kislotali muhitda qaytariladi va tegishli aminlarga aylanadi, qaytaruvchi sifatida erkin vodorod atomlari (Zn, Sn, Fe + HCl) qo'llaniladi:






3. Birlamchi hamda ikkilamchi nitrobirikmalar aldegid va ketonlar bilan kondensatlanish reaksiyasiga kirishadi:



Nitrobirikmalar kuchli ishqorli muhitda atsi-nitro shakliga o'tib, kislotali xossalarni namoyon qiladi, kislota ta'sirida qaytib nitro-shakliga o'tadi. Shuning uchun nitrobirikmalar ba'zan psevdokislotalar ham deyiadi:




Birlamchi va ikkilamchi nitrobirikmalarning atsi-shakl tuzlari sovuqda mineral kislota ta'sirida aldegid va ketonlar hosil qiladi:



Sanoatda birlamchi nitrobirikmalarning 85 % li sulfat kislota bilan qizdirib, karbon kislotalari va gidroksilamin hosil qilishidan foydalanadilar:




Reaksiya mexanizmi quyidagicha amalga oshadi:



AROMATIK NITROBIRIKMALAR


Nomenklaturasi

Aromatik qator nitrobirikmalarining nomlanishi, odatda, tegishli aromatik uglevodorodlar nomidan kelib chiqadi. Nitroguruh soniga qarab ular, mono-, di- va trinitrobirikma bo'lishi mumkin. Halqadagi nitroguruhlarning holati o-, m-, p- harflari bilan, yoki raqamlar orqali belgilanadi:



Olinishi


Arenlarga konsentrangan nitrat va sulfat kislotalari (nitrolovchi aralashma) aralashmasi ta'sir ettirib, nitrobirikmalar olinadi. Masalan:




Reaksiyaning mexanizmi quyidagicha: avval nitrat va sulfat kislotalar ta'sirlashib, nitrosulfat kislotani hosil qiladi:



Keyin nitrosulfat kislotasi kationi va anioniga dissotsilanadi:




$[\text{NO}_2]^+$ (nitroniy) kationi aromatik halqadagi vodorod atomlaridan birini almashtiradi. Vodorod esa H^+ proton holida ajraladi.



Benzol halqasini nitrolash reaksiyasi qiyin o'tadi, lekin uning gomologlari benzolga nisbatan oson nitrolanadilar.


Yon zanjirda nitroguruh tutgan nitrobirikmalar, masalan, fenilnitrometan $\text{C}_6\text{H}_5-\text{CH}_2-\text{NO}_2$, alifatik qatordagi nitrobirikmalarning olinishi usullaridan foydalanib olinadi.



Xossalari

Nitrobirikmalarning muhim xossalardan biri shuki, ular qaytarilganda aromatik aminlar hosil bo'ladi. Ularning aromatik aminlargacha qaytarilishini bir necha usullarda olib borish mumkin:

1. Kislotali muhitda



Qaytarilish bir necha oraliq mahsulotlar hosil bo'lishi orqali boradi. Qaytaruvchi sifatida vodorod ishlataladi va oxirgi mahsulot sifatida anilin hosil bo'ladi, masalan:


2. Neytral yoki kuchsiz kislotali muhitda

Nitrobirikmalarning qaytarilishi uchun zarur bo'gan vodorod, odatda, mix bilan ammoniy xloridning suvli eritmasi ta'sirlashuvidan hosil bo'ladi. Neytral yoki kuchsiz kislotali muhitda nitrobenzolni qaytarilishi natijasida fenilgidrosilamin hosil bo'ladi va keyinchalik uni anilmaga qaytarish mumkin.


3. Ishqorli muhitda

Qaytarilish uchun kerakli vodorod, odatda, rux metalining ishqor bilan reaksiyasidan olinadi:


I- bosqich:




II- bosqich:



III- bosqich:




Kuchli ma'dan kislotalar ta'sirida gidrazobenzol benzidin deb nomlangan muddaga qayta guruhlanadi (N.N. Zinin). Bu reaksiya benzidinli qayta guruhlanish deb ataladi.



ALIFATIK AMINLAR


Uglevodorodlardagi vodorod atomlarining $-\text{NH}_2$, $-\text{NHR}$ yoki $-\text{NRR}'$ guruhilarga almashinishidan olingen hosilalari **aminlar** deyiladi. Ular molekulasi dagi uglevodorod radikallarining soniga qarab birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi aminlarga bo'linadi:



Birlamchi aminlar tarkibiga kiruvchi $-\text{NH}_2$ guruhiga **aminoguruh**, ikkilamchi aminlarda gisisi $>\text{NH}$ **iminoguruh** deyiladi. Aminlar molekulasi dagi radikallaring xususiyatiga qarab, alifatik ($\text{C}_n\text{H}_{2n+1}-\text{NH}_2$) va aromatik aminlar ($\text{C}_6\text{H}_5-\text{NH}_2$)ga bo'linadi.

Nomenklatura va izomeriyasi

Odatda, aminlarning nomi uglevodorod radikallari nomiga "**amin**" so'zini qo'shib hosil qilinadi:




Aminlarning izomeriyasi uglerod zanjirining qanday tarmoqlanganligi va aminoguruuning joylashgan o'rniiga qarab aniqlanadi. Bundan tashqari, aminlar uchun **metameriya** hodisasi ham xarakterlidir. Masalan, ikkilamchi dietilamin $\text{C}_2\text{H}_5-\text{NH}-\text{C}_2\text{H}_5$ birlamchi butilaminga $\text{C}_4\text{H}_9-\text{NH}_2$ metamerdir.

Olinish usullari


1. Alkilgalogenidlarga ammiakning ta'siri (Gofman reaksiyasi)

Bu reaksiyani olib borish uchun alkilgalogenidga ammiakning spirtli eritmasi ta'sir ettirib, qizdiriladi. Bunda dastlab tegishli aminning tuzi hosil bo'ladi. Aminning tuzi reaksiyaga kirishmagan ammiak ta'sirida parchalanib, birlamchi amin hosil qiladi:






Reaksiyaning keyingi bosqichida birlamchi amin ikkilamchi aminga aylanadi:




Uchlamchi aminlar ham xuddi shu usulda ikkilamchi aminlardan sintez qilinadi:



2. Nitrobirimalar, nitrillar, oksimlar yoki gidragonlarning qaytarilishi

Bu jarayon qalay va vodorod xlorid kislotasi yordamida amalga oshiriladi yoki katalizator ishtirokida vodorod bilan qaytariladi:




3. Karbon kislotalar amidlarini NaOBr ishqoriy eritmasi bilan qizdirish (Gofmanning qayta guruhlanish reaksiyasi)

Bu reaksiyada qayta guruhlanish sodir bo'ladi va natijada aminoguruh bevosita radikal bilan bog'lanadi:



Fizikaviy xossalari

Aminlarning oddiy vakillari — metilamin, dimetilamin va trimetilamin gazsimon moddalar, o'rta vakillari suyuqlik, yuqori vakillari qattiq moddalaridir. Aminlarning quyi vakillari yoqimsiz o'tkir ammiak hidli moddalar bo'lib, suvda yaxshi eriydi. Ularning yuqori vakillari hidsiz, suvda erimaydi. Aminlarning molekulalari ham vodorod bog'lari hisobidan assotsiatlar hosil qiladi, ammo bu xossa spirlarga nisbatan ancha zaif namoyon bo'ladi:



Uchlamchi etilaminning fazoviy jihatdan vodorod bog'i orqali assotsiat hosil qilish imkoniyati bo'lмагани учун о'зининг izomeri geksilaminga nisbatan ancha past haroratda qaynaydi:

21- jadval.

Aminlarning fizikaviy xossalari


Amin	Formulasi	T _{suyuq, °C}	T _{qayn., °C}	d ₄₂₀	pK _a *
Metilamin	CH ₃ NH ₂	-92	-7	-	10,6
Dimetilamin	(CH ₃) ₂ NH	-96	7	-	10,8
Trimetilamin	(CH ₃) ₃ N	-124	4	-	9,8
Etilamin	C ₂ H ₅ NH ₂	-81	17	-	10,6
Dietilamin	(C ₂ H ₅) ₂ NH	-51	56	0,7054	10,9
Trietilamin	(C ₂ H ₅) ₃ N	-115	90	0,7242	10,8
Geksilamin	C ₆ H ₁₁ NH ₂	-19	133	-	10,7
Etilendiamin	H ₂ N(CH ₂) ₂ NH ₂	8,5	116,5	0,8929	10,0
Geksimetilen-diamin	H ₂ N(CH ₂) ₆ NH ₂	42	204,5	-	10,0
2-Aminoetanol	H ₂ NCH ₂ CH ₂ OH	-	171	1,022	9,5
Etilenimin	H ₂ C=CH-NH	-	55	0,8331	8,1
Anilin	C ₆ H ₅ NH ₂	-6	184	1,0248	4,6

* — RNH₃⁺ protonlangan hosila — kislotalar uchun

Aminlarning molekulyar massasi ortishi bilan ularning zinchligi, suyuqlanish va qaynash haroratlari ortadi, suvda eruvchanligi esa kamayadi (21-jadval). Oddiy aminlarning tuzilishi piramidaga o'xshaydi, shuning uchun ularda optik izomeriya kuzatilmaydi. Azot atomining protonlanishi natijasida aminlar tuzlar hosil qiladi va alkilammoniy guruhining tuzilishi tetraedrga yaqinlashadi. Birlamchi aminlar suvda eriganida $R-NH_3^+$ kationini hosil qiladi va muhit ishqoriy bo'ladi. Trimetilamin misolida esa kationning hosil bo'lishi va solvatlanishi qiyinlashadi, natijada uchlamchi aminlarning asosli xossalari birlamchi va ikkilamchi aminlarga nisbatan zaiflashadi.

Kimyoviy xossalari

Aminlar ammiak singari asos xossaga ega, bu azot atomining erkin elektron justi borligi uchun protonni biriktirib olish xossasi va alkilammoniy kationoni hosil qilishi bilan tushuntiriladi:



1. Tuz hosil qilish reaksiyasi

Aminlar asos xossalarni namoyon qilib, kislotalar bilan reaksiyaga kirishadi va tuz hosil qiladi:




Masalan:




2. Aminlarni alkillash

Aminlarga alkilgalogenidlar ta'sir ettirilganda, aminoguruhdagi vodorod atomi radikalalga almashinadi va tuz hosil bo'ladi:




3. Aminlarni atsillash

Birlamchi, ikkilamchi aminlarga organik kislotalar galogenan-gidridlari va angidridlari ta'sir ettirilsa, amidlar hosil bo'ladi:




4. Aminlarga nitrit kislota ta'siri

Birlamchi alifatik aminlarga nitrit kislota ta'sir ettirilganda (metilamindan tashqari) azot va spirt hosil bo'ladi:




Ikkilamchi alifatik aminlarga nitrit kislota ta'sir ettirilganda, nitrozaminlar hosil bo'ladi:



Uchlamchi alifatik aminlar nitrit kislota ta'siriga chidamli. Bu reaksiya natijasida nitrit kislotaning tuzlari hosil bo'ladi.

5. Uchlamchi aminlarga oksidlovchilarining ta'siri

Uchlamchi aminlar nadkislotalar bilan oksidlangunda N-oksidlarga aylanadi:




To'rtlamchi ammoniy asoslari

Uchlamchi aminlarga alkilgalogenidlar ta'sir ettirilganda, to'rtlamchi ammoniy tuzlar hosil bo'ladi:



Bu tuzlarga kumush hidroksidi ta'sir ettirilganda, tetraalkilammoniy asoslari olinadi:



Diaminlar


Molekulasida ikkita aminoguruh bo'lgan organik birikmalar **diaminlar** deyiladi. Ular o'ziga xos hidga ega, suvda yaxshi eriydi. Diaminlarni olish

usullari monoaminlarni olish usullariga o'xshaydi, biroq dastlabki modda sifatida bifunksional birikmalar ishlataladi:


Etilendiamin $H_2N-CH_2-CH_2-NH_2$ diaminlarning eng oddiy vakilidir. Tetrametilendiamin $H_2N-(CH_2)_4-NH_2$ esa kristall modda, 27°C da suyuqlanadi. Pentametilendiamin $H_2N-(CH_2)_5-NH_2$, 170°C da qaynaydigan zaharli suyuqlik. U aminokislotalar va oqsillarning parchalanishidan hosil bo'ladi. Geksametilen-diamin- $H_2N-(CH_2)_6-NH_2$, 42 °C da suyuqlanadigan qattiq modda. Sanoatda neylon tolasi va plastmassalar olishda muhim xomashyo hisoblanadi.

Aminospirtlar

Molekulasida amino- va gidroksil guruhlari bo'lgan organik birikmalar **aminospirtlar** deyiladi.




Aminospirtlarning katta ahamiyatga ega bo'lgan eng mulum vakili – etanolamin, etilenxlorigidringa ammiak ta'sir etib olinadi:



yoki etilen oksidiga ammiak biriktirib olinadi:




Etanolamin – quyuq moysimon suyuqlik, suv bilan istalgan nisbatda aralashadi, kuchli ishqoriy xossaga ega. Yuqorida keltirilgan usulda monoetanolamin bilan birga dietanolamin va trietanolamin ham hosil bo'ladi:




Etanolaminlar texnikada emulgatorlar va boshqa sirt faol moddalar sifatida keng ishlataladi. Gazlarni tozalash jarayonida, mahsulotlarni yoqish natijasida hosil bo'ladicani gazlar aralashmasidan karbonat angidridini tozalab olishda undan unumli foydalanadilar. Bu usul bilan olingan karbonat angidrid quruguz olish uchun sarflanadi.


Xolin – oksietiltrimetilammoniy gidroksidi.



Bu birikmada azot atomi uchta metil va bitta oksietil guruh bilan bog'langan. Xolin letsitinlar tarkibiga kiradi – hayvonot va o'simlik organizmlarida keng tarqagan yog'simon moddalardan iborat bo'lib, ularning tarkibidan ajratib olish mumkin. Sintetik usulda xolin odatdag'i haroratda trimetilaminga etilen oksidi bilan ishlov berib olinadi:




Xolin kuchli ishqoriy xossaga ega, kislotalar bilan oson reaksiyaga kirishib, tuzlar hosil qiladi. Xolini sirka angidridi bilan atsillash natijasida xolin atsetat hosil bo'ladi, u ko'pincha atsetilxolin ham deb nomlanadi:




Atsetilxolin tirik organizmda muhim biokimyoiy rol o'ynaydi, u asab retseptorlaridan mushaklarga hayajonlanishni uzatishga mediator hisoblanadi.

AROMATIK AMINLAR


Aromatik halqa bilan bog'langan aminlar **aromatik aminlar** deyiladi. Ular radikal soniga qarab birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi bo'ladi:



birlamchi amin
(anilin)





ikkilamchi amin
(difenil amin)




uchlamchi amin
(trifenil amin)

Bundan tashqari, uglevodorod radikallarining xarakteriga ko'ra, ular sof aromatik va aralash aromatik aminlarga bo'linadi:



Nomenklaturasi


Benzol halqasidagi o'rinxbosarlar holatini raqamlar bilan ko'rsatiladi yoki ular ikkitadan ko'p bo'lmasa orto-, meta-, para- izomerlar deb ataladi:



aminobenzol
(anilin)



1-nitro-4-amino-
benzol (*p*-nitroanilin)




dimetilaminobenzol
(N,N-dimetilaminin)




fenilaminobenzol
(benzol)


Toluoldan hosil qilingan aromatik aminlarga **toluidinlar** deb ataladi:




Aromatik aminlarning ksiloldan olingan hosilalariga **ksilidinlar** deyiladi:




meta-toluidin




para-toluidin



1,2,3-ksilidin




1,2,4-ksilidin




1,2,6-ksilidin

Olinish usullari


/ Birlamchi aromatik aminlar olinishning muhim usuli nitrobirikmalarni turli yo'llar bilan qaytarish bo'lib, bu reaksiya nitrobirikmalarning xossalari bo'lumida batasfil o'rGANILGAN edi (aromatik nitrobirikmalar bobiga qarang):



Sof holdagi ikkilamchi aromatik aminlar anilin tuzi bilan erkin anilinni o'zaro qizdirish orqali olinadi:




Difenilaminga potash va mis ishtirokida iodbenzol ta'sir ettirilganda, trifenilamin hosil bo'ladi:




2. Xlorbenzolga ammiakning ta'siri

Bu nukleofil o'r'in olish reaksiyasida avval degidrobenzol hosil bo'ladi va so'ngra ammiak birikadi:



3. Fenollarga ammiak ta'sir etish reaksiyasi



Fizikaviy xossalari

Aromatik aminlar o'ziga xos xarakterli hidga ega qattiq yoki suyuq moddalardir. Ularning zichligi birga yaqin. Oddiy quyi aminlar suvda kam eriydi, yuqori vakillari umuman erimaydi. Suvdagagi eritmalari lakmus va fenoltalein indikatorlarining rangini o'zgartirmaydi.

Kimyoviy xossalari




Birlamchi aromatik aminlar alifatik aminlarga qaraganda kuchsiz asosli xossalari ega, chunki azot atomidagi erkin elektron justi aromatik halqadagi yaxlit π -elektron bulutini bilan tutash tizim hosil qiladi. Ularning kuchli kislotalar bilan reaksiyasiidan tuzlar olinadi:



Ikkilamchi sof aromatik aminlar [difenilamin ($\text{C}_6\text{H}_5\text{-NH}_2$)₂-NH]ning asosli xossalarini ancha pasaygan, uchlamchi aromatik aminlar [trifenilamin ($\text{C}_6\text{H}_5\text{-N}(\text{C}_6\text{H}_5\text{-})_3$)] bunday xossalarini butunlay yo'qotgan.


Demak, aromatik aminlar molekulasiidagi fenil radikallarining soni ortib borishi ularning asosli xossalarini pasayishiga olib keladi.

1. Alkillash va atsillash reaksiyalari




2. Nitrit kislota ta'siri

a) Birlamchi aromatik aminlarning tuzlariga nitrit kislota ta'sir ettirilganda, diazobirkimlar hosil bo'ladi. Bu reaksiya diazolash reaksiyasi deyiladi:




b) Ikkilamchi sof aromatik yoki aralash aminlar nitrit kislota ta'sirida tegishli nitrozaminlar hosil qiladi:





d) Uchlamchi aralash aminlarga nitrit kislota ta'sir ettirilganda, nitrozilash reaksiyasi sodir bo'ladi:




3. Aromatik halqadagi vodorod atomini almashtrish

Aminoguruh benzol halqasining orto- va para-holatlarda turgan vodorod atomlarining harakatchanligini sezilarli darajada oshiradi, natijada ular ba'zi bir atom va guruhlar bilan oson o'r'in almashinish reaksiyalriga kirishadilar.

a) Galoidlash reaksiyasi

Odatdagi sharoitda anilinga bromli (yoki xlorli) suv ta'sir ettirilganda galogen atomlari aminoguruhga nisbatan *ortho*- va *para*- holatlardagi vodorod atomlari o'rnnini egallaydi:



b) Sulfo- va nitroguruhlarga almashinish


Sulfat kislota ta'sirida benzol halqasidagi vodorod atomlari sulfoguruhga almashinadi va osonlik bilan aminobenzolsulfokislota (sulfanil kislota)ni hosil qiladi:



Nitrat kislota ta'sirida ham aromatik aminlarning benzol halqasidagi vodorod atomlari xuddi shu tartibda reaksiyaga kirishadi va 2,4,6-trinitrohosilaga aylanadi.

d) Oksidlanish reaksiyasi

Anilin oksidlanganda, xinon va uning hosilalarini olish mumkin:




AROMATIK DIAZO – VA AZOBIRIKMALAR

Azo- va diazobirikmalar tarkibidagi azoguruh $\text{—N}\equiv\text{N—}$ bo'lib, shu guruhning bitta bo'sh valenti aromatik yoki alifatik radikal bilan, ikkinchisi uglerod bo'lman atom bilan bog'langan bo'lsa, diazobirikma, ikkala bog'i ham uglerodli radikal bilan bog'langan bo'lsa azobirikma hosil bo'ladi. Alifatik azo- va diazobirikmalar o'ta beqarordir.

Aromatik diazobirikmalar ikki xil: sof diazobirikmalar $\text{Ar-N}\equiv\text{N-X}$ va diazoniy tuzlar $[\text{Ar-N}\equiv\text{N}]X$ holida bo'ladi.

Olinishi


Birlamchi aromatik aminlarga nitrit kislota ta'sir ettirilsa, diazoniy tuzlar hosil bo'ladi. Anilinga xlorid kislota ishtirokida nitrit kislota ta'sir ettirilganda, fenildiazoni xlorid hosil bo'ladi:



Diazoni tuzlar hosil bo'lish reaksiyasi diazotlash deyiladi. Diazotlash reaksiyasi aromatik amin tuzlari eritmasiga nitrit kislota ta'sir ettirib, olib boriladi:



Reaksiya borishida aminga ortiqcha miqdorda ma'dan kislota va hosil bo'lgan tuzga əsta-sekin natriy nitrit qo'shiladi. Natriy nitrit kislotali muhitda sof nitrit kislotaga aylanadi va aromatik amin tuziga ta'sir etadi:



Fizik-kimyoiy xossalari

Diazoni tuzlar suvda oson eriydi. Ular kuchli kislota va kuchli asosdan hosil bo'lgan tuzlar kabi neytraldir. Diazoni tuzlar sof holda portlovchi modda bo'lganligi uchun ular ishtirokida reaksiyalar suvh eritmalarida olib

boriladi. Ular to'rtlamchi ammoniy tuzlariga o'xshaydi. Unga kumush gidroksid ta'sir ettirilganda, beqaror birikma – diazoniy gidroksid hosil bo'ladi:




Diazoniy tuzlarining reaksiyalari ikki guruhga bo'linadi:

- azot ajralib chiqishi bilan boradigan reaksiyalar;
- azot ajralib chiqmaydigan reaksiyalar.

Azot ajralib chiqishi bilan boradigan reaksiyalar

1. Diazoniy tuzlarining suvli eritmalari qizdirilganda, azot ajralib, fenol hosil bo'ladi:





2. Diazoniy tuzlari kaliy iodidi ishtirokida qizdirilganda iodbenzol hosil bo'ladi:



3. Diazoniy tuzlarga mis sianid katalizatori ishtirokida kaliy sianid ta'sir ettirilganda aromatik nitrillar hosil bo'ladi:

Azot ajralib chiqmaydigan reaksiyalar

1. Arildiazoniy tuzlariga kuchli elektrodonor o'rinxbosarli (OH , NH_2 , NHR , NR_2) aromatik birikmalar ishqoriy muhitda ta'sir ettirilsa, azobirikish reaksiyasi sodir bo'ladi:





2. Diazobirikmalarga qo'rg'oshin xloridining xlorid kislotadagi eritmasi ta'sir ettirilsa, bo'yoq va dori-darmon sifatida keng qo'llaniladigan arilgidrazinlar hosil bo'ladi:



Azobirikmalar

Azobirikmalar molekulasida azoguruh $-N=N-$ bo'lib, u ikkita uglevodorod radikal bilan bog'langan bo'ladi:





Azobirikmalarning muhim xususiyatlari rangli moddalar hosil qilishidadir. Azobirikish reaksiyasi o'tkazishdagi dastlabki reaksiyon moddalarining tuzilishiga qarab turli xil rangdagi azobirikmalar olish mumkin. Bunday moddalar azo-bo'yoqlar deyiladi.

Azobirikmalarning turli ranglarda bo'lishi ular molekulasi turkibidagi azoguruh $-N=N-$ bilan belgilanadi. Ummumai, azoguruh va shunga o'xshash atomlar guruhi **xromoforlar** deb ataladi. Modda molekulasida xromofor guruhi bo'lsa, shu modda rangdor bo'ladi.

Azobo'yoqlar

Molekulasida azoguruh $-N=N-$ dan tashqari gidroksil yoki birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi amin guruhi bor azobirikmalar oksi- va aminoazobirikmalardir:




Yuqorida bu moddalarning olinishi bilan tanishgan edik. Azobo'yoqlarning tuzilishi murakkab bo'lganligi uchun ular, odatda, sanoatda ishlataladigan texnikaviy nomlari bilan ataladi, masalan, "kislotali qizil-3-C" va hokazo.


Aminoazobirikmalar kislotalar bilan reaksiyaga kirishib, barqaror tuzlar hosil qiladigan asos xossali modda bo'lsa, oksiazobirikmalar ayni bir paytda ham fenol, ham kuchsiz asos xossasiga ega bo'lgan birikmalardir. Aminoazobirikmalar ishqoriy bo'yoqlar sinfini, ularning sulfokisiotalarini va oksisulfokisiotalarini esa kislotali bo'yoqlar sinfini tashkil etadi. Azobo'yoqlar eruvchanligini oshirish uchun ularning molekulasiiga sulfoguruh kabi qutblu funksional guruxlar kiritiladi.

Metiloranj (geliantin)

Metiloranj monoazobo'yoqlarning dastlabki vakilidir. U diazosulfamil kislota bilan dimetilanilin hidroxolnid tuzining azobirikish reaksiyasi natijasida hosil bo'ladi:



Hosil bo'lgan qizil rangdagi tuz xinoid tuzilishli bo'lib ($\text{pH} = 3,0 - 4,4$), agar unga ishqor qo'shsak, u sariq rangli benzoid tuzilishga o'tadi:



Metiloranj suvda juda yaxshi eriydigan, och sariq rangli modda bo'lib uning rangi eritma muhitiga qarab o'zgaradi. Ishqoriy va neytral muhitda metiloranj eritmasi sariq rangli bo'lsa, kislotali muhitda qizil rangga o'zgaradi. Uning bu xossasidan foydalanib, kimyo laboratoriyalarda indikator sifatida ishlatiladi.

Tayanch iboralar



Alifatik nitrobirkimlar. Nitrolash reaksiyasi. Nitrol kislota, psevdonitrollar. Atsi-nitro shakl, atsi-psevdokislota. Aromatik mono- va polinitrobirkimlar. Trotil (2,4,6 -trinitrotoluol).

Aminlar, birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi aminlar. Amino- va iminoguruh. Metameriya. Nitrozamin. N-oksidlar. To'rtlamchi ammoniy asoslari. Diaminlar. Aminospirt. Anilin, ksilidin.

Aromatik diazo- va azobirkimlar. Fenildiazoniyl xlorid. Azobeyoqlar. Metiloranj (geliantin).

Nazorat savollari

1. Quyidagi nitrobirikmalarni nomlang:



2. Quyidagi nitrobirikmalarning tuzilish formulalarini yozing: a) 2-nitrobutan, b) 3,3-dimetil-2-nitropentan, d) 3,5-dimetil-2-nitrogeksan, d) 4-nitropenten-2.

3. Neopentanga suyultirilgan nitrat kislota ta'sir ettirilganda qanday nitrobirikmalar aralashmasi hosil bo'ladi? Fikringizni izohlash uchun barcha reaksiya tenglamalarini yozing.

4. 75 g benzol nitrolanganda qancha nitrobenzol olinadi?

5. Toluolga nisbatan nitrobenzol nitrolash reaksiyasiga qiyin kirishadi. Sababini tushuntiring.

6. Trotol (trinitrotoluol) nima maqsadlarda ishlataladi?

7. Birlamchi, ikilamchi va uchlamchi nitrobirikmalar nitrit kislotasi bilan turlicha reaksiyaga kirishadi. Ularning farqini ko'rsatib bering.

8. 100 g nitrometan qaytarilganda qancha metilamin olinadi?

9. Nitrobirikmalarning atsi-nitro shakli deganda nimani tushunasiz?

10. Nima uchun ba'zida nitrobirikmalarni psevdokislotalar deb atashadi?

11. To'yingan monoaminlarning umumiy formulasini yozing.



12. CH_3N tarkibli metilamin qanday organik moddalar sinfiga mansub, uning tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi funksional guruhlar nomini aytинг.

13. Metilamin tarkibida radikal va aminoguruhlarning o'zaro ta'sirini tushuntiring. Molekuladagi elektron bulut taqsimotini ko'rsating.

14. Ammiak bilan aminlar orasida kimyoviy o'xshashlik va farq bormi? Bu o'xshashlik va farqlarni ko'rsatib bering.

15. $\text{C}_2\text{H}_5\text{N}$ tarkibli birlamchi aminlarning barcha izomerlarini yozing va nomlang.

16. Quyidagi formulasi keltirilgan barcha birikmalarni xalqaro nomenklaturaga muvofiq nomlang. Ularning qaysilari o'zaro izomerlar yoki gomologik qator vakillari hisoblanadi?



17. Nima uchun tarkibi va tuzilishi bir xil bo'lgan bir atomli spirtlarga nisbatan aminlar past haroratda qaynaydi?

18. Birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi aminlar nitrit kislota bilan turlicha reaksiyaga kirishadi va har xil mahsulotlar hosil qiladi. Reaksiya tenglamalarini yozing.

19. To'rtlamchi ammoniy asoslari nima? Ularning tuzilish formulasini yozib nomlang.

20. Tortlamchi ammoniy asoslarining eng muhim hosilalarini bilasizmi? Ular tabiiy birikmalar tarkibida uchraydimi? Misol keltiring.

21. Diazobirikmalarning tuzilish formulasini yozib ko'rsating.

22. Azobirikmalarning ko'pchiligi turli bo'yoqlar olishda ishlataladi. Buning sababi nimada?

23. Nega metiloranj eritma muhitiga qarab rangini o'zgartiradi va shuning uchun indikator sifatida ishlataladi? Fikringizni izohlab bering.

Adabiyotlar


1. Грандберг И.И. Органическая химия.- Москва.- "Дрофа".- 2002.- С.314-329.

2. Pirmuxamedov I. Organik ximiya.- Toshkent.- "Meditina".- 1987.- 283-303- betlar.

3. Вивюрский В.Я. Вопросы, упражнения и задач по органической химии с ответами и решениями.- Москва.- "Владос".- 1999.- С. 75-78.

AMINOKISLOTA VA OQSILLAR AMINOKISLOTALAR

Molekulasida amino – NH₂, va karboksil – COOH guruhlari tutgan birikmalarga **aminokislotalar** deyiladi. Formuladagi aminoguruhnning karboksil guruhiiga nisbatan joylashishiga ko'ra ular α-, β-, γ- va hokazo aminokislotalarga bo'linadi, Bular orasida α-aminokislotalar katta fiziologik ahamiyat kasb etadi, chunki barcha oqsillarning molekulasi ulardan tarkib topgan. Hayvonlar va o'simliklar tarkibidan ajratib olingan oqsillarning gidrolizlanishida tabiiy α-aminokislotalar ajralib chiqadi. Ular quyidagicha umumiy formulaga ega:



Nomenklatura va sinflanishi

Odatda, aminokislotalar uchun empirik nom keng tarqalgan. Ratsional nomenklaturaga ko'ra tegishli kislota nomiga amin so'zi qo'shib aytish bilan ularning nomi hosil qilinadi.

$\text{H}_2\text{N}-\text{CH}_2-\text{COOH}$	$\begin{array}{c} \text{NH}_2 \\ \\ \text{CH}_3-\text{CH}-\text{COOH} \end{array}$
glitsin (empirik)	alanin (tarixiy)
aminosirka kislota (ratsional)	α -aminopropion kislota (ratsional)



Aminokislotalar amino- va karboksil guruhlarning soniga, shuningdek, ular bog'langan radikalning tabiatiga qarab monoaminokarbon, diamino-karbon, aminodikarbon hamda ularning alifatik, aromatik radikal tutgan vakillari va geterotsiklik aminokislotalar sinfiga bo'linadi.

A. Monoamino bir asosli kislotalar



1. $\text{H}_2\text{N}-\text{CH}_2-\text{COOH}$ glitsin *gli-*
2. $\text{CH}_3-\underset{\text{NH}_2}{\overset{|}{\text{CH}}}-\text{COOH}$ alanin *ala-*
3. $\text{H}_2\text{N}-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{COOH}$ β -alanin
4. $\text{CH}_3-\text{NH}-\text{CH}_2-\text{COOH}$ metilglitsin (sarkozin) *sar-*
5. $\text{CH}_3-\underset{\text{CH}_3}{\overset{|}{\text{N}}}(\text{CH}_3)-\text{CH}_2-\text{COO}^-$ betain
6. $\text{CH}_3-\underset{\text{H}_3\text{C}}{\overset{|}{\text{CH}}}-\underset{\text{NH}_2}{\overset{|}{\text{CH}}}-\text{COOH}$ valin *val-*
(α - aminoizovalerian kislota)
7. $\text{CH}_3-\underset{\text{CH}_3}{\overset{|}{\text{CH}}}-\text{CH}_2-\underset{\text{NH}_2}{\overset{|}{\text{CH}}}-\text{COOH}$ leysin *ley-*
(α - aminoizokapron kislota)
8. $\text{H}_2\text{N}-(\text{CH}_2)_5-\text{COOH}$ ϵ -aminokapron kislota

B. Diamino bir asosli kislotalar



9. $\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\underset{\text{NH}_2}{\overset{|}{\text{CH}}}-\text{COOH}$ ornitin *orn-*
 NH_2 NH_2
(α, δ - diaminovalerian kislota)






D. Monoamino ikki asosli kislotalar





E. Oksiaminokislotalar







F. Oltingugurtli aminokislotalar




H. Aromatik aminokislotalar



I. Geterotsiklik aminokislotalar

22.  prolin
(α -pirrolidonkarbon kislota) *pro-*
23. HO  oksiprolin *Hypopro-*
24.  histidin *His-*
25.  triptofan
(β -indolil- α -alanin kislota) *tri-*

Aminokislotalar o'z navbatida uglevodorod zanjiridagi aminoguruhining karboksil guruhiga nisbatan qaysi holatda joylanishiha qarab α -, β -, γ - va hokazo aminokislotalarga bo'lindi:



Olinish usullari

1. **Oqsillardan olish.** α -aminokislotalarning tabiiy manbayi oqsil moddalar hisoblanadi. Ular hidrolyzlanishi natijasida -aminokislolar aralashmasi hosil bo'ladi. Bu aralashmalardan xromatografik usulda sof holdagi aminokislotalarning ayrim vakillarini ajratib olinadi.


2. -galogenkislotalarga ammiak ta'siri

α -galogenkislotaga ammiak ta'sir ettirilganda aminokislota hosil bo'ladi:





3. Slangidrinli usul (Shtekker reaksiyasi)

Aldegidlarga vodorod sianid va ammiak ta'sir ettirilganda dastlab nitrillar, ular gidrolizlanishidan esa tegishli α -aminokislotalar hosil bo'ladi.




4. α -Nitrokislotalar, oksimlar yoki α -oksokislotalar gidrazonlarining qaytarilishi:



5. Rodionov reaksiyasi

Aldegidlarga ammiak ishtirokida malon kislota ta'sir ettirilganda β -aminokislotalar olinadi.




Fizik va kimyoviy xossalari

Aminokislotalar shirin ta'mga ega kristall moddalar bo'lib, suvda yaxshi eriydi. Ko'pgina aminokislotalar shirin ta'mli bo'lsa-da, ba'zilari ozgina


yugimisiz ta'mli, ayrimlari achchiq bo'ladi. α -aminokislotalarning ko'pchiligi yuqori haroratda suyuqlanmasdan parchalanadi, shuning uchun ularni suyuqlanish haroratiga ko'ra identifikatsiyalash qiyin va bu ko'rsatkich o'mniga qog'oz xromatografiyasi yordamida R₁ qiymatini aniqlash bilan amalgalashiriladi. Bir asosli monoaminokislotalarning suvdagi eritmalari deyarli neytral muhitni ($\text{pH}=6,8$) ko'rsatadi. Ularning fizik konstantalari haqidagi ma'lumot 22-jadvalda keltirilgan.

Aminokislotalarning tarkibida NH₂ va COOH guruhlari borligi uchun ular kislota va asos xossalarni namoyon qiladi. Ularning eritmasiga kislota ta'sir etgandan so'ngra IQ spektrlari olinsa, karboksil guruhiга xos tebranish chastotalari, ishqor ta'sirida esa aminoguruhiга xos tebranish chastotalari qayd qilinadi.

Erkin aminokislota eritmasining IQ spektrida har ikki funksional guruhiга xos valent tebranish chastotalari kuzatilmaydi. Bu hodisa aminokislotalar amfoter xossaga ega ekanligini va ularni bipolyar ion (svitter-ion) shakida mavjud bo'llishini isbotlaydi:






Aminokislotalar amfoter xossaga ega bo'llgani uchun kislotalar va asoslar bilan ham reaksiyaga kirishib, tuz hosil qiladi:



Shuning uchun ham, α -aminokislotalarning tuz holsil qiluvchi xususiyatlari fizikaviy xossalarni belgilaydi. Ular yuqori suyuqlanish harorati bilan tavsiflanadi, suvda yaxshi eriydi, organik erituvchilarda yomon yoki umuman erimaydi.





Aminokislotalar elektr toki ta'sirida muhitning pH qiymatiga ko'ra anodga yoki katodga tomon harakatlanadi. Bu tajriba xromatografiya qog'ozni yoki gellarda amalgalashirilsa, elektroforez hodisasi deyiladi va aminokislotalarni ajratish uchun qo'llaniladi. Aminokislotalar tarkibidagi funksional guruhlari soni turlicha bo'llganligi uchun ularning suvdagi eritmasi karboksil- yoki aminoguruhi soniga ko'ra kislotali yoki ishqorli muhitni ko'rsatadi, ya'ni pH > 7 bo'ladi. Ammo titrlash egri chizig'ida pH ning shunday qiymati mavjudki, eritmadi -NH₃⁺ va -COO⁻ guruhlarining soni o'zaro teng bo'ladi, matijada elektroforez hodisasi kuzatilmaydi va bu nuqtaga **izolektr nuqtasi** deyiladi (22-jadval).

Glitsindan boshqa tabiiy aminokislotalar tarkibida asimmetrik α -uglerod atomi tutgani uchun ular optik faol moddalar hisoblanadi. Aminokislotalarning optik izomeriyasi sut kislotaning L(+) yoki D(-) shakllariga nisbatan aniqlanadi.










22 - j a d v a l .

Muhim aminokislotalarning fizik konstantalari

Formula	Nomi	T. suyuq. 0°C	Izoel. nuqta pH	pK (COOH)	pKa (NH ₂)
	Glitsin Gly G	292	6,0	2,3	9,6
	Alanin Ala A	297	6,0	2,3	9,7
	Valin Val V	315	6,0	2,3	9,6
	Leytsin Leu L	337	6,0	2,4	9,6


Formula	Nomi	T. suyuq. °C	Izoel. nuqta pH	pK (COOH)	pKa (NH ₂)
	Izoleysin Ile I	284	6,0	2,4	9,6
	Fenilalanin Phe F	275	5,5	1,8	9,1
	Prolin Pro P	299	6,3	2,0	10,6
	Izoleysin Ile I	284	6,0	2,4	9,6
	Serin Ser S	228	5,7	2,2	9,2
	Treonin Thr T	253	5,9	2,1	9,1
	Tirozin Tyr Y	344	5,7	2,2	9,1
	Asparagin Asp N	270	5,4	2,0	8,8
	Glutamin Glu Q	185	5,7	2,2	9,1
	Leytsin Lys L	224	9,7	2,2	9,0

Formula	Nomi	T _s suyuq. °C	Izoel. nuqta pH	pK (COOH)	pKa (NH ₂)
	Arginin Arg A	238	11,2	2,2	9,0
	Triptofan Trp	382	5,9	2,8	9,4
	Gistidin His H	277	7,5	1,8	9,2
	Sistein Cys C	178	5,1	2,0	10,3
	Metionin Met M	283	5,7	2,3	9,2
	Asparagin kislota Asp	270	2,8	1,9	9,6
	Glutamin kislota Glu	249	3,2	2,2	9,7

Barcha α -aminokislotalar uchun mis(H)-gidroksid bilan chirolyi kristallanuvchi misning to'q ko'k rangli ichki kompleks birikmasining hosil bo'lishi xarakterlidir. Bunday kompleks tuzlar **xelatlar** deyiladi:


Aminokislotalardagi karboksil guruhining reaksiyalari

Aminokislotalar asoslar bilan reaksiyaga kirishib, karboksilat ioni hisobidan tuz hosil qiladi:





Efirlar hosil bo'lishi

Aminokislotalarning efirlari (odatda, tuz ko'rinishida) vodorod xlорид исhtirokida aminokislotalarga spirit ta'sir ettirib olinadi:




Galogenangidridlар hosil bo'lishi

α -aminokislotalarning galogen angidridlari - tionil xlорид (SOCl_2) yoki fosfor xlороксиди (POCl_3) ta'sirida olinadi. Odatda, reaksiyani o'tkazishdan oldin aminoguruhni atsillash yo'li bilan himoyalamadi:




Aminokislatalardagi aminoguruhning reaksiyalari

Aminlarga o'xshab, aminokislolar ham mineral kislotalar ta'sirida tuz hosil qiladi:



Nitrit kislotaning ta'siri

Aminokislotalarga nitrit kislotasi ta'sir ettirilganda, oksikislota hosil bo'lib, surʼ va azot ajralib chiqadi:



Bu reaksiya yordamida aminokislotalardagi aminoguruhlarni miqdor jihatdan aniqlash mumkin.

N-atsil hosilalarining olinishi



Aminokislotalar karbon kislotalarning galogen angidridlari va angidridlari bilan o'zaro ta'sirlashganda N-atsil hosilalar sintez qilinadi:


Aminokislotalarning N-atsil hosilalari oqsillarni sintez qilishda katta ahamiyat kasb etadi.

α -Aminokislotalar uchun xarakterli reaksiyalar


1. α -Aminokislotalar maxsus ferment - dekarboksilaza yoki ayrim mikroorganizmlar ta'sirida CO_2 ajratib, aminlarga aylanadi:



2. Deaminlash reaksiyasi



3. Qayta aminlash reaksiyasi




Deaminlash, dekarboksillash va qayta aminlash reaksiyalari hayvonot va o'simliklar organizmlarda maxsus fermentlar ta'sirida nihoyat yumshoq sharoitda sodir bo'lishi mumkin.


α -, β -, γ - aminokislotalarni hir-biridan farqlovchi reaksiyalar

Aminokislolar harorat ta'sirida turlicha xossalarni namoyon qiladi va shunga ko'ra osonlik bilan ular ajratiladi:

1. α -aminokislolar qizdirilganda ularning ikki molekulasi uchun ikki molekula suv ajralib chiqadi vahalqali amid – diketopiperazin hosil bo'ladi:



2. β -Aminoklota qizdirilganda, ammiak va to'yinmagan karbon kislota hosil bo'ladi:



3. γ - yoki ϵ -aminokislolar qizdirilganda, laktamlar hosil bo'ladi:




Aminokislolarning ayrim vakillari

$\text{H}_2\text{N}-\text{CH}_2-\text{COOH}$ **aminosirka kislota** (*glitsin*, glikokol) 292°C da suyuqlanadigan rangsiz kristall modda. Suvda yaxshi eriydi. U deyarli barcha oqsillarning tarkibida uchraydi, ayniqsa, jelatin va tabiiy ipak (fibroin oqsili)da ko'p miqdorda bo'ladi.

$(\text{CH}_2)_2\text{CH}-\overset{\text{NH}_2}{\text{CH}}-\text{CH}_2-\text{CH}-\text{COOH}$ α -**aminoizokpron kislota** (*leytsin*) 337°C da suyuqlanadigan tovlanuvchi kristall modda. U gemoglobin, kazein, tuxum albumini kabi oqsil moddalarning asosini tashkil etib, gidroliz natijasida ko'p miqdorda hosil bo'ladi.

$\text{H}_2\text{N}-\text{CH}_2-(\text{CH}_2)_2-\overset{\text{NH}_2}{\text{CH}}-\text{COOH}$ α, ϵ -**diaminokpron kislota** (*lizin*) 224°C da suyuqlanadigan kristall, oqsillar tarkibida uchraydi.


$\text{H}_2\text{N}-\text{C}_6\text{H}_4-\text{COOH}$ **para-aminobenzoy kislota**. Uning ikki muhim hosilalari anestezin va novokain nomlari bilan og'riqni qoldiruvchi vosita sifatida keng ishlataladi.





Peptid va polipeptidlar

Peptid vaponi peptidlar $-\text{NH}-\text{CO}-$ peptid bog'lar bilan xarakterlanadilar. Amid bog'lari deb ataladigan bu bog' amin va karboksil guruhidan bir molekula suv ajralib chiqishi natijasida hosil bo'ladi. 1861- yilda bu haqidagi fikrni dastlab A.Ya. Danilevskiy aytgan edi. Bunday bog'lar oqsil asosini tashkil qiladi va shuning uchun **peptid bog'** deb ataladi. Oqsillar tuzilishining peptid nazariyasi keyinchalik E. Fisher va Gofmeyster tomonlaridan rivojlantirildi. Oqsil moddalarining optik faolligini birinchi marta 1852- yilda L. Paster isbotladi va *sinxonin* alkaloidi yordamida ularni ajratdi. 1903-1907- yillarda davomida E. Fisher oqsil moddalarini sintez qildi. Bugungi kunda oqsillarning tuzilishi va peptid bog'lardan iborat tabiiy polimer ekanligi to'liq isbotlandi.

Ikki α -aminokislota molekulasidan bir molekula suv ajratib olinsa, dipeptidlar deb ataluvchi chala angidridlar hosil bo'ladi:



Dipeptidlar yangi aminokislota molekulasi bilan reaksiyaga kirishish qobiliyatiga egabosib, ular yana yangi chala angidrid-tripeptid hosil qiladi:



Xuddi shu usulda tetra-, penta-, geksa- va hokazo peptidlar olish mumkin. Ular umumiy qilib **polipeptidlar** deb ataladi. Peptid bog'lari sintezining juda qulay va perspektiv usulini 1960- yilda AQSH olimi Merifild taklif etdi. Bu usul **qattiq fazada peptidlar olish usuli** degan nom bilan mashhur bo'ldi. Polipeptidlar oqsil molekulasi hosil bo'lishida juda muhim rol o'yaydi. Peptidlar oqsillarning qisman gidrolizlanishidan hosil bo'ladi.


Hozirgi kunda α -aminokislotalarni peptidlarga aylantirishning ko'pgina mukammal usullari ishlab chiqilgan. Bir muncha oddiy tuzilishdagi tabiiy

oqsillardan insulin, ribonukleaza, vazopressin, oksitotsin va boshqa vakiliari olimlar tomonidan sintez qilingan.

OQSILLAR

Oqsil moddalar barcha o'simlik, hayvon va mikroorganizmlar hayoti uchun juda zarur moddalardir. Tirik organizm oqsilsiz yashay olmaydi. Oqsilni bilish hayotiy jarayonlarni o'rganish demakdir. Har qanday oqsil makromolekulasi zanjir uzunligi, tarkibi va tuzilishi bilangina belgilanib qolmasdan, balki bu peptid zvenolarining metastabil konformatsiyalar hosil qilishi bilan ham farq qiladi. Oqsil moddalarining to'lq kislotali yoki fermentativ gidrolizlanishi natijasida aminokislotalar aralashimasi hosil bo'ladi. Oqsil tarkibida 25 tagacha turli α -aminokislotalar bo'ladi va ulardan cheksiz miqdoriy nisbatda va turli tartibdagi polimer zanjirlarini hosil qilishi mumkin. Bu oqsil moddalarining juda katta molekulalar massasi (10^4 - 10^5) va g'ovat xilma-xilligini belgilaydi. Ayrim oqsillar suvda eriydi, ammoy k'echiligi kolloid eritma hosil qiladi. Ularning eritmasisiga anorganiq tuz eritmalarini, og'ir metallarning tuzi, organik erituvchilar yoki harorat bilan ta'sir etilganda cho'kma hosil qiladi. Bu hodisa oqsillarning **denaturatlanishi** deyiladi.

Oqsillar quyidagi sifat reaksiyalariga kirishadi va ularni aniqlashda muhim omil hisoblanadi:



37-rasm. Oqsilning spiral tuzilishi.

1) *Biuret reaksiyası* – ishqorli muhitda barcha oqsil eritmalariga mis(H) tuzlari ta'sir etilganda, binafsha rang hosil bo'ladi.

2) *Ksantoprotein reaksiyası* – ayrim oqsil moddalariga konsentrangan nitrat kislota ta'sirida sariq rang paydo bo'ladi va so'ngra ammiak ta'sirida bu rang zarg aldoq tusga o'tadi.


3) *Millon reaksiyası* - (tirozinga xos reaksiya) oqsil moddasiga simob nitrating nitrat va nitrit kislota bilan qo'shilgan eritmasi ta'sir etilganda qizil-jigarrang cho'kma tushadi.

4) *Ningidrin reaksiyası* – barcha oqsillar ningidrinning suvli eritmasi ta'sirida ko'k rang hosil qiladi.


Bugungi kunda oqsil molekulalarining bir qancha polipeptid zanjirlardan iborat ekanligi isbotlangan. Har xil polipeptid zanjirlar majmuasi ochiq, tarmoqlangan va halqali holda bo'ladi.

Oqsil molekulasining polipeptid zanjirida aminokislotalarning ma'lum tartibdagi joylashuvi oqsillarning *birlamchi strukturasi* deyiladi. Bugungi kunda 1000 dan ortiq oqsillarning birlamchi strukturasi aniqlangan, ularning ayrimlari 400 dan ortiq aminokislotalar tutadi (transaminaza tarkibida 410 ta aminokislota qoldig'i mayjud). Bu tuzilish oqsillarning barcha xossalarini tushuntira olmaydi. Fazoda oqsil molekulasidagi aminokislota qoldiqlari valent burchaklarining yo'nalishiga mos ravishda spiralsimon buralgan bo'lib, bu uning ikkinchi tartibi yoki *ikkilamchi strukturasi* deyiladi. Ba'zi murakkab oqsillar uchun uchlamechi va hatto to'rtlamchi strukturalar ham aniqlangan.

Tuzilishi aniqlangan birinchi oqsil – *insulin* gormonidir. Insulin molekulasida 21 tava 30 ta aminokislota qoldig'idan tashkil topgan polipeptid zanjirlari mayjud, ular disulfid bog'lari orqali birikkan. Muhim fermentlardan hisoblangan *ribonukleaza* 124 ta amino-kislota qoldig'idan iborat. Ovqat hazm qilish jarayonini belgilovchi *ximotrip-sinogen* fermenti 246 ta aminokislota qoldiqlaridan iborat, uning molekulyar massasi 27000 ga teng.



38-rasm. Oqsil molekulasi spiral ko'rinishi.



39-rasm. Oqsil molekulasining N-H va C=O guruhlari orasidagi vodorod bog'lari yordamida barqa rorlashuvi.

Oqsillarning biologik vazifalari turli-tumandir. Ularning ayrimlari moddalar almashinuvini boshqaruvchi gormon vazifasini bajaradi (insulin qon tarkibidagi qand moddasi miqdorini boshqaradi), boshqalari organizmda biologik jarayonlarning katalizatori (fermentlar) sifatida fuoliyat ko'rsatsa va nihoyat, uchinchilari biologik qurilish materiali vazifasini o'taydi (kollagen tog'ay moddalar asosini tashkil etadi, keratin soch to'qimasi mustahkamligini amalga oshiradi). Ayrim oqsil moddalar qon tarkibida har vil kasalliklarga qarshilik ko'rsatuvchi antitelalar xizmatini bajaradi, nukleoproteidlardan esa irsiy belgilarni tashuvchi genlarning tarkibiy qismini belgilaydi va hujayralarning bo'linishida bu informatsiyalarini uzatadi. Juda muntazam tuzilishga ega bo'lgan viruslar ham oqsil qobig'idagi nukleoproteidlardir. Ularning tuzilishi shu darajada tartibliki, hatto viruslar kristall holida ajratib olingan. Quyidagi 23-jadvalda ayrim oqsillar haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Oqsil moddalar tarkibiga ko'ra oddiy oqsillar va murakkab oqsillarga bo'linadi, ular o'z navbatida tarkibi va tuzilishi ko'ra yana bir necha guruhlarga ajratiladi. Oddiy oqsillar **proteinlar**, murakkablar esa **proteidlar** deb ataladi. Proteinlar gidrolizlanganda faqat aminokislotalar hosil bo'ladi. Proteidlarning gidroliz mahsuloti ichida aminokislotalardan tashqari fosfat kislota, geterohalqali birikmalar, uglevodollar va boshqa organik moddalar bo'ladi.

Proteinlar

Har xil erituvchilarda eruvchanligiga qarab, ular kichik guruhlarga bo'linadi.

Albumin va globulinlar

Albuminlar tuxum oqida, qon zardobida, sutda bo'ladi, suvda yaxshi eriydi. Eritmalariga ammoniy sulfati qo'shib to'yintirilganda cho'kmaga tushadi. Globulinlar suvda erimaydigan oddiy oqsillar. Globulinlarning molekulasi albumin molekulasidan kattaroq, qonda, sutda, tuxumda, muskullarda va o'simliklarning (kanop, no'xat) urug'ida bo'ladi.

Gistonlar – asosli xossani namoyon qiluvchi oqsillar, ishqor va kislotalarning suyultirilgan eritmalarida eriydi, etil spiriti ta'sirida cho'ktiriladi.

Prolaminlar – donli o'simliklar urug'ida uchraydigan oqsil, non pidlunganda uning sifatini belgilaydigan glyutenga aylanadi.

Skleroproteinlar – mexanik barqaror, suvda, tuzlar eritmasi, kislota va ishqor ta'sirida erimaydigan organik moddalar. Teri, soch, tirnoq, shox tarkibiga kiruvchi **keratin**, hayvonlarning terisi tarkibidagi **kollagen**, i pak tarkibidagi **fibroin** shular jumlasisidandir. Odatda, proteinlar jumlasiga proteinoidlar deb ataluvchi oqsillar ham kiradi.

Ayrim oqsil moddalari haqidagi ma'lumotlar

Oqsil	Molekulalarni massasi	Molekula shakli	Manbayi	Bajaradigan funksiyasi
Insulin	6 000	Eritmadagi assotsiat	Me'da osti bezi	Qondagi qand miqdorini boshqaradi.
Ribonukleaza	13 000		- " -	Ribonuklein kislotalar gidrolizi.
Lizotsim	14 000	Cho'zilgan ellipsoid	Tuxum oqsili	Bakteriya hujayralari tuzi lishini buzadi.
α -Ximotripsin	25 000	Eritmadagi assotsiat	Me'da osti bezi	Murakkab efir va peptid bog'lar gidrolizi.
Papain	21 000		Papayi mevasi lateksi	Peptid bog'lar gidrolizi.
Gemoglobin	66 700	Sferik tuzilishga yaqin	Qizil qon tana chasi	To'qimalarga kislород ташish.
Katalaza	250 000	Kubsimon	Jigar va buyrak qon plazmasi	H_2O_2 ni parchalash
Fibrogenin	330 000	Cho'zinchoq		Qonni ivitish

Proteidlar

Proteidlar tarkibidagi oqsildan tashqari boshqa moddalarning turiga qarab bir qancha guruhlarga bo'linadi. Biz quyida ularning ichidagi muhimlarini keltiramiz.

Fosfoproteidlar – gidrolizlanganda oqsil modda va fosfat kislotaga ajraladi. Tuxum sarig'i, vitellin oqsili, kazeinda bo'ladi. Molekulada fosfat kislotasi qoldig'i serindagi OH-bilan bog'langan. Fosfoproteidlarning eng muhim vakili sut tarkibidagi kazein moddasidir. Bu modda kuchli kislotali xossaga ega bo'lib, karbon kislotasi tuzlariga ta'sir etilganda ularni parchalab, karbonat angidrid ajralishiga sabab bo'ladi.

Glikoproteidlar – gidrolizlanib, oqsil va uglevodlar hosil qiladi. Asosan jag'osti bezlari islab chiqadigan so'lak tarkibida va shoxda bo'ladi, suvda erimaydi, ishqor eritmalarida eriydi. So'lak tarkibidagi shilliq modda xossalarni belgilaydi, ular suyultirilganda ham uzun tola hosil qilish xususiyatini yo'qotmaydi. Glikoproteidlar ba'zida glikozidlar deb ham aytildi.

Xromoproteidlar – oqsil tarkibida bo'yoq moddalari ham uchraydi. Xromoproteidlarning eng muhim vakili gemoglobinidir. U globin oqsili va gemandan iborat, organizmda kislorod tashuvchi vazifani bajaradi. Gem tarkibida azot tutgan makrotsiklik geterohalqaning temir ioni bilan hosil qilgan kompleks birikmasidir.

Nukleoproteidlar – gidrolizlanib oddiy oqsil va nuklein kislotalariga parchalanadi, hujayra yadrolarining tarkibiga kiradi. Nuklein kislotalarining gidroliz mahsulotida esa uglevod, fosfat kislota, purin va pirimidin asoslari bo'ladi. Nukleoproteidlar ishqorlarda eriydi, kislotalarda erimaydi.

Lipoproteidlar - oqsil, yog' yoki yog'simon moddalardan tarkib topgan.

Tabiiy va sun'iy oziq mahsulotlari

Tirik organizmning normal faoliyati uchun suv va anorganik tuzlardan tashqari oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilinganda oqullar, uglevodlar, moylar, yog'lar va oz miqdorda boshqa organik moddalarni ham qabul qilishi kerak. Cqsillar hidsiz va ta'msiz, rangsiz moddalarni bo'lgani uchun inson uni erkin holda iste'mol qila olmaydi. Kishilik jamiyatni eng ko'p istemol qiladigan baliq uvildirig'ida 26-27%, no'xatda-22% gacha, baliqda 13-18%, go'shtda 12-14%, sutda 3,4%, kartoshkada 2%, rezavor mevalarda 0,2-1,5% gacha oqsil bo'ladi.

Inson oziq mahsulotiga oqsil moddalarning qo'shilishi ularning sifatini buzib yuboradi, ya'ni organoleptik xususiyatlari o'zgaradi, natijada uni qabul qilish qiyinlashadi.

Kishilik jamiyatining taomlanishini kuzatsak, ayrim insonlar juda ko'p, ayrimlari juda oz miqdorda oqsillarni iste'mol qiladi. Bularning har ikkisi ham inson sog'ligi uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sportchilarning ratsional taomlanishini kuzatuvchi olimlar ularga oqsil o'rniqa ko'proq uglevodlar iste'mol qilishni tavsiya etishayapti, chunki ortiqcha oqsil buyrak faoliyatini qiyinlashiradi. Ko'p miqdorda oqsilning iste'mol qilinishi osteoporoz (suyaklarning noziklashuvi va mo'rtligi) kasalligiga olib keladi. Ortiqcha iste'mol qilingan oqsilni parchalash uchun organizmda muhim funksiyani bajaruvchi kalsiy ionlarining sarfi oshadi. Bularidan tashqari, MDH aholisi oqsil inoddasini, asosan, uy va yovvoyi hayvonot dunyosi go'shtlari orqali o'z organizmiga qabul qilishi bizgama'lum, bu esa tanamizda ortiqcha lipidlarni xolesterin to'planshiga olib keladi. Bu salbiy ta'sir aterosklerozning kuchayishiga sabab bo'ladi. Ko'pgina tarraqqiy etmagan davlatlarda aholi esa oqsilni kuniga 30 g atrofida qabul qiladi. Olimlarning hisoblashicha, erkaklar

bir kunda 56-61 g, ayollar 44-48 g oqsil iste'mol qilishi maqsadga muvofiqdir. Yoshlar, ayniqsa organizmi tez o'sayotgan bolalar uchun bu miqdor bir munkha ko'p bo'lishi lozim, ya'ni o'rtacha bolaning har 453,6 g tana vazniga 0,35 g oqsil sarfi meyor jihatdan to'g'ri deb qabul qilingan.

So'nggi yillarda sifatli oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishning yangi yo'nalishi rivojlanib bormoqda. Uning mohiyati turli oqsil birikmalarini sun'iy oziq mahsulotlariga aylantirishdan iborat. Bu sun'iy oziq-ovqatlar sifati, tashqi ko'rinishi, ta'mi, hidi bilan biz o'rgangan taomlarni eslatishi, ulardan keskin farq qilmasligi lozim. Aksincha, ular quvvat berish qobiliyati va tarkibi jihatdan bizning an'anaviy taomlarimizdan ustun bo'lishi, o'simlik mahsulotlarini to'la almashtirishi maqsadga muvofiqdir. Inson va hayvonot dunyosi taomlanishining fiziologik tajribalari shuni ko'rsatdiki, ayrim aminokislotalar oziq mahsulotlari bilan birga berilishi lozim, chunki ularni tirik jonzotlarning organizmi sintez qila olmaydi. Tirik organizmnинг hayoti faoliyatida ketokislotalar bilan ammiakning o'zaro ta'siri natijasida hosil bo'ladigan aminokislotalar "almashinadigan" va faqat iste'mol yo'li bilan qabul qilinadiganlari — "almashinmaydigan aminokislotalar" deb aytildi.

Almashinadigan aminokislotalar: glitsin, alanin, glutamin kislota, asparagin kislota, serin, sistin, sistein, tirozin, prolin, oksiprolin, arginin.

Almashinmaydigan aminokislotalar: valin, treonin, leytsin, izoleytsin, metionin, fenilalanin, triptofan, lizin, gistidin.

Yuqori sifatlari oqsil ozig'i har ikki xil aminokislotalarni ham o'z tarkibida tutishi kerak. Go'sht mahsulotlaridan tashqari sabzavot va poliz ekinlari ham tirik organizmni 20% gacha oqsil bilan ta'minlaydi. Masalan, boshoqli o'simliklar bilan 12% gacha, loviya va soya kabi dukkakli ekin mahsulotlari orqali 30% gacha oqsil iste'moli bajariladi. Inson organizmining soch to'kilishi, teri kasalliklari, qo'l va oyog'idagi tirnoqlarning ko'chishi, ayollarning homiladorligi, kuyganda va suyaklari singan davrlarida ko'p miqdorda oqsil iste'mol qilishini taqazo etadi.

Tayanch iboralar

Aminokislotalar. Monoamino bir asosli -, monoamino ikki asosli -, diamino bir asosli aminokislotalar. Oksiaminokislotalar. Oltingugurtli aminokislotalar. Aromatik va geterohalqali aminokislotalar. Amino-kislotalarning amfoterligi, bi polyar ion yoki svitter-ion. Izoelektrik nuqta. Xelat birikmalar. Aminokislota-larga dekarboksilaza fermenti ta'siri. Peptidlar, peptid bog, polipeptidlar. Oqsillar. Oqsillarning denaturatlanishi. Oqsillarning sifat reaksiyalari (biuret, ksantoprotein, Millon, ningidrin reaksiyalari). Oqsillarning birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi va to'rtlamchi strukturalari.

Oddiy va murakkab oqsillar (protein va proteinler). Sun'iy oziq mahsulotlari. Almashinadigan va almashinmaydigan aminokislotalar.

Nazorat savollari

1. Aminopropion, aminomoy, aminokapron, aminoenant kislotalarining formulalarini yozing.

2. a) $C_3H_7O_2N$ va b) $C_4H_9O_2N$ tarkibli aminokislotalarining barcha izomerlarini yozing va ularni xalqaro nomenklaturaga ko'tra nomlang.

3. Galogenalmashgan kislotalarga ammiak ta'sir etish orqali quyidagi aminokislotalarning olinish reaksiya tenglamalarini yozing: a) α -aminomoy kislota, b) β -aminovalerian kislota, d) δ -aminokapron kislota, g) γ -aminoenant kislota.

4. Qanday kimyoviy reaksiyalar yordamida propendan aminopropion va ugleroddan aminosirka kislotalarini olish mumkin?

5. Bir xil miqdordagi amino- va karboksil guruhlari tutgan aminokislotalarning suvdagi eritmalarini indikatorlarga ta'sir etmaydi. Buning sababini tushuntirib bering.

6. Alaninning a) natriy gidroksid, b) sulfat kislota, d) metanol bilan o'zaro reaksiya tenglamalarini yozing.

7. Qanday kimyoviy bog'larga peptid boglari deb aytildi?

8. Aminlar va aminokislotalarni qaysi kimyoviy usul bilan bir-biridan ajratish mumkin?

9. Almashinadigan va almashinmaydigan aminokislotalarning farqini bilasizmi? Ularning formulalarini yozing va nomlang.

10. Uglevodlar, yog'lar va oqsillarning molekulasida qaysi kimyoviy elementlar uchraydi?

11. Nega oqsillarga polimerlar deb qaraymiz? Boshqa polimerlar bilan oqsil molekulasining farqlarini ko'rsatib bering.

12. Oqsillarning birlamchi strukturasini ko'rsating va tushuntiring.

13. Oqsil molekulasida ikkilamchi struktura bo'lishining mumkinligini nima bilan tushuntirasiz?

14. Oqsillar uchun qanday kimyoviy bog' xosdir?

15. Oqsil moddalar tirik organizmda qanday funksiyalarni bajaradi?

16. Faqatgina oqsil molekulalari uchun xos bo'lgan maxsus biologik faoliyatlarini tushuntiring. Qaysi hollarda bu faoliyat yo'qoladi?

17. Tarkibida a) uch molekula sistein, b) uch molekula serin, d) bir molekula glitsin va ikki molekulani tutgan tripeptidlarning formulalarini yozing.

18. Oqsil moddalarining gidrolizi natijasida qanday birikmalar olinadi? Gidroliz reaksiya tenglamasini yozib tushuntiring.

19. Quyidagi tripeptidlар gidrolizlanganda hosil bo‘ladigan aminokislotalarning formulalarini yozing: a) glitsilserilalanin, b) glitsilalanilsistein, d) alanil-sisteilserin.

20. Tarkibi $C_8H_{15}N_3SO_4$ formula bilan ifodalangan oddiy oqsil zvenosi gidrolizlanganda, glitsin, alanin va sistein hosil bo‘ldi. Shu tripeptidning barcha izomerlarini yozib ko‘rsating.

21. Oqsil tutgan taom iste’mol qilinmasa, tirik organizm yashash funksiysini yo‘qotib, kasallanadi. Buning sababi nimada?

22. Tabiiy jun va sintetik lavsan tolalarini bir-biridan farqlay olasizmi? Fikringizni izohlang.

23. Oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibidagi uglevodlar, yog‘lar va oqsil moddalari inson organizmida fermentlar ta’sirida parchalanadi. Shu parchalanishning oxirgi mahsulotlari sifatida nima hosil bo‘ladi?

24. Nima uchun o’simlik tarkibidagi oqsil moddalari tirik organizmlardagi oqsillarga nisbatan sifat jihatdan past baholanadi? Javobingizni asoslab bering.

Adabiyotlar

1. Грандберг И.И. Органическая химия.- Москва.- “Высшая школа”. 1980.-С. 369-392.

2. Pirmuxamedov I. Organik ximiya.- Toshkent.- “Meditina”.- 1987.- 275-282, 373-378 - betlar.

3. Вивюрский В.Я. Вопросы, упражнения и задачи по органической химии с ответами и решениями.- М.: “Владос”.- 1999.- С. 79-83.


4. Ладингтон Э., Дейль Г., Гамлешко И. Ключи к здоровью.- Тула.- Изд-во источник жизни.- 2003.- С. 37-46.

UGLEVODLAR

Umumiy formulasi $C_n(H_2O)_n$ bo‘lib, tarkibida uglerod, vodorod va kislorod atomlari tutgan organik moddalar sinfiga **uglevodlar** deyiladi. Ular molekulasida hidroksil va aldegid yoki keton guruhlari tutgani uchun uglevodlar kimyoviy xossalari jihatidan oksialdegid va oksiketonlarga o‘xshaydi.

Uglevoldlarning oddiy vakillari – glukoza $C_6H_{12}O_6$ saxaroza $C_{12}H_{22}O_{11}$ va kraxmal $(C_6H_{10}O_5)_n$ ning formulasi yuqoridagi umumiy formulaga muvofiq keladi.

Uglevodlarning sinflanishi




Monosaxaridlar ko'p atomli aldegid - yoki ketospirtlar bo'lib, zanjirdagi uglerod atomlarining soni to'rt, besh, olti va undan ortiq bo'lishi mumkin.


Polisaxaridlar o'simlik dunyosi va tirik organizmlarda bo'ladigan biologik sintez jarayonida monosaxaridlardan hosil bo'ladi, bunda molekula tuzilishi murakkablashib boradi va polikondensatlanish paytida suv ajralib chiqadi:



MONOSAXARIDLAR

Monosaxaridlar ko'p atomli aldegid yoki ketospirtlar hisoblanadi. Monosaxaridlar tetroza (4 C atomi), pentoza (5 C), geksoza (6 C), geptoza (7 C) va hokazolarga bo'linadi:





Izomeriya va konfiguratsiyasi

Aldozalar va ketozalarning deyarli barchasida asimmetrik uglerod atomi bor (yulduzchalar bilan belgilangan). Monosaxaridlardagi asimmetrik uglerod atomlari ($N = 2^n$ bu yerda n – asimmetrik uglerod atomlar soni) bilan fazoviy izomerlar soni orasida o‘zaro bog‘liqlik bor. Har bir optik izomer uchun uning tarkibidagi asimmetrik uglerod atomlari soniga muvofiq bitta optik anti podi mavjud bo‘ladi, qolganlari esadiastereomerlar hisoblanadi. Masalan: trioza bir juft, tetroza ikki juft, pentoza to‘rt juft, geksoza sakkiz juft anti podni tashkil etadi.

$$1C : N = 2^n = 2^1 = 2$$



$$3C : N = 2^n = 2^3 = 8$$


$$2C : N = 2^n = 2^2 = 4$$

$$4C : N = 2^n = 2^4 = 16$$

Har bir juft bir xil nom bilan aytildi, lekin ularning nomi oldiga D-yoki L- harfi qo‘shiladi. Ular bir-biriga nisbatan stereoizomerlar deb hisoblanadi.


Stereoizomerlar konfiguratsiyasi Fisherning proyeksion formulalari bilan oson ifodalanadi. Masalan, D-glukoza yoki L-glukozaning proyeksion formulasi quyidagicha yoziladi;





40-rasm. Glukoza stereoisomertalarining projeksiyon formulalari. Har bir aldogeksozoa o'zidan boshqa biriga enantiomer va qolgan 14 tasiga diastereomerdir.

D – yoki L – harflari optik faol izomerlar qutblanish tekisligining o'ngga yoki chapga burish yo'nalishini ko'rsatmaydi, balki konfiguratsiya turini ifodalaydi. Barcha monosaxaridlarning optik izomerlari glitserin aldegidii tuzilishiga qiyoslab aniqlanadi. Glitserin aldegidining ikkita anti podlari mavjud.




Monosaxaridlarning qaysi genetik qatorga mansubligini bilish uchun ular glitserin aldegididi bilan solishtiriladi. Aldegid guruhidan boshlab sanalganda, oxirgi assimetrik uglerod atomining o'rribosarlari joylashishi glitserin aldegididi kabi bo'lsa, masalan, tabiiy glukoza D-qatorga mansub bo'ladi [D(+)-glukoza] va qutblanish tekisligini o'ngga burish xossasiga ega. Demak, burish belgisini ifodalash lozim bo'lsa, monosaxarid konfiguratsiyasi ko'rsatilgandan so'ng burish belgisini qavs ichiga olib yoziladi (yuqoridagi glukoza va glitserin aldegididi formulalarini solishtiring). Shuni hisobga olish lozimki, monosaxarid eritmalarining qutblangan nur tekisligini chapga yoki o'ngga burishi molekula tarkibidagi boshqa assimetrik uglerod atomi o'rribosarlarining fazoviy joylanishi bilan belgilanadi.

Karbonil guruhiga qo'shni uglerod atomining konfiguratsiyasi bir-biridan farq qiladigan monosaxaridlarga epimerlar deyiladi. Masalan, D-glukoza va D-mannoza solishtirilganda< glukozadagi C2 atomning gidroksil guruhda proyeksion formulaning o'ng tomonida, mannozaniki esa chap tomonida joylashgan.

Monosaxarid formulasining halqali shaklli



Glukozaning chiziqli yoki proyeksion aldegid formulasi uning ayrim xossalari tushuntirishga imkon bermaydi, buni faqatgina halqali formula bo'yicha izohlash mumkin. Bu formula oksid yoki yarim atsetal formula deb ataladi. Glukoza va boshqa monosaxaridlar formulasining halqali shakli quyidagicha ifodalanadi: beshinchchi uglerod atomidagi gidroksil guruhining vodorod atomi karbonil guruhidagi π -bog'ning uzilishi hisobidan aldegid guruhni kislordi bilan birikadi. Yangi hosil bo'lgan gidroksil guruh barcha gidroksil guruhlari bilan bir xil xossaga ega emas. Glukoza vodorod xlorid ishtirokida suvsiz metil spirt bilan qizdirilganda, molekulasiidagi bitta gidroksil

guruh vodorodi metil guruhga almashinib, metilglukozid hosil bo'ladi. Shuning uchun birinchi uglerod atomidagi yangi hosil bo'lgan gidroksil guruh -glukozid gidroksili deb ataladi.




Demak, C-1 va C-5 uglerod atomlari orasida kislorod atomi orqali bog'langan vujudga kelib, olti a'zoli yopiq zanjir hosil bo'ladi. Bu o'zgarishlarning natijasida glukozaning yarim atsetal shakli va glukozid gidroksili hosil bo'ladi:

Natijada birinchi uglerod atomi ham asimmetrik bo'lib qoladi. Birinchi uglerod atomi bilan bog'langan vodorod atomi va yarim atsetal gidroksili fazoda o'zaro qarama-qarshi ikki holda joylashishi mumkin. Birinchi holda yarim atsetal gidroksili boshqa gidroksillar qaysi tomonda bo'lsa, o'sha tomonda bo'ladi. Boshqacha aytganda, yarim atsetal gidroksili glukozaning C⁶ – atomi bilan bog'langan gidroksil guruhiga nisbatan shartli sis-holatda joylashgan. Glukozaning bu shaklini **α -glukoza** deb atash qabul qilingan. Ikkinci holda esa yarim atsetal gidroksil qarama-qarshi tomonda joylashgan, ya'ni C⁶ – gidroksil guruhiga nisbatan trans-holatda joylashgan bo'ladi va bu shakl **β -glukoza** deb yuritiladi. Glukozaning α - va β -shakllari bir-biriga optikanti podlar emas, balki **diastereomerlar** bo'lib hisoblanadi. Aldozalarning birinchi uglerod atomi konfiguratsiyasi bilan bir-biridan farqlanuvchi halqali diastereomerlarga **anomerlar** deyiladi.




D-glukozaning α - va β - izomerlarini "perspektiv" formulalar bilan ifodalash mumkin (Xeuors formulalari). Bu formulalarda kislorod atomi formulaning yuqori o'ng tomonida yoziladi. Odatda, halqa tarkibida kiruvchi uglerod atomlari yozilmaydi, balki ularning o'rni raqam bilan ko'rsatiladi. Ularning shartli qabul qilingan o'rnidan vertikal chiziqlar chiziladi va bu chiziqchaning ikki uchiga fazodagi o'rniga ko'tra vodorod atomi va gidroksil guruhlari qo'yib chiqiladi.



Monozalarning yarim atsetal shakllarini yozib, nomlash oson bo'lishi uchun Xeuors ularni gidrogenlangan piran va furan geterohalqalarining hosilalari deb qarashni taklif etdi. Shunung uchun besh a'zoli halqa tutgan monozalarni furan hosilasidek furanoza deb atash va olti a'zoli halqa hosilalariga piranozalar deyish qabul qilingan. Shu qoidaga amal qilgan holda nomlash uchun tegishli monozanomining bosh bo'g'ini yoziladi va halqa tipi qo'shib ko'rsatiladi, masalan α -D-glukopiranoza, β -D-glukopiranoza va hokazo:

Monozalarning olinishi

Monozalar tabiatda erkin, hamda birikmalr holida ko'p tarqalgan. Monozalar, asosan, polisaxaridlarni gidrolizlab olinadi. Sanoatda glukoza kartoshka yoki arpa kraxmalini mineral kislotalar ishtirokida gidrolizlash yo'li bilan olinadi. Kraxmalning gidrolizlanish jarayonini quyidagicha ifodalash mumkin.




Maltoza disaxaridi gidrolizlanganda ikki molekula glukoza hosil bo'ladi:



Sut shakari – laktozani gidrolizlab, glukoza va uning izomeri galaktoza olinadi:




A.M. Butlerov birinchi bo'lib monosaxaridlarni formaldegiddan sintez usuli bilan hosil qildi:



Buri umumiy holda quyidagicha yozish mumkin:





Ko'p atomli spirtlarni ohista oksidlash natijasida ham monosaxaridlarni olish mumkin. Bunda olti atomli spirtlardan geksozalar hosil bo'ladi.



Fizik-kimyoviy xossalari

Monosaxaridlarni kristall modda, ular suvda yaxshi eriydi, shirin ta'mli bo'ladi va eritmalarda halqali shaklga o'tish qobiliyatiga ega. Anomerlar fizikaviy xossalari bilan bir-biridan farqlanadi, chunonchi α -D-glukoza suvda yomon eriydi, suyuqlanish harorati 146°C ga teng, qutblangan nurni burish burchagi $[\alpha]_{\text{D}}^{20} = +113^\circ$. Undan farqli ravishda β -D-glukoza suvda yaxshi eriydi, pindindan oson qayta kristallanadi, suyuqlanish harorati 149°C ga teng bo'lib, $[\alpha]_{\text{D}}^{20} = +19^\circ$.


Monosaxaridlar oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarga oson kirishadi va dastlabki bosqichida aldon kislotalari deb ataluvchi polikislotalarga aylanadi. Glukoza oksidlanganda polioksikislota – glyukon kislota hosil bo'ladi:



Monosaxaridlar kuchli oksidlovchilar ta'sirida oksidlanganda dastlab, aldegid guruh bilan birga uglerod zanjiri oxiridagi spirit guruh aldegidiargacha oksidlanadi va glyukuron kislota hosil bo'ladi. O'quvchilar aldon va uron kislotalarini bir-biri bilan adashtirmslikka e'tiborlarini qaratishi lozim.



So'ngra oksidlanish jarayoni davom etib, ikki asosli polioksikislota – shakar kislotasi hosil bo'ladi:

Monosaxaridlar qaytarilganda ular ko'p atomli spirlarga aylanadi, chunonchi, D-glukoza qaytarilganda olti atomli spirl D-sorbit hosil bo'ladi:



Vodorod sianidning ta'siri


Bu reaksiya natijasida aldozalarning aldegid guruhi sianid kislotani biriktiradi. Hosil bo'lgan siangidrin gidrolizlanga bir uglerod atomi ortiqcha bo'lgan aldon kislota hosilasi olinadi va u natriy amalgamasi bilan qaytarilganda yuqori aldoza vakiliga aylanadi. Bu usul bilan tetrozalardan pentoza, pentozalardan geksoza hosil qilish mumkin:




Bu reaksiya monosaxaridlarning stereokimyoviy konfiguratsiyasini aniqlashda ham muhim o'rinn tutadi.

Ozazonlar hosil bo'lishi


Monosaxaridlar fenilgidrazin bilan reaksiyaga kirishib, ozazonlar hosil qiladi. Hosil bo'lgan ozazonlar kristall moddalar bo'lib, ularning aniq suryuqlanish harorati bo'lgani uchun bu birikmalar uglevodlarning individualligini aniqlashda keng foydalilanadi. Ozazonlarning hosil bo'lishi bir nechta bosqichda boradi; dastlab fenilgidrazin monosaxaridning aldegid guruhiga ta'sir etib, fenilgidrazon hosil qiladi:



Hosil bo'lgan fenilgidrazonning parchalanishi bir vaqtning o'zida C-2 keton guruhning hosil bo'lishi bilan boradi:




Iminoketon yana ikki molekula fenilgidrazin bilan reksiyaga kirishadi va natijasida ozazon hosil bo'ladi:



Ozazonlar shakarlarni identifikasiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Ishqorlar ta'siri


Suyultirilgan ishqor (yoki organik asoslar) ta'sirida epimer aldozalar bir-biriga yoki tegishli ketoza shakliga o'tadi. O'yuvchi natriyning 2n. eritmasi bilan D-glukoza qizdirilganda o'z epimerlari – D-mannoza va D-fruktozaga o'tadi. Keto zalar ham bu sharoitda o'zlarining epimerlariga va tegishli aldozalar epimer aralashmasini hosil qiladi. Epimerlanish uglevodlarning ishqor ta'siri ostida keto-enol tautomer holatlariga o'tishi bilan izohlanadi. Bunday o'zgarish halqali tuzilishdagi aldegid va enol-shakkilar orqali sodir bo'ladi:



Endiolning qayta karbonil shaklga o'tishi vaqtida yuqorida aytib o'tilgan uch monosaxaridlarning hammasi ham hosil bo'ladi. Monosaxaridlarga ishqorning konsentrangan eritmasi ta'sir ettirilganda ular parchalanadi va eritma qo'ng'ir rangga bo'yaladi.


Alkillash

Monozalardagi gidroksil guruhining vodorod atomlarini alkilgalogenidlar ta'sir etib, almashtirish mumkin:




Atsillash

Monosaxaridlarga yoki boshqa qandsimon moddalarga karbon kislota angidrididlari yoki boshqa atsillovchi reagentlar ta'sir ettirilganda, monozalarning murakkab e'shlari olinadi.




Monozalarning muhim vakillari

D(+) Glukoza (uzum shakari)




Glukoza rangsiz modda, 140°C da suyuqlanadi. Tabiatda α -D-shakilda bo'ladi, qutblangan nur tekisligini o'ngga buradi. Glukoza tabiatda juda keng tarqalgan. Muhim disaxaridlar, masalan, shakarqamish, sut shakari tarkibida uchraydi. Sanoatda glukoza, asosan, polisaxaridlardan, ya'ni kraxmaldan yuqori harorat va bosim ostida suyultirilgan ma'dan kislotalar ishtirokida gidrolizlab olinadi:



Glukoza oziq-ovqat sanoatida ko'p miqdorda ishlatiladi. Undan to'qimachilik sanoatida gazlamalarga gul bosish va bo'yashda qaytaruvchi sifatida foydalilanadi.

D(+) Galaktoza


Galaktoza - glukozaning fazoviy izomeri. U glukozadan faqat to'rtinchi uglerod atomidagi H va OH o'rinoslarining fazoviy joylashishi bilan farq qildi.



U erkin holda tabiatda juda kam tarqalgan, kristall modda 165°C da suyuqlanadi, suvda yaxshi eriydi. D-galaktoza sut shakari tarkibida uchraydi. Sut shakari – laktozaning gidrolizlanishi natijasida D-glukoza bilan birga yaxshi kristallananadigan va oson ajratib olinadigan D-galaktoza ham hosil bo‘ladi

D(+) Mannoza


Mannoza ham galaktoza kabi glukozaning fazoviy izomeri bo‘lib, u glukozadan ikkinchi uglerod atomidagi o‘rnibosarlarning fazoviy joylashishi bilan farqlanadi:



Mannoza tabiatda polisaxarid-mannanlar holida uchraydi. Mannanlar, oson, yong‘oq po‘chog‘ida va ba’zi palma daraxtlari mevasi, apelsin po‘stlog‘i tarkibida bo‘ladi.

D(-) Fruktoza (meva shakari, levuloza)


Ketozalarning eng muhim vakili. U shirin mevalar, shakarqamish (saxaroza) va asal tarkibida glukoza bilan birligida uchraydi. Eritmalarda oshiq ketoformidan tashqari ikki xil: besh va olti a’zoli halqa shaklida ham bo‘ladi



D-fruktoza α -D(-)-fruktofuranova β -D(-)-fruktopiranoza

Fruktoza tabiatda erkin va birikma holida uchraydi. U oddiy sharoitda $2\text{C}_6\text{H}_{12}\text{O}_6 \cdot 1/2\text{H}_2\text{O}$ tarkibli kristall hosil qiladi va $102\text{-}104^\circ\text{C}$ da suyuqlanadi. U shakardan ancha shirin bo'lib, mutarotatsiya hodisasiiga uchragach, qutblangan nur tekisligini chapga buradi. Shu tufayli uni levuloza deb ham ataydilar. Fruktoza ayrim polisaxaridlarni gidrolizlab olinadi. Fruktozani boshqa uglevodlardan ajratadigan xarakterli reaksiyasi kuchli xlorid kislota va rezorsin ishtirokida qizdirilganda eritma to'q qizil rangga (Selivanov reaksiyasi) bo'yaladi.

Arabinoza $\text{C}_5\text{H}_{10}\text{O}_5$ Pentoza larning dastlabki vakili.






D-arabinoza

Bu modda shirin ta'mli, rangsiz kristall modda, suvda yaxshi, etil spirtda oz eriydi, efirda mutlaqo erimaydi. Tabiatda erkin holda yoki glukozidlar ko'rinishida uchraydi. Gummiarabika yoki arab yelimi tarkibiga kiradi va undan gidroliz usuli bilan olinadi. U eritmada boshqa monosaxaridlarni oshiq va halqali shaklda bo'ladi.

D-ksiloza, D-riboza va D-dezoksiriboza

Bular ham pentoza larning muhim namoyandalari hisoblanadi:



Tabiiy D(+) -ksiloza (yog'och shakari) shirin ta'mli kristall modda, 143°C da suyuqlanadi. U poxol, bug'doy somoni yoki kungabooqar po'chog'i tarkibidagi pentozanlarni suyultirilgan kislotalar ta'sirida gidrotizlab olinadi. Ksilozani bijg'itib, spirt olib bo'lmaydi. U qaytarilganda ko'p atomli spirt ksilitin hosil qiladi.


D-riboza va D-dezoksiriboza qoldiqlari oqsil yadrosi – nukleoproteidlar, nuklein kislotalar tarkibiga kiradi. Ular muhim biologik ahaliyatga ega.

OLIGO- VA DISAXARIDLAR

Monosaxaridlardan molekulasingin soniga qarab oligosaxaridlardan di-, tri-, tetra-, penta- va geksasaxaridlarga bo'linadi. Ulardan eng muhimni disaxaridlardir. Tabiiy disaxaridlardan lavlagi yoki shakarqamishi shakari – saxaroza, solod shakari – maltoza, sut shakari – laktosa va sellobioza hisoblanadi. Bu disaxaridlarning umumiy formulası $C_{12}H_{22}O_{11}$ ga ega.


Disaxaridlardan hosil bo'lishda birinchi monosaxarid o'zingining yarim atsetal gidroksili bilan, ikkinchi monosaxarid molekulasi esa yarim atsetal yoki spirt gidroksillari bilan qatnashadi.

Agar disaxarid molekulasi hosil bo'lishida monosaxaridning ikki molekula yarim atsetal gidroksili ishtirok etsa, uning tarkibida karbonil guruhga o'tadigan o'rribosar qolmaydi. Bunday disaxaridlarga glikozid-glikozid bog' hosil qildi deyiladi. Ular qaytaruvchi xossaga ega emas, ya'ni aldegidlarga xos reaksiya namoyon qilmaydi va ular **qaytarmaydigan disaxarid** deb ataladi. Bularga misol tariqasida eng oddiy vakili tregaloza ko'rsatishimiz mumkin:



Agar disaxarid molekulasi hosil bo'lishida bir molekula monosaxaridning yarim atsetal gidroksili va ikkinchi monosaxarid molekulasingin spirt gidroksili qatnashsa, bu disaxarid glikozid-glikoz bog' hosil qildi deb qaraladi va bu

holda **qaytaruvchi** disaxarid hosil bo'ladı. Bunday disaxaridlar tarkibida bitta erkin glikozid gidroksili bo'ladı. Shu sababdan ular suvli eritmalarda ikkinchi tautomer holat – aldegid shaklga o'tishi mumkin va aldegidlarga xos reaksiyalar namoyon qiladi. Qaytaruvchi xossaga ega bo'lgan disaxaridlar **qaytaruvchi disaxarid** deyiladi. Ularning eng oddiy vakillari maltoza va sellobiozadir. Ularning har ikkisi ham ikki molekula glukozadan hosil bo'lgan. Maltozada birinchi molekula glikozid gidroksili ikkinchi glukoza molekulasi dagi to'rtinchı uglerod atomining gidroksili bilan α -glikozid bog' hosil qiladi, sellobiozada esa farqli ravishda β -glikozid bog' vujudga keladi.




Oddiy vakillari

Maltoza (solod shakari). Kraxmalga solod (undirilgan bug'doy maysasi sharbati) ta'sir ettirib olinadi. Solod tarkibida kraxmalni disaxaridga aylantiruvchi amilaza fermenti bor. Maltoza gidrolizlanganda, ikki molekula D-glukozaga parchalanadi:




Maltoza qaytaruvchi disaxaridlar guruhiba kiradi, chunki u Feling suyuqligini qaytaradi, fenilgidrazin bilan reaksiyaga kirishib, fenilgidrazon hosil qiladi. Maltozaning suvdagi eritmasi qutblangan nur tekisligini o'ngga buradi. Solod shakarining shirinligi saxaroza (qamish shakari)ga nisbatan 40% kam.


Sellobioza. Sellulozaning parchalanishidan hosil bo'ladı. Sellobioza maltoza singari ikkita glukoza qoldig'idan iborat va qaytaruvchi disaxarid hiseblanadi, buroq ular α -1,4 glikozid bog'i bilan emas, balki β -1,4 glikozid bog' bilan bog'langan:




Laktoza (sut shakari). Sutdan olinadi, sigir sutining tarkibida 4-5,5%; ona sutida 5,5-8,4% bo'ladi. Uning tuzilishi quyidagicha ifodalanadi:




Laktozaning tuzilish formulasidan qo'riniq turibdiki, u qaytaruvchi disaxaridlarga kiradi. Laktoza gidrolizlanganda D-glukoza va uning izomeri D-galaktozaga parchalanadi:



Saxaroza (shakarqamish yoki lavlagi shakari). Saxaroza kristall modda bo'lib, 160°C da suyuqlanadi, qand lavlagi (16-20%) va shakarqamish (14-16%) tarkibida bo'ladi. Uning eritmasi qutblangan nur tekisligini o'ngga buradi. Oddiy monosaxaridlar glukoza va fruktoza qoldig'idan tarkib topgan:



Saxarosa gidrolizlanganda teng miqdordagi glukoza va fruktoza aralashmasiga aylanadi. Bu aralashma qutblangan nur tekisligini chapga buradi. Glukozaga nebatan fruktoza qutblangan nur tekisligini kattaroq burchakka (glukoza o'ingga, fruktoza chapga) buradi. Shuning uchun saxarozaning gidrolizlanishi inversiya degan nom olgan. Qamish shakarining gidrolizi (inversiyasi) natijasida hosh bo'lган teng miqdordagi glukoza va fruktoza aralashmasi inversiyalangan shakar deyiladi:



Tabiiy inversiyalangan shakar sifatida asalni misol qilsa bo'ladi. Asal tarkibida bir vaqtning o'zida glukoza va fruktoza mavjud bo'ladi.

Disaxaridlarning karamellanishi juda qiyin kechadigan jarayon. Bu bosqichda turli yuqori molekulyar birikmalar olinadi:

- a) $\text{C}_{24}\text{H}_{36}\text{O}_{18}$ – karmelan, xush ta'mli sarg'ish modda,
- b) $\text{C}_{24}\text{H}_{36}\text{O}_{18}$ – karmelen, achchiq ta'mli jigarrang modda.

Uglevodlarning tirik organizm uchun barcha foydali tomonlarini aytib o'tish bilan birga qand mahsulotlarining meyori va zarari haqida ham fikr bildirishimiz lozim. Inson qand moddasini saxarozadan tashqari boshqa shakkarda ham ko'proq iste'mol qiladi. Bularga konditer mahsulotlari, muzqaymoq, konfetlar, shokoladlar, har xil alkogolsiz ichimliklar, mevali kokteyllar, koka-kola, keks, pirog pishirish uchun tayyor aralashmalar, kakao, ayrim konservalar, turli pishirilqlarni misol qilib ko'rsatishimiz va bu ro'yxatni davom etishimiz ham mumkin. Qand moddasining foydasi shuki, u to'g'ridan-to'g'ri qonga so'rildi va organizmning quvvatini keskin oshiradi.

Bu "yuqori energetik holat" vaqtinchalik bo'lib, insulinning ish faoliyatini buzadi va keyinchalik qondagi qand moddasining konsentratsiyasi tezda pasayadi. Endi ko'p qand iste'moli natijasida qondagi qand moddasi avval ortadi vasongrajudatez kamayadi. Bu kabi hodisagi poglikemiyakasalligiga duchor qiladi, organizm zaiflashadi, qattiq charchaydi va tez och qoladi. Boshqacha qilib aytganda, "qandli depressiya" holati paydo bo'ladi. Bunday paytlarda kishining yanada ko'proq shirinliklar iste'mol qilgisi keladi. Buning o'rni Siz olma, sabzavotli salatlar, sabzi yoki yarim kosa boshqoli o'simliklardan tayyorlangan bo'tqa iste'mol qilsangiz, o'z organizmingizning energetik ehtiyojini uzoq muddatga ta'minlagan bo'lasiz. Kraxmal tarkibidagi kletchatka ishtirokida qandsimon moddalarning qonga so'tilishi va sarllanishi bir tekis kechadi.

POLISAXARIDLAR

Polisaxaridlar tabiiy yuqori molekulyar birikma bo'lib, tabiatda, aymiqsa, o'simliklar tarkibida juda ko'p miqdorda uchraydi. Ular gidrolizlanganda ko'p sonli monosaxarid molekulalariga parchalanadi. Polisaxaridlarning ko'pehiliqi ta'msiz amorf moddalar bo'lib, suvda erimaydi, balki bo'kadi. Ularning eng ahamiyatlisi D-glukozadan tarkib topgan selluloza va kraxmaldir. Shuningdek, o'simliklar tarkibiga kiruvchi D-galaktoza, D-mannoza va D-fruktozalar ham polisaxaridlar asosini tashkil qiladi. Shuni alohida qayd qilish lozimki, polisaxarid makromolekulalarini hosil qilishda ham pentoza, ham geksozalar ishtirok etadi. Birinchi holda pentozanlar olinsa (arabinozadan—arabanlar, ksilozadan — ksilanlar), geksozalardan — geksozanlar hosil bo'lib, ular ichida glukozadan kraxmal, glikogen, selluloza va fruktozadan esa inulin kabi polisaxaridlar hosil bo'ladi.

Polisaxaridlarning muhim vakillari


Kraxmal. Asosiy oziq modda sifatida o'simliklar tarkibida uchraydi. U amorf ko'rinishdagi oq kukun, suvda erimaydi, suvda ivitilsa, kolloid eritma — kleyster hosil qiladi, kraxmal iod ta'sirida ko'k rangga bo'yaladi. U qaytaruvchanlik xossasiga ega emas. Kraxmal individual modda emas, u bir-biriga o'xshash ikki polisaxariddan — **amiloza** va **amilopektindan** tarkib topgan. Kraxmal tarkibidagi amiloza 15-25% ni, amilopektin 75-80% ni tashkil etadi.

Kraxmal fotosintez jarayoni natijasida hosil bo'ladigan mahsulot. Uning bosqichma-bosqich gidrolizlanib, glukoza hosil bo'lish jarayomini quydagicha ifodalash mumkin:




Krasmal oziq-ovqat mahsulotlaridan – non, kartoshka, un tarkibidagi asosiy inglevod manbayidir. Bundan tashqari u konditer va kulinariya mahsulotlari tayyorlashda, gazlamalarni ohorlashda, kolbasalar va dekstrinli yelmi ishlab chiqarishda ham qo'llaniladi.

Amiloza ($\text{C}_6\text{H}_{10}\text{O}_5)_n$. Molekulalari glukoza qoldiqlarining chiziqsimon yoki juda kam tarmoqlangan uzun zanjiridan iborat bo'lib, glukoza qoldiqlari 1- glikozid va 4- holatdagi glikoz kislород atomlari orqali bog'langan:



Amilopektin ($\text{C}_6\text{H}_{10}\text{O}_5)_n$. Molekulalari glukoza qoldiqlari zanjiridan iborat. Lekin alarning zanjiri tarmoqlangan tuzilishga ega. Amilopektin molekulasida taxminan 4000 glukoza va 0,4% gacha fosfat kislota qoldig'i bo'ladi:

Amilopektin issiq suvda erimaydi, lekin bo'kib kleyster hosil qiladi. Amilopektin iod bilan binafsha rang beradi.



Qand muddasining organizmdagi funksiyasi bilan tanishganimizdan keyin kraxmal haqida ham mufassalroq to'xtalishni lozim topdik. Uzoq vaqt davomida kishi organizmi semizligini kraxmal va xamir ovqatlar belgilaydi deb fikr bildirishgan. Bu fikr hamisha ham to'g'ri bo'laverinagan, bugungi kunda sog'lom hayat mezoni makaron mahsulotlari, guruch, kartoshka, non va dukkakli o'simliklar desak adashmaymiz. Oqsil va yog' mahsulotlari juda qiyin hazm bo'ladi va ortiqcha iste'mol qilingan yog' tirik organizmda zaxira sifatida yig'iladi, kishi o'zi bilan yog'larni bagaj sifatida ko'tarib yuradi, ammo polisaxaridlar vakili kraxmal organizmda yig'ilsa ham, u tezda parchalanadi va bu parchalanishning oxirgi mahsuloti glukoza sifatida ichaklardan qonga so'rildi. Demak, oddiy uglevodlar tez hazm qilinadi, polisaxarid ko'rnishidagi uglevodlar uzoqroq vaqt davomida gidrolizlanadi va so'ngra hazm bo'ladi va qon tarkibidagi qand muddasining keskin ortishi va pasayishi kabi depressiv holatga chek qo'yadi. Ya'nii polisaxaridlar vakili bo'lgan kraxmalning iste'mol qilinishi organizm uchun barqaror energetik holatni yaxshilaydi, oziq mahsulotiga bo'lgan chityoyimizni ikki martaga kamaytiradi, arteriyamiz tozaligini oshiradi. Bu ma'lumotlarni bilganimizdan keyin biz o'z-o'zimizga qancha va qanday shaklda non va non mahsulotlari yoki guruch iste'mol qilishimiz kerak degan savolga javob qidiramiz.

Buning uchun bug'doy va un mahsulotlari tarkibi va sifati haqida to'xtalishimiz foydadan holi emas. Non iste'mol qilishimizda shuni hisobga olish lozimki, bug'doydan tegirmonda un tortish jarayonida noyob ozuqa mahsulotlarining bir qismini yo'qotamiz.

Aslida bug'doy tashqi qobiqdan (otrub), endosperma va bug'doy murtagidan iborat. Bug'doyning tashqi qobiq pardasida ko'p miqdorda vitaminlar, mikroelementlar, kletchatka va oz miqdorda oqsil muddasi mavjud. Bug'doy murtagi esa mikroelementlar, B va E vitaminlar, kletchatkaga boydir. Endosperma massa jihatidan bug'doy boshog'ining 80 % foizini tashkil etadi, uning tarkibida o'simlik oqsili (*glyuten*) va kraxmal bo'ladi. Bug'doyning mana shu qismi oq un olish uchun ishlataladi. Bug'doy murtagi tarkibidagi nodir oziq mahsulotlari unni elaganimizda kepak sifatida ajratib olinadi va chorva mollariga beriladi. Nima bo'lishidan qat'iy nazar non mahsuloti foydadan holi emas va hech qachon to'yimlilagini yo'qotmaydi. Masalan, dag'al undan tayyorlangan non mahsulotining bir bo'lagi tarkibidagi kletchatka miqdori sakkiz bo'lak oq nondagi kletchatkaga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham, tegirmonda tortilgan undan pishirgan non elevatordagi sanoat tegrimoni unidan tayyorlangan nondan ko'ra foydali va to'yimlidir. Fikrimizning isboti uchun quyidagi ma'lumotlar bilan tanishib chiqaylik. Bug'doydan un tortish jarayonida uning tarkibidagi mikroelement va vitaminlarning katta miqdorda yo'qotilishi olimlar tomonidan aniqlangan: chunonchi, tiamin (vitamin

B_1 - 86 %, riboflavin (B_2) - 70 %, nikotin kislota (B_3) - 80 %, temir - 84 %, piridoksin (B_6) - 60 %, pantoten kislota - 50 %, biotin - 90 %, kletcharka - 68 %, xrom - 87 %, kalsiy - 50 %, fosfor - 78 %, mis - 75 %, ruz - 71 %, magniy - 72 %, marganets - 71 % yo'qotiladi.

Glikogen (hayvon kraxmali) ($\text{C}_6\text{H}_{10}\text{O}_5$)_n. Oziq modda sifatida hayvon organizmida muhim o'rincini tutadi. Organizm to'qimalarida glikogenidan bir qator murakkab o'zgarishlar natijasida sut kislota ham hosil bo'ladi:




Glikogen hayvonlarning barcha to'qimalarida, ayniqsa, jigar va muskullarda ko'p uchraydi. Glikogen molekulalari amilopektin molekulalaridek tuzilgan, ammuna amilopektina qaraganda ko'proq tarmoqlanganligi bilan farq qiladi.


Inulin - D-fruktoza polimeri. Georgina, sikoriy, topinambur (er noki) idzida bo'ladi.

Selluloza (kletcharka). O'simlik hujayra qobiqlarining asosini tashkil etadi. Eng toza tabiiy selluloza bu paxta tolasidir (90%-dan ortiq), yog'och tarkibida 30%-dan 70% gacha selyuloza bo'ladi.



Selluloza molekulalari 1,4-holatda bog'langan amiloza molekulalari kabi glukoza qoldiqlaridan iborat. Lekin amiloza makromolekulalari α -D-glukoza qoldiq'idan tuzilgan bo'lsa, selluloza molekulalari β -D-glukoza qoldiq'idan tarkib topgan. Selluloza molekulasiagi glukoza qoldiqlarining umumiy soni 6000 dan 12000 gacha bo'ladi. U ma'dan kislotalar ta'sirida gidrolizlanib, β -D-glukoza hosil qiladi:



Selluloza, asosan, ip va kanop gazlamalar tayyorlashda, har xil qop'ozlar ishlab chiqarishda eng muhim manbadir. Selluloza viskoza, atsetat va boshqa sun'iy va sintetik tolalar ishlab chiqarishda dastlabki xomashyo hisoblanadi. U sirka kislota yoki sirka angidridi bilan reaksiyaga kirishib, mono-, di-, triatsetilselluloza esfirlarini hosil qiladi. Bular orasida diatsetil selluloza muhim ahamiyatga ega bo'lib, juda ko'p miqdorda ishlab chiqariladi va atsetat i'pagi uchun xomashyo hisoblanadi:





Triatsetilsellulozadan yonmaydigan kinotasmalar va tiniq plastik massalar tayyorlanadi.



Selluloza nitrolanganda kolloksilin deb ataluvchi mono- va dinitrobirukimlar aralashmasini hosil qiladi. Uning spirit va efir aralashmasidagi eritmasi kollodiy nomi bilan tibbiyotda ishlataladi – tananing jarohatlangan qisimiga kollodiy surtilsa, tezda spirit va efir bug'lanib ketadi va kolloidiy yarani tashqi muhit va infeksiyalar ta'siridan himoya qiluvchi yupqa qatlam hosil qiladi. Kolloksilindan selluloid va nitrosellulozali laklar tayyorlashida ham foydalananadilar. Sellulozaning to'liq nitrat efiri – trinitrocelluloza (pirokstilim) tutamiz porox ishlab chiqarishda ishlataladi.

Sellulozaning yana bir muhim hisilasi – selluloza ksantogenati $[C_6H_7O_2(OH)_2-O-C(S)-SNa]_n$ viskoza i pagini olishida xomashyo sifatida katta ahamiyat kasb etdi. Ksantogen kislota tuzlari va hisilalariga **ksantogenatlar** deyiladi.




selluloza ksantogenati

Karboksimetilselluloza $[C_6H_7O_2(OH)_2-O-CH_2COONa]_n$ natriyli tuzi sintetik yuvuvchi vositalarning xossalarni yaxshilash uchun ularga qo'shiladi. Shuningdek, tozalangan carboksimetilselluloza tish pastalari va kinofotomateriallar tayyorlashda ishlataladi.

Lignin. Yog'osh tarkibida 25 % gacha lignin uchraydi. Bu polimer murakkab tuzilishi bilan ajralib turadi. Juda ko'p sonli metoksi- va gidroksil guruuhlari tutgan C, H va O elementlaridan tarkib topgan birikmaning molekulyar massasi 10000 gacha bo'ladi. Ligninining gidrolizi yoki yumshoq oksidlovchi ta'sirida oksidlash bilan polioksibenzoy aldegidi va polioksibenzoy kislotalari ajratib olingan. Haqiqatga yaqin bo'lgan gi potezalardan birining xulosasiga

Ko'ra lignin iga barglilar tarkibida uchraydigan koniferin glikozidi ko'ri-nichidagi koniferil spirtining polimerlanishi, oksidlanishi va kondensatlanishi natijasida hosil bo'ladi.

Lignin juda barqaror tabiiy polimerlardan hisoblanadi, mikroorganizmlar to'srida juda sekin parchalanadi. Tuproq tarkibidagi gumusning hosil bo'lishida mikroorganizmlar tarkibiga kiruvchi oqsillar, uglevodlar, lipidlar va boshqa oshilovchi moddalar bilan birga lignin ham katta ahamiyat kasb etadi.



Tayanch iboralar

Uglevodlar. Mono-, di- va polisaxaridlar. Aldozalar, ketoza. Trioza, tetroza, pentoza va geksozalar. Stereoizomerlar. Fisherning proyeksiyon formulasi. Xeuorsning perspektiv formulasi. Glukozaning yarim atsetal shakli. Glikozid gidroksili. Oligosaxaridlar. Shakarqamish shakari - saxaroza, sut shakari - lakoza, solod shakari - maltoza, sellobioza. Qaytaruvchi va qaytarmaydigan disaxaridlar.

Gomopolisaxaridlar. Geteropolisaxaridlar. Kraxmal, dekstrin, amiloza, amilopektin. Glikogen - hayvon kraxmali. Selluloza (kletchatka). Selluloza atsetati. Mono-, di- va trinitrotselluloza. Kolloksilin, kollodiy. Piroksilin. Ksantogenatlar. KMS - karboksimetilsellulozaning natriyli tuzi. Lignin.

Nazorat savollari

1. Glukozaning tarkibi $C_6H_{12}O_6$ ekanligi aniqlangan. Tajribada siz buni isbotlay olasizmi?

2. Quyidagi monosaxaridlarning ochiq va halqali formulalarini yozing: L-glukoza, L-mannoza, L-fruktoza.

3. α - va β -galaktoza; α - va -fruktozalarning proyeksiyon formulalarini yozing.

4. Glukozaning α - va β -shakkilari bir-biridan qanday farq qiladi? Ularning halqali perspektiv formulalarini yozing.

5. Fruktozaning quyidagi birikmalar bilan o'zaro reaksiya tenglamalarini yozing: a) sianid kislota, b) gidroksilamin, d) sirka angidrid.

6. Glukozaning quyidagi birikmalar bilan o'zaro reaksiya tenglamalarini yozing: a) metil iodidi, b) fenilgidrazin, d) oksidlovchilar.

7. Nega glukoza "kumush ko'zgu" reaksiyasiga kirishadi, amma fruktoza bu reaksiyaga kirishmaydi?

8. Glukozaning to'liq oksidlanish reaksiya tenglamasini yozing.

9. Qanday sharoitda glukozadan sut kislotasi hosil bo'ladi?

10. Glukozaga faol vodorod ta'sir ettilganda olti atomli spirt hosil bo'ladi. Shu reaksiya tenglamasiini yozing va spirtni nomlang.

11. Disaxaridlarning qaysi biri "kumush ko'zgu" reaksiyasiga kirishadi?

12. Kraxmaldan kalsiy glikonati olish reaksiya tenglamalarini yozing.

13. Qanday reaksiyalar yordamida sellulozadan mis glikonati olindadi?

14. Qaysi reaktiv yordamida sizga berilgan glitserin, glukoza va etanolni aniqlay olasiz?

15. Glukoza sirka kislota xlorangidridi bilan 1:3 nisbatda reaksiyaga kirishadi. Buni nima bilan izohlaysiz? Reaksiya tenglamasini yozing.

16. Bijaq'ish yo'uli bilan glukozadan 46 kg etil spirti olindi. Reaksiya unumi 90 % ni tashkil etsa, qancha glukoza sarflangan?

17. Tirk organizmdagi dissimilatsiya jarayonida 10 mol glukozaning 5 moli suv va karbonat angidridgacha parchalandi. Ajralib chiijyan karbonat angidrid hajimini (n.sh.da) aniqlang.

18. Tarkibida 25 % kraxmal tutgan 504 kg kartoshka qayta ishlanganda qancha glukoza ajratib olinadi?

19. Tarkibida 50 % selluloza tutgan 500 kg yog'oshdan gidroliz reaksiyasi natijasida 75 kg glukoza olindi. Reaksiya unumini hisoblab toping.

20. 900 g uzum shakaridan ($C_6H_{12}O_6$) necha ml ($\rho = 0,8 \text{ g/sm}^3$) bo'lgan etil spirti olish mumkin?

21. 1 mol selluloza bilan 2 mol nitrat kislotaning reaksiya tenglamasini yozing. Reaksiya unumi 90 % ekanligini hisobga olib, qancha kollcksilin hosil bo'lishini toping.

22. 100 g trinitrotselluloza olish uchun necha g selluloza va nitrat kislota sarflanadi?

23. Selluloza bilan 200 g sirka angidridi 1:2 nisbatda reaksiyaga kirishdi. Qancha reaksiya mahsuloti olindi?

24. 18 g glukoza bilan yangi tayyorlangan kumush oksidining amniyakdag'i eritmasi reaksiyaga kirishganda qancha sof kumush ajralib chiqadi?

Adabiyotlar

1. Гринберг И.И. Органическая химия.- Москва.- “Дрофа”.- 2002
С. 453 – 483.
2. Ризихамедов І. Organik ximiya.- Toshkent.- “Meditina”.- 1987.-
119. 373- betlar.
3. Виворский В.Я. Вопросы, упражнения и задачи по органической
химии с ответами и решениями.- Москва.- “Владос”.- С. 71 – 75.
4. Ладингтон Э., Дейль Г. Гамлешко И. Ключи к здоровью.- Тула.-
Изд-во “Источник жизни”.- 2003 .- С. 47 – 57.

GTEROHALQALI BIRIKMALAR GTEROHALQALI BIRIKMALARNING SINFLANISHI

Uglerod atomlaridan tashqari begona atomlar tutgan organik birikmalarga geterohalqali birikmalar deyiladi. Tarkibida N, O va S atomlari tutgan halqali birikmalar muhim ahamiyatga ega. Ayni shu atomlar bilan uglerod atomlarining halqali birikmalar hosil qilishining sababi, bu atomlarning birikmalaridagi valent burchaklari gibridlangan C atomi valent burchaklariga juda yaqin (sp^3 -gibridlanish $\alpha = 109^\circ$ va sp^2 -gibridlanish $\alpha = 120^\circ$). Natijada hosil bo'lgan geterohalqalarda ichki kuchlanish alitsiklik birikmalarnikidan katta farq qilmaydi va molekulalarning geometrik konfiguratsiyasini keskin o'zgartirmaydi. Bulardan tashqari, N, O va S atomlarining atom radiuslari CH_4 -guruhi hajmiga juda yaqin.

Geterohalqali birikmalarning xossalari ular tarkibidagi geteroatom tabiatidan tashqari halqadagi kimyoviy bog'larning tabiatiga ham bog'liq. Odadta, qo'shbog' tutmagan geterohalqali birikmalar fizikaviy va kimyoviy xossalari jihatidan tegishli alitsiklik birikmalarga o'xshaydi.


Geteronalqali birikmalarning shunday katta guruhi borki, ularning tarkibida tutash tizim hosil qilgan qo'shbog'lar mavjud. Bu ko'rinishdagi geterohalqali birikmalar o'zining barqarorligi va reaksiyon qobiliyatini bilan benzolga o'xshaydi. Shuning uchun bu xildagi organik moddalar aromatik geterohalqali birikmalar degan umumiyy nom bilan ataladi. Bu bo'limda biz, asosan, ana shunday birikmalarga to'xtalamiz.

BESH A'ZOLI GTEROHALQALI BIRIKMALAR


Geterohalqali birikmalar to'yingan va to'yinmagan uch, to'rt, besh, olti va hokazo a'zoli, oddiy yoki tutash, shuningdek, bir, ikki, uch va ko'p

geteroatomli bo'lishi mumkin. Asosiy geterohalqali birikmalar aromatik xarakterga ega bo'ladi.


Geterohalqalarda atomlar geteroatomdan boshlab raqamlanadi. Bunda geteroatom soat strelkasiga teskari yo'naliishida sanaladi. Bundan tashqari, birikma geteroatom holatiga nisbatan ham nomlanishi mumkin. Bunda birikmalar nomi funksional guruhlarning yunon harfi tartibi (α -, β -, γ -) bilan ham belgilanadi:



piridin




α -metilpirrol



1,3,4-triazol


Kondensirlangan geterohalqali birikmalardan eng muhimi purindir. U ikki geteroatomli pirimidin (olti a'zoli) va imidazol (besh a'zoli) halqlaridan tarkib topgan:




Besh a'zoli geterohalqali birikmalarga pirrol, tiofen, furan va ularning hosilalari; kondensirlangan geterohalqali birikmalarga esa indol va geteroauksin kiradi.

Furan

Birinchi marta -furilkarbon kislota quruq haydalganda, uning dekarboksillanishidan hosil qilingan:




Shuningdek, furan furfuoldan ham olinadi:



Furan qatoridagi birikmalar o'rin almashinish, birikish, kislорodning almashinishi va halqa ochilishi bilan boradigan reaksiyalarga kirishadi.


O'rin almashinish reaksiyalari

Furanda o'rin almashinish reaksiyasi α -holatdagi uglerodda ro'y beradi:




Birikish reaksiyalari

Vodorod 100-150°C va $1,0 - 1,5 \cdot 10^7$ Pa bosimda katalizatorlar ishtirokida furanga birikadi:




Geterohalqalarning o'zaro bir-biriga o'tishi

Furan, tiosfen va pirrol 300°C da aluminiy oksidi katalizatori ta'sirida bir-biriga aylanadi (Yu.K. Yur'yev reaksiyasi).



Halqaning oshilishi


Furan xlorid kislota bilan to'yintirilgan metanolda qizdirilganda (metanoliz) halqa oshilishi hisobiga qahrabo dialdegid asetaliga aylanadi:



Furfurol

Furfurol furanning muhim hosilasidir. U qog'oz, sheluxa, kungaboqar, g'o'za chanoqlari va boshqa chiqindilar tarkibidagi pentozalarni mineral kislotalar ta'sirida gidrolizlab olinadi.


Uning kimyoviy xossalari aromatik aldegidlarning xossalariiga o'xshaydi. Furfuoldagi furan yadrosi aromatik xossa namoyon qiladi. U nitrolash, xlorlash va boshqa 'o'rin olish reaksiyalariga kirishadi.




Furfuoldan bevosita plastik massalar ishlab chiqarishda ishlatiladigan polimerlar sintez qilinadi. Bundan tashqari poliamidlar olishda xomashyo bo'lgan adipin kislota va geksametilendiamin sintez qilish uchun ham foydalaniлади.

Tiofen

Rangsiz suyuqlik, 84°C da qaynaydi, suvda erimaydi. Benzol hidiga o'xshash hidga ega. Tiofen oz miqdorda toshko'mir smolasida bo'ladi. Tiofen qahrabo kislotaning natriyili tuziga P_2S_3 ta'sir ettirib olinadi:



Sanoatda tiofen butan va oltingugurt bug'idan olinadi:



Tiofen elektrofil o'rin almashinish reaksiyalariga kirishadi. Tiofening kimyoviy xossalari benzolning kimyoviy xossalariiga o'xshaydi. Uning birkimalari tibbiyotda ishlatiladi.


Pirrol

Rangsiz suyuqlik, 130°C da qaynaydi. U suvda yomon, spirtda va efirda yaxshi eriydi. Pirrol toshko'mir smolasasi va suyak moyi (quruq haydab olinadigan moy) tarkibida bo'ladi. Pirrol tarkibidagi imin guruhi vodorodi

kuchsiz kislota xossalariiga ega. U kaliy va natriy kabi metallarga almashinib, tuz hosil qiladi;




Pirrol Pt yoki Ni katalizatori ishtirokida gidrogenlanganda, to'rtta vodorod atomini biriktirib pirrolidina aylanadi:




Pirrol birikmalari xlorofill va gemoglobin molekulalari asosini tashkil etadi. Gemoglobin oqsil modda hisoblangan globin va prostetik guruh - gemandiborat. Gem – protoporfirin bilan koordinatsion bog‘ orqali bog‘langan ikki valentli temir ioni bo‘lgan beqaror kompleks birikma. Gemoglobin qizil qon tanachalarida bo‘ladi. U kislorodni o‘pkadan tirik organizm hujayralariga tashuvchi transport vositasi sanaladi. Aniqroq qilib aytganda, gemoglobinning oqsil qismi emas, balki gem molekulasi kislorodni tashiydi. 1935- yilda E. Fisher gem tuzilishini aniqladi va uni sintez qildi. Gemoglobin molekulasi tuzilishini quyidagicha tasavvur etish mumkin.

Xlorofillning tuzilishi ham G. Fisher tomonidan aniqlangan. Xlorofill sintezini birinchi marta Garvard universiteti professori R.B. Vudvord 1958-1960- yillarda amalga oshirdi. Gemoglobin molekulasidan farqli ravishda xlorofill molekulasidagi markaziy ion sifatida Fe(II) o'rnini Mg(II) egallagan;

U to'yinmagan fitol spirt $C_{20}H_{39}OH$ qoldiqlaridan iborat. O'simliklarning xromoplastlarida xlorofill plastin oqsili bilan birikib, xloroplastin xromoproteidini hosil qiladi. Ular o'simliklarda boradigan fotosintez jarayonida ishtirok etadi. Xlorofill va gemoglobin oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida bo'ladi.




41-rasm. Gemoglobin molekulasining tuzilishi.




42-rasm. Xlorofill molekulasining tuzilishi.

IKKI GETEROATOM TUTGAN BESH A'ZOLJ GETEROHALQALI BIRIKMALAR



Gistidin

U imidazol qatoridagi oqsillar tarkibida almashinmaydigan tabiiy aminokislotalardan biri β -(4-imidazolil)-alanin bo'ladi.



Gistidinni dekarboksillash bilan muhim biologik xossaga ega gistamin hosil qilinadi:


Indol

Indol dastlab indigo bo'yog'idan olingan va shunday deb nomlangan. U 52°C da suyuqlanadigan yoqimsiz hidli rangsiz kristall modda, toshko'mir


smolasida va jasmin, apelsin, oq akatsiya gullarining efir moylari tarkibida uchraydi. Oshqozonda oqsillar chiriganda ham indol hosil bo'ladi. Sanoatda indol toshko'mir smolasining 240-260°C da qaynaydigan fraksiyasidan ajratib olinadi. U pirrol yadrosining benzol bilan birikishidan hosil bo'ladi, shuning uchun indol benzpirrol deb ham ataladi. Indol kichik miqdorda xushbo'y va katta konsentratsiyada qo'lansa hidga ega, shuning uchun toza indol atir-upa sanoatida ham ishlataladi. Uni anilinga atsetilen ta'sir ettirib olish mumkin (Chichibabin reaksiyasi):




Indol kimyoiy xossalariiga ko'ra pirrolga juda o'xshaydi va geterohalqaning β -uglerod atomi maksimal elektron zinchlikka ega. Shuning uchun ham, reagent o'rinni olish reaksiyasida β -holatdag'i vodorod atomi o'rnini egallaydi. Indol halqasida 10 ta umumlashgan p-elektronlar mavjud ($4n+2$, $n=2$) va Xyukkelning aromatiklik qoidasiga javob bergani uchun benzol qatori uglevodorodlarining xossalari namoyon qiladi. Indolning muhim hosilalaridan biri hisoblangan geteroauksin (β -indolil sirka kislota) o'simliklar tarkibida juda kam miqdorda uchraydi. U o'simlikni o'stiruvchi gormon hisoblanib, ularning o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. β -indolil sirka kislota quyidagicha olinadi:




Indol oson oksidlanib, yengil sanoat uchun muhim oraliq mahsulotlardan biri indigoni hosil qiladi, bu birikma indigo bo'yoqlarining asosidir:





Triptofan

[β -(3-indolil)-alanin] – almashinmaydigan aminokislotalardan biri. Tirik organizmdatriptofanning metabolizmida, asosan, deaminlash va dekarboksillash reaksiyalari jarayonida 3-indolil sirkakislota(geteroauksin) va triptamin [β -(β -aminoetil)-indol] – muhim biogenli amin hosil bo'ladi:



OLTI A'ZOLI GETEROHALQALI BIRIKMALAR


Piridin

Piridin C_6H_5N ham pirrol kabi suyaq moyida va indol bilan birga toshko'mir simolasit tarkibida bo'ladi. U $115^{\circ}C$ da qaynaydigan yoqimsiz hidli, rangsiz suyuqlik. Suv va ko'pgina organik erituvchilar bilan yaxshi aralashadi. Piridin olti a'zoli, tarkibida azot tutgan geterosiklik birikmalar ichida eng muhimini hisoblanadi. Tabiiy birikmalardan alkaloidlar, vitaminlar, kofermentlar, dorivor moddalar tarkibida piridin halqasi tutgan kimyoviy moddalar uchraydi.

Olinishi


Piridin birinchi marta 1851-yilda suyaq moyidan, keyinchalik toshko'mir simolasidan ajratib olingan. Yog'oshni quruq haydash usuli bilan ham piridin

olish mumkin. Piridin asetilen bilan vodorod sianid aralashmasi qizdirilgan naydan o'tkazilganda hosil bo'ladi:




Kimyoviy xossalari

Piridinning aromatiklik xossalari kuchli namoyon bo'ladi, nitrat kislota yoki kaliy bixromat ta'sirida oksidlanmaydi, yuqori haroratga chidamli. Piridindagi azot atomining erkin elektron justi π -elektronlarning aromatik sekstetini hosil qilishda ishtirok etmaganligi uchun, piridin kuchsiz asos xossalari namoyon qiladi. Piridinning asoslik xossasi ($pK_a = 5,2$) anilinning asos xossasiga ($pK_a = 4,6$) yaqin, ammo alifatik aminlarga nisbatan ancha ($pK_a CK \approx 10$) zaifroq. Shuning uchun u kuchli ma'dan va organik kislotalar bilan yaxshi kristallanadigan tuz hosil qiladi:




Piridin va uning gomologlari uchlamchi aminlar singari galoid alkillar ta'sirida galoidalkilatlar – to'rtlamchi ammoniyli asos tuzlari hosil qiladi:




Qaytarilish reaksiyalari

Piridin katalizatorlar ishtirokida oltita vodorod atomini biriktirib, piperidin hosil qiladi:





Elektrofil o'rinc olish reaksiyalari

Piridinning yadrosida azot atomi ta'siri natijasida uglerod atomlarida yaxlit π -elektron bulutи zaryadining notejisiga taqsimlanganligi tufayli elektrofil o'rinc olish reaksiyalari β -uglerod atomidagi vodorod hisobidan qiyinlik bilan amalga oshadi. Nukleofil o'rinc olish reaksiyalari α - va γ -uglerodlar vodorod atomlarining almashinishi hisobiga birmuncha osonlik bilan sodir bo'ladi. Besh a'zoli geterohalqali birikmalarga nisbatan piridin elektrofil o'rinc olish reaksiyasiga qiyinchilik bilan kislotali muhitda amalga oshiriladi, bunda piridin musbat zaryadli kation holida bo'ladi.




Galogenlar past haroratda piridinga birikib, galogenidlar hosil qiladi, ular qizdirilganda β -galogenpiridin aylanadi:




Nukleofil o'rinc olish reaksiyalari

Piridin natriy amid bilan qizdirilganda, α -aminopiridin hosil bo'ladi (Chichibabin reaksiyası):




Piperidin

Piperidin piridinga qaraganda kuchli asos, lekin aromatik xossalarni namoyon qilmaydi. U ammiak hidli, o'z xossalari bilan ikkilamchi alifatik aminlarga o'xshaydi, suvda yaxshi eriydigan rangsiz suyuqlik, 106°C da qaynaydi. U nikotin vavitamin PP molekulasi tarkibida saqlanadi. Piperidin ba'zi tabiiy birikmalar (masalan, garmdoridan ajratib olinadigan piperin, sassiq alaf o'simligidan olinadigan koniin alkaloidi) tarkibida uchraydi. Piperidin 1,5-dibrompentagaammiakta'sir etib olinadi:




Nikotin kislota, viramin PP

Biokimyoiy jarayonlarda piridinining bir qator hosilalari muhim o'rincutadi. Ulardan biri nikotin kislota va shu kislota amidi nikotinamid yoki vitamin PP deb ataladi.



nikotin kislota
(piridinkarbon kislota)





nikotin kislota amidi
(vitamin PP)

Bu vitamindan pellagra kasalini davolashda foydalilanadi. Piridinining hosilasi izoniazid sil kasalligini davolashda samarali dori-darmon bo'lsa, sulfidin eng faol sulfamid preparatidir. Nikotin kislota achitqilar ekstraktida, qoramol jigarida, sutda hamda boshqa oziq-ovqat mahsulotlarida uchraydi va

qisman organizmda sintez qilinadi. Umuman olganda, B guruh vitaminlari organizmdagi fermentativ oksidlanish-qaytarilish jarayonlarida va aminokislotalarning dekarboksillanishida muhim vazifani bajaradi.


Xinolin

Tutash halqali geterosiklik birikma. Xinolin moysimon, rangsiz suyuqlik, qaynash harorati 238°C , suvda eriydi, o'ziga xos hidga ega. Uning molekulasi o'zaro tutashgan benzol va piridin halqalaridan iborat, shuning uchun u benzopiridin deb ham ataladi:




xinolin

Xinolining metil almashingan hosilalari uchun trivial, ya'ni tarixiy nomlari saqlanib qolgan:



xinaldin





lepidin

Xinolin piridin kabi kuchsiz uchlamchi asos va aromatik xossalarga ega. U kislotalar ta'sirida tuzlar, galogenakkilalar ta'sirida esa, to'rtlamchi ammoniy asosi tuzlarini hosil qiladi.

Xinolin qaytarilganda avval piridin halqasi qaytariladi, keyingi bosqichda benzol halqasi vodorod atomlarini biriktiradi:


Xinolin toshko'mir smolasasi yoki suyak moyi tarkibida bo'ladi. Uni birinchi marta 1834-yilda Runge toshko'mir smolasidan olgan edi. Xinolin, odatda, Skraup usuli bilan sintez qilib olinadi, ya'ni akrolein anilin bilan oksidlovchi usafida nitrobenzol ishtirokida kondensatlanish reaksiyasiga kiritiladi:








Xinolin yadrosi ko‘pgina alkaloidlar, dori-darmon birikmalari bo‘yoq moddalari tarkibida uchraydi.

Pirimidin va purin hosilalari






Pirimidin hosilalari ikkita geteroatom tutgan olti a’zoli geterohalqali birikmalardir. Pirimidin yadrosi nuklein kislotalalar, kofermentlar, vitaminlar, alkaloidlar, dorivor preparatlar tarkibiga kiradi. Pirimidinning eng muhim hosilalaridan biri uratsil bo‘lib, uni 2,6-dioksi pirimidin deb atalsa, ham tirik organizmda u, asosan, laktam shaklda bo‘ladi. Erkin holda u uch xil tautomer shaklda bo‘lishi mumkin:

Timin va sitozin ham pirimidin hosilalari bo‘lib, uratsil kabi yuqori suyuqlanish haroratiga ega, fenol kabi kislotalik xossani namoyon qiladilar:





Tutash geterohalqali birikmalardan purin hosilalari (adenin va guanin) ana shunday ahamiyatlidir. Purin kuchsiz asos bo‘lib, suvda yaxshi eriydigan

kristall modda. U kislotalar va ishqorlar ta'sirida tuzlar hosil qiladi va oksidlovchilar ta'siriga barqaror hisoblanadi:



Purinning oksi- va aminohosilalari qiyin suyuqlanadigan kristall birikmalar, chunki ular vodorod bog'lari hisobidan kuchli assotsiatlar hosil qiladi. Purin hosilalari suvda yomon eriydi, ammo asoslarda yaxshi eriydi. Ulardan ksantin, adenin va siyidik kislotalari tirik organizm uchun katta ahamiyat kash etadi. Siyidik kislotasi tirik organizmlardagi purin tutgan moddalar almashinuvining oxirgi mahsuloti bo'lib, siyidik bilan tirik organizmdan chiqariladi. Ksantin yoki 2,6-dioksi purin hayvon to'qimalarida, qonida, siyidik toshida, o'simliklardan choy tarkibida bo'ladi. Ksantin kuchsiz asos xossal, kislotalar bilan tuzlar hosil qiladi. Uning azot atomlari bo'yicha metillangan hosilalari markaziy asab tizimini qo'zg'atuvchi vositalar sifatida tibbiyotda keng ishlataladi. Teofillin (1-metilksantin) choy bargi tarkibida uchrasa, teobromin yoki 3,7-dimetilksantin kakao mevasida 1,8 % gacha uchraydi va undan ko'p miqdorda olinadi. Kofein kofeda 3 % choy bargida 5 % gacha bo'ladi. Kofein markaziy asab tizimini qo'zg'atuvchi va yurak faoliyatini kuchaytiruvchi vosita sifatida kundalik turmushda va tibbiyotda keng ishlataladi. Bundan tashqari, siyidik haydashni yaxshilaydi, ammo teofillin va teobrominga nisbatan bu sususiyati ancha zaifroq.




Adenin va guanin nuklein kislotalari tarkibiga kiradi. Bundan tashqari, adenin bir qator kofermentlarning tarkibiy qismidir. Pirimidin hosilalari singari adenin ham tabiatda riboza va dezoksiribozaning N-glikozidlari (**adenozin**) va nukleotidlari (**adenozinmonofosfat**, **adenozindifosfat** va


adenozintrifosfat) sifatida uchraydi. Adenozintrifosfat (ATF) polifosfat bog'larini energiyasi va tirik tabiatda keng tarqalganiga ko'ra hayvonlar va o'simliklarning asosiy energiya manbayi hisoblanadi. ATF muskullar faoliyatida muhim o'rinn tutsa, adenin nukleotidlari nuklein kislotalar tuzilishida ishtirok etadi.

NUKLEIN KISLOTALAR

Nuklein kislotalarining nomi lotincha *nucleus* - yadro so'zidan olingan. Nuklein kislotalari molekulyar massasiga ko'ra oqsillardan ham og'irroq yuqori molekulalari birikmalardir. Tirik hujayra va viruslarning asosiy tarkibiy qismini oqsil va nuklein kislotalardan iborat nukleoproteidlar tashkil etadi. Ular o'zaro vodorod bog'i va tuz hosil qilish qobiliyatiga ko'ra bog'lanadi. Nuklein kislotalari birinchi marta 1868-yilda F. Misher tomonidan ajratib olingan bo'lsa ham, ularning tuzilishi uzoq vaqtgacha aniqlanmadidi. XX asrning 40-yillariga kelib nulein kislotalariga olimlarning e'tibori kuchaydi, chunki ular tirik organizmlarning irlsiy belgilarni nasldan naslga beruvchi va ko'payishini boshqaruvchi birikmalar ekanligini isbotlashdi. Nuklein kislotalarining tuzilishi ingliz olimi A. Todd tomonidan aniqlandi. Nuklein kislotalarning uzun zanjirida fosfat kislota qoldiqlari esfir bog'lari bilan D-ribofuranoza va 2-dezoksi-D-ribofuranozalar bog'langan.




β -D- ribofuranoza



2-dezoksi- β -D- ribofuranozalar

Nuklein kislotalarining tarkibini pentoza qoldiqlari bilan bog'langan purin (adenin va guanin) va pirimidin (timin, sitozin, uratsil,) asoslari tashkil etadi. Nuklein kislotalarining tuzilishini aniqlashda gidroliz reaksiyasi katta yordam berdi. Nuklein kislotalar parchalanib, monodukleotidlari, ular, o'z navbatida, pirimidin yoki purin asoslari, riboza (yoki dezoksiriboza) va fosfat kislota ajraladi:



Nuklein kislotalar ikki katta sinfga bo'linadi:

1. Molekulasida faqat riboza qoldig'i tutgan nuklein kislotalar RNK (**ribonuklein kislotalar**) deb ataladi. RNK, asosan, protoplazma va ribosomalarda uchraydi. RNK gidrolizlanib, adenin, guanin, uratsil, riboza va fosfat kislotaga parchalanadi.

2. To'liq gidrolizlanib, adenin, guanin, sitozin, timin, dezoksiriboza va fosfat kislotasiga parchalanadigan **NK dezoksiribonuklein kislotalari** (DNK) deyiladi. D NK faqat hujayra yadrosida uchraydi.


Hozirgi vaqtida nuklein kislotalarining uch turi ma'lum: tashuvchi RNK (t-RNK), informatsion (i-RNK) va ribosomal (r-RNK). RNK ning har bir turi oqsillar biosintezida muhim vazifani bajaradi. Tashuvchi RNK deyiladigan murakkab molekulalar D NK bilan faollashti ilgau aminokislota qoldiqlarni ribosomalarga tashiydi. Har bir aminokislota maxsus t-RNK bilan tashiladi. Hozirgacha o'ttizdan ortiq t-RNK tuzilishi aniqlandi. Ularning eng oddiyları o'z molekulasida 75-80 ta mononukleotid qoldiqlarini tutadi. RNK va D NK larning tuzilishi Oshoa va Kornberglarning fermentativ antezidan keyin tasdiqlandi. D NK ning tuzilishini aniqlash 1970- yillarda Korana sintezlari bilan amalga oshirildi, ba'zi bir genlar V.A. Engelgart laboratoriyasida fermentativ usulda sintez qilindi. Irsiy belgilarning nasldan masla o'tishi hujayra yadrolarinin bo'linish jarayonida D NK yordamida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, D NK yordamida organizmdagi RNK antezlari ham boshqariladi.

Nuklein kislotalarining kimyosini chuqur o'rganish irsiy belgilarga ta'sir etish imkonini yaratdi, bu molekulyar biologiyaning "gen muhandisi"gi" deb ataluvchi alohida sohasining rivojlanishiga olib keldi. Ma'lum fermentlar yordamida D NK zanjirini aniq qismlarga "kesish" va ligaza fermentidan toydalanib, yangi D NK qismlarini kiritishga imkon yaratildi. Shulardan eng oddysi va o'rganilgani yuqori o'simliklar genlariga azot yig'uvchi mikroorganizm genlarining kiritilishi misol bo'ladi. Bu ish to'liq amalga oshirilsa, o'simliklarga azotli o'g'it berish hojati qolmaydi va ular o'zlarining azotga bo'lgan ehtiyojini sintez yo'li bilan amalga oshiradilar.


Nuklein kislotalarining murakkab tuzilishini aniqlashda Chargaffning ishlari, 1951- yilda M. Uilkins tomonidan D NK molekulasining rentgenstrukturaviy tahlilga urinishi, D. Uotson, A. Todd va L. Poling tadqiqotlari katta yordam berdi. Bu ishlarning barchasini umumlashtirib, 1953- yilda D. Uotson va F. Krik D NK molekulasining ikkilamchi tuzilishini isbotladilar. Bu ikki olim keyinchalik (1962- yilda) M. Uilkins bilan birga si'u sohadagi ulkan muvaffaqiyatlari uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'lishdi.

Demak, D NK molekulasining birlamchi tuzilishi fosfat kislota bilan bog'langan nukleozidlarning chiziqli zanjiridan iborat bo'lsa, Uotson va Kriklarning ko'tsatisidicha, ikkilachi tuzilishi umumiy o'q atrofidiagi ikki


polinukleotid molekulalarining bir-biri atrofiga o'ralgan spirali tarzida tasavvur qilinadi (rasmlar). Bu zanjirdagi to'rtta asos molekulalari DNA tarkibida o'ziga xos komplementar asoslar juftlarini hosil qiladi: ya'ni faqat pirimidin asoslari (timin va sitozin) va purin asoslari (adenin va guanin) bilan tegishli ravishdu vodorod bog'lari hosil qiladi.. Bunday bog'larni hosil qilishda har qanday asoslar ishtirok etmasdan, faqatgina maxsus belgilangan molekulalar jufti: adenin-timin va guanin-sitozin orasida sodir bo'ladi.





43-rasm. DNA molekulasining bir qismi: har qaysi ajratilgan fragment nukleozid bo'lib, unda asos bilan poliefir zanjirining o'zaro bog'lanishiga e'tibor bering.



44-rasm. RNK molekulasining tuzilishi. Ribonuklein kislotalar zanjiri dezoksiribonuklein kislotalar zanjiridan shu bilan farq qiladiki, uning turkibidagi uglevodlar qoldig'ida gisroksil guruh mavjud va asos molekulalarining biri (uratsil qoldig'i) CH_3 -guruhi tutmaydi.







45-rasm. DNK molekulasi fragmentining tuzilishi.



46-rasm. DNA qo'sh spirali-ning tuzilishi.

47-rasm. DNA molekulasi replikatsiyasining mexanizmi.



48-rasm. Timin-adenin (yoki yratsil-adenin) va sitozin-guanin asosli juftlarning hosil bo'lishi. Rasmda ko'rsatilganidek, ular vodorod bog'lar bilan juftlashgan (formulasi va masshtabli ko'rinishi).

3DNK molekulasi ikki polimer zanjirlardan tarkib topgan bo'lib, har bir zanjir ikkinchisi bilan o'zaro komplementarligini saqlab qoladi, ya'ni birinchi zanjirdagi har qaysi asos molekulasi fazoda iikinchi zanjirdagi faqat o'ziga tegishli bo'lган asos bilan qarama-qarshi holatda joylashadi va vodorod bog'lar bilan bog'lanadi. Bu spiralsimon zanjirda asos molekulalari zanjir skeletining ichki tomoniga yo'nalgan, komplementar asoslar orasidagi vodorod bog'lar hosil qilgan struktura spiralsimon o'ralgan arqon narvon shaklini eslatadi. Hujayraning bo'linishida qo'sh spiralning har bir shoxchasi matriksa vazifasini o'taydi va ajralib chiqqan hujayra barcha genetik informatsiyalarini o'zida saqlab qoladi.

Tayanch iboralar

Geterohalqali birikmalar, geteroatomlar (N, O, S). Furan. Tiofen. Pirrol. Toshko'mir smolası. Furfurol. Tutash geterohalqali birikmalar. Purin asoslari. Gemoglobin, protoporfirin. Xlorofill, plastin, xlorplastin. Xromoproteidlar.


Pirazol. Imidazol. Oksazol. Izoksazol. Tiazol. Izotizol. Indol (benzpirrol). Geterouksin (indolit sirka kislota). Izatin, indigo. Indigo bo'yoqlari.

Piridin. Piperidin. Nikotin kislota. Nikotin kislota amidi (vitamin RR). Xinolin. Xinaldin. Piriidin. Pirazol. Timin. Sitozin. Purin. Adenin. Guanin.



Nuklein kislotalari. Mononukleoproteidlar. Pirimidin yoki purin asoslari. Molekulyar biologiya. "Gen muhandisligi". RNK (ribonuklein kislota). DNK (dezoksiribonuklein kislota). Nuklein kislotasining birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi tuzilishi.

Nazorat savollari

1. Asetilen va ammiakdan pirrol olish reaksiyasi tenglamasini yozing.
2. Quyidagi birikmalarning tuzilish formulalarini yozing: a) α -bromtiofen; b) 2,5-dimetilfuran, d) α,α -dimetilpirrol; e) 2-aminopiridin; f) piridinculfokislota; g) 4-indolkarbon kislota.
3. Quyidagi birikmalarni nomlang:



4. Piridin va piperidinin asoslik (ishqorlik) xossalarini solishtiring va xulosangizni asoslang.
5. Pirrol va pirolidinning asoslik (ishqorlik) xossalarini solishtiring.
6. Quyidagi moddalarning tautomer shakllarini yozing:
a) 2-aminopiridin; b) 4-oksi piridin; d) uratsil; e) timin; f) sitozin; e) adenin.
7. Pirrol, tiofen, piridin va benzol halqalarining galogenlash jarayonidagi reaksiyon qobiliyatini solishtiring. Ularning qaysi biri oson reaksiyaga kirishadi?
8. Nega furanni sulfolash uchun reagent sifatida piridinsulfotrioksid ishlataladi? Uning tuzilishini yozing. 2-metilfuranni sulfolash reaksiyasi tenglamasini yozing.
9. 450°C gacha qizdirilgan aluminiy oksidi ustidan (Yu.K. Yuryev reaksiyasi) a) metilfuran va metilamin b) tiofen va etilamin d) metilpirrol va vodorod sulfidi aralashmalari o'tkazilganda qanday mahsulotlar olinadi?
10. Quyidagi birikmalarning qaysi biri kuchli kislotalik xossasini ko'rsatadi:



11. Quyidagi birikmalarni qaysi biri nitrolanish reaksiyasiga oson kirishadi? Ularni shu tartibda joylashtiring: piridin, m-dinitobenzol, tiofen, p-ksilol, benzol.

12. Quyida ko'rsatilgan birikma juftliklari orasida hosil bo'ladigan vodorod bog'larini yozib bering: a) imidazol-imidazol; b) indol-imidazol; d) adenintimin; e) guanin-sitozin.

13. Monometilindolning barcha izomerlari formulalarini yozing va ularni nomlang.

14. Nuklein kislotalari nimadan tarkib topgan?

15. RNK va DNK molekulalari orasidagi farqni ko'rsating.

16. RNK molekulalarining tirik organizmda bajaradigan funksiyasini aytib bering.

17. Molekulyar biologiyadagi "gen muhandisligi" nimani o'rgatadi?

18. DNK molekulalari fermentativ jarayonda qanday vazifani bajaradi?

Adabiyotlar

1. Грандберг И.И. Органическая химия.- Москва.- "Дрофа".- 2002
.- С. 516 – 545.

2. Pirmuxamedov I. Organik ximiya. – Toshkent. – "Meditina". – 1987.
– 304-332- betlar.




3. Виворский В.Я. Вопросы, упражнения и задачи по органической химии с ответами и решениями.- М.: "Владос".- 1999.- С. 80-81.

ORGANIK BIOFAOL VA O'STIRUVCHI MODDALAR ALKALOIDLAR

Azot atomi tutgan asosli xossaga ega murakkab geterotsiklik birikmalarga *alkaloidlar* deyiladi. Ular hayvonlar va inson organizmiga o'zlarining fiziologik va farmakologik faol ta'sirlari bilan ajralib turadilar. Alkaloid lotincha *alkaliphor oides* - simon so'zlarini anglatadi. O'simliklarning ko'knorguldoshlar, dukkaklilar, ituzumguldoshlar, zirkguldoshlar, ayiqtovonguldoshlar singari oilalari alkaloidlarga boy. Ularning mevasi, urug'i, ildizi va yaproqlaridan olinadigan ekstraktlar, damlama va qaynatmalarning turli biologik faol xususiyatlari, shifobaxsh va zaharli xossalari qadim zamonlardan insonlarga ma'lum bo'lgan. 1886-yilda birinchi koniin alkaloidining tuzilishi aniqlangan bo'lsa-da, organik kimyo fanining bu sohadagi yutuqlari tez rivojlandi. Alkaloidlar o'simliklardagi moddalar almashinuvি jarayonida hosil bo'ladi.

Alkaloidlarri o'simlik tarkibidan ajratib olish juda qiyin jarayonlardan biri, chunki ular doimo aralashma holida bo'ladi va yomon kristallanadilar. Dastlab ekstraksiya usuli bilan ajratilgan alkaloidlar yig'indisi xromatografik usullar majmuasi yordamida alohida individual moddalarga ajratiladi. Bizning yurtimizda o'sadigan nabotot dunyosi ayrim vakillari alkaloidlarga boy hisoblanadi va ulardagi bu shifobaxsh moddalarni ajratib olish, xossalarni o'rganish ilmiy asosda keng yo'lga qo'yilgan. Alkaloidlar o'simliklardan tuz yoki asoslar shaklida ekstraksiya yo'li bilan ajratiladi. Bunda alkaloidlarning tuzlari suv va spiritda yaxshi erib, boshqa organik erituvchilarda erimasligi, alkaloidlarning o'zi esa aksincha, suv va spiritda erimasdan organik erituvchilarda yaxshi erishidan foydalananadilar.

Hozirgi kunda 3000 dan ortiq alkaloidlar ma'lum bo'lsa, uning 700 dan ortiq'ini mashhur olimimiz akademik S. Yu. Yunusov va uning shogirdlari ajratib olishgan va tuzilishini aniqlashgan. Bu olimlar guruhi bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining o'simlik moddalar kimyosi institutida faoliyat ko'rsatishadi. Ajratib olingan moddalarning ko'pehiligi dorivor preparattlar sifatida tavsiya qilingan va hozirgi kunda tibbiyotda qo'llanib kelinmoqda. Vatanimizdag'i alkaloidlar va ularni o'rganish bo'yicha ikkinchi katta maktab akademik O.S. Sodiqov tomonidan yaratilgan. Respublikamizdag'i ikkinchi yirik maktab namoyandalari O'zR FA bioorganik kimyc instituti va Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU kimyo fakultetida ishlab kelishmoqda. Ustozimiz professor R.A. Shoymardonov ham S.Yu. Yunusov boshlab bergen ishlarning davomchisi hisoblanadi. U ilmiy faoliyati davomida va hozirgacha bir qator yangi alkaloidlarni ajratib, ularning tuzilishi va xossalarni o'rganib kelmoqda.




Gigrin – gidrogenlangan pirrol hosilasi, eng oddiy alkaloid, Janubiy Amerikada o'sedigan koka bargidan ajratib olingan. Gigrinning katta dozasi zaharli va oz miqdori umumi shifobaxsh ta'sir ko'rsatadi.


Koniin - pi peridin sinfiga mansub alkaloid, juda zaharli modda bo'lgani uchun dorivor mudda sifatida ishlatilmaydi.

Nikotin. Tamaki bargida 8% gacha uchraydi va undan olinadi, olma, limon kislotadan ham olinishi mumkin. Umuman, tamaki bargida o'ndan ortiq alkaloidlar uchraydi. Nikotin moysimon suyuqlik

bo'lib, havoda tezda oksidlanadi, kuchli zaharli modda. Qishloq xo'jaligida insektitsid sifatida zararkunandalarga qarshi ishlataladi.




Anabazin – rangsiz moysimon suyuqlik, u o'zining izomeri nikotinga o'xshab juda zaharli modda. 1929-yilda *Anabasis aphylla* deb ataluvchi zaharli o'simlikdan ajratib olingan. Anabazinni oksidlaganda nikotin kislota, degidrogenlanganda α -, β -di piridil, gidrogenlanda esa α -, β -di pi peridil hosil bo'ladi.



Kofein – purinning asosi hisoblanadi, hidsiz, achchiq ta'mli oq kristall modda. Choy bargida, kofe urug'ida, kakao, kola yong'og'ida uchraydi. Nikotin va anabazindek zaharli emas. Yurak ishini faollashtiradi, markaziy asab tizimiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Teobromin – hidsiz, achchiq ta'mli oq kristall modda. Kofein kabi choy bargida va kakao donalarida uchraydigan alkaloid. Amaliy tibbiyotda qon tomirlarini kengaytiruvchi va spazmolitik vosita sifatida qo'llaniladi.

Xinin – 1820-yilda xin daraxti po'stlog'idan ajratib olingan, bundan tashqari, 20 ga yaqin alkaloidlar ham shu manbadan olingan. Xinin suvda oz, spirit va efirda yaxshi eriydigan rangsiz kristall modda, tibbiyotda bezgak kasalligini davolashda ishlataladi. Uning tarkibida ikkita geterohalqali birikmalar: xinolin va xinuklidin o'zaro bog'langan:



ANTIBIOTIKLAR

Mikroorganizmlar tomonidan ishlab chiqilib, o'zi boshqa mikroorganizmlarning rivojlanishini to'xtatuvchi yoki ularni o'ldiruvchi birikmalarga **antibiotiklar** nomi berildi. Antibiotiklarning dorivor modda sifatida


qo'llanishida Fleming va Flori xizmatlari deb e'tirof etishsa ham, aslida, antibiotiklardan penitsillin tibbiyotda birinchi marta ulug' alloma va hakimimiz Abu Ali ibn Sino tomonidan qo'llangan hamda uning olinishi va xossalari yozib qoldirilgan.

Hozirgi zamonda turli yuqumli kasalliklarni davolashda juda ko'p antibiotiklar keng qo'llanilmoqda. Inson va jonivorlar uchun bu preparatlarning salbiy ta'siri ancha past bo'lganligi uchun ilgari qo'llanilgan qisman kishi sog'ligi uchun katta zarar yetkazadigan dorivor moddalar o'rmini egalladi.

Bugungi kunda yarim sintetik antibiotiklar ishlab chiqarish ommalashdi. Shunday preparatlarning muhim bir guruhi: penitsillin, tetratsiklin, streptomitsin va hokazolar ustida unumli izlanishlar amalga oshirildi. Yana bir turkum antibiotiklar mog'or zamburug'idan ajratib olingan penitsillium asosida 6-aminopenitsillin kislotasi hosilalarini tashkil etdi. Bu yarim sintetik preparatlar: ampitsillin, metitsillin, oksatsillin, nafillin, klokatsillin va boshqalardir. Ko'p antibiotiklar turkumlaridan foydalanimining asosiy sababi har xil bakteriyalarning shtammlari antibiotiklar ta'siriga chidamli bo'ladi va bu preparatlarning dorivor xususiyati qolmaydi. Antibiotiklarning tuzilishi ancha murakkab bo'lib, ularning asosini gidrogenlangan geterohalqali birikmalar sinfi tashkil etadi. U ularning ayrim vakillari bilan tanishamiz.


Levomitsetin (xlormitsetin)

Levomitsetin 1947-yilda olinib, aminoglikozid antibiotiklar turkumiga kiruvchi streptomitsin o'rniiga ishlatilmoqda. Streptomitsinning qo'shimcha ta'sirlari ko'p bo'lGANI uchun u faqat sil kasalligiga qarshi ishlatilmoqda. Bu antibiotiklar turkumi feniletilamin hosilalaridir. Bugungi kunda levomitsetin va uning ratsemati sintomitsin sanoat miqyosida ishlab chiqarilmoqda. Bu preparatlar brutselluoz, tif, paratif, ichburuq kabi bir qator kasalliklarini davolashda samarali yordam beradi:



Penitsillinlar

Barcha penitsillinlar tarkibida tiazolning gidrogenlangan halqasi bilan to'rt a'zoli laktam halqasi tutashgan bo'ladi:




Yuqorida keltirilgan formula tarkibidagi R-radikali tabiatiga qarab antibiotiklar turlicha nomlanadi. Masalan, agar penitsillining yon zanjiridagi $R = C_6H_5 - O - CH_2$ bo'lsa, bu preparat fenoksimetilpenitsillin deyiladi.

Tetratsiklinlar

Bu turkumga mansub barcha antibiotiklarning (tetratsiklin, aureomitsin, terramitsin, biomitsin, xlortetratsiklin) molekulasiida to'rtta chiziqli tutashgan olti a'zoli karbohalqalar zanjiri bor. 1948-1949- yillardan boshlab tetratsiklinlar pnevmoniya, brutselloz, ich burug'i, skarlatina kabi kasalliklarni davolashda keng ishlataladi. Ular kuchli antibiotik xususiyatlarga ega bo'lib qolmasdan, ayrim virusli kasalliklarni davolashda ham katta foyda beradi.

Ularning terramitsin va biomitsin kabi vakillari qishloq xo'jaligi mollari va tovuqchilikda mikroozuqa sifatida unumli foydalaniladi.



Uglevodli antibiotiklar

Ayrim antibiotiklarning tarkibida noana'naviy qand moddalari uchraydi yoki ularning o'zi murakkab tuzilishdagi tri- va tetrasaxarid shaklidagi qand-simon moddalardir. Shulardan biri **streptomitsindir**. Uning molekulasiidagi uchta uglevod qoldiqlarida gidroksil guruhlari qisman aminoguruahlarga almashingan. Bu antibiotik sil kasalligi va boshqa bakterial infeksiyalarni davolashda ishlataladi.

Neomitsin nomli preparat ham streptomitsinga o'xshash bo'lib, yong'inda va boshqa sabablarga ko'ra kuygan kasallarni davolashda surtma dorilar tarkibiga qo'shiladi.

Eritromitsin — lakton halqasi tutgan makrolid antibiotikdir, uning tarkibida 14-a'zoli halqa mavjud va u 1952-yildan boshlab ishlatalib kelinayapti.

VITAMINLAR

Vitamin so'zi, «vita»-hayot va «amin» so'zidan kelib chiqqan-aminoguruuhlar tutgan moddalardir. Organizmning hayot faoliyati va moddalar almashinuvni jarayonida vitaminlar katta ahamiyatga ega. Ular 100 dan ortiq


ferment va kofermentlar tarkibida bo'ladi. Vitaminlar tirk organizmda sintez qilinmaydi, sintez qilinganda ham kam miqdorda hosil bo'ladi. O'simlik va go'sht mahsulotlari iste'mol qilinganda organizm kerakli vitaminlarni qabul qiladi. Organizmda vitaminlar etarli miqdorda iste'mol qilinmasa avitaminoz va gi povitaminoz holati vujudga kelib kasallik boshlanadi. Hozirgacha 20 dan ortiq tabiiy vitaminlar ma'lum, ularning ko'pgina sintetik analoglari ham olingan. Barcha vitaminlar ikki katta guruhga bo'linadi:

- yog'larda eriydigan vitaminlar (A, D, E va K guruhlar),
- suvda eriydigan vitaminlar (B, C va RR vitaminlar).

Bularning ichida «B» guruhidagi vitaminlar muhim hisoblanadi: vitamin B_1 (tiamin), vitamin B_2 (riboflavin), vitamin B_6 (piridoksin), vitamin B_{12} (kobalamin).

Vitamin B_1 (tiamin)

Vitamin B_1 ikki geterotsiklik birikimlardan tiazol va pirimidining hisoblanadi:




Vitamin B_1 xamirturush, turli boshoqli o'simliklar donida, sabzida, karamda, apelsinda, olmada, tuxumda, hayvon jigarida mavjud. Ovqatda B_1 vitamining bo'lmasligi organizmda uglevod almashinuvi buzilishi, asab sistemasi kasalligi (beri-beri)ga olib keladi.


Vitamin B_2 (riboflavin)

Bu vitamin quyidagi tuzilishga ega:

Vitamin B_2 ancha miqdorda xamirturush, hayvonlar jigarida, shpinatda, karam, tuxum va sutda bo'ladi. Vitamin B_2 ning oziq-ovqatda bo'lmasligi yoki kamligi yuz-teri kasalligi (dermatit), ko'z kasalligi (kon'yuktivit) va anemiya kasalligiga olib keladi.




Vitamin B₆ (piridoksin) B₁ va B₂ vitaminlar mavjud bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlariida ham B₆ vitamini bo'ladi. Oziq-ovqatda vitamin B₆ ning yetishmovchiligi asab sistemasining kasallanishiga olib keladi.



Vitamin A.(retinol)


Tuzilishiga ko'ra vitamin A polien spirlarga kiradi:



Vitamin A baliq moyi, tuxum sarig'i, sut va boshqa mahsulotlarda bo'ladı. U organizmga oziq-ovqat bilan tayyor holda yoki karotin ko'rinishida qabul qilinadi. Karotin ancha miqdorda sabzi, pomidor va o'simlik moylari tarkibida uchraydi. Oziq-ovqatda vitamin A ning kamligi odamning qorong'ida ko'rish qobiliyatini pasaytiradi.

Vitamin C (askorbin kislota)

C vitaminlarining eng muhimini askorbin kislotadir. U oq kristali modda bo'lib, kislotali ta'mga ega. Yangi ho'l meva va sabzavotlar tarkibida, ayniqsa, smorodina va na'matakda ko'p miqdorda uchraydi. Biologik sintez jarayonida qatnashib, asosan, RNK hosil bo'lishida ishtirot etadi. C vitamini yetishmaganda organizmda singa kasalligi, tishlarning tushib ketishi, mushaklarning og'rishi, qon yo'qotish avj olači. Sanoat miqyosida glukozadan olinadigan bu vitamin quyidagi tuzilishga ega:



FERMENTLAR

Fermentlar ya'ni, **enzimlar** har qanday tirik organizmdagi hayot faoliyatini ta'minlovchi kimyoiy jarayonlarni tezlashtiruvchi biologik

katalizatorlardir. Barcha fermentlar oqsil moddalar bo'lib, ular ikkiga bo'linadi: faqat oqsildar iborat fermentlar va oqsil bilan boshqa xil birikmalar turkumi tutgan murakkab moddalar – **kofermentlar**. Ferment tarkibdagi prostetik guruhlar proteidlar yoki boshqa quyi molekulyar organik birikmalar, ba'zida oqsil molekulasi bilan kompleks hosil qilgan vitaminlar kofermentlar vazifasini bajarishi mumkin. Fermentlar ayrim substratlarnigina o'zgarishini boshqarish xususiyat-larini namoyon qiladi. Fermentlar turli reaksiyalardagi katalizatorlik xossasiga ko'ra oltita katta sinflarga bo'linadi:

– **oksidoreduktazalar**, vodorod atomi yoki elektronlarni bir substratdan boshqasiga ko'chishi orqali boradigan oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining katalizatorlari;

– **transferazalar**, bir substratdan ikkinchisiga har xil guruhlarning (PO_4^{2-} , $-\text{CH}_3$, $-\text{NH}_2$ va boshqalar) ko'chish reaksiyasini tezlashtiruvchi katalizatorlar;

– **gidrolazalar**, substratlardagi peptid, amid, glikozid va murakkab efl kabi guruhlarning ichki molekulyar C=O va C=N bog'larini gidrolitik parchalash bilan boradigan reaksiya katalizatorlari;

– **liazalar**, substrat tarkibidagi har xil guruhlarning uogidrolitik parchalanishi va yangi C=C, C=O, C=S va C=N qo'shbog'lar hosil qilish yoki shu kabi qo'shbog'larning uzilishi hisobidan boradigan har xil guruhlarning o'zaro birikish reaksiyalarini katalizatorlari;

– **izomerazalar**, substratlardagi har xil izomerlanish reaksiyalarini tezlashtiruvchi birikmalar;

– **ligazalar**, yoki **sintetazalar**, adenozintrifosfat kislotasi yoki bosinqa nukleozid trifosfatlar kabi substrat tarkibidagi difosfat bog'larining uzilishi va yangi ikki molekulalarning hosil bo'lishi bilan boradigan reaksiyalarini tezlashtiruvchi katalizatorlar.

GORMONLAR

Odam va hayvonlarning ichki maxsus sekretsiya bezlaridan ajralib chiqib qon, limfalar va to'qima suyuqliklariga qo'shiladigan organik biofaol moddalarga **gormonlar** deyiladi. Gormon so'zi yunoncha *horman* – qo'zg'ataman, uygotaman degan ma'noni anglatadi. Inson va hayvonlar dunyosida gormonlar moddalar almashinushi, jinsiy rivojlanish va shu kabi boshqa muhim jarayonlarni boshqaradi.

Ichki sekretsiya bezlari haqidagi dastlabki tushuncha fransuz fiziologi Klod Bernar tomonidan kiritilgan. Ular endokrin bezlar ham deyiladi. Bularga giportalamusning gormon yaratuvchi nerv yadrolari, giopofiz yoki miya


o'sig'ining old bo'lagi, buyrak usti bezlari, qalqonsimon bez, jinsiy bezlar, oshqozon osti bezining alohida qismi, dukkanximon bez (epifiz) ham kiritilgan. Bundan tashqari, bir qator a'zolar va to'qimalarning ham gormonal funksiyasi ma'lum. Gormonlarning sekretsiyasi va ta'siri markaziy asab tizimi, vitaminlar faolligi bilan uzviy bog'langan.

Kimyoviy tarkibiga ko'ra gormonlar steroidlar (jinsiy va buyrak usti bezi po'stlog'i gormonlari), aminokislota va ularning hosilalari (buyrak usti bezi mag'iz qismi va qalqonsimon bez gormonlari) tirozin — L-2-amino-3-(4-gidroksifenil) propion kislotaning hosilalari va boshqa polipeptidlar.

Quyida biz bir necha gormonlarning tuzilishini keltiramiz:



Insulin — me'da osti bezining hujayralari ishlab chiqaradigan gormon. Uning oqsil tabiatи haqida aminokislotalar mavzusida gapirgan edik. Insulin aminokislotalar va glukozaning hujayraga o'tishi uchun membranalarning o'tkazuvchanligini, jigar va mushaklarda glikogen sintezini oshiradi. Uglevoddardan yog' hosil bo'lishini tezlashtiradi. Insulin adrenalin gormonining antagonistidir. Inson organizmida insulin yetishmovchiligi qandli diabet kasalligiga olib keladi.

Adrenalin va noradrenalin buyrak usti bezining mag'iz qismida aminokislotalardan hosil bo'ladı. Bu gormonlar qon tomirlarini qisqartirib, yurak urishini tezlashtiradi va qon bosimini ko'taradi. Adrenalin qon tarkibidagi qand miqdorini oshiradi.




R = H — noradrenalin,

R = CH₃ — adrenalin.



Tiroksin gormonini qalqonsimon bez ishlab chiqaradi. Uning tarkibida 70 % dan ortiq iod saqlanadi. Qalqonsimon bez faoliyatining buzilishi

organizmda asosiy modda almashinuvining o'zgarishiga olib keladi. Buning oqibatida bo'qoqlik va bazedov kasalligi paydo bo'ladi.



X = I – tiroksin, X = II – 3,3',5-triiodtironin

PESTITSIDLAR

Pestitsidlар haqida tushuncha

Inson dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan birinchi kunidan boshlab o'simlik va jonivorlarni har xil zararkunandalardan aksariyoti tug'ilgan. Bugungi kunda 75 000 dan ortiq hasharotlar mazonga zarar ko'rsatadi. Bu zararkunandalarga qarshi kurash chorasi sifatida kimyoviy usullarning qo'llanishi dunyoning deyarli barcha mammakatlarida keng tarqalgan. Jamiyatning rivojlanib borishi jarayonida insoniyat atrof-muhitga faoliyat bilan ta'sir etib biologik muvozanatni buzishga "erishdi". Barcha rivojlangan davlatlarda bunday ekologik buzilishlar daryo va ko'llarning, atmosfera va yer qatlaming ifsoslanishi bilan belgilanadi. O'z-o'zidan tushunarlik, bu jarayon faqatgina o'simliklarni himoya qilish vositalari ta'sirida ro'y beribgina qolmasdan, balki insoniyatning turli tabiat hodisalariga o'z "hissasini qo'shishi" oqibatida sodir bo'ldi.

O'simlik va tirik jonzotlarni kimyoviy himoya qilishni tashkil etish davomida biz bu muammolarni hech unutmasligimiz kerak. Tabiatga zarar etkazish ancha oson ish, ammo uni tuzatish juda qiyin va ko'p hollarda biz bunga erisha olmaymiz. Albatta, yuqoridagi xulosalardan keyin biz barcha himoya vositalaridan voz kechamiz deya olmaymiz, chunki bu qaror barcha yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 30 % ni yo'qotish bilan tengdir. Shuning uchun ham, kelajakda turli kimyoviy pestitsidlар оrniga zararkunandalarga qarshi biologik kurash usullarini qo'llash maqsadga muvoziq. Shuning uchun ham, pestitsidlар va ularni qo'llash shakllarini doimo yangilab turish lozim, chunki:

o'tkir zaharlash ta'siriga ega bo'limgan pestitsidlар yaratish zarur, ular qo'llanilganda kam zaharli va kam xavfli sanaladi,

inson va issiqliqlari hayvonlar uchun surunkali zaharli ta'siri nihoyatda kam pestitsidlар sintez qilish kerak,

- yaratilgan pestitsidlар entomofaglarga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak, yangi pestitsidlар yaratishda uning zararini, organizmlarning chida, nliliginи, ya'ni rezistentligini hisobga olish lozim.

Pestitsid so'zi lotin tilida *pestis*—zararli, ifloslik, yuqum va *sido* — o'ldiraman ma'nolaridan kelib chiqqan. Pestitsidlarni qo'llash bizning Vatanimizda 10% ni tashkil etadi. G'arbiy Yevropa davlatlarida bu ko'rsatkich 25%, AQSH da 26%, Yaponiyada 17% ni tashkil etadi. Yaponiya hududi jihatdan kichik davlat bo'lsa ham, pestitsid sarfi bizdan bir necha marta ortiq.

Vatanimizda o'simliklarni himoya qilish xizmatini O'zbekiston Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi qoshidagi O'simliklarni kimyoviy himoya qilish bosh boshqarmasi boshqaradi. Bu borada alohida Davlat komissiyasi ham mavjud. Bizda ishlatalishi ruxsat etilgan pestitsidlarning hammasi toksikologik-gigiyenik jihatdan o'rganiladi, so'ngra qo'llash uchun ruxsat beriladi.


Toksikologiya va zaharlanish haqida

"Zahar" — shartli tushuncha bo'lib, uning oz miqdori organizmga tushganda zaharlashi yoki o'limga olib kelishi mumkin. Toksikologiya zaharli moddalar va ularning tirik organizmga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganuvchi fandir. U tirik mavjudot bilan kimyoviy moddalar o'rtasida bo'ladigan o'zaro ta'sirni o'rganadi. Ayrim moddalar biron sharoitda bir organizm uchun zaharli va boshqa organizm uchun shifobaxsh bo'lishi ham mumkin. Qishloq xo'jaligida ishlataladigan pestitsidlarning ta'sirini agronomik toksikologiya o'rganadi. Zaharlarning toksiklik ta'sirini belgilaydigan asosiy omillardan biri dozadir. Dozani aniq belgilash uchun pestitsid massa birligining organizm massa birligiga nisbati sifatida ifodalanadi, ya'ni mg/g yoki g/kg. Dozalar letal, subletal va boshlang'ich (porog) dozalariga bo'linadi. Letal dozadagi pestitsid organizmga ta'sir etganda, zaharlab o'ldiradi. Subletal yoki zaharli dozada organizm kasallikka uchraydi, ammo bu zaharlanish o'lim bilan tugamaydi. Bo'sag'a doza ta'sirida organizmdagi izdan chiqqan fiziologik funksiyalar tezda tiklanadi. Turli pestitsidlarning har xil dozalari qiymatlarini bir-biriga solishtirib ko'rish bilan o'sha moddalarning qanchalik zaharli ekanligi aniqlanadi. Pestitsidlarning toksikligi, odatda, harflar bilan belgilanadi: O'D (o'ldiruvchi doza), LD (letal doza), O'K (o'ldiruvchi konsentratsiya), SD (samarali doza) va uning ko'rsatkichi indeks bilan beriladi. Masalan: O'D₅₀ — bu tajriba uchun olingan organizmlarning yarmini o'ldiradigan doza, O'K₂₀ — tajriba uchun olingan organizmning 20% ni o'ldira oladigan pestitsid konsentratsiyasi. Odatda, pestitsidlarning toksikligi tajriba yo'li bilan aniqlanadi va ma'lum vaqtдан keyin uning samaradorligi kontrol variantga nisbatan foizlarda hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida pestitsidlarning quyidagi sinflari keng qo'llaniladi:


1. Insektitsidlari

O'simliklarning zararli hasharotlari, parazitlar va kasalliklarni tarqatuvchi har xil hasharotlarga qarshi ishlatiladigan kimyoviy vositalarga **insektitsidlari** deyiladi. Bularga tedion, keltan, milbekslardan tashqari valekson, dilor, bromofos, karbofoslar ham misol bo'ladi. Insektitsidlari o'zining ta'sir qilish qobiliyatiga qarab ajratiladi. Zararkunanda hasharotlarning tashoi organlari, sirtiga tegishi bilan zaharli ta'sir etuvchi insektitsidlarga **kontaktli insektitsid** deyiladi. Ularni iste'mol qilish bilan hasharotga ta'sir etsa **me'da-'chak orqali ta'sir etuvchi insektitsidlarga** ajratiladi. O'simliklarning poyasi, ildizi yoki bargiga o'tib, ularni iste'mol qiladigan zararkunandalarni **o'idiruvchi insektitsidlari turkumiga sistemali insektitsid** deyiladi.

Sintetik kontaktli insektitsidlardan keng qo'llanilgani dastlab ajratib olingan poligalogenli hosilalardir. DDT (4,4'-dixlordifeniltrixloretan) va GXSG (geksaxlorsiklogeksan yoki geksaxloran) hisoblanadi.




Geksaxloran benzolni fotokimyoviy xlorlash usuli bilan olinadi. Olinigan GXTSG har xil konfiguratsion izomerlar hosil qiladi, ammo ulardan reaksiya davomida faqatgina 12% hosil bo'ladigan γ -izomeri faol xususiyatga ega. Geksaxloranning γ -izomerida 1,2,3 uglerod atomlari molekula tekisligiga nisbatan perpendikular joylashgan, 4,5,6 atomlar esa burchak hosil qilib bog'langan. Qolgan konformatsion izomerlar zaif toksikologik yoki toksikologik ta'siri bo'lmagan mahsulot sanaladi:



1948-yilda DDTni kashf qilgan olim P. Myuller Nobel muko'oti laureati bo'lgan. Insektitsidlarni qo'llashning salbiy tomoni shundaki, ma'lum muddat ichida preparat ta'siriga hasharotlar o'rGANIB qoladi va zaharlanmaydi (zararkunandalarning **rezistentligi**). Ko'pgina polixlorli hosilalar juda barqaror birikmalar, tabiiy muhitda juda sekin parchalanadi va tirik organizmlarda yig'ilib qolgani uchun ulardan voz kechish afzal bo'ldi.






Kontaktli insektitsidlari orasida moychechak gulidan ajratib olinadigan piretrum tabiiy insektitsidi hosilalari — piretrinlar eng muhim hisoblanadi,


chunki bu preparatlar 1830-yildan ishlatalmoqda, ammo hasharotlarning rezistentligi kuzatilmadi. Ularning yana bir qulay tomoni shundaki, inson va issiqqonli ionivorlarning organizmiga zaharli ta'sir etmaydi:



Fosfat, tio-, ditiofosfat kislotaning organik hosilalari muhim insektitsidlar sinfini tashkil etadi. Bular har xil zararkunanda hasharotlarning fermentlarini fosforillaydi va shu bilan ularning hayot faoliyatini buzadi. Ularning umumiyligi kamchiligi, issiqqonli organizmlarga salbiy ta'siridir. Fosfat kislota qoldig'i dagi kislorod atomlarining oltingugurtga almashtirilishi bu guruh insektitsidlarning issiqqonlilar uchun zaharlik darajasini pasaytiradi, ayni paytda insektitsidlik faoliyati o'zgarmaydi.


Sistemali insektitsidlar qo'llanishini qisman ularning yuqori toksik xossalari chegaralab turadi. Ulardan eng ko'p tio- va pirofosfat kislotalarining amid va efirlari ishlataliladi:






2. Gerbitsidlar


Begona o'simliklarga qarshi ishlataladigan preparatlarga **gerbitsidlari** deyiladi. Ular, asosan, ikki katta guruhga barcha o'simliklarni yo'qotadigan, tanlab ta'sir ko'rsatuvchi va natijada begona o't-o'tlanlarni quritadigan xillarga bo'lindi. Bugungi kunda gerbitsidlarni qo'llash rivojlanib bormoqda. Inson va issiqqonli hayvonlar uchun xavfsizligi bilan ustun, sarflanish me'yorlari kam bo'lgan yangi gerbitsidlarni yaratish dolzarb muammo sanaladi. Bugungi kunda qo'llaniladigan bunday gerbitsidlarning soni 100 dan ortiq bo'lisa ham, ularidan ariloksisirka-, ariloksi propion kislotalarining hosilalari tanlab ta'sir ko'rsatuvchi «eng qulay» va perspektiv preparatlardan hisoblanadi. Bulardan α -(2,4-dixlorfenoksi)-sirka (2,4-D), α -(2-metil-4-xlorfenoksi)-sirka (2M-4X), α -(2,4,5-trixlorfenoksi)-sirka (2,4,5-T) kislotalar kabi gerbitsidlarning formulalari quyidagicha bo'ladi:



2,4-D
($\text{LD}_{50}=300\text{mg/kg}$)




2-M4X
($\text{LD}_{50}=600\text{mg/kg}$)




2,4,5-T
($\text{LD}_{50}=500\text{mg/kg}$)


Quyida sirka kislota hosilalariga o'xshash propion kislota namunalarini keltiramiz:



2,4-DP
($\text{LD}_{50}=800\text{mg/kg}$)



2-M4XP
($\text{LD}_{50}=650\text{mg/kg}$)




2,4,5-TP
($\text{LD}_{50}=650\text{mg/kg}$)



Bu preparatlarning ko'pehiligi 0,01% miqdorda gerbitsid xossasini namoyon qilsa, past konsentratsiyalarda (0,001%) o'simliklarni o'stiruvchi modda sifatida ta'sir ko'rsatadi. Yuqori konsetrasiyalarda barcha o'simliklarni qurituvchi ta'sir etadi. Bu kislotalarga nisbatan ularning efirlari kuchli gerbitsidlik xossaga ega.

Triazin guruhi

1955-yilda 2-xlor-4,6-bis(dietilamino)-simm-triazin (xlorazin) gerbitsidi sintez qilindi va xossalari aniqlandi:



Xlorazin inson va issiqqonlilar uchun juda kichik toksik xossaga ega ekanligi isbotlangandan keyin ularning boshqa vakillarini sintez qilish chuqur o'rGANildi. Bu namunalar sabzi, karam, pomidor, bodring kabi madaniylashtirilgan poliz ekinlariga 18 kg/ga miqdorigacha zararsiz bo'lgani bilan, turli xil begona o'simliklarga kuchli gerbitsidlik xossalarini namoyon qildi. Bu xildagi preparatlar o'rGANilganda ular meta-bolizmining umumiy shakli galogen, alkoksi-, alkilaminoguruuhlarining gidrolitik parchalanishi va triazin halqalarining buzilishi bilan kuchli gerbitsidlik effekti beruvchi hosilalari sintez qilindi:





Bu gerbitsidlarning olinishi texnik jihatdan oson bo'lib, tannarxi ham arzon. Molekuladagi qoldiq galogen atomining boshqa funksional guruhlarga almashtirish ancha qiyin bo'lib, hozir 2-metiltio- va 2-metoksihosilalari keng ishlatalmoqda.


3. Fungitsidlar

Kasallik qo'zgatuvchi zambvurug' yoki bakteriyalar o'simlikka shamol, yogin-sochin, hasharotlar, ekinlarni parvarish qilayotganda inson orqali ham tarqaladi. Parazitlar o'simlik tanasiga ularda uchraydigan tabiiy teshikchalar (suv bug'latgich, nekterniklar, kartoshka tugunak ko'zchasi, po'stloq chechevitsasi) yoki o'simliklarning shikastlangan joylari orqali kiradi. Hatto epidermis orqali kiradigan zamburug'lar ham bor. Zamburug'larga qarshi ishlatiladigan gerbitsidlaiga (lotincha fungus – zamburug' degani) *fungitsidlar* deyiladi. Tajribada fungitsidlar o'simliklarni zamburug'lardan davolashga nisbatan ko'proq kasallikni oldini oluvchi profilaktik vosita sifatida qo'llaniladi. Ularning ko'pchiligi ko'proq yuqori toksik xossaliga ega simobuning anorganik hosilalari va ozchiligi simob organik moddalar hisoblanadi, ba'zida oltingugurt tutgan hosilalar va mis tuzlari ham shu maqpadda ishlatiladi.



Dastlab sintez qilingan tio- va difiokarbamin kislota hosilalari kuchli fungitsidlik xossasini ko'rsatdi:




Bu fungitsidlar issiqqonlilar uchun deyarli zararsiz bo'lsa ham, zam-burug'larga qarshi kuchli toksikologik xossalari namoyon qildilar. Ularning hosilalaridan tetrametildiuramdisulfid (TMTD) va rux dimetilditiokarbamat (tsiram)larining juda katta effektivlikka ega ekanligi aniqlandi.




Oxirgi yillarda izoksazol va benzimidazol kabi geterohalqali birikmalarning hosilalaridan tachigaren va fenatsizollar yuqori effektivlikka ega sistemali fungitsidlar sifatida juda keng qo'llanilmoqda:



2,4,5-T dan ishlab chiqariladigan qo'shimcha mahsulot 2,3,7,8-tetraxlorodibenzo-1,4-dioksin (TXDD) kuchli zaharli modda bo'lib, gerbitsid safatida ishlatilmogda:



Mochevina hosilalaridan linuran keyingi avlod gerbitsidi sanaladi:



Yuqorida keltirgan misollarimizdan tashqari, bir qator pestitsidlar zararli organizmlarga qarshi ishlatalishiga ko'ra qiyidagicha tavsiflanadi:

- 4. Akaritsidlar** (*acarus* – kana) – o'rgimchakkanalarga qarshi;
- 5. Ovitsidlar** (*ovum* – tuxum) – hasharot va kanalarning urug'lariga qarshi;
- 6. Larvitsidlar** (*larva* – lichinka, quru) – hasharot va kanalarning qurt (lichinka) lariga qarshi;
- 7. Afitsidlar** (*aphus* – o'simlik biti) – o'simlik bitlariga qarshi;
- 8. Limatsidlar** (*lima* – shilimshiq qurt) – shilimshiq qurtlarga qarshi;
- 9. Zootsidlar**, rodentitsidlar (*zoo* – hayvon) – kemiruvchi zararkunandalarga qarshi;
- 10. Algitsidlar** (*algus* – suv o'tlari) – suv o'tlariga qarshi;
- 11. Arboritsidlar** (*arbore* – daraxt) – keraksiz dov daraxt va butalarga qarshi;
- 12. Bakteritsidlar** (*bakteria* – bakteriya) – bakteriyalarga qarshi ishlataligan preparatlar.

Pestitsidlarni qo'llaganda zararli organizmlarga ta'sir qilish xossalari ko'ra quyidagicha ajratiladi:

1. Defolianlar


O'simliklarning bargini sun'iy to'kilishiga olib keladigan preparatlarga **defolianlar**, ularni ildizi bilan quritib nobud qiladigan kimyoviy moddalarga **desikanlar** deyiladi. G'o'za o'z vatani – issiq o'lkalarda pishib yetilgach, birdaniga bargini tashlaydi. Bu jarayon bizning tabiiy iqlim sharoitimizda anchagacha cho'zilib, paxta asta-sekin va uzoq muddatda pishib yetiladi. Defoliatsiya natijasida ko'saklarning oshilib, paxta yetishtirishdagi barcha fiziologik jarayonlar tezlashadi, tolaning sifati, urug'ning biologik va ekish ko'rsatkichlari buzilmaydi. Defolianlarni qo'llashda ular paxtaga yumshoq ta'sir etishi kerak, atrof-muhitga kuchli zarar va insonlarning salomatligiga putur yetkazmasligi lozim, bunda:

– g'o'za bargi barvaqt va butkul to'kiladi;


- ko'saklar e'ta yetiladi va oshiladi;
- birinchi nav paxta xomashyosi 4-5 % gacha ortadi;
- paxta xomashyosining 90 % qattiq sovuqlar tushgunga qadar yig'ib-terib olinadi.

Ilgarigi paxta monopoliyasi davrida qo'llanadigan zaharli kimyoviy preparatlarning ko'p miqdorda ishlatilishi Respublika aholisining sog'ligiga putur etkazdi, atrof-muhitning ifloslanishiga olib keldi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq olimlarimiz oldiga paxtachilikda qo'llanadigan defoliantlarning sifatini tubdan yaxshilash, zahri qotil preparatlarning ishlatilishiga chek qo'yish uchun chora-tadbirlar belgilash vazifasi yuklatildi. Natijada kaliy sianidi va magniy xlorati asosida olinadigan butifos kabi preparatining ishlatilishi to'xtatildi.

Basta — oq rangli, kristall modda bo'lib suvda yaxshi eriydi.



Dropp — suvda yomon eriydi, DMSO va DMFA larda yaxshi eriydi. Germaniyada ishlab chiqariladigan rangsiz kristall modda:



Hozirgi kunda dropp-ultra effektiv ta'siri jihatdan afzalroq bo'lGANI uchun ko'proq ishlatilmogda.

Magniy xlorati — $\text{Mg}(\text{ClO}_3)_2 \cdot 6 \text{ H}_2\text{O}$ rangsiz yoki sariq rangli kristall modda, suvda, spirtda va atsetonda yaxshi eriydi. Issiqliqlari hayvonlar uchun kam zaharli.

Kalsiy xlorat-xloridi $\text{Ca}(\text{ClO}_3)_2 + \text{CaCl}_2$, tiniq, kulrang suyuqlik bo'lib, suvli eritma holida preparat defoliant va desikant sifatida qo'llaniladi. Defoliant sifatida ishlatish uchun g'o'za dasasiga har butada 4 tagacha ko'rak ochilganda 20-30 l/ga va desikant sifatida ishlatish uchun g'o'za ko'saklarining 50 % ochilganidan keyin 40-50 l/ga miqdorida sepiladi. Inson va issiqliqlari hayvonlar uchun kam zaharlidir, sichqonlarga ta'siri bo'yicha ko'rsatkichi $\text{O}'\text{D}_{110}$ mg/kg.

Bugungi kunda bu preparatlarning respublikamiz iqlim sharoitiga mos emasligi va birmuncha past effektivligini hisobga olib olimlarimiz tomonidan 45 dan ortiq yangi defoliantlar sintez qilindi. Shulardan biri natriy xlorati va karbamid asosida "Sihat" nomi bilan Farg'ona "Azot" ishlab chiqarish birlashimasida olinayapti. Bundan tashqari, "Sihat-96K", "Hayot", "Morel", "Najot", "Sadaf", "Sardor" kabi kam zaharli va yuqori samarali defoliantlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Olingan barcha preparatlar Davlatkimyosinov va Davlat kimyo komissiyalari tomonidan samarali g'o'za defoliantlari sifatida qishloq xo'jaligida qo'llash uchun tavsiya qilindi.

2. **Attraktantlar** – o'zlarining ta'mi yoki hidi bilan tirik organizmlarni jalb etish qobiliyatiga ega bo'lgan pestitsidlar.

3. **Repellentlar** – ta'mi yoki hidi bilan tirik organizmlarni cho'chitish qobiliyatiga ega preparatlar.

4. **Xemosterilyantlar** – hasharotlarning jinsi organlarini sterillovchi kimyoviy moddalar.

5. **Feromonlar** – hasharotlar organizmida ishlab chiqariluvchi pestitsid guruhiha oid moddalar bo'lib, ular tashqi muhit sharoitida qarama-qarshi jinsni o'ziga jalb qiladi.

6. **Ingibitorlar** – hujayralar tomonidan ishlab chiqarilgan pestitsidlar guruhiha oid kimyoviy moddalar bo'lib, ular ta'sirida fermentlar faoliyati susayadi yoki tirik mavjudotning hayot faoliyati pasayadi.

7. **Antifidanlar** – hasharotlarning ishtahalarini susaytiruvchi pestitsidlar.

8. **Retardantlar** – pestitsidlar guruhi bo'lib, o'simliklarning o'sishini susaytiradi.

9. **Kimyoviy immunizatorlar** – o'simliklar organizmida moddalar almashinuviga jarayonini o'zgarishi hisobiga ular mahsuldarligining ortishi, shu bilan birga, ularda zararli organizmlar rivojlanishiga noqulay vaziyat tug'diradi.

Zararkunandalarga qarshi biologik usulda kurashish

Biologik usul kimyoviy moddalar ishlatishga nisbatan bir qator afzalliliklarga ega:

- iqtisodiy jihatdan arzon tushadi;
- tashkiliy tomonidan qo'llash oson kechadi;
- bevosita ta'siri jihatidan davomli;
- atrof-muhit ifloslanishining oldi olinadi;
- boshqa foydali hasharotlar zaharlanmaydi.


Zararkunanda hasharotlar bilan oziqlanadigan tabiiy kushandalarga **entomofaglar** deyiladi. Entomofaglar biologik fabrikalarda (laboratoriyalarda) ko'paytiriladi va tabiiy sharoitda qo'yib yuboriladi. Entomofaglarni introduksiya va akklimatizatsiyalash – chetdan olib kelib bizning sharoitimizga

moslashtirish kerak. Bu boradagi samarali ishlar hozirgi kunda O'zbekiston o'simliklarni himoya qilish ilmiy tadqiqot institutida, O'zR FA zoologiya va parazitologiya ilmiy-tadqiqot institutida, Toshkent davlat agrar universiteti kafedralari va laboratoriyalarda olib borilmoqda.


O'SIMLIKLARNING O'SISHINI BOSHQARUVCHI MODDALAR

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirishda bir qator organik moddalarni qo'llash ularning o'sishi va hosildorligiga ijobiy ta'sir etadi. Bu boradagi izlanishlar geteroauksin - 3-indolil kislota natrillyi tuzini qo'llash oqibatida boshlanib ketdi. Bugungi kunda organik moddalarning beshta sinfi indolikarbon kislotalar, kiminlar, absiz kislota, etilen va gibberellinlar keng miyosda ishlatiladi. Ular **fitogormonlar** umumiy nomi bilan ham ataladi.

Indolikarbon kislotalar hosilalari o'simliklarning vegetatsion rivojlanish davrida ildizpoya shakllanishini ta'minlovchi moddalar turkumiga kiradi:



Tabiiy birikmalar o'r ganilganda, o'simliklar tarkibida geteroauksin bilan birga adenin qatori to'yinmagan spirlari ham borligi aniqlandi. Keyinchalik **zeatin** nomini olgan bu birikma o'simlik hujayralarining rivojlanishida juda zarur modda ekanligi isbotlandi. Juda ko'p sintez qilingan moddalar ichida zeatin tuzilishini eslatuvchi 6-furfurilaminopurin (kinetin) yuqori o'stiruvchi xossaga ega ekanligi isbotlandi va ular har tomonlama sinovlardan o'tib muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda:




Indolikarbon kislotalari kininlar bilan birligida ishlatalganda juda yuqori samaradorlikka erishildi. Bunda nur-lanish ta'siri gerbitsidlarning ta'siri kabi tashiqi omillarning zararli tomonlari o'simliklarga ziyon yetkazmadidi.




“Fuzarium” zamburug‘laridan va ayrim o'simliklardan ajratib olingen gibberellin hosilalari terpenlar bilan tuzilishi jihatdan genetik o'xshash bo'lib, o'simliklarning unib chiqishi, o'sishi, gullashi va meva tugishi kabi bosqichlarini faollashtiradi. O'sinliklar o'sishini boshqaruvchi preparatlardan yana biri malein kislotasi gidrazididir, bu birikma defoliant sifatida ham qo'llaniladi:

Kampozan-M (etrel, etefon). Bu preparatning ta'sir qiluvchi moddasi – 2-xloretil fosfat kislotasi:



Bu oq rangli modda bo'lib, o'ziga namni yaxshi yutadi va suvda yaxshi eriydi. Germaniyaning “Bitterfeld” firmasi ishlab chiqaradigan preparat 60 % li suvli eritma holida ishlataladi. Kampozan-m inson va issiqqonli hayvonlar uchun kam zaharli, asalari va boshqa foydali hasharotlar uchun zararsiz, kalamushlar uchun $O'D_{50} = 3000$ mg/kg.

Piks (XDP, BAS-08300). Oq rangli kristall modda, suvda yaxshi eriydi, 5 % suvli eritmasi qo'llaniladi. Germaniyaning “Basf” firmasi tavsiya qilgan. Ta'sir qiluvchi moddasi N,N-dimetilpi peridin xlorid:



Preparatning 0,4-0,6 %li eritmasi g'o'za ko'saklarini yetilishini tezlashtirish uchun u gullay boshlaganda va yoppasiga gullaganda ikki marta purkaladi.

Bugungi kunda o'simliklar o'sishini boshqaruvchi preparatlardan unumli foydalanish uchun undan boshqacha xususiyatlar ham namoyon qilishi talabi qo'yilmoqda. Masalan, ekin yeriga o'stiruvchi preparat kinetin bilan ishllov berilganda begona o'tlarning o'sib chiqishini tezlashtiradi, unga begona o'tlarga

kam miqdordagi gerbitsidlar bilan ishlov berib, yo'qotiladi va madaniy o'simliklar rivoji uchun yaxshi sharoit yaratiladi. Bug'doy ekinlarini retardantlar bilan ishlov berilganda zararkunandalar yo'qolishi bilan birga bug'doy poyasi ham baquvvat bo'lib, boshoqlarning pishib etilish davrida hosilini ko'tarish qobiliyati keskin ortadi.

Tayanch iboralar

Alkaloidlar. Antibiotiklar. Penitallinlar. Levomitselin. Tetratsiklinlar. Uglevodli antibiotiklar (streptomitsin, neomitsin, eritmotsin). Vitaminlar. Vitaminlarning sinflanishi. Fermentlar. Enzimlar. Kofermentlar. Gormonlar. Steroidlar. Pestitsidlar. Toksikologiya va zaharlanish. uning dozalari. Insektitsidlar (kontaktli va sistemali insektitsidlar). Zararkunandalarining rezistentligi. Gerbitsidlar. Fungitsidlar. Akaritsidlar. Ovitsidlar. Larvitsidlar. Afitsidlar. Limatsidlar. Zootsidlar. Algitsidlar. Arboritsidlar. Bakteritsidlar. Defoliantlar. Desikantlar. Entomofaglar. O'simliklarning o'simchini beziqpituvlu moddalar.

Nazorat savollari

1. Qanday moddalarga alkaloidlar deyiladi?
2. Alkaloidlarning tabiiy manbalarini bilasizmi?
3. Vatanimiz kimyogarlaridan qaysi birlari alkaloidlarni o'rGANISH bo'yicha katta maktab yaratgan?
4. Alkaloidlar tarkibidan ajratib olingan dorivor moddalarga misollar keltiring.
5. Antibiotiklar tirik organizmda qanday vazifani bajarishini va ularning ahamiyatini gapirib bering.
6. Vitaminlar inson organizmida qanday yo'llar bilan to'planadi?
7. Oziq-ovqatlar tarkibida uchraydigan vitaminlarga misollar keltiring.
8. Vitaminlar qanday xususiyatlariga ko'ra sinflanadi?
9. Avitaminoz deganda nimani anglaysiz? Uning oqibatlarini aytib bering.
10. Tirik organizmdagi qaysi fermentlarni bilasiz, ular qanday funksiyani bajaradi?
11. Gormonlar inson organizmida qanday vazifani amalga oshiradi?
12. Gormonlar organizmda ishlab chiqariladimi yoki iste'mol qilinadimi?
13. Ichki sekretsiya bezlari va ularning vazifalarini aytib bering.
14. Bo'qoq kasalligi qaysi moddalarning etishmasligi oq ibatida kelib chiqadi?

15. Bazedov kasalligi va uning oqibatlari qanday paydo bo'ladi?
16. Pestitsidlarning ishlatilish sohalarini gapirib bering.
17. Pestitsidlarning sinflanishi ularning qaysi belgilariga ko'ra amalga oshiriladi?
18. Pestitsidlarning qo'llanishi jarayonida qanday ehtiyyot choralarini ko'rish kerak?
19. Insektitsidlar nima va ular qanday zararkunandalarga qarshi ishlatiladi?
20. Toksikologiya va zaharlanish dozalari nima ekanligini tushuntiring.
21. Gerbitsid va fungitsidlar qishloq xo'jaligida qanday zararkunandalarga qarshi qo'llaniladi?
22. Zararkunandalarning rezistentligi nimani anglatadi?
23. Defoliant va desikantlarning farqini ko'rsating.
24. O'simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalari bizning Respublikamizda etishtiriladimi?
25. Defoliantlarning qo'llanishi qaysi paytda va sharoitda yuqori samara beradi?
26. Zararkunandalarga qarshi kurashning biologik usullari katta afzallik-larga ega. Shu fikrni asoslab bering.
27. Entomofaglar deganda nimani tushunasiz?
28. O'simliklarning o'sishini boshqaruvchi vositalar nima uchun kerak?
29. Fitogormonlar umumiy nomi bilan yuritiladigan besh xil organik biofaol moddalarni nomini aytинг.
30. O'simliklar va hayvonot dunyosi kasalliklarini va uning oldini olish chora - tadbirlari borasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan qaysi tashkilotlardagi olimlarimiz shug'ullanadi?

Adabiyotlar

1. Грандберг И.И. Органическая химия.- Москва.- "Дрофа".- 2002
.- С. 569 – 588.
2. Pirmuxamedov I. Organik ximiya.- Toshkent.- "Meditrina".- 1987.- 333-338- betlar.
3. Kimsanboyev X.X. va boshqalar. O'simliklarni kimyoviy himoya qilish / prof. X.X. Kimsanboyev tahririri ostida.-Toshkent.- "O'qituvchi".- 1997.- 280 b.
4. Виворский В.Я. Вопросы, упражнения и задачи по органической химии с ответами и решениями.- М.: "Владос".- 1999.- С. 80-81.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Грандберг И.И. Органическая химия.- Москва.- "Дрофа".- 2002 .- 672 с.
2. Эппликвист Д., Де Пюи Ч., Райнхарт К. Л. Введение в органическую химию.- М: "Мир".- 1985.- 384 с.
3. Ульянова Г.М. Органическая химия. Методическое пособие.- Санкт-Петербург.- "Паритет".- 2003.- 192 с.
4. Химия. Справочник школьника.- Москва.- Изд-во "АПК".- 1995.- 480 с.
5. Овчинников Ю.А. Биоорганическая химия.- Москва.- "Просвещение".- 1987.-815 с.
6. Вивюрский В.Я. Вопросы, упражнения и задачи по органической химии с ответами и решениями.- М.: "Владос".- 1999.- 688 с.
7. Мориссон Р., Бойд Д. Органическая химия.- Москва.- "Мир".- 1974.- 1132 с.
8. Ладингтон Э., Дейль Г., Гамлешко И. Ключи к заданиям Тула Изд-во "Источник жизни".- 2003.- 192 с.
9. Iskandarov S.I., Abdusamatov A.A., Shoymardonov R.A. Organik kimyo.- Toshkent.- O'qituvchi.- 1979.- 616 b.
10. Pirmuxamedov I. Organik ximiya.- Toshkent.- "Meditana" - 1987 398 б.
11. Kimsanboyev X.X. va boshqalar. O'simliklarni kimyoviy himoya qilish / prof. X.X. Kimsanboyev tahririri ostida.- Toshkent.- "O'qituvchi".- 1997. 280 b.
12. Shoymardonov R.A. Organik kimyodan savol, masala va mashqlar.- Toshkent.- "O'qituvchi".- 1996.- 1996.- 28 - 51- betlar.
13. Shoymardonov R.A., Umarov B.B. Organik kimyo, I qism. - Buxoro.- BuxDU "Ziyo Rizograf"nashriyoti.- 2005.- 442 b.
14. To'raqulov Yo. X. Bioximiya.- Toshkent.- "O'zbekiston".- 1996.- 480 b.
15. Ершов Б.А. Спектроскопия в органической химии.- Санкт-Петербург.- Изд-во СП(б)ГУ.- 1995.- 263 с.
16. Миронов В.А., Янковский С.А. Спектроскопия в органической химии .- Москва.- "Химия".- 1985 .- 232 с.
17. Бейнон Дж. Масс-спектрометрия и ее применение в органической химии.- Москва.- "Мир".- 1964.- С. 241-353.

MUNDARIJA

SO'ZBOSHI	3
KIRISH	4
Organik birikmalarning tuzilish nazariyasi	6
Organik moddalarning xomashyo manbalari	9
Organik moddalarni ajratish, tozalash, va tuzilishini o'rganish usullari	10
Organik moddalarning fizik-kimyoviy tadqiqot usullari	14
UB spektroskopiya	19
IQ spektroskopiya	22
YAMR spektroskopiya	26
Mass — spektrometriya	33
IZOMERIYA	40
Organik moddalarning sinflanishi	45
Organik moddalardagi kimyoviy bog'lar	48
Kimyoviy bog'ning elektron nazariyasi	54
Organik reaksiyalarining turlari	62
Nazorat savollari	72
ATSIKLIK BIRIKMALAR	
ALKANLAR	74
Nomenklaturasi.....	75
Alkanlarning olinishi.....	77
Fizikaviy xossalari.....	80
Kimyoviy xossalari.....	81
Ayrim vakillari	85
Nazorat savollari	87
ALKENLAR	88
Alkenlarning olinishi	90
Fizikaviy xossalari	93
Kimyoviy xossalari	93
Nazorat savollari	102
ALKADIENLAR.....	103
Olinish usullari	103
Fizikaviy xossalari	105
Kimyoviy xossalari	105
Nazorat savollari	110

ALKINLAR	112
Olinish usullari	113
Fizikaviy xossalari	115
Kimyoviy xossalari	116
Nazorat savollari	121
SIKLOPARAFINLAR.....	122
Olinish usullari.....	124
Fizikaviy xossalari.....	126
Kimyoviy xossalari.....	126
TERPENLAR.....	130
ARENLAR.....	134
Olinish usullari.....	
Fizikaviy xossalari	
Kimyoviy xossalari	
Ko'p halqali aromatik birikmalar	
Naftalin va uning tuzilishi	
Antratsen guruhi.....	
Nazorat savollari.....	
GALOGENLI HOSILALAR	138
Monogalogenalkanlar.....	
Olinish usullari.....	
Fizikaviy xossalari.....	
Kimyoviy xossalari	
Di—, tri— va poligalogenalkanlar.....	
To'yinmagan galogenli hosilalar.....	
Aromatik uglevodorodlarning galogenli hosilalari.....	
Fizikaviy, kimyoviy xossalari	
Nazorat savollari.....	
KISLOROD TUTGAN ORGANIK BIRIKMALAR	142
Bir atomli to'yingan spirtlar	
Olinish usullari	
Fizikaviy xossalari	
Kimyoviy xossalari	
To'yinmagan spirtlar	
Ikki atomli spirtlar	
Uch atomli spirtlar	
Fenollar, olinish usullari	
Fizikaviy xossalari	

Kimyoviy xossalari.....	189
Ikki va uch atomli fenollar.....	191
Aromatik spirtlar.....	193
Oddiy efirlar.....	194
Nazorat savollari.....	198
OKSOBIRIKMALAR (ALDEGID VA KETONLAR).....	201
Alifatik aldegid va ketonlar.....	201
Olinish usullari.....	202
Fizikaviy xossalari.....	205
Kimyoviy xossalari	206
Muhim vakillari.....	213
To'yinmagan aldegid va ketonlar.....	214
Ketenlar.....	215
Aromatik aldegid va ketonlar.....	216
Dikarbonil birikmalar.....	219
Nazorat savollari.....	222
KARBON KISLOTALAR.....	222
Olinish usullari.....	225
Fizikaviy xossalari.....	228
Kimyoviy xossalari.....	228
To'yinmagan bir asosli karbon kislotalar.....	234
Aromatik karbon kislotalar.....	237
Muhim vakillari.....	241
Nazorat savollari.....	242
KARBON KISLOTA HOSILALARI.....	244
Murakkab efirlar.....	244
Galogenangidridlar.....	245
Kislotा angidridlari.....	247
Kislotা amidlari. Mochevina.....	250
LIPIDLAR.....	252
Yog'lar va moylar.....	255
Sovun va sintetik yuvuvchi vositalar.....	256
Mumlar.....	259
Murakkab lipidlar.....	260
Nazorat savollari.....	262
GIDROKSI - VA OKSOKISLOTALAR	264
Alifatik oksikislotalar	264

Olinish usullari.....	265
Fizikaviy, kamyoviy xossalari.....	267
Oksikislotalarning optik faolligi.....	269
Muhimi vakillari.....	272
ALDEGIDO- VA KETOKISLOTALAR	273
Atsetosirka eliri.....	275
Atsetosirka eliri asosida sintezlari.....	276
Nazorat savollari.....	277
AZOT TUTGAN ORGANIK BIRIKMALAR.....	280
Alifatik nitrobirimalar.....	280
Fizikaviy, kamyoviy xossalari	281
Aromatik nitrobirimalar.....	281
Fizikaviy, kamyoviy xossalari.....	281
Alifatik aminlar	281
Olinish usullari.....	281
Fizikaviy xossalari.....	281
Kimyoviy xossalari	281
Aminospirtlar.....	281
Aromatik aminlar.....	281
Olinish usullari.....	281
Fizikaviy, kamyoviy xossalari.....	281
Aromatik diazo — va azobirimalar.....	291
Fizikaviy, kamyoviy xossalari.....	291
Azobo'yoqlar	299
Nazorat savollari.....	301
AMINOKISLOTALAR VA OQSILLAR.....	302
Aminokislotalari	302
Olinish usullari.....	305
Fizikaviy, kamyoviy xossalari.....	306
Peptid vaphi peptidlari.....	314
Oqsillar.....	315
Tabiiy va sun'iy oziq mahsulotlari.....	319
Nazorat savollari.....	321
UGLEVODLAR.....	322
Uglevodlarning sintezi.....	323
Monosaxaridlar.....	323
Izomeriya va konfiguratsiya.....	324
Olinish usullari.....	328

Fizikaviy, kimyoviy xossalari.....	329
Monozalarning muhim vakillari.....	334
Oligo— va disaxaridlar.....	337
Polisaxaridlar.....	341
Nazorat savollari.....	346
GETEROHALQALI BIRIKMALAR.....	348
Besh a'zoli geterohalqali birikmalar.....	348
Ikki geteroatom tutgan besh a'zoli geterohalqalar.....	353
Olti a'zoli geterohalqali birikmalar.....	355
Kimyoviy xossalari.....	356
Pirimidin va purin hosilalari.....	360
Nuklein kislotalar.....	362
Nazorat savollari.....	369
ORGANIK BIOFAOL VA O'STIRUVCHI MODDALAR.....	370
Alkaloidlar.....	370
Antibiotiklar.....	372
Vitaminlar.....	374
Fermentlar.....	376
Gormonlar.....	377
Pestitsidlar.....	379
Zararkunandalarga qarshi biologik usulda kurashish	388
O'simliklarning o'sishini boshqaruvchi moddalar.....	389
Nazorat savollari.....	391
Foydalanilgan adabiyotlar.....	393

B. B. UMAROV

ORGANIK KIMYO

o'quv qo'llanma

Muharrir *Sh.Xudoyberdiyeva*

Musahhih *H.Teshaboyev*

Texnik muharrir *M.Alimov*

Kompyuterda sahifalovchi *D.Abdusattorov*

Bosishga ruxsat etildi 05.07.2007. Qog'oz bichimi 60x84½.

Hisob-nashr tabog'i 25. Adadi 500.

Buyurtma № 233.

ISOID-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.

084, Toshkent, H.Asomov ko'chasi, 7-uy.

Hisob-shartnoma 46-2007.

, tezkor bosmahonasida»MCHJda chop etildi.
Toshkent sh., Radial tor ko'chasi, 10-uy

ISBN 978-9943-13-033-3

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-13-033-3.

9 789943 130333